

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ALIBEKOV U.

ETNOLOGIYA

ASOSLARI

fanidan o'quv-uslubiy majmua

GULISTON - 2016

Alibekov U. "Jahon etnologiyasi asoslari" fanidan o'quv-uslubiy majmua. - Guliston. 2016.- _____bet.

V 5220200 - tarix bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan 1 kurs (2 semestr) talabalari uchun mo'ljallangan. Unda fan bo'yicha muammoli ma'ruzalar to'plami, seminar va amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari, mustaqil ish topshiriqlari, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati jamlangan. Muammoli ma'ruza matnida zamonaviy pedtexnologiya tizimiga suyangan holda dars maqsadi va identiv o'quv maqsadlari, mavzu bo'yicha ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan muammolar, muhokama uchun savollar keltirilgan. Ma'ruzalar to'plamida jahon xalqlari etnologiyasiga doir ma'lumotlar keltirilgan, Osiyo, Afrika, Amerika, Evropa qit'asida istiqomat qiluvchi xalqlarning etnografiyasi etnologik adabiyotlar, INTERNET ma'lumotlari asosida bayon qilingan. Har bir mavzu oxirida o'z echimini kutayotgan ilmiy muammolar keltirilgan. Seminar mashg'ulotlari ishlanmasida ishni bajarish tartibi, mustaqil topshiriqlarda talaba mustaqil ravishda o'rganishi lozim bo'lgan masalalar keltirilgan. Majmua 2 modulga ajratilgan.

O'quv-uslubiy majmua Guliston Davlat Universiteti O'quv-metodik kengashi tomonidan (2005 yil "23" dekabrda 2-sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

Alibekov U. Uchebno-metodicheskoe posobie po kursu "Osnovo' etnologii mira". - Gulistan. 2011.

Etot predmet prednaznachen dlya studentov 1 kursa (2 semestr) bakalavrata fakulteta istorii. V nem sobrano' lektsii, temo' seminarov i prakticheskix zanyatiy, zadachi po samostoyatelno'm rabotam i rekomenduemaya nauchnaya literatura. V sobranii lektsiy osnovo'vayas na sovremenno'e pedagogicheskie texnologii predstavleno' tseli uroka, identivno'e tseli obucheniya, problemno'e voproso' po teme i kontrolno'e voproso'. Uchebno-metodicheskoe sobranie rekomendovan na izdanie Uchebno-metodicheskim Sovetom Gulistanskogo Goudarstvennogo Universiteta.

This subject is intended for student 1 course (2 semesters) bachelority faculty to histories. In him is collected to lectures, subject seminar and practical occupation, problems on independent work and recommended scientific literature. In meeting lecture founding on modern pedagogical technologies are presented purposes of the lesson, identivno'e to purposes of the education, problem-solving questions on subject and checking questions. Scholastic-methodical meeting is recommended on publishing Scholastic-methodical Advice Gulistan State University.

Tuzuvchi: Alibekov U., O'zbekiston tarixi kafedrasining o'qituvchisi

Mas'ul muharrir: Erbo'tayeva O'.S., GulDU dotsenti, t.f.n

A.Ashurov, O'zR FA Tarix instituti ilmiy xodimi

Texnik muharrir: Mamatov Sh. M.

MUNDARIJA

1. Kirish.....
2. Fanning hajmi va mazmuni.....
3. Fanning reyting ishlanmasi va baholash mezonini.....
4. Multimediya vositalari va taqdimotlar ro'yxati.....
5. Fanni o'qitish uchun ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning kontseptual asoslari.....
6. Ma'ruzalar kursi.....
7. Seminar mashg'ulotlari.....
8. Talabalar mustaqil ishlari.....
9. Fan bo'yicha nazorat savollari.....
10. Glossariy.....

I.KIRISH

Fanning maqsadi va vazifalari: Kursning maqsadi talaalarga etnologiya fani, uning maktablari, tadqiqot uslublari haqida tushuncha berish, Avstraliya va Okeaniya, Osiyo, Afrika, Amerika, Evropa xalqlarining antropologik va etnolingvistik tasniflanishi, ularning etnik tarkibi, an'anaviy xo'jaliklari, ijtimoiy tuzumi, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodlari haqida batafsil ma'lumotlar berish, O'zbekistonda etnologiya fani rivoji haqida bilim berish, ularni xalqlarni etnologik tavsiflash uchun zarur ko'nikma va malakalarga o'rgatish, etnologik dala – o'quv amaliyotiga tayyorlashdan iborat.

Talabalarga dunyo qit'alari, mamlakatlar, ularning tabiati va aholisi, xalqlarning irqiy va lingvistik tuzilishi, etnik shakllanishi, moddiy va ma'naviy madaniyati, etnologik xususiyatlari yuzasidan bilimlar berish maqsadida, quyidagi vazifalarni ko'zda tutadi:

- etnologiya fanining predmeti, etnologiya maktablari va tadqiqot usullari haqida tushuncha berish;
- Avstraliya va Okeaniya xalqlarining etnik shakllanishi, geografik-lingvistik-xo'jalik-madaniy klassifikatsiyalash, moddiy-ma'naviy, ijtimoiy an'analarini tahlil qilish;
- Osiyo xalqlarining etnografiyasi, etnogenezi, an'anaviy xo'jaliklari, oila va nikoh munosabatlari, diniy e'tiqodlari bilan tanishtirish;
- Afrika xalqlarini etnologik, antropologik va etnolingvistik jihatdan tavsiflab berish, ularning turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi haqida ma'lumot keltirish;
- Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerikadagi mamlakatlar, ularning aholisi, xalqlarning irqiy va etnolingvistik tiplari, an'anaviy xo'jaliklari, moddiy va ma'naviy madaniyatini ochib berish;
- G'arbiy va Sharqiy Evropa xalqlarining o'ziga xos etnologik xususiyatlari, irqiy va etnolingvistik tiplari, moddiy va ma'naviy madaniyatini tushuntirish;
- O'zbekistonda etnologiya fani rivoji va istiqbollari haqida ma'lumot keltirish;
- Talabalarni tarixiy mushohada, tahlil qilishga o'rgatish, milliy istiqloq g'oyasi asosida, barkamollikka yetaklovchi tarixiy va etnologik bilimlarni singdirish;
- Talabalarga Internetda mustaqil ishlab, kerakli ma'lumotlarni tanlab olish ko'nikma va malakalarini hosil qildirish.

IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI fani jahon tarixi, arxeologiya, san'atshunoslik, o'lkashunoslik, geografiya, adabiyot, madaniyat tarixi kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

II. FANNING MAZMUNI
Ma'ruza mavzulari, mazmuni va vaqti

№	Mavzular	Ko'riladigan masalalar	vaqt, soat
1	Milliy mafkura haqida. Etnologiya ga kirish.	Milliy mafkura haqida. Milliy istiqlol g'oyasi va etnologiya fani. Etnologiya fani predmeti. Fanning nomi. Etnologiyaning tadqiqot ob'ekti. «Ibtidoiy jamiyat», «ibtidoiy madaniyat», «ibtidoiy xalq» haqidagi qarashlar. Etnologiyaning zamonaviy muammolari. Etnologiya ta'rifi. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari. Etnologiyaning mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida shakllanishi. «Etnologiya» iborasining fanga kiritilishi. «Etnologiya» va «etnografiya» tushunchalari. Fandagi maxsus atamalar. Etnos, millat, etnik birlik, etnik jarayon, qabila, qabila ittifoqi, xalq, elat, etnografik guruh (subetnos), etnik guruh. Etniklik. Primordializm, konstruktivizm. Etnogenez va etnik tarix. Etnik jarayonlar va uning turlari. Etnik evolyutsiya, transformatsiya etnoslarning birlashuvi hamda ajralib chiqishi, aralashuvi.	2
2	Etnologiya fani maktablari	Evropa etnologik maktablarining shakllanishi. Frantsiyada Parij etnograflar jamiyatining tuzilishi. Germaniyadagi «Folkerkunde» ilmiy maktabi. Ingliz etnologiya maktabi. Dj.Frezer, Ed.Taylor. AQShda etnologiyaning taraqqiyoti. L.G.Morgan, F.Baos. Rossiya etnologiya maktabining shakllanishi. N.N. Mikluxo Maklay. Etnologiyada oqimlar va maktablar. Etnologiyaning evolyutsion yo'nalishi. Evolyutsion maktabning yirik namoyondalari. Evolyutsionizmning asosiy g'oyalari. Diffuzionizm maktabi va uning mashhur vakillari: Rattsel, Grebner va boshqalar. Sotsiologiya maktabi va funksionalizm. Dyurkgeym, R.Malinovskiy, A.R.Radklif-Braun va boshqalar. Etnopsixologiya maktabi. Etnologiyada yangi kontseptsiyalar. Zamonaviy etnologiyaning asosiy tadqiqot ob'ektlari.	2
3	Duyo xalqlarining klassifikasiyasi	Er sharining etnik tarixi. Dunyo aholisining geografik klassifikatsiyasi. Aholini tiliga qarab klassifikatsiyalash. Xo'jalik yuritish an'analari ko'ra tasniflash. Etnologiyaga oid manbalar va fanning tadqiqot uslublari: yozma manbalarni o'rganish, xalq og'zaki ijodini o'rganish, arxeologik materiallardan foydalanish, taqqoslovchi tilshunoslik metodi, dala tadqiqotlarini o'tkazish. Manbalarning turlari. Ashyoviy manbalar. Yozma manbalar. Og'zaki ma'lumotlar. Ommaviy manbalar (aholi ro'yxati, turli savol-javob varaqalari ma'lumotlari). Etnologik tadqiqotlar. An'anaviy dala ekspeditsiyalari. Savol-javob varaqalari orqali etnosotsiologik tadqiqotlar o'tkazish. EHM-larda qayta ishlash va ularga talqin berish.	2
4	Avstraliya va Okeaniya xalqlari	Avstraliya va Okeaniya aholisining etnogenezi va etnik tarixi asosiy bosqichlari. Avstraliya va Tasmaniyaliklarning kelib chiqishi. Aholining an'anaviy xo'jaligi, kiyimlari, hayot tarzlari. Oila va oilaviy munosabatlar: nikoh, initsiatsiya, qarindoshlik	2

		<p>munosabatlari. Avstraliyaliklarning diniy tasavvurlari va marosimlari. Evropaliklarning Avstraliya va Okeaniyaga kirishi. Yangi Gvineya papuaslari. Lingvistik va antropologik xususiyatlari. Melaneziya xalqlari. Xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyatlaridagi o'ziga xosliklar. Oilaviy va nikoh munosabatlari. Melaneziyaliklarning diniy tasavvurlari, dafn marosimlari. Polineziyaliklarning shakllanishi-ga oid g'oyalar. V.Gumboldt, Te Rangi Xiroalar g'oyasi. Tur Xeyerdalning polineziyaliklarni Amerika aholisi bilan aloqador ekanligi haqidagi g'oyasi. Polineziya xalqlarining moddiy madaniyati: uy-joylar, kiyim va zeb-ziynatlar, taomlar va b. Polineziyaliklarning ijtimoiy tuzumi, diniy tasavvurlari va ma'naviy madaniyati.</p> <p>Mikroneziya xalqlari etnologiyasi. Marian orollari aholisi. Karolin, Marshall, Gilbert orollari aholisi. An'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy tuzumlari. An'anaviy diniy tasavvurlari va marosimlari.</p>	
5	Markaziy Osiyo xalqlari.	<p>Markaziy Osiyo atamasi. O'rta Osiyo va Qozog'iston. Markaziy Osiyo hududi, aholisi, tabiati. Mahalliy aholining til turkumlari. O'rta Osiyo va Qozog'iston tub aholisining antropologik tasnifi. Markaziy Osiyoda hozirgi kunda istiqomat qilayotgan xalqlar. O'zbeklar va qozoqlar etnologiyasi. Tojiklar, turkmanlar va qirg'izlar. Qoraqalpoqlar. Mayda millatlar. Markaziy Osiyo mahalliy xalqlarining an'anaviy xo'jaliklari, turmush tarzi, uy-joylari, kiyimlari, moddiy va ma'naviy madaniyati. O'zbekistonning hozirgi aholisi. O'zbeklar etnogenezida qatnashgan etnik komponentlar. O'zbek milliy mentaliteti. An'anaviy xalq madaniyati. O'zbeklarda xo'jalik madaniy tiplari. Turli etnik guruhlarning asosiy xo'jalik turlari. Dehqonchilik. Ko'chmanchi chorvadorlar xo'jaligi. Chorvachilik bilan bog'liq marosimlar, udumlar, sehrgarlik usullari. Dehqonchilik va sug'orish bilan bog'liq udum va e'tiqodlar. O'zbeklarning uy-joylari va ro'zg'or buyumlari. O'zbeklarning kiyim-kechaklari. Taqinchoqlar va bezaklar. O'zbek taomlari. To'y, nikoh marosimlari. Oila va nikoh munosabatlari. Qarindoshlik munosabatlari. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi bayramlari. O'zbeklarning zamonaviy bayramlari. Xalq o'yinlari va musobaqalari.</p> <p>O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi diniy tasavvurlari va ularning bugungi kunda ifodalanishi. Totemizm, animizm, fetishizm, afsungarlik. Zardushtiylik. O'zbeklarning urf-odatlar va irimlari. Diniy marosimlar.</p>	2
6	Janubiy va Old Osiyo xalqlari	<p>Janubiy Osiyoning tabiiy-geografik tavsifi. Janubiy Osiyo mamlakatlarining aholisi. Janubiy osiyoliklarning antropologik va etnolingvistik qiyofasi. Hindiston xalqlarining etnik tuzilishi. Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka, Bangladesh, Nepal aholisining xo'jaligi, moddiy madaniyati, oila va nikoh munosabatlari. Janubiy Osiyo xalqlarining diniy e'tiqodlari, ma'naviy madaniyati va madaniy hayoti. Kiyimlari va taomlari. G'arbiy yoki Old Osiyodagi mamlakatlar, ulardagi aholi soni. G'arbiy Osiyoning tabiiy-geografik tavsifi. G'arbiy Osiyo xalqlarining antropologik jihatdan tavsifi. G'arbiy Osiyo xalqlarining etnolingvistik qiyofasi. Eron va Afg'oniston</p>	2

		xalqlari, ularning etnik qiyofasi, xo'jaligi, dini, turmush tarzi. Arab mamlakatlaridagi xalqlar, ularning etnik tuzilishi, xo'jaligi. Turkiya aholisining etnik tarkibi. G'arbiy Osiyo xalqlarining moddiy madaniyati, kiyimlari va taomlari. G'arbiy Osiyo xalqlarining ijtimoiy tuzumi, oilaviy va nikoh munosabatlari. G'arbiy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati.	
7	Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari	Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar va ulardagi aholi. Xitoy, Mo'g'uliston, Yaponiya, Koreya, Singapur va boshqalar. Tinch okean havzasi mamlakatlari – Indoneziya, Malayziya va boshqalar. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining til turkumlari, etnik tarkibi, etnoslarning shakllanish jarayoni. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining xo'jalik faoliyati, moddiy madaniyati, kiyimlari va taomlari. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining ijtimoiy tuzumi, oila va nikoh munosabatlari. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati va diniy e'tiqodlari.	2
8	Shimoliy Osiyo (Sibir) xalqlari	Sibir chegaralari, tabiati. Sibirda istiqomat qiluvchi mahalliy tub aholi. Sibir aholisining til oilalari va turkumlari. Oltoy-Sayan xalqlarining xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati. Sibirdagi paleoosiyo xalqlarining turmush tarzi. Tundra va Chukotka ko'chmanchilarining turmush tarzi, xo'jaligi. Sibir xalqlarining ijtimoiy turmushi va diniy e'tiqodlari. Sibir xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati.	2
9	Afrika xalqlari	Afrika haqida umumiy ma'lumot. Afrikaning tabiati va aholisi. Afrika aholisining antropologik tiplari. Afrika aholisining til oilalari. Shimoliy Afrika xalqlari. Arab Afrikasi. Misr, Sudan va Katta Mag'rib aholisi. Barbar va arab qabilalari. Misrliklar. Shimoliy Afrika xalqlarining xo'jaligi, ijtimoiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyati. Fallohlar. Din, oila va nikoh munosabatlari. G'arbiy va Markaziy Afrikaning tabiati, etnik tuzilishi. G'arbiy va Markaziy Afrika aholisining antropologik va lingvistik guruhlari. Xo'jalik faoliyati, madaniyati va dinlari. Til oilalari. G'arbiy Afrika etnoslari. Markaziy Afrikaning bantu xalqlari. G'arbiy va Markaziy Afrika xalqlarining uy-joylari, kiyimlari, diniy e'tiqodlari, san'ati. Sharqiy va Janubiy Afrika etnoslari. Sharqiy Afrikadagi efio, negroid, pigmey va bushmen irqiy tiplari. Bantu va boshqa xalqlar. Janubiy Afrika bushmenlari va gottentotlar. Efiopiya aholisi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati. Somali, Keniya, Mozambik va boshqa mamlakatlar aholisi, an'anaviy xo'jaligi, madaniyati, diniy tasavvurlari. Madagaskar tabiati, aholisi. Malagasiylar (malgashlar) ning 18 ta etnik guruhlari. Madagaskar orolidagi boshqa millat va elatlar. Madagaskarliklarning xo'jaligi. Malgashlarning tili, moddiy va ma'naviy madaniyati, urf-odatlari. An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi, diniy e'tiqodlari.	2
10	Amerika xalqlari	Amerika qit'asi haqida umumiy ma'lumot. Amerika tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi. Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerika mamlakatlari. Amerika aholisi. Indeyslarning kelib chiqishi haqidagi gipotezalar. Tub amerikaliklarning ajdodlari. Indeyslarning til oilalari va til guruhlari tasnifi. Amerikada	2

		<p>motiga dehqonchiligi qabilalari. Amerika qit'asiga Evropaliklarning kirib kelishi. Negr qullarning keltirilishi. Shimoliy Amerikadagi eng qadimiy paleoindeys madaniy an'analari. Markaziy dasht zonasidagi yirik qush ovchilari madaniyati. Shimoliy-g'arbiy Tinch okeani ovchi, terib-termachlovchi Kordilyer madaniyati. Missisipi madaniyati. Kochiz, mogolon, xoxokam va anasazi indeys madaniyatining lokal tiplari. «Rivojlangan pueblo» va «Buyuk pueblo» madaniyatlari. Shimoliy Amerikadagi xo'jalik-madaniy tiplar. Arktika ovchilari va baliqchilari. Eskimoslarning turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, moddiy va ma'naviy madaniyati. Aleutlar. Shimoliy-g'arbiy sohil indeys qabilalari. O'rmon ovchi, baliqchi va terib-termachlovchi qabilalarining turmush tarzi. Algonkin va atapasklarda din, oila va nikoh munosabatlari. Kaliforniya indeyslari. Preriya ovchi qabilalari.</p> <p>Markaziy va Janubiy Amerika davlatlari. Lotin Amerikasining hududi, etnogeografik jihatdan ajratilishi. Lotin Amerikasi aholisining etnik qiyofasi. Meksikaning tub aholisi: atsteklar, tolteklar, sapoteklar. Atsteklarning xo'jaligi, moddiy madaniyati, turmush tarzi. Tropik o'rmon zonasidagi indeys qabilalari. Sharqiy va Janubiy Braziliya indeyslarining turmush tarzi. Pampa indeyslari va Olovli erliklarning an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi va dinlari.</p> <p>Mayya davlati. Uning xo'jaligi va boshqaruv tizimi. Mayya indeyslarining moddiy va ma'naviy madaniyati. Inklar davlati. Inklarning moddiy va ma'naviy madaniyati. Diniy urf-odat va marosimlari. Araukanlar. Chibcha-muisklar davlati. Muisklarning xo'jaligi, oila munosabatlari. Chibcha-muisklarning diniy urf-odatlari. Amerikaning hozirgi etnik qiyofasi. AQSh aholisi. Kanada, Braziliya, Meksika va Argentina aholisi. Boliviya, Venesuela, Peru, Kolumbiya va Chili aholisi. Ekvador, Paragvay, Urugvay, Kuba aholisi. Bugungi kunga kelib saqlangan indeyslar avlodlari. Hozirgi Amerika aholisining til jihatidan bo'linishi. Amerika aholisining irqiy jihatdan bo'linishi. Kreollar, mulatlar, metislar, sambolar. «Oq tanlilar» va «qora tanlilar».</p>	
11	Evropa xalqlari	<p>Evropa qit'asi, uning hududi, tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi. Evropa qit'asining etnografik nuqtai nazardan to'rt guruhga bo'linishi. Shimoliy, G'arbiy, Sharqiy va Janubiy Evropa. Evropa xalqlarining til oilalari. Evropa xalqlarining etnik kelib chiqishi va xalq bo'lib shakllanishi jarayonlari. Evropa aholisining irqiy tiplari. Evropaning qadimgi va o'rta asrlar, yangi davr va hozirgi zamondagi xo'jalik hayoti. An'anaviy sanoat tarmoqlari. Evropaning qishloq xo'jaligi. Dengizchilik. Evropa xalqlarining maishiy turmush tarzi. Uy-joy qurilishi. Evropaliklarning milliy kiyim-kechaklari va taomlari. Evropa xalqlarining ijtimoiy va oilaviy munosabatlari. Monogam oila. Patriarxal oilalar (Fis, bratstvo, klan, zadruga va b.). Nikoh munosabatlari. Qadimgi diniy e'tiqodlar. Xristian dinining tarqalishi. Pravoslaviye, katolitsizm va protestantizm. Islom. Evropa xalqlarining madaniyati va san'ati. Rossiyaning hududi, ma'muriy bo'linishi, aholisi tarkibi. Rossiya xalqlarining</p>	2

		etnolingvistik jihatdan tasnifi. Slavyan va noslavyan xalqlar. Kavkaz xalqlarining milliy tarkibi va til oilalari. Gruzinlarning etnik guruhlari. Ozarbayjonlarning kelib chiqishi va millat sifatida shakllanishi. Arman xalqining etnogenezi. Dog'iston xalqlari. Kavkaz xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodlari va maishiy turmushi.	
12	O'zbekistonda etnologiya fani rivojlanishi va istiqbollari	O'zbekiston hududidagi dastlabki etnografik tadqiqotlar. O'zbekistonda etnologiya fanining rivojlanish bosqichlari. Qadimgi va o'rta asrlar yozma manbalarida etnologik ma'lumotlar. Chorizm va sho'rolar mustamlakachiligi davrida etnografiyaning rivojlanishi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda etnologiya fanining rivojlanishi. K.Shoniyozov, I.Jabborov, A.Asqarov, O.Bo'riyev, X.Ismoilov, Q.Nasriddinov, X.Toshev, Z.Orifxonova, A.Ashirov, S.Tursunov, A.Doniyorov va boshqalar. O'zbekistonda etnologik tadqiqotlarning bugungi holati, asosiy yutuqlari, muammolari va istiqbollari.	2
	JAMI		24

2.2. Seminar mashg'ulotlar mavzulari va vaqti

№	Mavzular	Ko'riladigan masalalar	Vaqt, soat
1	Etnologiyaning fan sifatida shakllanishi va maxsus atamalari	1. Etnologiyaning fan sifatida shakllanishi 2. Etnologiyaning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni. 3. Etnologiya predmeti va zamonaviy muammolari 4. Etnologik atamalar talqini	2
2	Etnologiya fani maktablari	1. Frantsiya, Germaniya, Angliyada etnologik maktablarning vujudga kelishi. 2. AQSh va Rossiyada etnologiya maktablarining shakllanishi. 3. Evolyutsionizm va diffuzionizm 4. Sotsiologiya maktabi va funksionalizm 5. Etnopsixologiya maktabi 6. Etnologiyada yangi kontseptsiyalar	2
3	Dunyo xalqlarining klassifikatsiyasi	1. Dunyo aholisining geografik klassifikatsiyasi 2. Aholini tilga qarab klassifikatsiyasi 3. Dunyo xalqlarini xo'jalik yuritish an'analariga ko'ra tasniflash	2
4	Etnologiya fani tadqiqot uslublari	1. Etnologiya fanining tadqiqot uslublari 2. Yozma manbalarni o'rganish uslubi 3. Xalq og'zaki ijodini o'rganish usuli 4. Arxeologik materiallardan foydalanish yo'llari 5. Taqqoslovchi tilshunoslik metodi. 6. Dala tadqiqotlarini o'tkazish	2
5	Avstraliya va Tasmaniya xalqlari	1. Avstraliya va Tasmaniyaning geografik o'rni va tabiati 2. Avstraliya va Tasmaniya aholisining lingvistik va antropologik tasnifi 3. Avstraliya va Tasmaniya aholisining etnik tarixi 4. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining an'anaviy	2

		xo'jaliklari, turmush tarzlari 5. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining oilaviy va nikoh munosabatlari, diniy tasavvurlari, marosimlari	
6	Okeaniya xalqlari. Papuaslar, Polineziya va Melaneziya xalqlari	1. Okeaniyaliklarning kelib chiqishi haqida g'oyalar 2. Papuaslarning va Melaneziya xalqlarining an'anaviy xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati 3. Polineziyaliklarning an'anaviy xo'jaliklari, qayiqchilik, dengizchilik 4. Polineziyaliklarda oila va qishloq jamoasi, diniy tasavvurlari va ma'naviy madaniyati.	2
7	Hindiston xalqlari	1. Hindiston xalqlarining etnik tarkibi 2. Hindistonda din, oila va nikoh munosabatlari 3. Hindiston bayramlari	2
8	Old Osiyo xalqlari	1. Old Osiyo xalqlarining antropologik va etnolingvistik tasnifi. 2. Turkiya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Suriya va Yaman, Birlashgan Arab Amirliklari xalqlarining turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi va ma'naviy madaniyati 3. Isroil, Iordaniya, Livan, Quvayt, Kipr va boshqa mamlakatlar xalqlarining etnolingvistik qiyofasi va diniy e'tiqodlari 4. Eron xalqlarining xo'jaligi, turmush tarzi, diniy e'tiqodlari, oila va nikoh munosabatlari	2
9	Markaziy Osiyo xalqlari	1-mashg'ulot 1. Qozoq xalqining etnogenezi, xo'jaligi, ijtimoiy turmushi, oila va nikoh munosabatlari 2. Qirg'izlarning etnogenezi, an'anaviy xo'jaliklari, moddiy va ma'naviy madaniyati 3. Turkmanlarning turmush tarzi, an'anaviy xo'jaligi, oila va nikoh munosabatlari 2-mashg'ulot 1. Vohada yashovchi tojiklarning turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati, kiyimlari va taomlari 2. Pomir xalqlari	4
10	Sibir xalqlari	1. G'arbiy Sibir xalqlari: tatarlar, xanti-mansilar, nenetslar, selkuplar 2. Shimoliy va Shimoli-sharqiy Sibir xalqlari: yoqutlar, dolganlar, buryatlar, evenklar, itelmenlar, koryaklar, yukagirlar va b. 3. Oltoy-Sayan xalqlari: 4. O'rta Enisey, Quyi Amur va Ussuriy o'lkasi, Saxalin, Kamchatka va Chukotka xalqlari: ketlar, nanaylar, udegeylar, chukchalar, eskimoslar, aleutlar va boshqalar.	2
11	Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari	1-mashg'ulot 1. Xitoyliklarning etnolingvistik qiyofasi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodlari 2. Mo'g'ulistondagi qabilalar, ularning xo'jaligi,	4

		<p>moddiy va ma'naviy madaniyati</p> <p>3. Yapon xalqining etnogenezi, xo'jalik faoliyati, kiyimlari va taomlari, oila va nikoh munosabatlari, dini</p> <p>2-mashg'ulot</p> <p>1. Koreyslar etnogenezi, an'anaviy xo'jaligi va ijtimoiy tuzumi, diniy tasavvurlari</p> <p>2. Hindixitoy yarim oroli va Malayya arxipelagi orollaridagi mamlakatlar va elatlar tavsifi</p> <p>3. Pokiston, Bangladesh, Shri Lanka, Nepal, Butan, Maldiv Respublikasi, Andaman va Nikobar orollari aholisining turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati</p>	
12	Shimoliy, G'arbiy va Markaziy Afrika xalqlari	<p>1. Shimoliy Afrikadagi mamlakatlari tabiiy-geografik sharoitlari, aholisining etnolingvistik tarkibi</p> <p>2. Shimoliy Afrika xalqlarining an'anaviy xo'jaliklari, ijtimoiy tuzumi, oila va nikoh munosabatlari</p> <p>3. G'arbiy Afrika mamlakatlari aholisi, ularning etnolingvistik va irqiy tarkibi, xo'jaligi, turmush tarzi</p> <p>4. Markaziy Afrika xalqlarining an'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va diniy e'tiqodlari</p>	2
13	Sharqiy va Janubiy Afrika xalqlari	<p>1. Sharqiy Afrika xalqlarining etnik tacnifi, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy tasavvurlari</p> <p>2. Janubiy Afrika xalqlarining etnogenezi, ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi</p> <p>3. Madagaskar malgashlarining kelib chiqishi, an'anaviy turmush tarzi va xo'jaligi</p>	2
14	Shimoliy Amerika xalqlari.	<p>1-mashg'ulot</p> <p>1. Amerika xalqlari: tub aholi va kelgindi xalqlar, ularning etnolingvistik va irqiy tasnifi.</p> <p>2. Kanada aholisining etnologik tavsifi</p> <p>3. Shimoliy - g'arbiy sohil ovchi va baliqchi indeys qabilalari</p> <p>2-mashg'ulot</p> <p>1. O'rmon ovchilarining turmush tarsi, moddiy madaniyati va diniy tasavvurlari</p> <p>2. Arktika xalqlari. Aleut va eskimoslarning etnik kelib chiqishi, an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi.</p> <p>3. Aleut va eskimoslarning moddiy madaniyati, diniy tasavvurlari</p>	4
15	Janubiy Amerika va Lotin Amerikasining etnik qiyofasi va etnologik tasnifi	<p>1. Janubiy Amerika xalqlarining etnolingvistik tasnifi, ularning ijtimoiy tuzumi, moddiy va ma'naviy madaniyati</p> <p>2. Lotin Amerikasining etnik qiyofasi</p> <p>3. Lotin Amerikasi xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati, oila munosabatlari va diniy tasavvurlari</p>	2
16	Tropik o'rmon indeys qabilalari	<p>1. Tropik o'rmon indeys qabilalarining etnik tarixi</p> <p>2. Tropik o'rmon indeys qabilalarining turmush tarsi, xo'jaligi va moddiy madaniyati</p>	2

17	Evropa xalqlarining etnik tasnifi, ijtimoiy turmushi	<p>1-mashg'ulot</p> <p>1. G'arbiy Evropa mamlakatlari, tabiiy geografiyasi, aholisi</p> <p>2. G'arbiy Evropa xalqlarining etnolingvistik va irqiy tasnifi</p> <p>3. G'arbiy Evropa xalqlarining dini, urf-odat va marosimlari</p> <p>4. G'arbiy Evropa xalqlarining ijtimoiy turmushi, oila va nikoh munosabatlari</p> <p>2-mashg'ulot</p> <p>1. Sharqiy Evropa mamlakatlari, tabiiy geografiyasi, aholisi</p> <p>2. Sharqiy Evropa xalqlarining etnolingvistik va irqiy tasnifi</p> <p>3. Sharqiy Evropa xalqlarining dini, urf-odat va marosimlari</p> <p>4. Sharqiy Evropa xalqlarining ijtimoiy turmushi, oila va nikoh munosabatlari</p>	4
18	Evropa xalqlarining xo'jalik hayoti va moddiy madaniyati	<p>1-mashg'ulot</p> <p>1. Evropa xalqlarining xo'jalik hayoti, dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, dengizchilik</p> <p>2. Evropa xalqlarining sanoat tarmoqlari va hunarmandchilik sohalari bo'yicha ixtisoslashuvi</p> <p>2-mashg'ulot</p> <p>1. Evropa xalqlarining uy-joy qurilishi</p> <p>2. Evropa xalqlarining moddiy madaniyati</p>	4
19	O'zbekistonda etnologiya fanining rivojlanish bosqichlari	<p>1. Qadimgi va o'rta asr yozma manbalarida etnografik ma'lumotlarning mavjudligi.</p> <p>2. XIX asr oxirida O'rta Osiyo, jumladan o'zbek xalqi etnografiyasining o'rganilishi.</p> <p>3. XX asr boshlarida mahalliy va rus olimlarining etnografik izlanishlari.</p> <p>4. O'zR FA Tarix va arxeologiya instituti tarkibida Etnografiya bo'lining tashkil etilishi va faoliyati.</p> <p>5. XX asr ikkinchi yarmida o'zbek xalqi etnologiyasining o'rganilishi.</p> <p>6. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda etnologiyaning rivojlanishi va istiqbollari.</p>	2
	JAMI		48 s

2.3. Mustaqil ish topshiriqlari

№	Topshiriq mavzulari	Soat
1	Etnologiya faniga oid maxsus atamalar	6
2	Etnologiya maktablari va yo`nalishlari	6
3	Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining xo`jaligi va moddiy madaniyati	6
4	G`arbiy Osiyo xalqlarining xo`jaligi	6
5	O`rta Osiyo va Qozog`iston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi Moddiy va ma'naviy madaniyati	6
6	Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlarining xo`jaligi va moddiy madaniyati	6
7	Markaziy va Sharqiy Osiyo xalqlarining antropologik va lingvistik klassi-fikatsiyalari. Xo`jaligi va mod-diy madaniyati.	6

8	Shimoliy Afrika xalqlarining moddiy madaniyati	6
9	Shimoliy Amerika eskimos va aleut qabilalarining madaniyati. Kapnadla xalqining shakllanishi	6
10	G`arbiy Evropadagi zamonaviy etnik jarayonlar	6
JAMI:		60

III. FANNING REYTING ISHLANMASI VA BAHOLASH MEZONI

3.1. «ETNOLOGIYA ASOSLARI» fani bo'yicha reyting ishlanma

Jami ajratilgan vaqt - 132 soat,

Shundan: ma'ruza – 24 soat, seminar – 48 soat, TMI - 60 soat

№	Nazorat turlari	Mashg'ulot ko'rinishi	Soni	Jami yig'iladigan ball
1-tur	Joriy baholash	1. Seminar	12 x 1	12 ball
		2. Kollokvium	1 x 2	2 ball
		3. TMI	2 x 4	8 ball
2-tur	Joriy baholash	1. Seminar	12 x 1	12 ball
		2. Referat	1 x 8	8 ball
		3. TMI	2 x 4	8 ball
	JAMI JB			50 ball
1-tur	Oraliq baholash	1. Nazorat ishi (yoki Og'zaki so'rov)	1 x 10	10 ball
2-tur	Oraliq baholash	1. Test	1 x 10	10 ball
	JAMI OB			20 ball
	Yakuniy baholash	Yozma nazorat ishi (Yoki Test)	1 x 30 (5 ta savol x 6 ball) (30 ta test x 1 ball)	30 ball
	JAMI			100 ball

Baholash mezoniga talablar

J.B.	O.B.	Ya.B.	Talabning bilim darajasiga qo'yiladigan talablar
%	%	%	
86-100	86-100	86-100	xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.
71-85	71-85	71-85	mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.
55-70	55-70	55-70	mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.
0-54	0-54	53	aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; bilmaslik.

«Etnologiya asoslari» kursidan baholash mezonini

Tarix yo'nalishi 1 kurs 2 semestr

1.JB

1. Seminar mashg'ulotlarida to'liq qatnashib, mustaqil mushohada yurota olganida, savollarni har tomonlama asoslangan holda, maxsus adabiyotlar asosida yoritib berganda, har bir seminar mashg'ulotida berilgan javob yoki uning daftardagi natijasi 1 ball dan

baholanadi. Agarda faqat mazmunini qisqacha yoritib bera olsa, shaxsiy fikr bildirmasa – 0 ball bilan baholanadi.

2. 1 tur JB da o'tkaziladigan Kollokviumda mavzu va qo'shimcha adabiyot bo'yicha to'g'ri mushohada yuritib, mustaqil fikr bildirilsa 2 ball, qisqa va aytm jihatlari noto'g'ri bo'lsa 1 ball, umuman fikr bildirmasa yoki umuman noto'g'ri bo'lsa 0 ball bilan baholanadi

3. Uyga vazifa tariqasida berilgan TMI topshirigi to'liq bajarilsa, har bir topshiriq bajarilishi va himoya qilinishi 1 ball bilan baholanadi. Jami 4 ta TMI, har birida 4-ta topshiriq bajariladi. Barcha topshiriqlar natijalari yaxlitlab olinib, 1ta TMI jami 4 ball to'planishi mumkin.

4. 2 tur JB da berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlanadi:

- referat mavzusi ilmiy adabiyotlar asosida, ijodiy yondashib, rejadagi savollar to'liq yoritilsa, xulosa chiqarilgan bo'lsa - 7-8 ball;
- mavzuning mohiyati reja asosida qisqacha ochib berilsa – 4-6 ball;
- mavzu qisman yoritilgan, kamchiliklari bo'lsa – 1-3 ball beriladi.

2. OB

1. Nazorat ishi (yoki Og'zaki so'rov) (1 tur) da o'tilgan mavzular yuzasidan o'tkaziladi. Variantda 5 ta savol bo'lib, har bir berilgan javob mazmuniga qarab, 1 - 2 ballgacha baholanadi. Jami 10 ballgacha to'planishi mumkin.

2. Test OB ning 2 turida o'tkazilib, 1 variantda 25 ta test bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 0,4 ball qo'yiladi.

3.YaB

1. Agar YaB yozma ish ko'rinishida o'tkazilsa, har bir variantda 5 ta savol bo'lib, har bir javob 6 ballgacha baholanadi. (Nizomga muvofiq baholash mezoni asosida)

- har bir savol mohiyati to'la ochilgan, ijodiy yondashilgan bo'lsa – 5-6 ball;
- savolning mohiyati ochilgan, faktlar to'g'ri bayon qilinsa, lekin shaxsiy fikr bildirilmasa – 3-4 ball;
- qisman, kamchiliklar bilan javob berilsa – 1-2 ball qo'yiladi

Agar YaB test ko'rinishida o'tkazilib, 1 variantda 30 test, har bir to'g'ri javob uchun 1 ball qo'yiladi.

- To'plangan ballar yaxlitlab olinadi.

IV. MULTIMEDIA VOSITALARI VA TAQDIMOTLAR RO'YXATI: ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q – Toshkent, 1998.
2. Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari – T.:Yangi asr avlodi, 2005, 314 b.
3. Etnologiya. Ashirov A. T.: Iqtisod-Moliya, 2008
4. Jabborov I. M. Jahon xalqlari etnografiyasi. T.: O'qituvchi, 1990.
5. Jabborov I.M. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – T.:O'qituvchi, 2003. 206 b.
6. Jabborov I. M. O'zbek xalqi etnografiyasi. - T.:O'qituvchi», 1994.
7. Ashirov A. Atadjonov Sh. Etnologiya- Toshkent, 2007.
8. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent, 2007.
9. Alibekov U. "Jahon xalqlari etnologiyasi" fanidan o'quv-uslubiy majmua. Guliston, 2008.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Milliy mafkura haqida. T.:O'zbekiston, 2000.
2. Averkieva Yu.P. Indeytso' Severnoy Ameriki. M.1974.
3. Asoyan B. Vsyoy ehyo udivitel'naya Afrika. – M.:Mo'sl, 1987

4. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari. G'G' O'zbekiston tarixi. 2002. №4. 54-60 b.
5. Baltiyskiy etnograficheskiy sbornik. – Trudo' Instituta etnografii. Novaya seriya.T.32.- M., 1956
6. Bromley Yu.V. Sovremenno'e problemo' etnografii.- M., 1981
7. Bromley Yu.V. Ocherki teorii etnosa. – M., 1983
8. Bromley Yu., Podolno'y R. Chelovechestvo – eto narodo'. – M.:Mo'sl, 1990
9. Bruk S.I. Naselenie miha.- M., 1981
10. Butinov N.A. Papuaso' Novoy Gvinei. – M.:Nauka, 1968
11. Bo'riev O. Navro'z tarixidan lavhalar – T., 1990
12. Bo'riev O., Xo'jamberdiev T. Etnologik atamalarning qisqacha izohli lug'ati - Qarshi, 2004
13. Vostochnoslavyanskiy etnograficheskiy sbornik.– Trudo' Instituta etnografii. T.32.- M., 1956.
14. Vvedenie v etnografiyu. M.:Izd-vo Mosk.un-ta, 1991.
15. Doniyorov A. Mustaqil O'zbekiston etnografiyasi tarixshunosligining ayrim masalalari – T., 2003
16. Jabborov I. Jahon dinlari tarixi. – T.:O'zbekiston, 2002
17. Jukovskaya N.L. Sudba kochevoy kulturo'. – M.:Nauka, 1990
18. Istoriya i kultura udegeytsev – L., 1989
19. Its R.F. Vvedenie v etnografiyu. M.:Izd. Mosk.un-ta, 1991. 170 s
20. Kratkiy etnologicheskiy slovar – M.:Sotsialno'y monitoring, 1995
21. Kovalevskiy M.M. Zakon i obo'chay na Kavkaze.- M., 1980
22. Kultura i bo't narodov Severnogo Kavkaza. – M., 1968
23. Kultura i bo't narodov Zarubejnoj Evropo'. Etnograficheskie issledovaniya. – M., 1967
24. Levi-Stross K. Strukturnaya antropologiya. M.1983.
25. Lure S.V. Istoricheskaya etnologiya. M., 1998
26. Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar – T., 2005
27. Stingl Miloslav. Tainstvennaya Polineziya.- M.:Nauka, 1991
28. Morgan L. Drevnee obhestvo. – L., 1935
29. Morgan L.G. Liga xodenasauini ili irokezov M.1983.
30. Narodo' Afriki. Pod.red.E.G. Lvovoy M. 1986.
31. Narodo' Avstralii i Okeanii. - -M., 1956
32. Narodo' mira. M.:Sovetskaya entsiklopediya, 1988
33. Narodo' Mira. Seriya. M. 1954- 1966.
34. Narodo' Sredney Azii i Kazaxstana. Pod.red. S.P. Tolstova. M.1962-1963.
35. Niderle L. Slavyanskiye drevnosti. – M., 1956
36. Osnovo' etnografii. Pod red. S.A.Tokareva.- M., 1968
37. Ocherki obhey etnografii.- M., 1957
38. Pandey R.B. Drevneindiyskie domashnie obryado'. - M.:Vo'sshaya shkola, 1990
39. Rouz F. Aborigeno' Avstralii. – M.:Nauka, 1981
40. Rus Alberto. Narod mayya. – M.:Mo'sl, 1986.
41. Russkie. Istoriko-etnograficheskiy atlas.- M., 1967
42. Sadoxin A.P. Etnologiya. – M., 2001
43. Salimov T.U. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.- T.,2003. 112 b.
44. Severoamerikanskiye indeytso'. Sbornik statey.- M., 1978
45. Sredneaziatskiy etnograficheskiy sbornik. M., 1959
46. Taylor E.B. Pervobo'tnaya kultura. – M., 1989
47. Tataro' Srednego Povoljya i Priuralya.- M., 1967
48. Tipo' selskogo jiliha v stranax Zarubejnoj Evropo'. – M., 1970
49. Tokarev S.A. Osnovo' etnografii. M. 1986.
50. Frezer D. Zolotaya vetv M. 1989.

51. Cheboksarov N.N. Cheboksarova N.A. Narodo' raso', kulturo'. M.1984.
52. Shonieзов K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni – T., 2001
53. Etnologiya. Uchebnik. Pod.red.G.E.Markova i V.V.Pimenova M.1994.
54. Etnografiya Uchebnik. Pod.red.Yu.V. Bromleya i G.E.Markova M.1982
55. Etnologiya. Uchebnik. Pod.red.G.E.Markova i V.V.Pimanova M.1994.
56. Etnograficheskoe izuchenie znakovo'x sredstv kulturo'. – L.:Nauka, 1989
57. Etnogenez i etnicheskaya istoriya narodov Severa – M., 1975
58. Etnicheskie protsessy v stranax Zarubejnoj Evropo'. - M., 1970
59. O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy-metodologik yondashuvlar – T., 2004
60. O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix. Respublika ilmiy-nazariy seminari materiallari – T., 2004
61. Hasanboeva G.K., Chursina V.A. Kostyum tarixi. – T.:O'zbekiston, 2002.

Internet saytlari ro'yhati:

1. www.Ziyonet.uz
2. www.GulDU.uz
3. <http://G'G'Guldu.zn.uz>
4. www.krugoswet.ru
5. www.narod.ru
6. www.travel.ru
7. www.ferghana.ru
8. www.wikipedia.ru
9. www.vokrugsveta.ru
10. www.google.uz

V. FANNI O'QITISH UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI

Bilim olish jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar: darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo'naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi. Ta'lim samaradorligini orttirishda fanlar bo'yicha ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning kontseptsiyasi aniq belgilanish va unga amal qilishi ijobiy natija beradi. Fanni o'qitishning maqsadi va ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy kontseptual yondashuvlar quyidagilardan iborat.

FANNING MAQSADI: Fanning maqsadi talaalarga etnologiya fani, uning maktablari, tadqiqot uslublari haqida tushuncha berish, Avstraliya va Okeaniya, Osiyo, Afrika, Amerika, Evropa xalqlarining antropologik va etnolingvistik tasniflanishi, ularning etnik tarkibi, an'anaviy xo'jaliklari, ijtimoiy tuzumi, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodlari haqida batafsil ma'lumotlar berish, O'zbekistonda etnologiya fani rivoji haqida bilim berish, ularni xalqlarni etnologik tavsiflash uchun zarur ko'nikma va malakalarga o'rgatish, etnologik dala – o'quv amaliyotiga tayyorlashdan iborat.

FANNI O'QITISH VAZIFALARI. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish tavsiya etiladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. O'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishga e'tibor qaratishni amalga oshiradi. Har bir talabaning shaxs sifatida kasbiy takomillashuvini ta'minlaydi. Ta'limning markaziga bilim oluvchi qo'yiladi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi bilim olish va kasb egallashning mukammal bo'lishiga hissa qo'shadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini jadallashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida barcha qobiliyat va imkoniyatlarni, tashabbuskorlikni ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Egallangan bilimlarning ko'nikma va malakaga aylanishi, amaliyotda tatbiq etilishiga sharoit yaratadi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi. O'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi ta'limiy faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratlilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Ta'lim jarayonida "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari tarkib topadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni ta'minlaydi. Muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlar yaratish va ularga echim topish jarayonida ongli, ijodiy, mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiya vasitalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qitish metodlari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, viziualash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar, loyiha va amaliy ishlash usullari. Interfaol usullarni mavzu mazmuniga mos holda tanlash va ulardan samarali foydalanishga o'rgatadi.

O'qitish vasitalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (darslik, ma'ruza matni, ko'rgazmali qurollar, xarita va boshqalar) bilan bir qatorda – axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari keng ko'lamda tatbiq etiladi.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ ikki yoqlama (teskari) aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlarning yo'lga qo'yilishi.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, joriy, oraliq va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish ta'minlanadi.

Boshqarish usullari va tartibi: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati ham tartibli yo'lga qo'yiladi.

Monitoring va baholash: butun kurs davomida ham o'qitish natijalari reyting tizimi asosida nazorat va tahlil qilib boriladi. Kurs oxirida yozma, og'zaki yoki test topshiriqlari yordamida ta'lim oluvchilarning bilimlari baholanadi.

VI. MA'RUZALAR KURSI

1-mavzu: Milliy mafkura haqida. Etnologiyaga kirish.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Milliy mafkura haqida. Etnologiyaga kirish.”

mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi</p> <p>1.1. Dars maqsadi: Milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi va etnologiya fani, uning predmeti, tadqiqot ob'ekti haqida ma'lumot berish.</p> <p>1.2. Identiv maqsadlar:</p> <p>1.1. Milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi va etnologiya fani haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.2. «Ibtidoiy jamiyat», «ibtidoiy madaniyat», «ibtidoiy xalq» haqidagi qarashlarga sharx beradi.</p> <p>1.3. Etnologiyaning zamonaviy muammolariga sharx beradi.</p> <p>1.4. Etniklik, primordializm, konstruktivizm, etnogenez va etnik tarixga sharh beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: Milliy mafkura, etnologiya, ibtidoiy jamiyat, ibtidoiy madaniyat, ibtidoiy xalq, etnografiya, etnos, millat, transformatsiya, etniklik, primordializm, konstruktivizm, etnogenez, etnik tarix, etnik jarayonlar, etnik evolyutsiya, etnik birlik, etnik jarayon, qabila, qabila ittifoqi, xalq, elat, etnografik guruh (subetnos), etnik guruh.</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi-talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash:</p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Milliy mafkura va etnologiyaning bog'liqligi nimada aks etadi? 2. Etnologiyaning asosiy atamaları va tushunchalariga sharx bering. 3. Etnogenez va etnik tarix nima? 	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Etnologiya faniga oid maxsus atamalar 	O'qituvchi 10 min.

Asosiy savollar:

1. Milliy g'oya va etnologiya fani.
2. Etnologiyaning fan tarzida shakillinishi.

3. Etnologiya predmeti.
4. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari
5. Etnologiyaning zamonaviy muammolari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Milliy mafkura, etnologiya, ibtidoiy jamiyat, ibtidoiy madaniyat, ibtidoiy xalq, etnografiya, etnos, millat, transformatsiya, etniklik, primordializm, konstruktivizm, etnogenez, etnik tarix, etnik jarayonlar, etnik evolyutsiya, etnik birlik, etnik jarayon, qabila, qabila ittifoqi, xalq, elat, etnografik guruh (subetnos), etnik guruh.

1-asosiy savol: Milliy g'oya va etnologiya fani.

1-savol yuzasidan dars maqsadi

Etnologiya fani predmetini yoritish, o'rganish axamiyatini ochib berish, milliy mafkuraning fanni o'rganishdagi ahamiyatini tushuntirish.

1-savolning bayoni:

Har bir xalqning o'z tarixi va madaniyati bor. Har bir xalq va hatto kichik etnoslar xam jahon madaniyati xazinasiga oz bo'lsada o'z xissasini qo'shadi. O'rta Osiyo axolisi, jumladan o'zbek xalki ham qadimiy boy madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biridir. U jaxon madaniyati xazinasiga ulkan xissa qo'shgan xalqlar qatorida. Ushbu xududda ilm-fan, san'at va adabiyot yuksalib buyuk allomalar etishib chiqqan.

Jamiyatdagi, ijtimoiy turmushdagi qarama-qarshilik shu jamiyat a'zolarining fikr va qarashlarida, orzu-intilishlarida aks ettiradi. Har bir tabaqa o'z mafkurasini ximoya qilish uchun ijtimoiy ongning turli shakllaridan foydalanadi va o'z mafkurasini yaratadi. Bu mafkura milliy g'oyalar bilan sug'orilgan bo'lib, madaniyatning moxiyati va xususiyatlarini belgilaydi. Shunday ekan, O'zbekiston yoshlari, ziyolilaridan tortib oddiy fuqaroning ongidan milliy mafkuraning asosini yaratish va milliy g'oyani shakllantirishda muxim omillarni ishlab chiqish butungi kunimizning asosiy talabi bo'lib qolmoqda. Negaki, xar bir fuqaro ma'lum bir ijtimoiy guruxning vakili sifatida maydonga chiqadi va o'sha guruxlarning (ishchilar guruxi, dexqonlar guruxi, talabalar guruxi va xokazo) dunyoqarashi va manfaatlarini ifodalaydi. Ammo milliy g'oyani shakllantirishda xar bir fuqaroning xayotiy faoliyati, ijodiyotining moxiyati va g'oyaviy yo'nalishi, ob'ektiv axamiyati muxim rol o'ynaydi. Agar fuqaro jamiyatda ro'y berayotgan xayot voqeliklarni rostgo'ylik bilan tushunib, o'z manfaatlariga tenglashtirsa, u xolda kelajagi buyuk bo'ladigan davlatimizning poydevoriga g'isht qo'ygan bo'ladi.

Yoshlarning ongiga milliy g'oyani singdirish uchun avvalo ularning tarbiyasi va bilim saviyasi bilan muntazam shug'ullanish lozim. Ularga bilim berish bilangina chegaralanib qolmasdan, xar bir narsaga tanqidiy nazar bilan qarab, uning asl moxiyatini uqib, keraksiz narsalar va turli diniy-ekstremistik g'oyalar bilan boshini chalg'itmasdan zamonaviy barkamol milliy madaniyatini, ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolayotgan urf-odatlarini o'rganish bilan boyitib borishlari lozim. Negaki, o'tmish malaniyat yodgorliklari ma'lum, tarixiy sharoit bilan, shu tarixiy sharoitdagi iqtisodiy-ijtimoiy xayot xalqlarning maishiy turmushi va urf-odatlari bilan tanishtiradi. Shuningdek milliy mafkurani yaratishda moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari katta ijtimoiy tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu namunalar kishilardagi eng yaxshi fazilatlarini takomillashtirishga, ularda insonparvarlik, do'stlik, xalollik, qaxramonlik, mexnatsevarlik kabi xususiyatlarni mustaxkamlashga katta yordam beradi. Shu bilan birga manaviy madaniyatning durdona asarlari eststik tarbiyaning muxim omillaridan biri sifatida asrdan-asrga o'z sifatini saqlab kelmoqda.

2-savol: Etnologiyani fan tarzda shakllanishi.

2-savol bayoni:

Etnologiyaning paydo bo'lish tarixi. Har qanday fanning fan sifatida shakllanishi insonlar ehtiyoji bilan ma'lum ma'noda bog'liqdir. Shubhasiz, bu holat etnologiya fani uchun ham taalluqlidir. Insoniyat tarixi (eng qadimgi ibtidoiy jamiyatdan toki hozirgi kungacha) davomida yashagan xalqlar o'ziga xos turmush-tarzi, urf-odatlar va an'analari bilan bir-biridan ajralib turgan. O'tgan ming yilliklar mobaynida yig'ilgan bilimlar shundan dalolat beradiki, er sharida garchi turfa xil rasm-rusmlar va urf-odatlarga ega xalqlar yashashlariga qaramay, ularning barchasi tabiatning ajralmas bir qismi tarzida rivojlanganini va aynan tabiiy-geografik hamda xo'jalik munosabatlari bilan bog'liq holda o'ziga xos etnomadaniy an'analarga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Eng qadimgi davrlardan boshlab kishilar nafaqat o'zlarining balki tevarak atroflarda va uzoq yurtlarda yashovchi el-uluslar, ularning madaniyati, an'ana va marosimlariga qiziqib, ular to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilganlar. Antik davr mualliflari ko'plab empirik materiallarni yig'ishga, turli-tuman xalqlarning xo'jalik va madaniy belgilariga qarab tasniflashga intilganlar. Lekin o'sha davr mualliflari asosan-sayyohlar, elchilar, jangchilar va boshqa mamlakatlarda turli maqsadlarda bo'lgan kishilarning xotiralari yoki bo'lmasa o'zga yurtlar to'g'risidagi turli-tuman rivoyatlar asosida ma'lumotlarni yozilganligi bois ham ko'pincha umumiy yoki mavhumiy xususiyat kasb etgan.

Etnologiya-xalqlar to'g'risidagi mustaqil fan sifatida XIX - asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Shubhasiz, aynan shu davrda fanning paydo bo'lishiga qator sabablar mavjud edi. Avvalo, mazkur davrda dunyo qit'alari orasida iqtisodiy, madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi, turli xalqlarning mustamlaka arosatiga tushib qolishi va mustamlaka davlatlarni osonlik bilan boshqarish u erlarda yashovchi mahalliy xalqlar to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishni talab qilar edi. qolaversa, o'sha davrda buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishi natijasida dunyoning turli mintaqalari orasida o'zaro etnomadaniy taraqqiyotdagi o'zaro farqlarni, boshqa ellarda yashovchi etnik guruhlarning o'ziga xos Etnopsixologiyasi va ularning etnik o'zlikni anglash mexanizmi, tarixning ma'lum davrlarida u yoki bu xalqning tutgan o'rni, sivilizatsiyalar va madaniyatlar taraqqiyoti hamda tanazzulida etnik omilning o'rni kabi muammolarni paydo qildi.

Ana shu muammolar va savollarning echimi tarzida qator yangi nazariyalar va kontseptsiyalar yaratildi. Bu esa etnologiyaning dastlabki ilmiy maktablari va yo'nalishlari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Keyinchalik mazkur ilmiy maktablar va yo'nalishlar asosida xalqlar to'g'risidagi maxsus fan - etnologiya shakllangan. Etnologiya fanining nomi ham boshqa ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi yunoncha bo'lib etnos (xalq) va logos (fan) so'zlaridan olingan bo'lib, «xalq to'g'risidagi fan» degan ma'noni bildiradi. «Etnos» so'zi ilk bor qadimgi grek tilida uchraydi. Taxminan miloddan avvalgi VI-V asrlarda bu so'z kelib chiqishi grek bo'lmagan urug' va qabilalarga nisbatan qo'llanilgan. Aynan shu ma'noda bu atama rim madaniyati va lotin tilida ham namoyon bo'ldi.

XVIII asrning oxirlariga qadar etnos tushunchasi nihoyatda chegaralangan tarzda iste'molda bo'ldi. Faqat XIX asrdan e'tiboran bu termin ilmiy adabiyotlarda «xalq» («narod») ma'nosida kengroq qo'llanila boshlagan.

XIX asrgacha "etnologiya" iborasi maxsus fanga nisbatan emas, balki onda-sonda turli etnografik jarayonlarni tavsiflash maqsadida ishlatilgan bo'lsa-da, maxsus fanni bildirmagan.

Etnologiya termini fanga ilk marotaba 1784 yil A.Shavann tomonidan olib kirilgan. Lekin bu fanning taraqqiyoti biroz keyingi davr bilan bog'liq bo'lib, frantsuz olimi Jan Jak Amper tomonidan 1830 yilda "antropologik" (ijtimoiy) fanlarning umumiy tasnifini ishlab chiqish jarayonida xalqlar va ularning madaniyati to'g'risidagi yangi fanning nomlanishi tarzida maxsus izoh berilgan. Shundan keyin mazkur termin Evropa davlatlariga juda tezlik bilan yoyilgan. Umuman etnologiya mustaqil fan tarzida rasman qator etnologlar jamiyatlarning tuzulishi, jumladan, 1839-yil Parijda Frantsiya etnologlar jamiyati, 1842 yil AqShda

Amerika etnologlar jamiyatining tuzilishi bilan rasman tasdiqlangan. Biroq shundan keyin turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar o'rtasida mazkur fanning fanlar tizimidagi o'rni, tadqiqot mavzusi borasida keskin munozaralar yuzaga kelgan va hattoki bu bahslarning ayrimlari bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. Mazkur bahs-munozaralar orasida doimiy davom etib kelayotganlaridan biri fanning mazmuni va nomlanishi muamosidir.

Darhaqiqat, o'tgan yuz yilliklar mobaynida davom etgan munozaralar natijasida "etnologiya" tushunchasi bilan bog'liq o'nlab maktablar va yo'nalishlar paydo bo'lgan. Bugungi kunda ayrim mamlakatlarda mazkur fan etnologiya, yoki etnografiya deb yuritilsa, g'arb mamlakatlarida madaniy antropologiya yoki ijtimoiy (sotsial) antropologiya deb yuritish an'anaga aylangan. Ma'lumki, yaqin o'tmishda sobiq Ittifoqda elshunoslik fani «etnografiya» deb nomlanib, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan institut va ilmiy tadqiqot markazlari ham shu atama bilan yuritilar edi. Biroq o'tgan asrning 90-yillaridan e'tiboran ushbu fanga nisbatan «Etnografiya» atamasi bilan birga «Etnologiya» atamasi ham qo'llaniladigan bo'ldi.

Etnografiya yunoncha bo'lib, «etnos» -xalq «grafiya» tavsiflash degan ma'nolarni anglatgan. Mazkur fanning metodologik masalalariga bag'ishlangan qator ishlardan ko'rinadiki, «Etnologiya» va «Etnografiya» tushunchalarini aynan bir tushunchalar tarzida qabul qilish ham to'g'ri emas. Negaki, agar an'anaviy «etnografiya» u yoki bu etnosga (etnik birlikka) oid materiallarni to'plab, tizimlashtirib va uni ko'proq tavsiflab bersa, «etnologiya» etnos haqidagi barcha ma'lumotlarni nazariy-metodologik jihatdan tahlil qiladi va bu xususda umumiy xulosalar chiqaradi. Demak, «etnografiya» tushunchasi «etnologiya» tushunchasiga nisbatan nafaqat kengroq tushuncha, balki etnologiyaning ma'lum bir qismi deb aytish mumkin. O'z navbatida shuni ham aytish aytish mumkinki, har bir mamlakatda mazkur fanning paydo bo'lishi va nomlanish o'ziga xos tarixga ega.

Evropa etnologiya maktablarining shakllanishi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Evropa mamlakatlari orasida etnologiya mustaqil fan tarmog'i tarzida dastlab Frantsiyada Parij etnograflar jamiyatining tuzilishi bilan shakllangan. XIX asr ikkinchi yarmida Evropadagi boshqa yirik davlatlar singari Frantsiya siyosiy doiralari tomonidan mustamlakachilik siyosatini kuchayishi va mustamlakalarni boshqarish mexanizmni murakkablashuvi qaram xalqlar to'g'risida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishni, ularning milliy xususiyatlari, o'tmish tarixi, turmush tarzi, madaniyati va an'analari haqida batafsilroq ma'lumot olishni talab qilgan. Shu bois etnologiya bu erda "etnografiya" (yunoncha etnos - xalk, graphien - bayon qilish) deb yuritilgan. Frantsiyada mazkur termin XIX asr oxirigacha ilmiy iste'mol doirasida bo'lgan. XX asr boshlarida frantsuz tadqiqotchilari tomonidan etnografiyaga tarixiy va nazariy materiallarni jalb etgan holda izlanishlar olib borilishi natijasida etnografiya etnologiyaga aylangan va hozirda frantsuz olimlari tomonidan asosan etnologik tadqiqotlar olib boriladi.

3-savol: Etnologiya predmeti.

3-savol bayoni:

Etnologiya predmeti. Har bir fanning o'ziga xosligi uning tadqiqot mavzusi va uning tadqiqot uslublari bilan ajralib turadi. Etnologiyaning fan tarzida paydo bo'lgandan to hozirgi kungacha bo'lgan davrdagi tadqiqot mavzusi xalq va xalqlarning madaniy o'ziga xosligi bo'lgan. qolaversa, etnologiyada turli etnoslar va etnik guruhlarning etnogenezi va etnik tarixi, an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyat muammolari hamda etnoslararo jarayonlar tadqiq qilinadi. Umuman olganda bizningcha, etnologiya asosiy tadqiqot ob'ekti tarzida quyidagilarni o'rganadi (Etnologiya predmetini ma'lum bir tartibda bayon qilishda biz fanda an'anaviy bo'lib ulgiran qarashlardan yangi noan'anaviy qarashlar tomon harakatlanishni ma'qul deb bildik.):

- Xalqlarning moddiy madaniyati;
- Etnogenez va etnik tarix muammolari;

- Xalqlarning e'tiqodiy qarashlari, milliy marosimlari va urf-odatlarini;
- Turli xalqlarning qarindoshlik tizimi: qarindosh-urug'chilik aloqalari;
- Xalqlarning ijtimoiy va siyosiy tuzulmalari (oilaviy munosabatlar va hokimiyat munosobati);
- Turli xalqlarga xos tarbiya an'analarini tizimi;
- Bir xalq madaniyatining turli komponentlari orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlik muamomalari;
- U yoki bu xalq madaniy xususiyatlari dinamikasi (madaniy o'zgarishlar);
- Turli xalqlarning psixologik o'ziga xosligi;
- Turli xalqlarning xayot tarziga moslashishi: ularning tabiiy muhitga moslashishi
- Etnos qadriyatlarini taqqoslash;
- Turli xalqlarning dunyo xaratasida taqqoslash;
- Madaniyatlararo muloqotlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- Etnoslarning paydo bo'lishi va bo'linib ketishi sabablari;
- Xalqlarning joylashuvi;
- Etnoslar bilan bog'liq sodir bo'ladigan demografik jarayonlar;
- U yoki bu etnos vakillarining iqtisodiy munosabatlari;
- Etnolingvistika;
- Etnomadaniyat muammolari;
- An'ananing paydo bo'lishi va taraqqiyoti;
- Etniklik va etnik guruhlar muammosi.

Ushbu ro'yxatni yanada davom ettirish mumkin Biroq mazkur ro'yxatning o'zi ham etnologiyaning tadqiqot ob'ekti keng ekanligidan dalolat beradi. qolaversa ushbu ma'lumotlar etnologiyaning asosiy manbai yozma manbalar hamda moddiy yodgorliklar bo'lgan an'anaviy tarix fanidan birmuncha kengroq ekanligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek etnologiyada insoniyat tarixining dastlabki yozma madaniyat shakllanganunicha bo'lgan davrda yashagan va o'zlarining alohida yozuvlari bo'lgan xalqlar-etnoslar asosiy tadqiqot ob'ekti tarzida o'rganiladi.

Oldingi qismda ta'kidlaganimizdek, XIX asr oxirida Evropada etnologiyaning asosiy mavzusi ibtidoiy sharoitda yashayotgan «primitiv» xalqlar bo'lgan. Bu xalqlar misolida evropalik tadqiqotchilar go'yoki o'zlarining qaysidir ma'noda uzoq o'tmishdagi «tirik ajdodlari»ni his qilganliklari bois ushbu xalqlar evropalik tadqiqotchilarni ko'proq qiziqtirgan. Shuning uchun ham evropaliklar «orqada qolgan» xalqlarga nisbatan «primitiv», ya'ni «birinchi» degan iborani qo'llaganlar. Bu borada «birinchi» xalqlar to'g'risida XIX-asrdagi etnologiya maktablarining yirik namoyandalari hisoblangan Lyuis Genri Morganning «qadimgi jamiyat», Edvard Taylorning «Ibtidoiy madaniyat» kabi mashhur asarlari paydo bo'lgan. Natijada o'tgan yuz yillikda olib borilgan tadqiqotlar tufayli etnologiya OUYu faniga aylangan va dunyoning ko'plab mashhur universitetlarida maxsus predmet tarzida o'qitila boshlagan. Buning natijasida etnologiyaga yangicha qarashlar bilan qurollangan fan namoyandalari-nazariyotchi etnologlar kirib kelgan. Shu bois etnologiyaning mavzusi ham takomillashib borgan va fandagi mavjud ba'zi qarashlar hamda g'oyalar jiddiy tanqid ostiga olingan va hattoki ularning ayrimlari keyinchalik butkul ilmiy muomiladan chiqib ketgan.

Etnologiyada jiddiy tanqidga uchragan ayrim qarashlar to'g'risida gapirganda, avvalo, xalqlarning ibtidoiy va svilizatsiyalashgan tarzda bo'linishiga oid qarashlar jiddiy tanqid ostiga olinganini ta'kidlab o'tish joizdir. Yangi avlod tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha, ibtidoiy deb atalgan xalqlar ham xuddi svilizatsiyalashgan deb hisoblangan evropaliklar singari o'zlarining tarixlariga ega bo'lgan. O'z navbatida ular, oldingi tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, insoniyat tarixining dastlabki bosqichlariga taalluqli emas va mazkur jamoalar ham boshqa xalqlar kabi ibtidoiylikdan yiroq xalqlar hisoblanadi. Inchunun, bu borada ularni faqatgina atrofdagi olamga bo'lgan munosabati borasidagina ibtidoiy deb aytish mumkin. Bunday qarash dastlab mashhur nemis etnolog olimi Rixard

Turnvald(1869-1954)tomonidan bildirilgan bo'lib, uning fikricha, «ibtidoiy xalq» tushunchasini tahlil qilish asnosida bir omil o'ta muhimdir. Bu omil tabiatni o'zlashtirishdagi bilim, malaka va mehnat qurollari hamda moslamalardir. Turnvaldning fikricha, «ibtidoiy» deb yashash va ovqatlanish uchun eng oddiy mehnat qurollaridan foydalangan va atrofdagi olam to'g'risida juda kam bilimga ega bo'lgan qabilalarga nisbatan qo'llash joizdir. Bunday texnik qurollanish va tabiiy qonunlarni bilish me'yorlaridan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, Turnvald aytganidek, «tabiatni bo'yin sundirgan odamlar» hozirgi zamonaviy industirlashgan jamiyatga qaraganda haqiqatdan ham ko'proq tabiatga bog'liq bo'lgan. Biroq bu o'rinda ikkinchi mulohaza paydo bo'ladi. Ya'ni, agar insonlarning tabiatdan mustaqil bo'lib yashashlariga qaramay, bugungi zamonaviy kishilar ikkinchi bir ko'rinish-texnikaga bog'lanib qolishiga olib keldi. Shu bois ayrim etnologlar yuqoridagi mulohazaga asoslanib, etnologiyada «ibtidoiy xalqlar» iborasini qoldirishni, lekin bunda tabiatdan uzilmagan va o'zlarining ijtimoiy me'yorlarini saqlab qolgan jamoalar hamda madaniyatlarni anglash g'oyasini ilgari surganlar.

O'z navbatida boshqa bir olimlar guruhi esa «ibtidoiy xalqlar» iborasini qo'llanishiga qat'iy qarshi chiqqanlar. Chunki fanda bunday iborani qo'llanishi shubhasiz unga qarama - qarshi bo'lgan «madaniy xalqlar» terminini paydo bo'lishini taqozo etadi va bu esa birinchi guruhga kiruvchi xalqlarni tahqirlanishiga sabab bo'ladi, - deb ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, ona zaminning turli mintaqalarida yashovchi xalqlar, etnik guruhlar hayotiga, o'tmish tarixiga, turli-tuman svilizatsiyalar va madaniyatlar taraqqiyotiga nazar tashlar ekanmiz o'zining tarixiy taraqqiyotida madaniyatiga ko'ra biror bir rivojlanishga erishmagan insonlar jamoasini topish juda mushkul. Hatto tosh davri odamlari to'g'risida gapiradigan bo'lsak, ular ham dastlab toshdan yasalgan mehnat qurollarini rivojlantirib borganliklari tarixiy-arxeologik manbalardan ma'lumdir. XVII-XIX asr tadqiqotchilari ta'kidlaganlaridek, sayyoramizda ibtidoiy insonlar mavjud emas. Har bir etnik jamoa yoki xalq o'ziga xos madaniyat sohibidir. Shu tufayli bugungi kunda «madaniyatli xalq», «madaniyatsiz xalq» degan iboralarni qo'llash mantiqsizlikdir. Faqatgina madaniyatning turli ko'rinishlari to'g'risida gapirish mumkin. Shuning uchun ham, aynan turli madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va turfa xil etno-milliy madaniyatlar etnologiyaning asosiy tadqiqot mavzularidir. Keyingi vaqtlarda etnologiyada lokal madaniyatlarning tadqiq qilish borasida ancha samarali tadqiqotlar bajarilmoqda.

Shu bilan birga turli olimlar tomonidan «ibtidoiy xalqlar» termini o'rniga qator boshqa tushunchalar va terminlar tavsiya qilingan bo'lib, tadqiqotchilar fikricha, mazkur ibora etnologiyaning yangi mavzusi doirasiga ko'proq to'g'ri kelar ekan. Turli davrlarda etnologiyaga «arxeik madaniyat», «industirlashtirishgacha bo'lgan jamiyat», «an'anaviy jamiyat», «yozuvsiz jamiyat», «qabilaviy ittifoq» va shu kabi nomlar tavsiya qilingan. Shubhasiz, mazkur iboralarning har biri ma'lum bir etnik madaniyatning o'ziga xos tomonlarini ifodalaydi. Shu bois garchi ulardan birortasi ham «ibtidoiy xalqlar» terminiga almashtirilmagan bo'lsada, zamonaviy etnologiyada ularning barchasi qo'llaniladi.

4-savol: Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari

4-savol bayoni:

Etnologiyaning asosiy ob'ekti bo'lgan xalq iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa qator sohalarda faoliyat olib boradi. Xalqning mazkur tomonlarini madaniyat va jamiyatni o'rganuvchi boshqa fanlar ham tadqiq qiladi va etnologiya doimiy ravishda mazkur fanlar bilan aloqada bo'ladi. Etnologiyaga tadqiqot mavzusi jihatidan yaqin fanlarga antropologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, politologiya, geografiya va etnografiya kabi fanlar kiradi.

Etnologiyaning mazkur fanlar bilan doimiy aloqasi turlicha bo'lib, ularning har biri bilan ma'lum muammolar va savollar doirasidagina o'zaro munosabatga kirishadi.

Etnologiyaga eng yaqin fan antropologiya hisoblanadi. Bu ikki fan ham irqnlarning kelib

chiqishi va ularning er shari bo'yicha tarqalishi, tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida insonlarning jismoniy qiyofasining o'zgarishi, etnoslarning antropologik tuzilishi kabi savollarga javob izlaydi. Hozirgi kunda ijtimoiy, madaniy, psixologik, strukturaviy, simbolik antropologiya kabi mustaqil ilmiy yo'nalishlarning mavjudligi bois bu ikki fan orasidagi munosabatda ma'lum noaniqliklar mavjud.

Zamonaviy fanda «etnologiya» va «antropologiya» terminlari amalda deyarli qat'iy o'rnatilgan chegara mavjud emas. Ba'zi olimlar "etnologiya" va "antropologiya" terminlarini o'zaro sinonim deb hisoblaydilar. Bunda ular antropologiyada etnogenez va demografik jarayon hech qachon tadqiqot ob'ekti bo'lmaganligini hisobga olmaydilar.

Antropologiya insoniyatning biologik va jismoniy tabiati haqidagi fan bo'lgan va hozirda ham shunday bo'lib qolmoqda.

Etnologiya esa o'zining tadqiqot ob'ektiga ko'ra antropologiyaga qaraganda kengroq hisoblanadi. Shu tufayli ham mazkur fanlarni bir xil predmet deb aytib bo'lmaydi. Ushbu ikki tushunchaning o'zaro aloqadorligi to'g'risida qisqacha tarixiy ma'lumotni keltirib o'tamiz. Dastlab XIX asrning birinchi yarmida etnologiya o'zining tadqiqot mavzusi doirasiga jismoniy antropologiyani ham kiritgan edi. Jumladan bu «Parij etnologlar jamiyati»ning nizomida ham aks etgan bo'lib, bunda etnologiyaning tadqiqot mavzulari doirasiga «insoniyat irqining o'ziga xos tomonlari, jismoniy o'ziga tuzilishi, aqliy qobiliyati va ruhiyati, hamda tarixi, an'analari va tilini o'rganish» Kirishi ta'kidlangan edi. XIX asr o'rtalaridan boshlab etnologiya va antropologiya fanlarini o'zaro mustaqil ikki fan deb hisoblovchi qarashlar paydo bo'lgan. Bunday qarashlar mualliflari etnologiyani xalqlar to'g'risidagi fan antropologiyani esa inson to'g'risidagi fan deb talqin qilganlar. Bunday qarashlar natijasida Germaniyada "Antropologiya, etnologiya i yozma tarixgacha bo'lgan tarix jamiyati" (1869), Italiyada — "Italiya antropologiya i etnologiya jamiyati" (1871) kabi jamiyatlar tuzilgan. Bu bilan birga XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab ushbu qarashlarga qarama-qarshi bo'lgan qarashlar, ya'niki etnologiyani antropologiyaning tarkibiy bir qismi deb hisoblovchi qarashlar ham paydo bo'lgan. (Angliyada 1843 yil tuzilgan "Etnologiya jamiyati" va 1863 yilda tashkil qilingan "Antropologiya jamiyati"lari o'zaro qo'shilib 1871 yilda "Buyuk Britaniya va Irlandiya antropologiya qirollik instituti»ga aylantirilgan.

Etnologiyaning tadqiqot ob'ekti bo'lgan etnos tabiiy jarayonlarda rivojlanishi oqibatidagina emas, balki bu bilan bir vaqtda ijtimoiy madaniy jarayonlar natijasida ham shakllanadi. Shu bois etnologiyada etnik jarayonlarni o'rganish chog'ida ijtimoiy va madaniy jarayonlar ham tadqiq qilinadi. O'z navbatida mazkur jarayonlarni tadqiq qilishda sotsiologiyaning o'zni beqiyosdir.

Sotsiologiya dastlab odamlarning faoliyati va birgalikdagi hayoti to'g'risidagi fan tarzida shakllangan. Uning tadqiqot mavzusi insonlarning ijtimoiy xususiyatlari shakllari-ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, ijtimoiy tuzilma hamda ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Sotsiologiyaning markaziy kategoriyasi-jamiyat, ya'ni bir umumiy hududda birgalikda yashovchi va harakatlanuvchi insonlarning aloqasi shakllarini o'rganadi. Ijtimoiy munosabatlarning ushbu elementlari etnologiya uchun ham ilmiy qiziqish uyg'otadi, lekin etnologiyada ularni boshqacharoq tarzda tadqiq qilinadi. Etnologiya ijtimoiy munosabatlar sohasida madaniyatning ijtimoiy dinamikasi, etnoslarning ijtimoiy differentsiyasi, turli xalqlarning etnik jihatdan o'zlarini ong tizimida idrok etishi, etnik psixologiyaning o'ziga xosligi va shu kabilar tadqiq qilinadi. Boshqacha aytganda, Etnologiya turli etnik muhitlardagi ijtimoiy jarayonlar va ko'rinishlarini hamda ijtimoiy guruhlardagi etnik jarayonlarini o'rganadi. Aynan mazkur uzvlarda etnologiya bilan sotsiologiyaning o'zaro aloqasi namoyon bo'ladi.

Sotsiologiya va etnologiyaning jamiyat ko'rinishlariga bo'lgan qiziqishi juda ham yaqin bo'lganligi bois XX asrning 30-yillarida ushbu ikki fanning o'zaro kesishgan nuqtasida yangi ilmiy yo'nalish etnosotsiologiya paydo bo'ldi. Etnosotsiologiya asoschisi hisoblanmish nemis olimi Rixard Turnvaldning fikricha, sotsiologiya amaliy fan bo'lib, zamonaviy industrial mamlakatlardagi ijtimoiy va etnik jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqani

o'rganadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'arb mamlakatlardagi ilmiy adabiyotlarda etnologiya, madaniy antropologiya va ijtimoiy antropologiya bir fanning turlicha nomlanishi degan qarashlar keng tarqalgan. Haqiqatdan ham shundaymi? Mazkur savolga batafsil javob berishdan avval mazkur uch yo'nalish to'g'risida aniq va etarli ma'lumotlarni bilib olish zarur.

Madaniy antropologiya insonning jismoniy tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganuvchi jismoniy antropologiyadan farqli ravishda insoniyat madaniyatining shakllanish jarayonini o'rganuvchi yo'nalish tarzda paydo bo'lgan. Madaniy antropologiyaning etnologiya bilan aloqasi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, bu fan etnologiyaning tavsifiy dala materiallaridan o'zining kontseptsiyalarini tekshirish va isbotlash maqsadida foydalanadi. O'z navbatida etnologiya madaniy antropologiya ma'lumotlaridan nazariy xulosalar chiqarishda foydalanadi.

Ijtimoiy antropologiya va etnologiya aloqalari birmuncha boshqacharoq xususiyatga ega. Ijtimoiy antropologiya tadqiqot yo'nalishi dunyo xalqlaridagi ijtimoiy jamoalarning o'ziga xos tomonlarini o'rganishga qaratilgan. «Ijtimoiy antropologiya» termini ilk bora ingliz etnologiyasining asoschisi Jeyms Frezer tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan. Mashhur ingliz olimi bu yo'nalishni insoniyatni o'rganuvchi jismoniy antropologiyaga qarama-qarshi tarzida joriy qilgan. Ijtimoiy antropologiya etnologiyaga nisbatan sotsiologiyaga yaqin bo'lib, ularning har ikkisining ham tadqiqot mavzusiga etnik jamoalar kirmaydi. Demak etnologiya, antropologiya va sotsiologiya fanlari o'zaro tutash tadqiqot ob'ektiga ega, lekin ularning har biri ushbu predmetni yangi tomonlarini boshqa fanlar yutuqlari va ilmiy xulosalaridan foydalangan holda tadqiq qiladi.

Etnologiyaga eng yaqin va qarindosh fan etnografiya hisoblanadi. Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma'lumki, etnografiya mustaqil fan tarzida bundan bir yarim asr muqaddam maydonga kelgan. Dastlab mazkur fanning maqsadi turli xalqlar to'g'risidagi ijtimoiy-madaniy materiallarni yig'ish va tasniflash bo'lgan. «Etnografiya» termini turli mamlakatlarda turlicha ma'nolarda qo'llanilgan. Ko'p hollarda u etnos to'g'risidagi nazariy-metodologik umumlashgan xulosalarni o'zida mujassamlashtirgan etnologiyadan farqli ravishda tavsifiy xarakterdagi tadqiqotlarga nisbatan qo'llanilgan. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak zamonaviy etnologiya fani etnografiyaga kontseptual ilmiy apparat beradi. Etnografiya ko'pincha tavsifiy ma'lumotlarni mujassamlashtiruvchi fan bo'lsa etnologiya nazariy xalqshunoslik hisoblanadi.

Bu bo'linish mazkur fanning tavsifiy (etnografiya) va nazariy (etnologiya) qismlarga bo'linishiga oid qarashlarga asoslangan. Bundan tashqari biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, nemislarda etnologiya nemis etnosi va boshqa etnoslar to'g'risidagi fanlarga bo'lingan. Birinchi holatda «Volkskunde» iborasi nemis tilida so'zlashuvchi xalqlar (nemislar, avstriyaliklar, shveytsariyaliklar)ni etnografik o'rganish va tavsiflashda qo'llanilgan bo'lsa «Volkerkunde» iborasi nemis tilida so'zlashmaydigan boshqa xalqlarni etnologik nuqtai nazardan o'rganishda foydalanilgan termin hisoblanadi.

Etnografiya dastlab evropaliklarning evropalik bo'lmagan xalqlardan madaniy turmush-tarzi va ijtimoiy sohalaridagi farqini bayon qiluvchi tavsifiy fan sifatida amalda bo'lishi mazkur fanni «orqada qolgan» xalqlarni o'rganuvchi fan degan tushunchalarni keltirib chiqargan. Bunday qarashlarning noto'g'ri ekanligi o'z vaqtida isbotlangan bo'lib, bugungi kunda har bir xalqning etnografiyasini ilmiy tarzda o'rganish dolzarb muammolardan biri ekanligi o'z isbotini topib ulgurgan haqiqatdir. Hozir dunyo miqyosida kechayotgan ulkan globallashuv jarayonida barcha etnoslar o'ziga xos milliy-etnik xususiyatlari, ularning boshqa etnoslardan farqli hisoblangan jihatlari saqlab qolishga harakat qilmoqda.

Etnologiyaning boshqa xalqlar bilan o'zaro munosabati natijasida poletnografiya, Etnopsixologiya, etnolingvistika va etnomadaniyat kabi qator amaliy fanlar vujudga kelgan. Poletnografiya - xalqlarning o'ziga xos madaniy turmushidagi farqlarni arxeologik materiallar asosida o'rganuvchi fan; etnolingvistika - tillarning kelib chiqishini etnik

jarayonlar aloqasini o'rganuvchi soha; Etnopsixologiya esa etnos va shaxsning ruhiy holatiga etnik jarayonlarning ta'sirini tadqiq qiladi.

Shunday qilib etnologiyani yangi va o'z navbatida qiziqarli ilmiy soha deb aytish mumkin. Shu bois kelgusida yosh tadqiqotchi - etnologlar tomonidan qator fundamental tadqiqotlar bajarilishi shubhasizdir.

5-savol: Etnologiyaning zamonaviy muammolari.

5-savol bayoni:

Etnologiyaning zamonaviy muammolari. O'tgan XX asrning oxirgi choragida etnologiyada yangicha yo'nalishlarning paydo bo'lishi mazkur fan doirasida bajarilgan tadqiqotlarni ham tubdan o'zgarishiga sabab bo'ldi. Aynan shu davrdan boshlab tadqiqotchilar tomonidan an'anaviy ko'rinishni olgan uzoq yurtlardagi o'ziga xos egzogamik madaniyatlar emas, balki, zamonaviy jamiyatlarni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Natijada qator yangi nazariyalar va maktablar paydo bo'ldi va tadqiqotchilar tomonidan etnologiyaning o'ziga xos yangi yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bajarila boshlandi. Jumladan, Farbiy Evropa etnologiyasida xo'jalik (iqtisodiy) etnologiya, ijtimoiy etnologiya, huquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya shakllandi va istiqbolli rivojlanib bormoqda. Umuman olganda etnologiyaning oxirgi yillardagi asosiy muammolari doirasida quyidagi savollarga javob izlaydi:

- insoniyat o'zini o'rab turgan tevak atrofni qanday tarzda tasavvur etadi,
- odamlar tasavvurida moddiy olamdagi predmetlar qanday ma'no kasb etadi,
- ushbu qarashlarni o'zgarish jarayoni qanday sodir,
- madaniyatlararo munosabatlar an'anaviy va zamonaviy madaniyatlarga qanday ta'sir o'tkazadi,
- dunyoning etnik manzarasi o'zida nimani aks ettiradi va dunyoning etnik manzarining o'zgarishi qanday mexanizmlar asosida o'zgaradi,
- u yoki bu madaniyat vakillari dunyodagi sodir bo'ladigan o'zgarishlarga qay tarzda moslashadi va o'z navbatida u yashayotgan jamiyatning moslashishi qanday printsiplarga asoslanadi,
- zamonaviy indistrial jamiyatda milliy-etnik madaniyatlarning roli va o'rni qanday, xar qanday holatda etnos vakillari tafakkurida nima o'zgarmaydi, yoki nima butkul unitilishi yoinki o'zgarishi mumkin va o'z navbatida bu jarayon qanday kechadi,
- madaniyatlarning o'zining ichidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro aloqalar qay tarzda yuz beradi,
- etnik madaniyatda barcha tizimni mustahkam ushlab turuvchi va jamiyat hayotida sodir bo'ladigan qizg'in o'zgarishlar jarayonida himoya qiluvchi mustahkam o'zgarimas qism mavjud-mi?

Shubhasiz mazkur muammolarning aksariyati oxirgi o'n yilliklardagina etnolog tadqiqotchilarning tadqiqot muammosiga aylandi deb aytish mumkin. Bu borada ayniqsa Farb mamlakatlarida keyingi o'n yilliklarda etnologiya fani «postmodernizm» falsafasiga asoslangan bo'lib, bunda bevosita ijtimoiy guruhlar orasidagi etnoslararo jarayonlarni tadqiq qilish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, lokal va global jarayonlarni tadqiq qilishda tadqiqotchilar tomonidan tadqiqiy tanlanish, ya'ni jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni emas, balki etnos va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng muhim deb hisoblangan qarashlarga tadqiq qilinmoqda. Boshqacha aytadigan bo'lsak, bajarilayotgan so'nggi tadqiqotlarda asosiy e'tibor insoniyatning rivojlanish bosqichlari, ya'ni uning erda paydo bo'lgandan to hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy yo'lining global miqyosdagi tavsifiga emas, balki muammoviy tanlanish asosidagi tadqiqotlarga qaratilmoqda. Zero, bugungi kun rivojlangan mamlakatlarda etnologiya yo'nalishida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati jamiyat hayotida aynan muhim va dolzarb deb e'tirof etilgan ijtimoiy muammolar doirasida amalga oshirilmoqda.

Dunyo miqyosida olib borilayotgan etnologik tadqiqotlar orasida Rossiya etnologiya maktabi o'ziga xosligi bilan ajrab turadi. Rossiyada 90-yillardan boshlab etnos nazariyasi rad etilib, etniklik va madaniy antropologiya yo'nalishidagi tadqiqotlar bajarilmoqda. Rossiyaning markaziy shaharlarida, xususan, Sankt-Peterburg universitetida madaniy antropologiya va etnik sotsiologiya kafedrasida tashkil etilib, Evropa va AQSh olimlarining asarlari tarjima qilina boshlandi. Antropologiya va etnologiyaga oid qator o'quv qo'llanmallari, ilmiy asarlar chop etiladi va hatto ushbu fan sohasida Rossiyadagi eng yirik ilmiy markazlaridan biri Mikluxa Maklay nomidagi Etnografiya instituti ham Etnologiya va antropologiya instituti deb o'zgartirildi hamda olib boriladigan tadqiqot mavzulari ham mazkur yo'nalishlarga moslashtirildi. Yurtimizda esa mustaqillikdan keyin Respublikamizning turli tarixiy - etnografik mintaqalari, jumladan, Farg'ona vodiysi, Janubiy O'zbekiston, Buxoro va Xorazm kabi tarixiy-etnografik mintaqalari etnologiyasi va bu mintaqalarda yashovchi aholining o'ziga xos etnomadaniyatidagi lokal xususiyatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatdagi transformatsion jarayonlar, etnoslararo jarayonlar, mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi turli diasporalar va irridentalar etnologiyasi, an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, zamonaviy shahar muhitida an'anaviy milliy qadriyatlarning saqlanib qolish omillari, zamonaviy etnik jarayonlar kabi ko'plab mavzularda tadqiqotlar bajarilmoqda. Bir so'z bilan aytganda etnologiyaning mavzusi doimiy ravishda kengayib bormoqda va bu esa ma'lum ma'noda fanga mukammal ta'rif berish imkonini cheklamoqda. To'g'ri bugungi kungacha turli uslubiy qarashlar va g'oyalar asosida etnologiyaga berilgan o'nlab ta'riflar mavjud bo'lib, ular etnologiyaning ayrim muhim tomonlarini qamrab olgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, etnologiya - turli etnik guruhlarining shakllanish va rivojlanish jarayonini, ularning aynan o'xshashligini (identichnost), ulardagi madaniy boshqaruv usullari shakllarini hamda jamoaviy munosabatlar va o'zaro harakatlari qonuniyatlarini, shaxslarning o'zaro aloqalari va ijtimoiy muhitni o'rganuvchi fandır.

Shubhasiz, mazkur ta'rifni etnologiyaga berilgan eng maqbul va uning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan yakuniy ta'rif deb aytib bo'lmaydi. Kelgusi avlod tadqiqotchilari umum tomonidan e'tirof etiladigan etnologiyaning yanada mukammal ta'rifini yaratishsa ajab emas.

Hozirda zamonaviy etnologiya mavzusi maydoni ancha keng va uning turli yo'nalishlari u yoki bu ko'rinishda yaqin bo'lgan yondosh fanlar bilan tutashadi. Ayniqsa bu sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, antropologiya, siyosatshunoslik, folklorshunoslik kabi fanlarga tegishlidir.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Milliy mafkura va etnologiyaning bog'liqligi nimada aks etadi?
2. Etnologiyaning asosiy atamalari va tushunchalariga sharx bering.
3. Etnogenez va etnik tarix nima?

Adabiyotlar

1. Bromley. Yu.V. Ocherki teorii etnosa. M., 1983.
2. Lure S.V. Istoricheskaya etnologiya. M., 1998.
3. Sadoxin.A.P. Etnologiya. M., 2000.
4. Jabborov. I. O'zbek xalqi etnografiyasi T., 1994.
5. Jabborov I. Jahon xalqlari etnologiyasi T., 2005.
6. Bromley Yu.V. Sovremenno'e problemo' etnografii. - M., 1981.
7. Levi-Stros K. Strukturnaya antropologiya. M., 1983.
8. Etnologiya G'Pod. red. G.E. Markova i V.V. Pimenova. M., 1994.

2-mavzu: Etnologiya fani maktablari.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Etnologiya fani maktablari”

mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi</p> <p>1.1, Dars maqsadi: Evropa etnologik maktablari, Rossiya etnologiya maktabi, zamonaviy etnologiyaning asosiy tadqiqot ob'ektlari haqida ma'lumot berish.</p> <p>1.2, Identiv maqsadlar:</p> <p>1.1. Parij etnograflar jamiyati, Germaniyadagi «Folkerkunde» ilmiy maktabi, Ingliz etnologiya maktabi, AQShda etnologiyaning taraqqiyoti, Rossiya etnologiya maktabining shakllanishi haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.2. Evolyutsion yo'nalish, diffuzionizm maktabi, sotsiologiya maktabi, funktsionalizm, etnopsixologiya maktabiga sharx beradi.</p> <p>1.3. Etnologiyada yangi kontseptsiyalariga sharx beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: Folkerkunde, evolyutsionizm, diffuzionizm, sotsiologiya, funktsionalizm, etnopsixologiya, yangi kontseptsiyalar.</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi-talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash:</p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <p>4. Evropadagi etnologiya maktablarini tavsiflab bering.</p> <p>5. Evolyutsionizm, diffuzionizm, sotsiologiya va funktsionalizmning mohiyati nimalardan iborat?.</p> <p>6. Zamonaviy etnologiya muammolari haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Etnologiya maktablari va yo'nalishlari 	O'qituvchi 10 min.

Asosiy savollar:

1. Etnologiyaning fan sifatida shakllinishida evolyutsionizmning o'ri.
2. Etnologiya fanining taraqqiyosida diffuzionizm o'ri.
3. Sotsiologiya maktabi va funktsionalizm
4. Etnopsixologiya maktabining shakllanishi.
5. Etnologiyadagi yangi kontseptsiyalar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Folkerkunde, evolyutsionizm, diffuzionizm, sotsiologiya, funksionalizm, etnopsixologiya, yangi kontsepsiyalar.

1-savol: Etnologiyaning fan sifatida shakllinishida evolyutsionizmning o'rnini.

1-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi:

Etnologiyaning fan sifatida shakllinishida evolyutsionizmning o'rnini tahlil qilishdan iborat.

1-asosiy savolning bayoni

XIX asr o'rtalariga kelib etnologiyada etnomadaniy materiallar asosida o'ziga xos talqin beruvchi yangi yo'nalishlar, kontsepsiyalar va maktablar paydo bo'ldi. Ularning ayrimlari qat'iy ilmiy yo'nalishga taalluqliligi va tizimlashgan shakli bilan ajralib turganligi bois juda qisqa muddatda ommalashib ketgan. Shubhasiz, fandagi bunday mashhur oqimlar va maktablar qatoriga evolyutsionizm, diffuzionizm, strukturalizm, etnologiyaning tarixiy amerika maktabi, funksionalizm, madaniy revalitalizm kabilar kiradi.

Dastlabki etnologik nazariya-evolyutsionizmning rasman shakllanishi XIX asr o'rtalaridagi umummetodologik dasturlar va kashfiyotlarni amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bunday qarashlar orasida o'sha davr fanida rivojlanish qoidalarini tasdiqlanishi muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, bunga ko'ra dunyodagi har qanday o'zgarish ichki detirminizm (narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishi)ga asoslanadi. Mazkur nazariya asosida dastlab tabiiy fanlardagi ko'plab jarayonlarga izoh va tavsiflar berilgan. Tabiiy fanlarda bunday qarashning yakuni XIX asrda evolyutsionalizm g'oyasini yaratilishi va oxir oqibat uning g'alabasiga olib keldi.

Evolyutsionizm tabiiy fanlarda keskin burilish yasashi bilan birga inson va madaniyatlar to'g'risida mashhur g'oyani shakllanayotgan etnologiya faniga ham olib kirdi. Ko'plab evolyutsionistlar o'z asarlarini tabiiy fanlarda erishilgan kashfiyotlardan ilhomlanib yaratganliklarini ta'kidlab o'tganlar. Evolyutsionizm tarafdorlari o'zlarining asosiy vazifalarini insoniyat madaniyati rivojlanishida umumiy qonuniyatlarni kashf etilishi va asoslanishida, turli xalqlar madaniyatlarining rivojlanishida deb bilganlar. Evolyutsionizm g'oyasi tarafdorlari bir vaqtning o'zida turli mamlakatlardan chiqqan. Evolyutsion yo'nalishning paydo bo'lishi bilan etnologiya fan tarzida shakllangan.

Evolyutsion maktabning yirik namoyondalari

Edvard Bennet Taylor (E.B. Tayler, 1832 — 1917yy) — asosiy tadqiqoti — “Ibtidoiy madaniyat” (“Primitive Culture”) kitobi — 1871 yil chop etilgan.

Lyuvis Genri Morgan (L. H. Morgan, 1818 — 1881yy) — asosiy ishi — “qadimgi jamiyat” (“Ancient Society”) nomli kitobi — 1877 yil nashr etilgan.

Djeyms Frezer (J. Frazer, 1854 — 1941yy) — muhim ishi — “Oltin shox” (“The Golden Bough”) asari — 1890 yil nashr etilgan.

Djon Mak-Lennon (J.F. Maclennon, 1827 — 1881yy) — asosiy ishi — “Patriarxat nazariyasi” (“The Patriarchal Theory”) — 1881 yil e'lon qilingan.

Adolf Bastian (A. Bastian) — asosiy ishi — “Obhie osnovaniya etnologii” (“Allgemeine Grundzuge der Ethnologie”) nomli asari 1881 yil chop etilgan.

Iogann Baxofen (J. Bachofen, 1815 — 1887) — asosiy ishi — “Matriarxat” (“Das Mutterrecht”) kitobi 1897 yilda e'lon qilingan.

Dj. Labbok (J. Lubbock)ning muhim tadqiqoti — “Tsvilizatsiyaning kelib chiqishi” (“The Origine of Sivilization”) nomli mashhur kitobi 1870 yilda chop etilgan.

Evolyutsion nazariya tarafdorlaridan Angliyada-Gerbert Spensor, Edvard Taylor, Dj. Frezer, Germaniyada-Adolf Bastian, Teodor Vayts, Genrix Shurts, Frantsiyada-Sharl Leturno, Amerikada-Lyuvis Genri Morganlar mashhur bo'lgan.

E.Taylor (1832-1917yy). Buyuk ingliz olimi E.Taylor etnologiyadagi evolyutsionistik maktabning asoschisi hisoblanadi. U 1865 yilda nashr etilgan "Insoniyatning qadimgi tarixi

haqida tadqiqot" nomli kitobida o'zining evolyutsionistik g'oyalarini, jumladan, insoniyat madaniyatining ibtidoiyligidan zamonaviy sivilizatsiyagacha bo'lgan tarixiy rivojlanish bosqichlarini, xalqlar orasidagi o'zaro farq irqiy farqqa asoslanmasdan balki xalqlar madaniyati rivojlanishining turli zinapoyalari hamda xalqlar madaniyatining o'zaro aloqasi va vorisligi kabi g'oyalar bilan bog'liq deb hisoblagan. Taylor o'zining evolyutsionistik kontseptsiyasini "Ibtidoiy madaniyat" (1871) nomli fundamental asarida bayon qiladi. Mazkur asarda olim madaniyatni olg'a siljituvchi taraqqiyot g'oyasini har tomonlama rivojlantirgan holda J.de Mestraning "Tubanlashish g'oyasi"ga qarama-qarshi qo'ygan. J.de Mestra ilgari surgan g'oya mohiyatiga ko'ra, madaniyatning ilk bosqichlarida erda yarim sivilizatsiyalashgan odamlar yashaganlar va ularning keyingi rivojlanishi ikki yo'ldan borgan. Bu jarayonda bir guruh kishilar yovvoyilik tomon orqaga ketgan bo'lsa, boshqa bir jamoa sivilizatsiyalashgan jamiyat sari taraqqiy qilgan, - deyiladi. Taylor esa tarixiy va tabiiy katalizator natijasida madaniyatdagi regressiv o'zgarishlarni rad etmagan holda insoniyat tarixida madaniyatni evolyutsion rivojlanishi asosiy yo'nalish deb qat'iy ta'kidlaydi.

U o'z mulohazalarini evolyutsionizmning "insoniyat tabiatning bir bo'lagi bo'lganligi uchun ham tabiiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi" - degan g'oya asosida shakllantirgan. Shu boisdan ham barcha insonlarning psixologiyasi va inteluktual qobiliyati o'xshash, ularda madaniyatning bir xil xususiyatlarini ko'rish mumkin, kishilarning rivojlanishi ham o'xshash qonuniyatlarga asoslanadi. Taylorning fikricha, madaniyatning turli shakllari "bosqichma-bosqich rivojlanishida ularning har biri shubhasiz o'tmish bilan bog'liq bo'lish bilan birga kelajakni shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Taraqqiyotning mazkur ketma-ketligi barcha xalqlar, shu jumladan, eng orqada qolgan xalqlardan tortib sivilizatsiyalashgan xalqlargacha barchasini o'zaro yagona uzliksiz bir tizimga birlashtiradi.

Taylor uchun madaniyatning barcha ko'rinishlaridan ko'ra ko'proq ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlari birmuncha ko'proq qiziqish uyg'otgan va u bu borada dinning paydo bo'lishi to'g'risidagi animistik g'oyani ishlab chiqqan. Ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlarini o'rganish asnosida Taylor ularga insoniyat va uning madaniyati uyg'unligi nuqtai nazardan yondashgan. Uning fikricha, "yovvoyi odamlar"ning e'tiqodlari va marosimlari turli-tuman mazmunsiz qorishmadan emas, balki o'zaro ketma-ketlikka va mantiqiy asosga ega bo'lgan urf-odatlardan iborat. Eng muhimi bularning barchasi zaminida olim ta'kidlaganidek, "Ilohiy zotga e'tiqod" yoki boshqacha tarzda aytganda ruh va jonga ishonch g'oyasi mujassamlashgan. Taylor o'z qarashlari asosida "animizm" nazariyasini shakllantirgan. U animizm ildizlarini ibtidoiy odam tasavvuridagi tush, tush ko'rishning o'ziga xos xususiyati, kasallik, o'lim kabilarning sabablarini izohlash bilan bog'laydi va ularni tushuntirish asosida ibtidoiy odamlar tasavvuridagi «har bir odamda jon bo'lib, ular inson tanasini vaqtinchalik (tush), yoki butunlay (o'lim) tarzda tark etadi», - degan g'oyani asos qilib olgan. O'z navbatida jon to'g'risidagi bunday qarash keyinchalik dunyoviy dinlarda ham rivojlangan. Ibtidoiy odamlarning magik fikrlash qoidasi asosida har bir narsaning joni va ruhi mavjudligi to'g'risida tasavvurlar paydo bo'lgan va natijada hayvonlar hamda tabiiy kuchlarning ruhi, boshqa olamdagi hayotga ishonch, tabiatdagi ilohlar va oxir oqibatda yagona tangri taaloga bo'lgan e'tiqod shakllangan deb ta'kidlaydi.

Taylorning evolyutsionistik qarashlari etnologiyadagi dastlabki «inqilobiy» qarashlardan biri edi. Evolyutsionistlar qarashlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, ular ilk bora tarixiy jarayonlarning bir butunligi va madaniyat taraqqiyotining progressivligi to'g'risidagi izchil kontseptsiyani ilgari surishgan. O'z navbatida evolyutsionizm kontseptsiyasi, shu jumladan, Taylor qarashlarining kamchiligi boradasida o'z davrida mulohazalar bildirilmagan va bu borada birmuncha kechroq tanqidiy fikrlar bayon etilgan.

Taylor qarashlarining izdoshlari boshqa qator mamlakatlarda ham mavjud edi va shu bois juda tez muddatda etnologiyada etakchi qarashlarga aylangan.

G.Spenser (1820-1903 yy) Etnologiyada evolyutsionizm klassiklaridan biri ingliz faylasufi, biolog, psixolog va sotsiolog Gerbert Spensordir. Spenser evolyutsionizm g'oyasini asosan bir tomonlama tahlil qilgan. Uning fikricha, ibtidoiy jamiyat vakillari jismonan, aqlan

va ruhiy jihatdan taraqqiy etmaganlar hisoblanadi. Spensorning evolyutsionistik qarashlari ma'lum ma'noda irqchilik xarakterida bo'lgan.

L.Morgan (1818-1881yy). Etnologiyada evolyutsionizm asoschilari orasida amerikalik olim Lyus Genri Morganning ulkan xizmatlari bor.

Morgan havaskor olim va intuzist-tadqiqotchi bo'lgan. U o'zining qariyb 40 yillik faoliyatini dastlab AqShdagi hindu qabilasi-irokezlarni, so'ngra boshqa Amerika hindularini va o'zga yurtlardagi xalqlarni o'rganishga bag'ishlagan. Morganning barcha qarashlarini va turfa xil g'oyalarni to'liq hamda atroflicha tavsiflash ancha mushkul hisoblanadi. Uning etnik muammolarga oid asosiy qarashlari «qadimgi jamiyat» (1877) nomli yirik asarida mujassamlashgan bo'lib, mazkur asarda Morgan etnologiyaning asosiy uch muhim muammosini: insoniyat tarixida urug'chilik jamiyatining o'rni va ahamiyati, oilaviy-nikoh munosabatlarini shakllanish tarixi va insoniyat tarixini davrlashtirish muammosini batafsil tahlil qilgan.

U o'zining «qadimgi jamiyat» kitobida irokezlarning o'ziga xos jamoaviy tuzumi rekonstruktsiya qilish asosida ibtidoiy jamoa tuzumining asosida urug'chilik bo'lgan, degan xulosoga kelgan. Morganning fikricha, insoniyatning butun tarixini ikkita katta davrga bo'lish mumkin. Birinchisi, bu fratriy, qabila va urug'larga asoslangan ilk-ijtimoiy jamoalar davri; ikkinchisi, hududiy va mulkchilik asosidagi so'nggi-siyosiy uyushmalar davri bo'lgan. Morganning qarashlariga ko'ra, urug'chilik Osiyodagi, Evropadagi, Afrikadagi va Avstraliyadagi qadimgi jamiyatlarni uchun deyarli bir xil bo'lgan.

Xalqlarning urug'chilik jamoalarini tadqiq qilishda Morgan evolyutsion-tarixiylik printsiptini asos qilib olgan. U urug'chilikning qoldiqlarini Avtraliya qabilalari turmush-tarzidan izlagan. Urug'chilikning rivojlangan shakllarini jamoa taraqqiyotining yuqori pillapoyalaridan, ya'ni irokezlar orasidan izlagan. Urug'chilikning yakuniy shakli (patriarxat)ni u antik davrdagi greklar va yunonlarga xos deb hisoblagan. Ushbu vaziyatda uning ona urug'ini ota urug'iga aylanishi mulkiy munosabatlarni o'rnatilishi va uning meros tarzda o'tkazilishi to'g'risidagi g'oyasi etnologiya uchun muhim va qimmatli hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, evolyutsionistik maktab jamiyatning progressiv rivojlanish g'oyalari asosida insoniyatning rivojlanishi va uning madaniyati to'g'risidagi dastlabki tizimli kontseptsiyani ilgari surgan.

Evolyutsionizmning asosiy g'oyalari

Klassik evolyutsionistik nazariyada insoniyat madaniyatining taraqqiyoti bilan bog'liq universal manbalar va universal qonuniyatlar topishga harakat qilganlar.

Zamonaviy jamiyatda yashashlariga qaramay o'z yozuvlariga ega bo'lmagan xalqlar qadimiyat qoldig'i tarzida talqin kilingan. Ularning madaniyatlarini o'rganish «ibtidoiy jamoa» madaniyatini yaxlit tarzda rekonstruktsiya qilishga imkon beradi deb hisoblaganlar.

Tabiatda umumiy insonlar jamoasi mavjud. Shu bois barcha odamlar taxminan bir xil aqliy qobiliyat ega va ko'pincha insonlar o'xshash vaziyatlarda taxminan o'xshash qarorlar qabul qiladilar. Bu vaziyat dunyoning barcha qismlarida insoniyat madaniyatining rivojlanishi umumiyligi va bir xil ekanligini aniqlaydi. Bu o'rinda turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarning mavjudligi yoki mavjud emasligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi.

Kishilik jamiyatida uzliksiz taraqqiyotning o'rni bor, ya'ni soddalikdan murakkablikka o'tish; madaniyat ham huddi jamiyat singari asta-sekin o'zgarishlar, miqdoriy o'sish yoki kamayish yo'lida pastdan yuqoriga karab doimo uzluksiz rivojlanib boradi.

Madaniyatning har qanday ko'rinishi ilk davridan ma'lumdir: Uning keyingi shakllari qayta paydo bo'ladi va oldingi ko'rinishlar asosida shakllanadi. Bunda madaniyat rivojlanishi ko'p pog'anali va dunyodagi barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan bosqichlar asosida bo'ladi. Insoniyat madaniyatining har tomonlama qonunlari bilan birga turli xalqlar va ularning madaniyatlarining bir xil rivojlanish bosqichi bir xil natijasi bo'ladi.

Xalqlarning madaniy farqi ularning turli darajadagi rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Evolyutsionizmning yuqoridagi asosiy tamoyillarini etnolog-sharhlovchilar muhim g'oyaviy va amaliy xulosalarga aylantirganlar: agar hamma xalqlar bir xil taraqqiyot yo'lidan borsa

va uning yuqori nuqtasida Evropa madaniyati hamda sivilizatsiyasi turgan. Shu bois er sharidagi barcha xalqlar va elatlar oxir oqibatda evropa madaniyati bilan umumlashishi lozim. qolaversa, evropaliklar kolonial imperiyalarini barpo etishlari orqali mustamlaka xalqlarni madaniy taraqqiyotga erishishlariga ko'maklashadilar degan g'ayriilmiy xulosani ham paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

XIX asr oxirlarida etnologiya yo'nalishida yig'ilgan ilmiy materiallar evolyutsionizmning haqiqiy hayotga to'g'ri kelmasligini va kamchiliklarini ko'rsata boshlagan. Jumladan, evolyutsionizm tarafdorlari madaniyatdagi miqdoriy o'zgarishlardagina kelib chiqib madaniyat va uning tarkibiy qismlarini qayta tug'ilishi kelajakdagi paydo bo'ladigan barcha madaniyatlarni insoniyat tarixining bosqichlari bilan bog'lanishini taxmin qilgan holda tushuntirib bera olmadi. Ular hatto bunga harakat ham qilib ko'rmaganlar. Yangi etnografik ekspeditsiyalar materiallari ko'pincha evolyutsionistik qarashlarni rad etgan va bu borada boshqacha qarashlarga zarurat sezar edi. Shu bois yangi antievolyutsionistik nazariyalar va maktablar paydo bo'lgan. Evolyutsionizmdan hafsalasi pir bo'lgan ayrim etnolog va antropologlar hatto o'zlarining nazariy xulosalaridan ham voz kechib, faqat empirik tadqiqotlarga olib borganlar.

2-asosiy savol: Etnologiya fanining taraqqiyosida diffuzionizm o'rni.

2-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi:

Etnologiya fanining taraqqiyosida diffuzionizm o'rmini tahlil etish masalasi.

2-asosiy savolning bayoni:

Diffuzionizm. XIX asr so'nggi choragiga kelib etnologiya taraqqiyotida yangi davr boshlangan. Agar oldinlari bevosita etnografik kuzatuvlar ko'proq savdogarlar, missionerlar va sayyohlar tomonidan bajarilgan bo'lsa, keyinchalik etnologiyaga oid amaliy tadqiqotlarni maxsus tayyorlangan mutaxassislar oldindan ishlab chiqilgan dasturlar asosida olib borganlar. Bu esa o'z navbatida fanda yangi qarashlar va nazariyalarning paydo bo'lishiga hamda evolyutsionizmning etnologiyadagi yakka hukmronlik mavqeini susayishiga olib kelgan. qolaversa, bu davrda evolyutsion metodga asoslanib izohlash mushkul bo'lgan qator muammollar paydo bo'lgan.

Evolyutsionizmning inqirozi diffuzionistik maktabni shakllanishiga olib kelgan. Etnologiyadagi diffuzionistik g'oyalarning asosiy maqsadi madaniyat yoki madaniyatning alohida ko'rinishlarini ma'lum bir makonda tarqalishi, ularning kelib chiqish hududlarini aniqlash va turli hududlar bo'ylab yoyilish yo'llarini hamda usullarini qayta tiklashni ko'rsatib berish hisoblangan.

"Diffuziya" (lot. diffusio-tarqalish) tushunchasi aslida fizikadan o'zlashtirilgan bo'lib, fizikada mazkur ibora "yoyilmoq", "kirib kelmoq" ma'nolarini anglatgan. Etnologiyada diffuziya deganda xalqlarning o'zaro aloqasi-savdo, ko'chish, bir xalqni ikkinchisini bosib olishi natijasida yuzaga keladigan madaniy ko'rinishlarni tarqalishi tushunilgan. Diffuzionizm ilmiy yo'nalish tarzda diffuziyaning tarixiy jarayonlarining asosiy mazmuni madaniyatlararo o'zaro aloqalar natijasida boshqalardan o'zlashtirish, va ular biridan ikkinchisiga ko'chishini e'tirof etishidir. Evolyutsionistik nazariya tarafdorlari tomonidan o'xshash madaniyatlarning o'zaro o'xshash sharoitlarda mustaqil tarzda paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid g'oyalarga qarshi diffuzionistlar ma'lum geografik mintaqalarda madaniy ko'rinishlarning paydo bo'lishi va bir markazdan boshqa hududlarga tarqalishiga oid o'ziga xos ilmiy qarashdagi g'oyani ilgari surgani bilan farqlanadi.

Diffuzionizmning mashhur vakillari

Fridrix Rattsel (F. Ratzel, 1844 — 1904 yy) — asosiy ishi "Antropogeografiya" ("Anthropogeographie") nomli asari 1882 yil chop etilgan;

Erland Nordensheld (E. Nordenskiold, 1877 — 1938 yy) — asosiy tadqiqoti "qiyosiy etnografik tadqiqot" ("Comparative Etnografikal Studies") — 1919 yilda e'lon qilingan;

Robert Grebner (R. Graebner, 1877-1934 yy) — muhim asari "Etnologiya uslubi" ("Metode

der Etnologie”) — 1905 yilda chiqqan;

Vilgelm Shmidt (W. Schmidt, 1868-1954yy) — V. Koppersom (W. Koppers) bilan hammualliflikda nashr etilgan “Tarixiy madaniy etnologiya metodlariga oid muhim kitob” (“Handbuch der Methode der kulturhistorischen Ethnologie”) —1937 yil Chop etilgan;

Leo Frobenius (L. Frobenius, 1873 — 1938 yy) —asosiy kitobi “Madaniyat haqidagi tabiiy-ilmiiy ta’limot” (“Die naturwissenschaftliche Kulturlehre”) 1899 yili nashr etilgan.

G. Eliot-Smit (G. Elliot Smith) asosiy tadqiqoti - “Madaniyat” (“Culture. The Diffusion controversy”) 1928 yil e’lon kilingan.

Etnologiyada diffuzionizmning asoschisi sifatida Myunxen universiteti professori Fridrix Rattsel e’tirof etilgan. U ilk bora madaniyat ko’rinishlarini turli madaniy hududlar va mamlakatlar bo’yicha tarqalishi qonuniyatiga e’tibor qaratgan. Evolyutsionistlarda madaniyat ko’rinishlari mavhum bo’lib, o’z-o’zidan paydo bo’ladi degan qarash ustuvor bo’lgan.

Rattsel o’z qarashlari “Antropogeografiya” (1882), “Xalqshunoslik” (1885) va “Er va hayot” (1891) nomli ko’p jildlik asarlarida mujassamlashtirgan. Jumladan, u “Antropogeografiya” asarida moddiy madaniyat namunalarini (etnografik buyumlar va ularning terminologiyasi) geografiyasini turli xalqlarda tarqalishi bilan bog’lab tadqiq qilgan. Rattselning fikricha, tabiiy muhit ta’sirida shakllangan madaniyatlar o’rtasidagi o’zaro farq ushbu xalqlarning bir-birlari bilan doimiy etnomadaniy aloqalari ta’siri natijasida asta-sekinlik bilan silliqanib boradi. Rattsel o’z tadqiqotlarida bir xalqni boshqa xalq tomonidan qo’shib yoki bosib olinishi, turli irqning o’zaro birikishi, etnomadaniy savdo aloqalari va ularning turli shakllariga alohida ahamiyat qaratgan va ularni batafsil tahlil qilgan. Jumladan, uning fikricha, aynan mana shunday aloqalar natijasidagina madaniyatning keng hududlarga tarqalishi sodir bo’ladi. Amaliyotda esa bu til va irq xususiyatlaridan muhimroq bo’lgan etnografik ashyolarning tarqalishi shaklida namoyon bo’ladi. Irqlar doimo o’zaro qo’shib boradi va shuning uchun ham deyarli barcha irqlar hozirda aralash holda yashashini kuzatish mumkin. O’z navbatida shuni ham alohida ta’kidlab o’tish joizki, xalq hayotida til etnik belgi tarzida irqqa nisbatan birmuncha mustahkam hisoblanadi, lekin vaqtlar o’tishi bilan o’zaro etnomadaniy aloqalar natijasida u ham ma’lum ma’noda o’zgaradi yoki bir til ikkinchisiga o’zaro yaqinlashadi. Moddiy madaniyat ashyolari esa boshqa madaniyat ko’rinishlariga qaraganda o’zining shakli va tarqalish hududini birmuncha ko’proq muddat saqlaydi. Rattselning fikricha, xalqlar hayotida sodir bo’lgan turli xil etno-ijtimoiy o’zgarishlar hatto yo’q bo’lib ketishi xam mumkin, lekin etnografik predmetlar qanday bo’lsa shundayligicha qoladi va shuning uchun ham madaniyatni ilmiy o’rganishda etnografik ashyolarning o’rni beqiyosdir.

Leo Frobenius Rattselning shogirdi bo’lishi bilan birga etnolog, arxeolog va folklorshunos olim sifatida shuhrat qozongan. U birinchi marta diffuzionizm nazariyasi asosida madaniyat morfologiyasi nomli kontseptsiyasini va madaniy doiralar nazariyasini yaratgan olimdir. Leo Frobenius Afrika va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar madaniyati bo’yicha mutaxassis bo’lib, Afrika, Afstraliya va Okeaniya xalqlari madaniyatini tadqiq etish borasida 12 ta ekspeditsiya uyushtirgan va olib borgan ilmiy tadqiqotlari asosida Afrikaning etnik xaritasini yaratilgan. O’z navbatida shuni ham uqdirib o’tish jozki mazkur xarita bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Afrikashunos olim ekspeditsiyalari materiallarini va ularning nazariy xulosalarini 1988 yilda nashr etilgan «Afrika madaniyatini kelib chiqishi» nomli monografiyasida bayon qilgan. Uning fikricha, madaniyat misli tirik organizm bo’lib, undagi o’zgarishlar hayotning umumiy qonunlari bilan chambarchas bog’liqdir. Olim tomonidan Afrika va Melaneziya xalqlari madaniyatlarini o’zaro taqqoslab o’rganish asnosida madaniyatdagi o’zgarishlar alohida elementlarning tarqalishi natijasida emas, balki bir butun yaxlit madaniyat ko’rinishlariga bog’liq bo’lib, ular taxminiy birlashgan elementlar uyushmasi emas, balki bir butun yaxlit tizim hisoblanadi», - degan xulosaga kelingan.

O’z navbatida shuni ham unutmaslik kerakki, muallifning madaniyatni kelib chiqishiga oid

mulohazalarida ayrim mifologik qarashlarni ham kuzatish mumkin. Chunonchi, u madaniyatni tirik organizm bilan o'zaro qiyoslab tahlil qiladi va madaniyat ham xuddi tirik organizm kabi dunyoga keladi, turli yosh bosqichlarini bosib o'tib, oxir oqibatda umrini tugatib barham topadi degan g'oyani ilgari surgan. Bunda muallif madaniyat odamlar tomonidan yaratilmaydi, balki o'z-o'zidan rivojlanib boradi degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, insoniyat madaniyatni yaratuvchisi emas, balki uning mahsuli yoki ob'ekti hisoblanadi. Lekin madaniyat insonlar tomonidan yaratilmasa-da u odamlarsiz yashay olmaydi va keng tarqalishi mumkin emas. Agar o'xshatish joiz bo'lsa madaniyat misoli oyoqsiz kishiga o'xshaganligi bois insonlarni o'zini ko'chirib o'tkazishga majbur qiladi. Uning ta'kidlashicha, inson, xalq madaniyatni yaratuvchisi emas, balki uzatuvchidir.

Fronbeniusning fikricha, har bir madaniyat o'ziga xos xususiyatga egadir. qolaversa, u madaniyatni ijtimoiy muhitdan tashqarida, mistik ko'rinish tarzida talqin qiladi va uni ikkiga, ya'ni erkak va ayolga bo'ladi. O'z navbatida mashhur olim o'z qarashlarini ekspeditsiyalar jarayonida yiqqan dala materiallari orqali isbotlashga harakat qiladi. Jumladan, olimning Afrikada olib borgan tadqiqotlari natijasida Afrika madaniyatni ikkiga-telluruit-Efiopiya-patriarxal va xtonik-xamitik-matriarxatga bo'ladi.

Nemis tilli xalqlar orasida diffuzionizmning ko'zga ko'ringan yirik namoyandalaridan biri Robert Grebner bo'lgan. Uning fikricha, etnograf-evolyutsionistlar o'zlarining turli xalqlar madaniyatlaridagi o'xshash xususiyatlarning sabablarini elementar g'oyalar yoki tabiiy sharoit bilan bog'liq bo'lganmi?- degan qarashni isbotlash uchun zaruriy me'yoriy asoslarni ishlab chiqmagan. Shu bois Grebner uchun etnologiyaning asosiy muammosi madaniyatni tarixiy-madaniy aloqalari yoki mustaqil kelib chiqishiga oid tadqiqotlar metodini ishlab chiqishga qaratgan. U o'zining asosiy qarashlarini 1905 yilda nashr etilgan «Etnologiya uslubi» nomli kitobida mujassamlashtirgan.

Frobenius va Rattsel qarashlari asosida Robert Grebner madaniy qarashlar doirasi butun ibtidoiy jamoa davri tarixini global rekonstruksiya qiluvchi o'ziga xos nazariyani yaratgan. U o'z qarashlarini isbotlash maqsadida Er sharidagi barcha xalqlarning davlatchilikgacha bo'lgan madaniyatini oltita yirik madaniy doira yoki madaniy guruhlariga bo'lib chiqqan. Grebner olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida insoniyat tarixida hech qanday takroriy holatlar va bu bilan bog'liq biror bir qonuniyat mavjud emas degan xulosaga kelgan. Madaniyatdagi etnik jarayonlarning takrorlanishi juda kam uchraydigan holatdir. Shubhasiz bu o'rinda etnologlar ko'plab o'xshash holatlarga emas, balki yagona ko'rinish bilangina to'qnashadilar.

Difuzionizmga oid mulohazalarni yakunlar ekanmiz xulosa tarzda shuni ta'kidlash kerakki, mazkur oqim turli mamlakatlarda turlicha taraqqiy etganiga qaramay, ularni umumlashtiruvchi umumiy jihatlar tarzida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

Madaniyatni ma'lum bir geografik hududda paydo bo'ladigan va keyinchalik boshqa mintaqalarga tarqaluvchi tirik organizm shaklida tasavvur etiladi.

Har bir madaniyatning paydo bo'lish hududi va tarqalish mintaqasi mavjud. Ushbu madaniyat markazlarini izlab topish va ularni tadqiq qilish etnologiyaning asosiy vazifasidir. Madaniyat rivojlanishining asosiy omillari o'zlashtirilgan xususiyatlar va aralash madaniy elementlar hisoblanadi. O'zaro qorishgan madaniyatlar nafaqat moddiy madaniyatni, balki ma'naviy madaniyat ko'rinishlari hisoblangan miflar, e'tiqodlar, odatlar va boshqa shu kabilarni ham jalb etadi.

Har bir madaniyat ko'rinishi bir marta paydo bo'ladi; uning tarqalish manzarasini yaratish orqali uning har bir ko'rinishi dastlabki paydo bo'lgan hududini aniqlash mumkin.

3-asosiy savol: Sotsiologiya maktabi va funksionalizm.

3-asosiy savol bo'yicha dars maqsadlari:

Etnologiyaning rivojida sotsiologiya maktabi va funksionalizmning ahamiyatini baholash.

3-asosiy savolning bayoni:

Evropa mamlakatlari etnologiya fanida diffuzionizm maktabi bilan bir vaqtda sotsiologiya maktabi shakllangan va bu maktab ilmiy jihatdan qaraganda diffuzionizmga nisbatan birmuncha sermahsul bo'lgan. Agar evolyutsionizm asoschilari etnologiyani asosini insonda, diffuzionistlar esa madaniyatda deb bilgan bo'lsalar, sotsiologiya maktabi vakillari jamiyatda deb hisoblaganlar. Ushbu yo'nalish vakillarining bunday xulosaga kelishlarining boisi ular orasida «jamiyatni oddiy individlarga kiritib bo'lmaydi», - degan qarash ustivor edi. Sotsiologiya maktabi vakillarining ta'kidlashlaricha, jamiyat odamlar orasidagi o'zaro ongli aloqalari natijasida tashkil topgan.

E. Dyurkgeym (1858-1917yy). Etnologiya fanida sotsiologiya fanining vatani Frantsiya bo'lgan bo'lsa, ushbu yo'nalishning eng mashhur namoyandalardan biri Emil Dyurkgeymdir. U XIX asrning oxirgi o'n yilligida etnologiyada yangi yo'nalish-sotsiologiya maktabiga asos solgan.

Evolutsionistlarga qarshi o'laroq Dyurkgeym jamiyatni insonlarni o'rab turgan olamga moslashishi tarzida emas, balki yopiq statik tizim tarzida talqin qilgan. U jamiyatni sotsiologik faktlar orqali tadqiq qilish g'oyasini ilk marotoba taklif etgan va fanga ijtimoiy tur terminini olib kirgan tadqiqotchidir. O'z navbatida Dyurkgeym madaniyatni tasniflashda eng sodda jamoa-ibtidoiy jamoani asos qilib olgan. Olimning fikricha, mazkur jamoa o'z taraqqiyoti davomida murakkab jamoaviy tizimni bosib o'tib urug'ga aylanadi. Keyinchalik undan qator jamoa, elat, xalq kabi yangi jamoa va uyushmalar paydo bo'lgan. Shunday qilib Dyurkgeymning mulohazalariga ko'ra har qanday jamoa ibtidoiy jamoaning murakkablashgan shakli hisoblanadi.

L.Levi-Bryul (1857-1939yy). Etnologiyadagi frantsuz sotsiologiya maktabi vakillari orasida Lyusen Levi-Bryul g'oyalari alohida diqqatga sazovor bo'lgan g'oyalardan biri hisoblanadi. U o'z qarashlarini «Ibtidoiy tafakkur» (1923) nomli asarida batafsil izohlashga harakat qilgan. U Dyurkgeymdan farqli tarzda «ibtidoiy xalqlarning mantiqqacha bo'lgan tafakkuri» nomli nazariyani yaratgan.

Funksionalizm. Etnologiyada sotsiologiya maktabi g'oyalari taraqqiyotining mantiqiy davomi tarzida funksionalizm shakllangan. Agar diffuzionizmning vatani Germaniya, sotsiologiya maktabining vatani-Frantsiya bo'lsa, funksionalizm yana bir mashhur Evropa davlatlaridan biri Angliyada paydo bo'lgan va XX asrning 20-yillariga kelib etnologiyadagi etakchi oqimlardan biriga aylangan.

Funksionalizmning mashhur namoyandalari

R. Turnvald (R. Thurnwald, 1869-1954yy) — asosiy kitobi- “Kishilik jamoasining ijtimoiy asosi” (“Die menschliche Gesellschaft in ihren soziologische Grunlagen”) 1931 yilda nashr etilgan.

B. Malinovskiy (B. Malinovski, 1884 — 1942yy) — asosiy tasari “Madaniyatning ilmiy nazariyasi” (“A Scientific Theory of Culture”) — 1944 yil chop etilgan.

A. Radkliff-Braun (A. Radcliff-Brawn, 1881 — 1955yy) — asosiy tadqiqoti - “Primitiv jamoaning tuzulishi va funksiyasi” (“Structure and Function in Primitive Society”) — 1952 yil nashr etilgan.

Ilk marotoba funksionalistik nazariya nemis etnologi Rixard Turnvald tomonidan yaratilgan. Biroq Germaniyada funksionalizm keng ommalashmagan va Germaniyaga qo'shni bo'lgan Angliyada mashhur ilmiy maktab tarzida shakllangan hamda ijtimoiy va madaniy antropologiya taraqqiyotida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan. Shubhasiz, mazkur yo'nalishning yirik namoyandalardan biri Bronislav Malinovskiy bo'lgan.

Etnik jarayonlarni tadqiq qilishda funksionalizmni farqli xususiyati shundan iboratki, mazkur yo'nalish tarafdorlari madaniyatni o'zaro aloqador umumlashgan xususiyatlardan tashkil topgan deb hisoblaydilar. O'z navbatida shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, funksionalizm tarafdorlari uchun madaniyatning tarixiy o'zgarishi muammosi muhim ahamiyat kasb etmagan. Ular uchun madaniyat qanday harakatlanadi? qanday vazifalarni bajaradi? va qanday tarzda mahsulot beradi?- degan muammolarni hal etish dolzarb

hisoblangan.

B.Malinovskiy (1884-1942yy). Yuqoridagi me'yorlar asosida Malinovskiy madaniyatga oid empirik nazariyasini yaratgan. Malinovskiy o'zining nazariyasini yaratish jarayonida oldingi tadqiqotchilarni dala-etnografik ekspeditsiyalar o'tkazmaganlikda va faqatgina muzey kolleksiyalarining tadqiqi bilan chegaralanib qolganlikda tanqid qilgan. Shubhasiz u olib borgan dala-tadqiqotlari jarayonida juda ham qiziqarli ilmiy xulosalarga kelgan. Malinovskiyning kuzatishicha, etnologiya ko'pincha qandaydir psixologik gipoteza, yoki faqatgina biror buyum-yoki predmetni tavsif qilish bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Uning fikricha, tashqi kuzatuv ko'pincha anglashilmovchilikga olib kelishi mumkin. Shu bois ichki xususiyatlarni chuqur anglamasdan turib madaniyatni yaxlit tarzda tushunib bo'lmaydi. Bu o'rinda ma'lum bir buyumni nafaqat tavsiflash, balki u qanday yaratilgan, qay tarzda va qay holatda ishlatish mumkin, ushbu ashyo kimga tegishli va kim tomonidan ishlatilishini ham tadqiqotchi anglab bilishi lozim. Mashhur ingliz tadqiqotchisi etnologiya fanining tavsifiy, faktologik xususiyatiga qarshi bo'lib, bu faqatgina madaniyatning ayrim xususiyatlarinigina aks ettiradi, degan xulosoga kelgan.

Malinovskiy madaniyat nazariyasiga oid o'z qarashlarini 1944 yilda ingliz tilida nashr etilgan «Madaniyatning ilmiy nazariyasi» nomli kitobida bayon qilgan. Uning fikricha, madaniyat faqatgina insonlarga xos biologik xususiyat bo'lsa-da, insonlar ham tirik jonzotlar hisoblanadi. Shu bois u o'zining biologik ehtiyojini qondirish maqsadida oziq-ovqat, yonilg'i kabi kundalik ehtiyoj buyumlarini qidirib topadi, uy-joylar quradi va kiyim-kechaklarni tikib kiyadi. Demak u mazkur amallari orqali o'z atrofida ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantiradi va bu fanda madaniyat deb yuritiladi. Turli madaniyatlar orasidagi o'zaro farq insonlarning turfa xildagi oddiy ehtiyojlarini qondirish usullari bilan izohlash mumkin. Shu bois ham madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi.

O'z navbatida B.Malinovskiy antropologiya va etnologiyaning muhim vazifalarini, jumladan, dunyo madaniyatlarini tadqiq qilishni asos qilib olgan dastlabki etnologik maktab vakillari qarashlari borasida ham o'zining munosabatini bildirib o'tgan. Ayniqsa, u mashhur olim E.Taylorning «qoldiqlar metodi»ni jiddiy tanqid ostiga olgan. Uning fikricha, ushbu uslub asosida tadqiqotlar olib borgan ko'pgina olimlar har bir narsa yoki ko'rinishdan qoldiqiy xususiyatlarni izlaganlar. Aslida esa har doim ham qoldiqiy ko'rinishlar emas, balki madaniyat ko'rinishlari bo'lib, undagi eski ko'rinishlar o'rnini yangilari egallagan. Malinovskiyning fikricha, qoldiqiy ko'rinishlar etnologiya faniga jiddiy zarar etkazgan va u madaniyat ko'rinishlarining o'zaro funktsional bog'liqligi munosabatlariga ziddir. Mashhur olimning tasdiqlashicha, madaniyatda hech qanday ortiqcha, tasodifiy yoki qoldiqiy ko'rinish bo'lmaydi. Madaniyatdagi barcha ko'rinish yoki holat ma'lum bir funktsiyani bajaradi. Agar bunday bo'lmaganda edi bunday ko'rinishlar allaqchonlar iste'moldan chiqib ketgan bo'lar edi. Jumladan, qandaydir bir urf-odat qandaydir bir jarayonda qo'llanilar ekan, demak u nimagadir zarurdir. qolaversa B. Malinovskiy diffuzionistlarni ham tanqid ostiga oladi va uning fikricha, diffuzionistlarning katta xatolaridan biri mazkur oqim tarafdorlari madaniyatni tirik bir organizm tarzida emas, balki jonsiz buyumlar majmuidan iborat deb hisoblaganliklaridir.

A.Radkliff-Braun (1881-1955yy). Etnologiyadagi funktsionalizm oqimining yana bir yirik namoyandalaridan biri Alfred Radkliff Braun bo'lib, uning ayrim qarashlari Malinovskiy qarashlariga o'xshash bo'lgan. U Riversning shogirdi bo'lib, fanda ingliz strukturalizmi yoki strukturaviy funktsionalizm degan yangi yo'nalishni olib kirgan. Bu yo'nalishning o'ziga xosligi shundaki, mazkur nazariyada jamiyat hayotini, odamlar ongi va munosabatlari hamda madaniyatini funktsional va strukturaviy tahliliga oid qarashlari umumlashtiradi. Radkliff-Braun o'zining asosiy qarashlarini 1950 yilda chop etilgan «Etnologiya va sotsial antropologiya metodi» va 1952 yilda e'lon qilingan «Madaniyatning tarixiy va funktsional talqini» hamda «Primitiv jamoaning tuzulishi va funktsiyasi» nomli kitoblarida ifoda etgan. Radkliff Braun qarashlariga ko'ra, insonni o'rganuvchi asosiy fan antropologiya bo'lib, uch asosiy yo'nalishga-odam biologiyasi, qadimiy arxeologiya va etnografiyaga bo'linadi.

Etnografiya esa o'z navbatida etnologiya va sotsial antropologiyaga bo'linadi va ularning har bir o'ziga xos maxsus uslublari egadir.

U etnologiya deb alohida xalqlarni aniq tarixiylik printsiplari asosida o'rganuvchi, ularning ichki taraqqiyoti, o'zaro madaniy aloqalarini tahlil etuvchi fanga nisbatan qo'llashni tavsiya etgan.

Muallifning fikricha, etnologiyaning asosiy metodi yozma manbalar asosida insoniyat madaniyatini tarixiy rekonstruktsiya qilishdir.

Ijtimoiy antropologiya uning fikricha, insoniyat madaniyati o'rganishda umuman boshqa yo'nalishni aks ettiradi. Uning vazifasi-aniq bir xalqlar madaniyatini rekonstruktsiya qilish emas, balki xalqlarning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni izlab topishdir. Ushbu fan tabiiy fanlarning induktiv va analogik metodlaridan foydalanadi.

Intuktiv metodning mohiyati materiallarni ajratib tanlab olish va umumlashtirish bo'lib, bu madaniy ko'rinishlarni o'rganishga taalluqlidir.

4-asosiy savol: Etnopsixologiya maktabining shakllanishi.

4-asosiy savol bo'yicha dars maqsadlari:

Etnopsixologiya maktabining shakllanishini ochib berish.

4-asosiy savolning bayoni:

Ma'lumki, XX asrning 20 - yillarigacha Amerikada etnologiya fani asosan mashhur olim Frans Baos va uning maktabi ta'sirida rivojlangan. Amerika maktabining vakillari o'zlarining dala tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida ko'plab psixologik va psixatrik uslublardan foydalanganlar. Natijada psixologik antropologiyaga oid ko'plab ma'lumot yig'ilgan. Psixiantropologik nazariyaga bo'lgan ehtiyoj natijasida etnopsixologik maktab taraqqiy etadi.

Etnopsixologiya maktabi namoyandalarning ta'kidlashlaricha, «madaniyat» mavhum tushunchadan ko'ra kengroqdir, lekin bu borada birinchi o'rinda individ, shaxs turadi. Shu bois ularning fikricha, har bir xalq madaniyatini tadqiq qilishda individ va shaxsni o'rganishdan boshlamoq joiz.

Dastlabki etnopsixologik kontsepsiya etnolog olimlar tomonidan emas, balki psixolog olim, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Abram Kardiner (1891-1981) tomonidan yaratilgan. U o'z qarashlarini «Individ va uning jamoasi»(1937) va «Jamiyatning psixologik chegarasi» nomli asarlarida Etnopsixologiya maktabining asosiy g'oyalarini bayon qilgan. Uning tasavvuriga ko'ra, insonning shaxsiy xususiyatlari u tug'ilgandan keyingi dastlabki paytlardan oq shakllana boshlaydi. Bu shakllanish tashqi ta'sirlar va ayniqsa har bir jamiyatdagi o'ziga xos bola parvarishlash usullari: ovqatlantirish, yo'rgaklash, ko'tarish, keyinroq esa yurishga, gapirishga va ozodalikka o'rgatish kabilar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham inson ruhiyatining shakllanishi asosan 4-5 yoshgacha davom etadi va undan keyin mustahkamlanadi va butun umr deyarli o'zgarishsiz qoladi. Kardinerning bosh g'oyasida «asosiy shaxslar» tushunchasiga urg'u beriladi.

Umuman nafaqat Kardiner balki AqSh Etnopsixologiya maktabining R.Linton, E.Sepir, R.Benidikt, K.Dyuba, I.Xallouel kabi asoschilari ham etnik farqlanish va madaniyatlar dinamikasini «asosiy shaxslar tarkibi» nazariyasi bilan bog'lab tushuntirishga harakat qilganlar. Jumladan atoqli etnolog Rut Benidikt o'zining «Madaniyat namunalari» (1934), «Janubiy g'arb madaniyatining psixologik tiplari» (1928), «Shimoliy Amerikadagi madaniyatlarning konfiguratsiyasi» (1932) kabi asarlarida turli madaniyatlarda o'ziga xos maxsus shaxslar jamoasi mavjudligi haqidagi qarashlarini bayon etgan. Kardiner tasavvuriga ko'ra, inson shaxsiy qarashlari u tug'ilgandan keyingi dastlabki kunlardan oq shakllana boshlaydi. Bu bevosita unga tevarak - atrofdagilarning munosabatlari asosida shakllanadi. Bolalik davrida bo'lgan munosabat uning kelgusidagi hayot faoliyatida o'ziga xos iz qoldiradi.

Sobiq sovet tuzumi davrida Etnopsixologiya «burjua fani» hisoblanib, mazkur fanni

o'rganishga e'tibor berilmagan. Mafkuraviy qarama-qarshiliklar mavjud bo'lganligi uchun Yu.V.Bromley, N.D.Jandildin, S.I.Korolyov, S.A.Tokarev kabi taniqli etnograf olimlar ham g'arbiy Evropa va AqShdagi Etnopsixologiya sohasiga doir nazariyalarni faqat bir tomonlama, ya'ni «burjua sotsial psixologlari qarashlarining tanqidi» sifatida o'rganishga majbur bo'lganlar.

Etnopsixologiya maktabining nazariy-metodologik yo'nalishi madaniyat va shaxsning o'zaro ta'sirini aniqlashdan iborat bo'lgan. Ularning nazariyasiga ko'ra har bir madaniyat o'ziga xos shaxslar tipining egasidir va bolalar tarbiyasini o'rganish shaxs va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar orqali shakllanadigan milliy xarakterni ochib berishda muhim vosita hisoblanadi.

30-40 - yillarga kelib shaxs bilan madaniyat munosabati tushunchasi etnologiyaning dolzarb va asosiy muammosiga aylandi hamda tobora ko'proq etnolog olimlarning e'tiborini torta boshlagan edi. Mazkur muammo bo'yicha o'z nazariyalarini ilgari surgan olimlar ikki oqimni tashkil etdi: birinchisi inson xarakteri faqat tarbiya natijasida shakllanadi degan nazariyani ilgari suruvchi Boasning madaniy determinizimi tarafdorlari (R.Benidikt, M.Mid) va neofreydizim - (ya'ni turli madaniyat shaxs tiplari) umumlashgan asosdagi cheklangan variatsiyaning natijasidir degan g'oya tarafdorlari (A.Kardiner, R.Linton, K.Dyubua, I.Xollouel).

Etnopsixologiya maktabining rivojlanishida, shubhasiz, Boasning shogirdi M.Midning katta xizmatlari bor. U ustozining turli madaniyatlardagi tarbiya usuli shaxslar va ularga xos faoliyatlarni keltirib chiqarishi haqidagi fikrini quvvatlaydi hamda inson xulq - atvori, faoliyati, shaxsiy xususiyatlarini biologik omil (irq) bilan emas madaniyat bilan bog'liqligi haqida ilmiy xulosaga keladi.

M.Mid Samoa (1892-25), Admiralteystva (1928-29, 1965-67) orollarida, Yangi Gvineya (1930-33), Indoneziyaning Bali (1936-390 orolida va boshqa hududlarda uzoq vaqtlar mobaynida etnografik dala tadqiqotlarini olib bordi. Mazkur dala tadqiqotlari ma'lumotlari asosida yozilgan, «Samoadada balog'atga etish», «Uch ibtidoiy jamoalarda jins va temperament», «Gvineyada voyaga etish» kabi asarlari bilan butun dunyoga tanildi.

Etnopsixologik qiyofa tushunchasiga ham ko'p tadqiqotchilar o'z ta'riflarini berib o'tganlar. Masalan rus tadqiqotchisi S.I.Korolyov shakllangan etnik qiyofa «ma'lum darajada muhofaza qiluvchi mexanizm rolini o'ynaydi. U xuddi elakdek, yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi, yoki uni shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi yohud inkor qiladi, -deb ta'rif bergan. Bu ta'rifni biroz boshqcharoq talqin etadigan bo'lsak, etnoslarning psixologik qiyofasi-ularning atrofdagi voqelikni, hodisalarni o'ziga xos ravishda idrok, tafakkur, tasavvur qilishi ularga bo'lgan munosabatning urf-odat, an'analar, xarakter tarzida namoyon bo'lishidir.

Har bir xalqning psixologik qiyofasiga mos tarzda madaniyati, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tizimi, yosh va jinslar o'rtasidagi farqlanish, diniy e'tiqodga nisbatan munosabat va shu bilan bog'liq harakatlar, kayfiyatlar hozirgi davrda esa siyosiy jarayonlarga munosabatlar ham shakllanadi.

Muayyan bir etnik guruhlar ma'lum bir tarixiy rivojlanish bosqichida o'ziga xos ruhiy-ahloqiy hislatlarga ega bo'lib boradi va bu hol ularning madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, biz ruhiy-axloqiy hislatlarimiz va shunga bog'liq turmush tarzimiz bilan xuddi shu makonda bir asr oldin yashagan o'z ajdodlarimizdan ancha farq qilamiz.

Agar AqSh Etnopsixologiya maktabining asosiy xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, u quyidagilardan iborat edi: Madaniyatni shaxs orqali tushuntirishga intilish, insonning bolalik davriga, ayniqsa, go'dakning ruhiy-jinsiy shakllanishiga kuchli qiziqish, jamiyat rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rniga etarli baho bermaslik va psixik omillarni mutlaqlashtirish. AqSh Etnopsixologiya maktabining fan oldidagi xizmatlari esa avvalo etnografiyani psixologiya va psixiatriya bilan yaqinlashuviga yordam berdi, etnografiyaga loyihalangan testlarni qo'llash orqali bolalik davrini qiyosiy tadqiq qilishni rivojlantirdi.

60-70 - yillarga kelib etnopsixologik tadqiqotlar hududi sifatida «madaniyat va shaxs»ni

sotsial-madaniy sistema bilan bog'liq tarzda o'rganish yana dolzarb muammoga aylandi va bu muammo quyidagi tadqiqot yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- a) ijtimoiy tuzilma va qadriyatlarning bola tarbiyalashga ta'siri va munosabatini o'rganish;
- b) bola tarbiyasi usullarini tadqiq qilish orqali unda aks etgan inson xulq - atvori va ruhiyatni bilish.

Psixologik antropologiya sohasida Germaniyalik olim I.Eybl-Eybesfeldt, italiyalik V.Lantanari, gvatemalalik A.Mendea-Dominige va shu kabi olimlarning faol tadqiqot olib borib, Etnopsixologiya rivojlanishiga muhim hissa qo'shishlari Etnopsixologiyaning amalda dunyo fanlari tizimida mustahkam o'rin olganligidan dalolat beradi.

Psixologik antropologiya insonni bashariyatning va alohida madaniyatning bir bo'lagi sifatida tadqiq etar ekan turli sotsial va madaniy sistemalarda a'lo darajadagi hamfikrlik va hamjihatlik vujudga kelishi uchun keng yo'l ochadi. Bu esa davrimizga xos bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, milliy va diniy muammolar globallashayotgan zamonda ko'plab muammolarni hal qilishning samarali vositasidir.

Jahon etnologiyasida Etnopsixologiyaning o'rne haqidagi fikrlarimizni yakunlar ekanmiz, ilg'or mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni echishda etnopsixologik tadqiqotlar natijasidan unumli foydalanganligiga amin bo'ldik. Ularning tajribasidan kelib chiqib, hozirgi davrda jamiyatimizdagi ko'plab iqtisodiy-ijtimoiy muammolar o'z echimini topmayotganligi yoki amalga oshirilayotgan islohotlar biz uchun kutilgan natijalarni bermayotganligiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jamiyatdagi etnoslar xulq-atvori va ruhiyati bilan bog'liq ekanligini to'la anglamaganimiz sabab degan fikrga keldik.

Xalqimiz moddiy va ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi sanalmish uning e'tiqodi, urf-odatlar, uy-joyi, kiyim-kechagi-yu taomlarini o'rganish bilan bir qatorda ana shu o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyatni shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan xulq - atvori va ruhiyatini tadqiq etish ham muhimdir.

Faqat etnopsixologik tadqiqotlar bilangina biz tariximizning keyingi davrida xalqimiz ruhiyati va xulq atvorida paydo bo'lgan loqaydlik, boqimandalik, ma'suliyatsizlik, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularidan uzoqlashish kayfiyatlari, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning sustligi kabi salbiy hislatlarning vujudga kelganlik sabablarini ochishimiz, jonkuyarlik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik va boshqa shu kabi fazilatlarni rivojlantirishning yo'llarini topishimiz mumkin.

Jahon tarixiga nazar soladigan bo'lsak, inglizlardagi kuchli tadbirkorlik, tashabbuskorlik va tarbiyadagi qattiqqo'llik hislati, nemislardagi o'ta mas'uliyatlik va o'ziga ishonch hislari, yaponlarning millatparvarligi va jamoa manfaatini e'zozlashlari, frantsuzlardagi doimo yangilikka va erkin fikrlashga intilish bu xalqlar yashayotgan yurtlarni dunyoda eng taraqqiy etgan mamlakatlarga aylantirdi.

5-asosiy savol: Etnologiyadagi yangi kontseptsiyalar.

5-asosiy savol bo'yicha dars maqsadlari:

Etnologiyadagi yangi kontseptsiyalar haqida tushuncha berish.

5-asosiy savolning bayoni:

Keyin yarim asr davomida etnologiya fanida ko'plab yangi nazariy-metodologik qarashlar hamda g'oyalar paydo bo'ldi. Shubhasiz bunday qarashlarning paydo bo'lishi dunyo miqyosda siyosiy jarayonlarning o'zgarishi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachi imperiyalarning emirilishi etnologiyaning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir qildi deb aytish mumkin. Evropadagi yirik davlatlarning mustamlakalaridan mahrum bo'lishi mazkur mamlakatlarda etnologiyaga bo'lgan qiziqishning ma'lum ma'noda susayishiga va o'z navbatida etnologik tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablag'ni kamayishiga sabab bo'ldi. Etnologiyaga amaliy qiziqishning kamayishi ayrim mamlakatlarda (Niderlandiyada) qator ilmiy tadqiqot institutlarining yopilishiga olib kelgan bo'lsa, boshqa mamlakatlarda (Buyuk Britaniya va Frantsiyada) etnologiyaning fanlar

tizimidagi o'zni va ahamiyati ma'lum ma'noda pasaygan. Biroq bu jarayonlar Evropa mamlakatlari etnologiyasida keyingi davrda hech qanday yangi qarashlar va nazariyalar yaratilmagan degan mulohazani bildirmaydi. Bu davrda Evropa etnologlari tomonidan etnologiya sohasida bir qator yangi nazariyalar yaratildi. Jumladan, ingliz olimi Maks Gyulkman (1917-1975) tomonidan «neofunksionalizmning Manchester maktabi» nomi ostida mashhur bo'lgan yo'nalishga asos solingan, Rodney Nixem (1923 yilda tug'ilgan) tomonidan ijtimoiy strukturalizmning yangi kontseptsiyasi yaratilgan. Frantsuz etnologlari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, garchi ma'lum ma'noda Levi Stross qarashlari ta'sirida bo'lishlariga qaramay, Moris Godile, Klod Melissolar tomonidan tarixiy materializmga asoslangan qarashlarini shakllantirishga harakat qilganlar.

O'z navbatida shuni ham aytib o'tish kerakki, XX asrning 50-yillaridan boshlab Evropa mamlakatlaridagi etnologiya fani amerikalik olimlar qarashlari ta'sirida rivojlangan. Chunki aynan mazkur davrda AqShda madaniy antropologiya juda ham rivojlangan edi. Chunonchi, bu davrda, ya'ni 40-50 - yillar oralig'ida AqShda etnolog mutaxassislar tayyorlovchi kollej va universitetlar soni ikki baravarga ko'paygan. Mazkur fanga bo'lgan qiziqishning ortishini ikki holat bilan izohlash mumkin. Birinchidan, AqShda madaniy antropologiya studentlarning umumiy ta'lim olishlarida muhim rol o'ynagan ijtimoiy gumanitar fan hisoblangan. Ikkinchidan, ikkinchi jahon urushidan keyin jahon siyosiy maydonidagi vaziyatni o'zgarishi AqShda etnologiya fanining taraqqiyotiga ham ma'lum ma'noda o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Amerikalik olimlar tomonidan ozod bo'lgan uchinchi dunyo mamlakatlari uchun tavsiya qilingan madaniy relyativizm kontseptsiyasi dunyoning yangi tartib-qoidasi tarzida qabul qilingan. Madaniy relyativizm bilan birga neoevolutsionizm g'oyalari ham sezilarli darajada tarqalgan.

XX asrning 80-yillarga kelib ijtimoiy biologiya maktabining qisqa muddatli taraqqiyot bosqichi bo'ldi. Biroq tez orada mazkur yo'nalish fandagi o'zining etakchilik mavqeini madaniy ekologiyaga bo'shatib berdi va mazkur nazariya bugungi kungacha amerika madaniy antropologiyasida etakchilik mavqeini saqlab kelmoqda. Tadqiqotchi olimlar bu oqimni ham funksionalizm, strukturalizm va neoevolutsionizm bilan birga amerika madaniy antropologiyasidagi asosiy qarashlar sirasiga kiritadilar.

Keyingi o'n yilliklarda Amerika etnologlari orasida Klifford Girts (1926) va Rixard Terner (1920-1983)larning qarashlari asosida shakllangan yangi germenevtika yo'nalishi ancha mashhur bo'lib bormoqda. Mazkur yo'nalish tarafdorlari asosan ijtimoiy kommunikatsiyadagi simvollarning o'zni va simvollarning zamonaviy madaniyatlardagi ma'naviy-axloqiy ahamiyatini tadqiq qilishni maqsad qilib olganlar. Bu borada Terner simvollarning pragmatik aspektiga ko'proq e'tibor qaratgan va simvollar ijtimoiy jarayonlarda faol kuch tarzda namoyon bo'ladi degan xulosaga kelgan. Ternerdan farqli tarzda Girts simvollarning ijtimoiy hayotdagi o'rniga va ularning inson hissiyoti va ruhiyatiga bo'lgan ta'sirini muhim deb hisoblagan. Girts etnologlar empirik ma'lumotlarni tavsif qilish bilangina chegaralanib qolmasdan, mazkur madaniyat sohiblarining qarashlari va harakatlari tub mohiyatini aniqlashlari zarur degan g'oyani ilgari surgan.

Etnologiyaning kelgusidagi istiqbolli mavzulari to'g'risidagi kechayotgan bahs-munozaralarda ko'plab tadqiqotchilar germenevtik antropologiyani fanning istiqbolli yo'nalishi deb ta'kidlamoqdalar. Bunga sabab mazkur yo'nalish tarafdorlari madaniyat ob'ektini tadqiq qilish sub'ekti asosan evropalik tadqiqotchilar bo'lishi kerak evropalik bo'lmagan jamoalar bunda tadqiqot ob'ektigina bo'lishi mumkin - degan g'oya asosida shakllangan evrotsentirizm g'oyasidan butkul voz kechishgan. Ular er sharining har qaysi mintaqasida yashovchi tadqiqotchi tadqiqot sub'ekti bo'lishi mumkin va o'z navbatida evropa madaniyati tadqiqot ob'ekti tarzida tadqiq qilinishi mumkin degan g'oyani ilgari surdilar. qolaversa hozir alohida madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi va birlashuvi jarayoni ularni yagona global madaniy tizimda birlashishlariga sabab bo'lmoqda. Shu bois hozir etnologiya fanida boshqa madaniyatlarni nafaqat tadqiqot ob'ekti tarzida tadqiq etish, balki tarixiy-madaniy jarayonlar muammolariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda va

mazkur yo'nalishlar doirasidagi mavzular fanning istiqboldagi yo'nalishlari deb e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy etnologiyada nafaqat «orqada qolgan» etnik guruhlar, balki zamonaviy taraqqiy etgan industirlashgan jamiyatlar ham tadqiq qilinmoqda. qolaversa, aynan oxirgi yillarda olib borilayotgan samarali amaliy tadqiqotlar va etnologiyaning turli yondosh fanlar bilan o'zaro tutashishi natijasida «etnosotsiologiya», «Etnopsixologiya», «etnolingvistika», «etnodemografiya» kabi o'zaro tutash yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Etnologiyada ko'proq insoniyat va uning madaniyatini tadqiq qilishga va ularni ilmiy analitik tarzda tahlil etishga e'tibor qaratilmoqda.

XX asr milliy g'oyalar, milliy harakatlar va milliy nizolar avj olgan davr hisoblanadi. Xalqlarning tarixiy-madaniy taraqqiyotining doimiy o'sib borishi etnoslararo jarayonlarni va milliy-ozodlik harakatlarni bir muncha avj olishiga sabab bo'lgan deb aytish mumkin. Bu jarayonlarning aniq natijalari tarzida Norvegiya, Irlandiya, Polsha, Finlandiya, Boltiqbo'yi davlatlarining milliy mustaqillikni qo'lga kiritishlari, Markaziy Evropada va Bolqonda birinchi jahon urushidan keyin Avstriya-Vengriya imperiyasi o'rnida qator milliy davlatlarning barpo bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin yirik kapitalistik mamlakatlarning o'z mustamlakalaridan mahrum bo'lishi, Janubiy-sharqiy Osiyoda, Hindixitoyda, Afrikada qator mustaqil davlatlarni paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek 1991 yildan keyin sobiq ittifoq o'rnida 15 ta mustaqil Respublikalarning paydo bo'lishi ham ma'lum ma'noda milliy-etnik muammolar bilan chambarchas bog'liqdir. Umuman olganda mazkur ma'lumotlar etnik omillarning muhim ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. O'z navbatida yuqorida tahlil etilgan ko'plab etnologik nazariyalardan qay bir tarixdagi etnik jarayonlarni sharhlab tushuntirishda eng maqbuli hisoblanadi?-degan savol tug'ilishi tabiiydir. Bu borada ayrim tadqiqotchilar tarixdagi etnik jarayonlarni izohlashda eng maqbuli turli etnologik, sotsiologik va madaniyatshunoslikka oid maktablar orasidan sintez qilib olingan-tarixiy etnologiya deb hisoblaydilar¹.

XX asr oxirida dunyoning etnik manzarasini keskin tarzda o'zgarib borishi tadqiqotchi olimlarni etnologiyaning tadqiqot ob'ekti muammosiga yana qayta murojaat qilishlariga sabab bo'lmoqda. Evropa va Shimoliy Amerikadagi turli-tuman muammolar natijasida paydo bo'lgan ko'p sonli diasporalar, emigrantlar va qochoqlar rivojlangan davlatlarning etnik tarkibini jiddiy o'zgartirib yubordi hamda mahalliy avtohton etnoslar orasida kamsonli etnik jamoalar mustahkam o'rnini topishiga sabab bo'ldi. Boshqa tomondan esa Farbiy Evropadagi integratsion jarayonlar qator yangi etnik muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Yangi tarixiy vaziyat va jamiyat hayotidagi muammolar etnologiyaning tadqiqot hududini kengayishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda etnologiya yangi mavzularning kirib kelishi tadqiqotchilarga fan ichida mustaqil tadqiqot mavzularini va yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish imkoniyatini bermoqda. Jumladan, Farbiy Evropa etnologiyasida bugungi kunda iqtisodiy etnologiya, sotsial etnologiya, huquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya kabi yo'nalishlar mustaqil tarzda taraqqiy etib rivojlanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda etnologiya fanining kelgusidagi asosiy tadqiqot ob'ektlari tarzida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- etnik antropologiya (xalqlarning etnogenez va antropofizik taraqqiyoti muammolarini tadqiq etadi);
- etnik sotsiologiya (etnik guruhlar rivojlanishining sotsial aspektlari va mavjudligini, ularning o'zlikni anglash va o'z-o'zini anglash shakllari, etnik guruhlar orasidagi aloqlar shakllarini tadqiq qiladi);
- etnik psixologiya (etnik stereotiplarning shakllanishi, etnik ong va etnik o'zlikni anglash muammolarini o'rganadi);
- iqtisodiy etnologiya (etnoslarning xo'jalik yuritish va iqtisodiy muammolarini tahlil qiladi);
- etnodemografiya (mazkur yo'nalishning asosiy vazifasi xalqlar sonini o'sib borishi dinamikasi va demografik jarayonlarni o'rganishdir);

-etnogeografiya (xalqlarning geografik joylashuvi, ularning taraqqiyotida hududiy omilning tutgan o'rnini va etnik hududlar va etnik chegaralar muammolarini tahlil qiladi);

-etnopedagogika (turli etnoslardagi ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi).

Farb mamlakatlarida hozir etnologiya fani «postmodernizm» falsafasiga asoslangan bo'lib, bunda asosiy e'tibor ijtimoiy guruhlar orasidagi jarayonlarga qaratiladi. Shuningdek, fanda lokal va global jarayonlarni o'rganishda tadqiqotchilar tomonidan tadqiqiy tanlanish, ya'ni jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni emas, balki etnos va turli-tuman madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng muhim deb hisoblangan ko'rinishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak, so'nggi yillarda bajarilayotgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor insoniyatning rivojlanish bosqichlari, ya'ni paydo bo'lganidan to hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy yo'lining global miqyosdagi tavsif qilishga emas, balki muammoviy tanlanish asosidagi tadqiqotlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Demak, yuqoridagi mulohazalarga yakun yasab umumlashma tarzida shuni ta'kidlash mumkin, postmodernizm g'oyasi bilan boyitilgan etnologiya fanining bugungi kundagi asosiy vazifasiga etnomadaniy munosabatlarni hosil qiluvchi etnosning o'zining ichidagi va etnoslararo jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Tadqiqotchilar oxirgi paytlarda etnik madaniyatlarga va ularning lokal xususiyatlariga, odamlarning kundalik turmush-tarziga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Eng muhimi hozir bajarilayotgan ko'plab etnologik tadqiqotlar amaliyotda qo'llanilmoqda va rivojlangan mamlakatlarda bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati jamiyat hayotida aynan muhim va eng dolzarb deb e'tirof etilgan ijtimoiy muammolar doirasida amalga oshirilayotganligi yuqoridagi fikrlarimizga yanada oydinlik kiritadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Evropadagi etnologiya maktablarini tavsiflab bering.
2. Evolyutsionizm, diffuzionizm, sotsiologiya va funksionalizmning mohiyati nimalardan iborat?
3. Zamonaviy etnologiya muammolari haqida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belik A.A., Rezik Yu.V. Sotsiokulturnaya antropologiya. Istoriko-teoritichnskoe vvedenie. - M.,1998.
 2. Kratkiy etnologicheskiy slovar. Moskva: fond "Sotsialno'y monitoring", 1995.
 3. Kulturnaya antropologiya: Uchebnoe posobieG'Pod.red. Yu.N.Emelyanova, N.G. Skvortsova.-SPb.,1996.
 4. Etnologiya. Uchebnik dlya vo'sshix uchebno'x zavedeniy. Pod red. A.P Sadoxina. - M., 2000
 5. J. B. Cole. Anthropology For the Nineties. N.Y, L.: The Free Press, 1988.
 6. George W. Stocking. Polarity and Plurality: Franz Boas as Psuchological Antropologist. In: New direction in Psychological Anthropology. Theodor Schwartz, Geoffry M. White, Satherine A. Lutz (eds.) Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
- Jabborov I. Jaxon xalqlari etnologiyasi.T.,2005.

3 mavzu: Dunyo xalqlarining klassifikasiyasi

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Dunyo xalqlarining klassifikasiyasi”

mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi</p> <p>1.1, Dars maqsadi: Er sharining etnik tarixi, dunyo aholisining geografik, tiliga, xo'jalik yuritish an'analariga ko'ra tasniflash, etnologiyaga oid manbalar va fanning tadqiqot uslublari haqida ma'lumot berish.</p> <p>1.2, Identiv maqsadlar:</p> <p>1.1. Er sharining etnik tarixi haqida so'zlab beradi. 1.2. Dunyo aholisining klassifikatsiyalariga sharx beradi. 1.3. Etnologiyaga oid manbalar va fanning tadqiqot uslublari haqida sharx beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: Etnik jarayonlar, etnotransformatsion jarayonlar, etnoevalyutsion jarayonlar, assimiliyatsiya, integratsiya, statsionar uslub, ekspeditsiya uslubi, to'pli tadqiqot, yo'nalishli tadqiqot.</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi-talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash:</p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <p>7. Dunyoning hozirgi etnik qiyofasini tavsiflab bering. 8. Aholi klassifikatsiyasining yana qanday turlari avjud? 9. Etnologiyaning tadqiqot uslublari va manbalari haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Etnik jarayonlar va ularning turlari 	O'qituvchi 10 min.

Asosiy savollar:

1. Er sharining etnik tarixi.
2. Dunyo aholisining geografik klassifikatsiyasi.
3. Aholini tiliga qarab klassifikatsiyalash.
4. Xo'jalik yuritish an'analariga ko'ra tasniflash.
5. Etnik jarayonlarni tadqiq qilish.
6. Etnologik ekspeditsiyani tayyorlash.
7. Dala etnologik tadqiqotlarni tashkil etish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Etnik jarayonlar, etnotransformatsion jarayonlar, etnoevalyutsion jarayonlar, assimiliyatsiya, integratsiya, statsionar uslub, ekspeditsiya uslubi, to'pli tadqiqot, yo'nalishli tadqiqot.

Mavzuga oid muammolar:

Zamonaviy etnologik tadqiqot ob'ekti deb moddiy-ma'naviy madaniyatning qaysi bir sohalarini tushunasiz.

Dala etnologik ekspiditsiyaga mavzu aniqlang, 20-30 savoldan iborat savolnoma ishlab chiqing.

1-asosiy savol: Er sharining etnik tarixi.

1-savol yuzasidan dars maqsadi: Etnologiya fanida bugungi kunda asosiy tadqiqot mavzusi bo'lgan etnik jarayonlarning mohiyatini ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Etnik jarayon va uning turlari.
- 1.2. Qadimda va o'rta asrlarda etnik jarayonlar.
- 1.3. Zamonaviy etnik jarayonlar va o'rganish muammolari.

1-asosiy savolning bayoni:

Er sharida aholi sonini mutassil ko'payib borishi, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, jamoat uyushmalarining murakkablashib borishi va madaniyat taraqqiyoti doimiy tarzda yalpi ko'chib o'tish(migratsiya)ni ko'payishiga, alohida xalqlar va ularning turli mintaqalardagi butun bir guruhlar orasidagi o'zaro xo'jalik-madaniy munosabatlarini kuchayishiga va o'zaro qorishib ketishiga sabab bo'lmoqda. Evropa, Osiyo va Shimoliy Amerika xalqlari etnik tarixida IV-IX asrlarda yuz bergan xalqlarning buyuk ko'chishi nomini olgan jarayon muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mazkur davrda slavyanlarning Sharqiy Evropaga joylashishi, germanlarning Markaziy va Shimoliy Evropaga tarqalishi hamda ularning Britaniya orollariga kirib borishi jarayoni yuz bergan. IV asr so'nggida Evropaga xunlar kirib kelgan va Dunay havzasida etnik qorishgan aholidan yirik davlatni barpo qilganlar. Xunlarning izidan Evropaga xazarlar, avarlar, qipchoqlar, bolgarlar kabi boshqa turkiy xalqlar kirib keldilar. Bolgarlarning bir guruhi Volga daryosi bo'ylab ko'tarilgan va ulardan bir qismi chuvashlar hamda tatarlar etnogenezida muhim rol o'ynagan bo'lsa, boshqa bir guruhi esa 679 yili Dunaydan o'tib janub tomon yoyilgan hamda bolgar xalqiga o'z nomini bergan. VIII-IX asrlarda Janubiy Ural tog'laridan O'rta Dunay irmog'iga g'arbiy Sibirda yashovchi xant va mansilarga yaqin bo'lgan mojarlar (madyarlar) kelib joylashganlar. Turkiy xalqlar 1-ming yillikning ikkinchi yarmida yalpi tarzda Janubiy Sibir, va Markaziy Osiyoga ko'chib o'tganlar. VI asr va VII asr boshlaridan arablar tomonidan ko'plab mamlakatlarni bosib olinishi natijasida uning Old Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlariga tarqalishi hamda u erlarda yashovchi mahalliy aholi bilan qo'shilish jarayoni boshlangan.

II ming yillikning birinchi yarmida Osiyo va Evropa mamlakatlari etnik tarixiga mo'g'ullar bosqini jiddiy ta'sir qildi. XIII asrda Chingizxon qo'shini tarkibida mo'g'ullar bilan birga ko'plab turkiy qavmlar ham bo'lgan. Natijada kelib chiqishi har xil bo'lgan turli-tuman etnoslarning o'zaro qo'shilishi natijasida Markaziy va Markaziy Osiyo, Sharqiy Evropa hamda Kavkazda qator engi etnoslar tashkil topdi.

Dunyoning etnik tarixida buyuk geografik kashfiyotlarning ham ta'siri katta bo'lgan. XVI-XIX asrlarda amalga oshirilgan geografik kashfiyotlar natijasida ko'plab evropaliklar Amerika, Avstraliya va Okeaniyaga ommaviy tarzda ko'chib o'tganlar. Mazkur migratsion jarayonlarda dastlab ispanlar va portugallar, keyinroq gollandlar, frantsuzlar va ayniqsa inglizlar asosiy rolni o'ynaganlar. Ushbu xalqlardan ajralib chiqqan ko'plab guruhlar

o'zlarining asl vatanidan va ona xalqidan ajralganlaridan so'ng yangi erlarda yangi etnik jamoalarga asos soldilar. Mazkur etnik jamoalarni tashkil topishida ayrim hollarda kolonial mamlakatning mahalliy aholisi muhim rol o'ynagan bo'lsa boshqa holatlarda Evropadan kelgan emigrantlar asosiy rolni o'ynagan. Chunki ular tomonidan ko'pincha mahalliy aholi butkul qirib tashlangan yoki o'zlarining asl etnik vatanlaridan quvib chiqarilgan.

Birinchi yo'ldan Meksika, Markaziy va Janubiy Amerikadagi ko'plab davlatlar aholisining shakllanishi yuz bergan bo'lsa, etnik rivojlanishning ikkinchi yo'ldan Kanada, AqSh, Argentina, Urugvay, Avstraliya va Okeaniya va Yangi Zelandiya hamda Gavaya aholisi shakllangan. Amerika qit'asidagi ayrim mamlakatlarda, ayniqsa, Karib havzasi mamlakatlari, Venesuela, Braziliya va Gayana etnik tarixida evropalik imigrantlar va mahalliy hindular bilan birga afrikadan bo'lgan qullar ham muhim rol o'ynagan. Umuman olganda XVI asr va XX asr boshlarida dunyo miqyosida mustamlakachilik tuzumining avj olishi ham dunyoning etnik manzarasini o'zgarishiga sabab bo'lgan. qolaversa, aholi sonining intensiv o'sib borishi va yangi erlarning o'zlashtirilishi ham turli tarixiy-etnografik mintaqalar orasida etnomadaniy aloqalarning avj olishiga sabab bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, insoniyat tarixida aholi sonining o'sishi murakkab va nomutanosib bo'lgan: «demografik portlashlar»davri aholining sonining keskin kamayib ketish davrlari bilan doimiy almashinilib turgan. Aholi sonining o'sishi yoki kamayishi o'ziga xos tarixiy, ijtimoiy va biologik sabablar bilan bog'liq bo'lgan. XX-XXI asrlarda er sharida odamlar soni juda tezlik bilan o'sib bormoqda. Bunga 39 yil oldin Er shari aholisi hozirgiga qaraganda ikki baravar kam bo'lganligi va aholining qariyb yarmidan ko'pi 25 yoshga etmasdan vafot etganligi yorqin misol bo'la oladi.

Ming yillar mobaynida dunyo aholisi juda sekin darajada ko'payib borgan, bunga sabab insoniyat tarixning ilk bosqichlarida tabiatga ma'lum ma'noda qaram bo'lgan. qadimgi davrlarda va o'rta asrlarda tug'ilish keskin baland bo'lishiga qaramay doimiy kasalliklar, epidemiyalar, urushlar o'lim sur'atining o'sib borishiga olib kelgan. Shu bois aynan mazkur davrda dunyo miqyosida tug'ilish ko'rsatgichi o'limdan ustun turgan.

Paleolit davri yakunida (taxminan 15 ming yil oldin) erdagi odamlarning umumiy soni taxminan 3 mln. atrofida bo'lgan. Kishilik jamiyati o'z tarixining mazkur bosqichida odamlar hozirgi yashayotgan hududining uchdan bir qismida yashar edilar. Er sharining boshqa mintaqalarida odamlar juda kam uchragan. Bu ma'lum ma'noda qadim ajdodlarimizning xo'jalik turmush-tarzi (terib-termachilik, ovchilik, baliqchilik) bilan bog'liq bo'lib, mazkur holat odamlarning keng mintaqalarda bir-birlaridan uzoqda yashashlariga majbur qilgan.

O'n ming yil oldin Yaqin Sharqda yashagan odamlar jamoasini o'troq turmush-tarziga o'tishlari va dehqonchilik hamda chorvachilikning keng yoyilishi odamlarning tabiatga qaramligini nisbatan kamaytirgan va ularning sonini o'sishiga sabab bo'lgan. Ushbu novatsiyalar natijasida 4-5 ming yil avval Erdagi aholi taxminan 25 mln kishiga ko'paygan. Bu davrda ona zaminimizning asosiy aholisi qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xunanxe va Yantsizi daryolari oralig'ida hamda Markaziy Osiyo hududida yashagan. Insoniyatning bundan keyingi etnik tarixi xo'jalik munosabatlarini takomillashuv jarayoni (agrotexnikaning yaxshilanishi, yangi mehnat qurollarining yaratilishi, hayvonlarni xonakilashtirish) bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ushbu omillar natijasida erdagi kishilar soni sezilarli darajada ko'payib borgan. Antropologlar va etnologlarning taxminiy hisob-kitoblariga ko'ra bizning eramiz boshlarida, ya'ni bundan ikki ming yil oldin Er yuzi aholisi 150-200 mln. kishiga etgan. Lekin hali hanuz sayyoramizdagi aksariyat mintaqalarni o'zlashtirilmagan xududlar tashkil qilar edi. Arxeolog va paleontolog mutaxassislarining fikrlaricha, bu davrda asosiy aholining 70% Osiyoda yashagan.

Milodiy eraning oxirgi XIX asri mobaynida Er shari aholisi 10 marta ko'paygan bo'lsa-da, aholining ko'payish jarayoni tarixning barcha davrlarida ham bir xil tarzda kechmagan. Ayrim davrlarda aholi soni urushlar, kasalliklar va epidemiyalar ta'sirida keskin kamayib ketgan bo'lsa, boshqa davrlarda intensiv tarzda aholi sonini o'sib borishi kuzatilgan. Misol uchun XVI asrda Er sharida o'lat epidemiyasining ommaviy tarzda tarqalishi natijasida ona

zamin aholisining to'rtidan bir qismi qirilib ketgan. Shu bois eramizning birinchi ming yilligida Er shari aholisi faqatgina 1,5 baravarga ko'paygan xalos. I ming yillikdan II ming yillikga o'tish arafasida sayyoramizning asosiy aholisi Janubiy Osiyoda(79 mln.), Xitoyda (66 mln.) yashagan va ular umumiy aholining 55% ni tashkil qilgan. Bu davrda Evropada Frantsiya, Italiya va Ispaniya kabi mamlakatlar aholisi eng ko'p bo'lgan mamlakatlar hisoblangan.

II ming yillik o'rtalariga kelib Er shari aholisi 1,6 marta ko'paygan. Ayniqsa bu davrda Evropa aholisi juda tez sur'atda ko'payib borgan bo'lsa-da lekin eng ko'p odam yashagan mamlakat oldingi davrlardagidek Xitoy hisoblanib, bu mamlakatda jami 110 mln. odam istiqomat qilar edi. Shuningdek, Yaponiya aholisi ham juda tez sur'atda ko'payib borgan. Jumladan, Yaponiya aholisi 1000 - yilda 4,5 mln. bo'lgan bo'lsa, 1500 - yilda 17 mln.ga etgan. Evropada esa eng ko'p odam yashagan mamlakat Frantsiya bo'lib, mazkur mamlakatda jami 15 mln. kishi istiqomat qilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo'yicha aholi keskin ko'paygan. Shu bois mazkur davrni «birinchi demografik portlash» davri deb aytish mumkin. Agar 1500 - yildan 1750 - yilgacha aholi soni taxminan 300 mln. kishiga ko'paygan bo'lsa, 1750 - yildan 1900 - yilgacha 910 mln.ga ko'paygan. Aholi sonining intensiv o'sib borish jarayoni 19-asrning ikkinchi yarmiga taalluqli bo'lib, bu davrda o'lim, ayniqsa, bolalar o'limi kamaygan, odamlarning o'rtacha yashash yoshi oshgan.

XX asr boshiga kelib eng ko'p yashaydigan mamlakatlar Xitoy (475 mln.), Janubiy Osiyo (290 mln.) va Rossiya (130 mln.) bo'lgan. Keyingi o'rinlarda AqSh (76 mln.), Yaponiya (45 mln.), Germaniya (43 mln.), Frantsiya (41 mln.), Indoneziya (38 mln.), Buyuk Britaniya (37 mln.) kabi mamlakatlar turgan. qolgan mamlakatlarda birmuncha kam miqdorda aholi istiqomat qilgan.

XX asrda Er shari aholisi jadal sur'atda ko'payib borgan. Ona zaminda istiqomat qilayotgan odamlar soni 3 mlrd.dan oshgan, yoki amalda 3 baravarga ko'paygan. Bunda Lotin Amerikasi (6,1 marta) va Afrika mamlakatlarida (4,7 marta) ko'paygan bo'lsa, Evropa aholisi (1,7 marta) va sobiq SSSR aholisi (2,1 marta) nisbatan kam ko'paygan. Bunday nomutanosiblikning asosiy sabablari migratsion jarayonlar (aholining ommaviy ravishda bir hududdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi natijasida Shimoliy va Lotin Amerikasi, Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisi jiddiy tarzda ko'paygan), XX asrda bo'lib o'tgan jahon urushlari, ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlanayotgan davlatlarda aholi sonining tabiiy tarzda juda tezlik bilan ko'payishi bo'lgan. Er shari aholisi 1 mlrd. ga taxminan 1820 yilda, 2 mlrd.ga 1927 yilda (oradan 107 yil o'tgandan keyin), 3 mlrd.ga 1959 yilda (32 yildan keyin), 4 mlrd.ga 1974 yil(14 yildan keyin), 5 mlrd.ga 1987 yil(13 yildan keyin), 6 mlrd.ga 1999 yil(12 yildan keyin) etgan. XX asr oxiriga kelib er sharidagi ikki mamlakat aholisi Xitoy -1.2 mlrd va Hindiston 1 mlrd.dan ortiq aholi oshgan. Ettita davlat (AqSh, Indoneziya, Rossiya, Braziliya, Yaponiya, Nigeriya, Pokiston)da 100 mln. odam istiqomat qiladi.

Hozirgi kunda dunyoda o'z suverenitetiga va doimiy aholisiga ega bo'lgan 225 mamlakat mavjud. Barcha mamlakatlarda yashovchi kishilar soni bir xil me'yorda bo'lmagan. Yuqorida nomlari zikr etilgan mamlakatlarda erdagi jami aholining qariyb 60% yashagan. Shu bilan birga 62 ta yirik mamlakatlarda (aholisi soni 10 mln.dan oshiq bo'lgan) erdagi aholining qariyb 95 % istiqomat qiladi. Dunyoda aholisi soni juda ham kam bo'lgan 38 ta kichkina mamlakatlar ham mavjud bo'lib, ularda jami umumiy hisobda qariyb 1 mln yaqin aholi yashaydi.

Etnik jarayonlarga XX asr 30 yillar birinchi yarmida yuz bergan iqtisodiy inqiroz va dunyoning yirik davlatlarining siyosiy o'zgarishlari ham sezilarli darajada ta'sir qilgan. 30 yillarga kelib dunyo bo'yicha aholining yillik o'sish darajasi 1% ga kamayib ketgan. Jumladan, 1935 yida Frantsiyada tug'ilish o'limdan kamayib ketgan. Shuningdek, AqSh aholisining o'sishi ham pasayib ketgan, bu davrda Osiyo aholisining yillik o'sishi esa 30% kamayib ketgan. Faqatgina Lotin Amerikasi davlatlarida aholining yillik o'sishi kamaymagan bo'lib, bu hududda aholining yillik o'sishi 1,8% ko'paygan.

XX asrdagi etnik jarayonlarga ta'sir qilgan sabablardan eng muhimlaridan biri, shubhasiz ikkinchi jahon urushi bo'lgan. Aynan mazkur urush natijasida qariyb 50 mln kishi qurbon bo'lgan. Urush yillarida faqat Amerika va Avstraliya aholisigina ko'paygan. Ayniqsa, Lotin Amerikasi mamlakatlariga urushdan so'ng vayron bo'lgan Farbiy Evropadan ko'chib borgan emigrantlar hisobiga 2,5% ga ko'paygan.

XX asrning 50-yillarida dunyo miqyosdagi etnik jarayonlar oldingi o'n yilliklardan tubdan farq qilgan. Bu davrda sodir bo'lgan eng muhim o'zgarishlardan biri «demografik portlash» bo'lib, oldingi davrlardan umuman farqli bo'lgan. Mazkur yillarda garchi tug'ilish kamaygan bo'lsa-da aholining o'rtacha yoshining o'sishi o'limning kamayishi hisobiga aholi soni ortib borgan. Ayniqsa, 60 yillar boshlariga kelib dunyo bo'yicha o'lim 2 %ga, ayrim Janubiy Amerika mamlakatlarida, Afrika va Osiyoda 3% ga kamaygan. Natijada 1950 - 1983 yillar davomida aholi soni deyarli ikki baravarga ko'paygan. Shu bilan birga ko'plab Evropa mamlakatlarida aholi soni 25% ga ko'paygan.

Oxirgi o'n yilliklarda Osiyo aholisining o'sishi garchi sekin tarzda bo'lsa-da kamayib bormoqda (60 yillarda 2,2% bo'lgan bo'lsa, 80 yillar boshiga kelib 1,8% bo'lgan). Arab mamlakatlarida, Pokiston, Malayziya va Filippin kabi mamlakatlarda aholining sonini o'sishi an'anaviy tarzda yuqori bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, mazkur mintaqadagi aholi sonining ko'payishi umumiy aholi o'sishining qariyb 60% iga to'g'ri keladi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'lim sur'atining jiddiy tarzda kamayishi mazkur mintaqani ikkinchi jahon urushidan keyin aholi soni ortishi bo'yicha dunyo miqyosida birinchi o'ringa chiqishiga sabab bo'lgan. Biroq mazkur mintaqada 60 - yillardan boshlab tug'ilish sur'ati jiddiy tarzda kamaya boshlagan va bu aholi sonining o'sish darajasiga ta'sir qilgan hamda aholi soni oldingi 20 yil darajada saqlanib qolgan.

Afrika mamlakatlarida etnik jarayonlar birmuncha boshqacha tarzda kechgan bo'lib, bu erda urushdan keyin eng ko'p tug'ilish va o'lim ko'rsatgichini kuzatish mumkin. Faqatgina 60-yillardan boshlab o'lim sur'ati ma'lum ma'noda kamaya boshlagan. Biroq mazkur mintaqada tug'ilishning ko'pligi bois aholi sonining o'sishi bo'yicha dunyo miqyosida etakchi o'rinlarda turgan. 60 yillardan boshlab Afrika aholi sonining yillik ko'payishi bo'yicha Lotin Amerikasi mamlakatlaridan o'tib ketgan. Afrika mamlakatlarining oxirgi o'n yilliklardagi aholisining ko'payish sur'ati 15 mln. kishini tashkil etadi.

Zamonaviy etnologiyada etnoslarni tasniflash printsiplari turli-tumanligi bilan farqlanib turadi; etnologiyadagi zamonaviy nazariyalar etnologiya va unga yondosh bo'lgan qator fanlarning ma'lum bir etnos yoki etnik guruhning boshqasidan farqli xususiyatlarini anglatuvchi me'yorlar asosida yaratilgan. qolaversa nazariyalar bajarilayotgan u yoki bu tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib ham turfa xil bo'lishi mumkin. Tasniflashning ayrim me'yorlari birinchi navbatda xalqlarning etnik mansubligiga, ularning shakllanish tarixiga asoslansa, avvalo tilshunoslikning tarixiy-qiyosiy usullari, antropologiya, moddiy va ma'naviy madaniyat to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlar katta ahamiyat kasb etadi. Boshqa me'yorlar etnik mansubligidan mustasno bo'lgan turli xalqlar va ularning guruhlariga tegishli boshqa xususiyatlar tahlilidan va etnik aloqalar o'rnatilganligi yoki mavjud emasligidan kelib chiqib belgilanadi. Xalqlarni tasniflashda avvalo xo'jalik yuritish me'yorlari asos qilib olingan bo'lib, bunda avvalo tabiiy-geografik muhit asosiy ahamiyat berilgan etnik va madaniy an'analar esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan. Bu ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti darajasidagi xalqlar guruhiga, shuningdek, diniy mansubligi bilan ham bog'liq bo'lgan.

Ushbu antropologik me'yorlardan kelib chiqqan holda barcha xalqlar geografik, antropologik, til belgilari va xo'jalik yuritish an'analarga ko'ra tadqiq qilinadi hamda turli tarzda tasniflanadi.

2-asosiy savol: ***Dunyo aholisining geografik klassifikatsiyasi***

2-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Dunyo aholisining geografik klassifikatsiyasi mohiyatini izohlab berish.

2-asosiy savolning bayoni:

Har bir fan tarmog'i mazkur fanning asosiy tadqiqot predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ularni tizimlashtirish hamda klassifikatsiyalashdan boshlanadi. Lekin klassifikatsiyalash barcha uchun umumiy va turli maqsadlarni o'zida qamrab olgan bo'lmog'i hamda o'z tabiatiga klassifikatsiya qilinayotgan ob'ektining tuzilishini to'liq aks ettirgan holda mavjud printsiplar va dasturlarga mos kelmog'i zarur. Odatda klassifikatsiyalash natijasida qator yangi qonunlari va qonuniyatlar, nazariyalar va kontseptsiyalari yaratiladi. Bu ma'noda etnologiya fani ham mazkur mulohazalardan mustasno emas.

Dunyo xalqlarini ma'lum bir tarzda etnik tasniflashni talab qilganligi bois yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, dunyo xalqlarining geografik joylashuviga, antropologik tuzilishiga, til guruhiga hamda xo'jalik an'analarga ko'ra tasniflanadi.

Geografik klassifikatsiya xalqlarning bevosita yashayotgan mintaqalari bilan bog'liq tarzda yaratiladi. Geografik tasniflash natijasida turli xalqlar yashagan shartli geografik regonlar nomi paydo bo'ladi. Xuddi shunday tarzda «O'rta Osiyo xalqlari», «Sharqiy Evropa xalqlari» kabi nomlar paydo bo'lgan. Bunday tarzda xalqlarni geografik umumlashtirib tasniflash faqatgina geografik tasniflash uslublari etnik printsiplar bilan ma'lum ma'noda mos kelgan taqdirdagina bajariladi. Xalqlarni bu tarzda tasniflash printsiplari garchi fanda keng qo'llanilishiga qaramay, xalqlarning kelib chiqishi, ularning shakllanishi, xo'jalik yuritish an'analari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muammolariga javob bermaydi. Biroq xalqlarni turli xududlar bo'yicha umumlashtirish va etnoslarni turli hududlar bo'yicha taqsimlagan holda tasniflash imkonini beradi. Shu bois bunday tasniflash yordamchi xususiyat kasb etadi va xalqlarni guruhlashtirishdagi boshqa me'yorlar bilan mos kelgandagina, ya'ni boshqacha tarzda aytganda katta-katta mintaqalar misolidagina qo'llaniladi. Xalqlarni klassifikatsiyalash ichki viloyatlardan voz kechishni talab qiladi.

Er sharidagi barcha mamlakatlar tomonidan qabul qilingan yagona geografik tasniflash mavjud emas. Bu borada eng sodda bo'linish tarzida Avstraliya va Okeaniya xalqlari, Osiyo xalqlari, Amerika xalqlari, Afrika xalqlari, Evropa xalqlari deb bo'linishni keltirishimiz mumkin.

3-savol: Til klassifikatsiyasi.

3-savol bo'yicha dars maqsadi: Dunyo aholisini til oilasi va guruhiga ko'ra klassifikatsiyalashni o'rganishdan iborat.

3-asosiy savolning bayoni:

Til so'zsiz eng muxim etnik alomatlaridan biridir. Uning asosida xalqlarning tarixiy aloqalari, qardoshligi, kelib chiqishi yagonaligi aniqlanadi.

Tilshunoslikda 2 ta usul bilan tillar klassifikatsiyalanadi: Morfologik va gnesologik etnografiyada gnesologik klassifikatsiya keng qo'llaniladi. Er yuzidagi aholi 2 mingdan ortiq tillarda gaplashsada olimlar ularni 10 ta til oilasiga birlashtiradilar. Hind-Evropa, semit-xamit, ural-oltoy, xitoy-tibet, malayo-polineziya, dravid, munda, bantu, kavkaz, mon-kxmer.

-Hind-Evropa til oilasi o'z nomi bilan Hindistondan Evropaga qadar xududlarda tarqalgan. Eng qadimgi yozma manbalar miloddan avvalgi II ming yillikka oid bo'lib Kichik Osiyodagi xetglar ushbu til oilasiga oid dastlabki etnosdir.

Olimlar farazicha Hind-Evropa tillari miloddan avvalgi III ming yillikda shakllanib uning tarqalishi miloddan avvalgi II-I ming yillikda ro'y bergan.

-Semjt-xamit tillari shimoliy Afrikada va Janubiy-G'arbiy Osiyo xududlarida keng tarqalgan til oilasiga nomi «Injil»dagi Nux payg'ambar o'g'illari Som va Hamlardan olingan. Ushbu tilda eng qadimgi yozuvlar Misr va Bobil ierogliflariga (miloddan avvalgi

IV ming yillikda) yaratilgan. Semit-xamit tillari: semit, barbar, kushit va chad guruxdariga bo'linadi. Ural-oltoy til oilasi. Ba'zi olimlar ularni aloxida til oilalari deb xisoblashadi. Ural tillari finn-utor guruxiga bo'linib u Volga daryosining yuqori oqimidagi xududlarda shakllangan. Keyinchalik ushbu guruxdardagi etnoslar Finlyandiya va Vengriyaga qadar tarqalganlar.

Oltoy tillari esa 3 ta guruxga bo'linadi:

Turkiy tillari Markaziy Osiyodan Sibirga va Bolqon yarim oroliga qadar keng xududlarda yoyilgan. Mo'g'ul guruxi Markaziy Osiyoda, Mo'g'uliston, Shimoliy-Sharqiy Xitoy, Baykal tevaraklarida tarqalgan.

Tungus-manchjur til guruxi Rossiyaning shimolidagi evenk, tungus, nanay-gold va boshqa kam sonli etnoslarga oiddir.

-Xitoy-tibet til oilasi. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi katga xududlarda tarqalgan.

Xitoy tilidan tashqari ushbu til oilasida tay, myao-yao, tibet-birma va boshqa tillar mavjud. Unga oid dastlabki yozma manbalar miloddan avvalgi II ming yillikka oiddir.

-Malayo-polineziya tillari. Geografik jixatdan keng xududlarda: Hind va Tinch okeanlarining o'nlab orollarida tarqalgan. Uning uch chekka nuqtasi Madagaskar oroli, Pasxa, janubda Yangi Zellandiya orollaridir. Eng ko'p sonli etnos indoneziyaliklar, Hindu-Xitoydagi ba'zi etnik guruxlar tillari, Madagaskar, Mikroneziya, Melaneziya, Polineziya, orollari aholisi xam ushbu til oilasiga mansub.

-Dravid tillari Xindiston yarim orolining janubida mujassam (kompakt) xududni egallab qismin Seylon oroliga xam tarqalgan. Olimlarning farazicha dravid tillari qadimda butun Hindistonni Himoloy tog'lariga qadlr egallagan. Ariy qabilalari (miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida) ularni janubga siqib chiqargan. Drovid tillari: tamil, belugu, kannar, malayya guruxlariga bo'linadi, Munda til oilasi vakillari (8,6ml) Hindistonning sharqiy viloyatlarini egallagan. Munda tili dravidlar kabi eng qadimgi tillardan xisoblanadi.

-Bantu tillari. Keng va mujassam xududlarni, Afrikaning deyarlik barcha janubiy qismini egallagan.

-Kavkaz tillari. (yafet til oilasi). Kavkaz xududida tarqalgan o'nlab ko'p sonli bo'lmagan xalqlar tilidir.

Mon-kxmer tillari. Hindixitoy yarim orolidagi axoli tillaridir. Olimlarning fikricha kxmer tillari Janubiy-Sharqiy Osiyo va Okeaniya tillari orasida vositachi rolini bajargan.

-Yuqorida nomlari zikr etilgan til oilalariga kirmagan o'nlab Amerika indeetslari, Yangi-Gvineya papuaslari, Avstraliya tub tub axolisi tillari xam mavjud. Ulardan tashqari mustaqil tillar: ayn(Yaponiya), koreets, andaman (Andaman orollari), Hindikush tog'lardagi bushiklar, Eniseydagi ketlar, Pireneya yarim orolidagi bask tillari xam mavjud.

4-savol: Xo'jalik—madaniy tiplari klassifikatsiyasi.

4-savol bo'yicha dars maqsadi: Dunyo aholisini xo'jalik—madaniy tiplariga ko'ra klassifikatsiyalashni o'rganishdan iborat.

4-asosiy savolning bayoni:

Dunyo xalqlarining etnografik tadqiq etishida ularning o'zaro aloqalarida xo'jalik — madaniy tiplarining xam axamiyati kattadir. Ba'zida bir tilda gaplashadigan etnoslar bir — biridan uzoq yashamasalarda xo'jaligi, maishiy turmushlari, madaniyatlari butunlay o'xshamaydi, boshqa xollarda esa turli tillarda gaplashib bir —biridan minglab kilometr masofada yashovchi etnoslar (mo'g'ul va badaviylar) o'xshash xo'jalik va madaniyat yaratishlari mumkin.

Er yuzini o'zlashtirib unda joylashishlari borasida insoniyat vakillari tabiiy iqlim sharoitiga mos xo'jalik — madaniy tiplar yaratganlar. Etnoprafiya sranida ushbu xususiyatlar va umumiylik, g'arga ham alohida e'tibor qilinadi.

Antropologik klassifikatsiyalash.

Vatanimizda e'tirof etilgan ilmiy an'anaga ko'ra antropologiya fan tarzida insoniyatning kelib chiqish tarixini, uning evolyutsiyasi, irqning kelib chiqishini hamda turli xalqlarning morfologik va jismoniy xususiyatlarini o'rganadi. Umuman olganda, antropologik tasniflashda turli etnik guruhlar va xalqlarning madaniyatiga emas, balki biologik xususiyatlariga va genetik qarindoshlilik printsiplariga e'tibor qaratiladi. Biroq genetik aloqadorlik printsiplari

Atropologik klassifikatsiyalash asosida xalqlarni irqarga ko'ra tasniflash printsipti yotadi.

5-savol: Etnik jarayonlarni tadqiq qilish.

5-savol bo'yicha dars maqsadi: Etnik jarayonlar tushunchasini ta'riflash, ularni tadqiq qilishni o'rganishdan iborat.

5-asosiy savolning bayoni:

Etnologiya fanida bugungi kunda etnologik ekspeditsiyalar davomida etnik jarayonlarni tadqiq etish asosiy vazifa hisoblanadi.

Etnologik ekspiditsiyalar davomida etnik jarayonlarni tadqiq qilish borasida, ularning o'ziga xosligini ta'kidlovchi ikkita uslub bor.

Birinchisi: etnotransformatsion jarayonlar, ya'ni ma'lum tarixiy davr mobaynida bir etnik xolatdan boshqasiga o'tish, ya'ni ma'lum kishilar guruhining etnik o'zligini o'zgartirishdir.

Ikkinchisi: etnos xayotining turli o'zgarishlarga uchrashiga qaramasdan o'zligini saqlab qolishi Etnoevolyutsion jarayonlar deb ataladi.

Zamonaviy etnik jarayonlarni o'rganish ikkita turi mavjud.

Birinchisi bo'linish: ya'ni ma'lum bir xalqning bir necha mustaqil etnosga aylanish jarayoni.

Ikkinchisi qo'shilish: tili, madaniyati, yaqin bo'lgan bir necha millatlar, xalqlar yoki elatlarning qardosh etnoslarning birlashuvi tushuniladi. bo'linish etnik jarayonlari ibtidoiy jamoaa tuzumi davrida keng tarqalgan bo'lib, qabilalarning kengayishi va ko'chishlari natijasida ro'y bergan. Hozirgi davrda esa qo'shilish jarayonlari ro'y bermoqda.

Etnologik tadqiqotlar davomida qabilalar birlashuvini, elatlar va xalqlar qo'shiluvidan farq qila bo'lmog'imiz zarur.

Xalqaro etnik jarayonlar deganda etnik assimilyatsiya (aralashuv) va etnoslararo integratsiya (yaqinlashuv) nazarda tutiladi.

Etnik aralashuv (assimilyatsiya) deb ma'lum bir xalqning ko'p sonligi bo'lmagan guruhning boshqa yirik xalq yoki millat bilan qo'shilish jarayoniga bitiladi. Tarixan assimilyatsiyaning ikki turi mavjud: majburiy va tabiiy.

Vatanimiz hududida bir million yillar avvaldan odamlar yashay boshlagan.

Ibtidoiy odamlar to'dasi bir necha o'n kishidan oshmagan, juda ko'p bo'lsa oltmishtagacha odam (bolalari bilan) bo'lgan. Ovchilik va termachilik bilan kun kechirib ko'chib yurganlar.

Muste va yuqori poleolit davridan o'troq turmush tarzi shakillana boshladi. Ayni xollarda poleolit ovchilari yirik sut emizuvchilarga boy joylarda uzoq muddatga yashab kelganlar.

Yirik xayvonlarni ov qilish imkoniyati poleolit davrida hamma joyda ham bir xilda bo'lmagan. Shu sababli o'sha davrdan insoniyat taraqqiyosida notekis rivojlanish vujudga keldi.

Ibtidoiy davrga ta'luqli etnologik ma'lumotlarni to'plashida elshunos arxeologik tadqiqotlarda ishtirok etishi katta samara beradi.

Quldorchilik va feodal munosabatlarga o'tish davrini o'rganishida yozma manbalar qo'l keladi. Lekin bu manbalarda etnik ma'lumotlar kam.

Sinfy jamiyatning tashkil etishi yangi etnik birlik, qabila yoki qabila ittifoqidan keyingi-el, elatni vujudga keltirdi. Yangi etnos, o'zidan past ijtimoiy-iqtisodiy darajada yashayotgan qabilalar uchun markazga aylandi, hamda ularni qaloq va yovvoyi qabilalar (varvarlar) deb atadi.

Eramizning birinchi ming yilligida dunyoning deyarli xamma joylarida etnik diffentsiya va integratsiya jarayonlari keng ko'lamda sodir bo'ldi. Hozirgi davrdagi ko'pchilik xalqlarning etnik tarixi ana-shu davrga borib taqaladi.

Feodal munosabatlar qaror topishi davrida ko'chmanchilarning buyuk ko'chishi, ularning antik imperiyalarga ta'siri ham ancha bo'ldi. Etnik jarayonlarda ko'plab o'zgarishlar yuzaga keldi...

Etnologik ekspeditsiyalar paytida markazdan (shahardan) qanchalik uzoqlashsak an'anviy madaniyatning belgilari shunchalik kuchayib boradi. Buning teskarisida, yirik shaharlarda yashab kelayotgan ahli guruhlarida zamonaviy madaniyat ko'rinishlari ustun turadi.

Madaniyatning baynamillashuvi –umumiy tarixiy jarayon bo'lib, etnologiya fanida qizg'in baxslarga sabab bo'lgan. Har qanday madaniyat chuqurroq tadqiq etilsa, mazkur etnosga, geografik muhitga xos bo'lgan o'zligi topilishi mumkin.

O'lkamiz aholisining etnogenezi, va etnik tarixini o'rganishda ham anchagina muammolar bor.

Tadqiqotlarga ko'ra, hozirgi xalqlarning birontasi ham ushbu o'lkada yashagan qadimgi etnik guruhlariga kirmaydi. So'g'diylar, o'zbeklar va tog'liklar tarkibiga kirgan. Sak va massagetlar esa turkmanlarni shakillanishida, qoraqalpoqlar, o'zbeklar va qozoqlarni qisman tog'liklarni shakillanishida ishtirok etganlar. Qadimgi turkiy xalqlarigina emas, balki qimsan Eron tilida gaplashuvchi xalqlar etnogenezida ham muhim rol o'ynagan. Keyinchalik Dashti-Qipchoq, elementi o'zbeklar, qozoqlar va qisman qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan.

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari qadimdan etnik qardoshlik rishtalari bilan bog'liq bo'lib, ularning xo'jaligi maishiy turmushu va madaniyati yaqinligining sababi yuqoridagi fikrlar bilan bog'lanadi.

6-savol: Etnologik ekspeditsiyani tayyorlash.

6-savol bo'yicha dars maqsadi: Etnologik ekspeditsiyani tayyorlashni o'rganishdan iborat.

6-asosiy savolning bayoni:

Etnologiyani asosiy tadqiqot uslubi bo'lmish dala etnologik ekspeditsiyadan oldinga qo'ygan maqsad va vazifalarga qarab, uning tadqiqot uslublari ham o'zgarib turadi.

Etnologik ekspiditsiyaga tayyorgarlik bir necha jarayonlardan iborat. Ularning birinchisi – ilmiy tayyorgarlik, ikkinchisi-ekspiditsiya ishlarini moddiy ta'minoti vazifasidir.

Ilmiy ekspiditsiya a'zolari tomonidan mavzu tanlab olinadi. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar aniqlanadi va bo'lajak tadqiqotning xajmi va vazifalari belgilanadi. Ilmiy etnologik ekspiditsiyaga tayyorgarlik yil davomida olib boriladi.

Unda o'rganilayotgan hududning aholisi bilan bog'liq tarixiy, etnologik, statistik ma'lumotlar o'rganilib ilmiy material to'planadi.

Tanlangan joyning geografik xolati, iqlimi, suv manbalari yo'llarini bilish ham ilmiy ahamiyatga ega. Ekspiditsiya vaqtini aniqlashning ham ahamiyati juda kattadir...

Ekpeditsiyaning ilmiy rejasi quyidagilarni qamrab oladi:

- ✓ Ekspeditsiyaning maqsadi va asosiy vazifalari.
- ✓ Ekspeditsiya vaqtida tadqiqot qilinishi lozim bo'lgan turli sohalarga oid bo'lgan mavzular.
- ✓ Tadqiqot o'tkaziladigan joylar va ekspeditsiya yo'llari.
- ✓ Ekspeditsiyaning umumiy muddati va har bir qishloqda ish vaqti.
- ✓ Qatnashchilar ro'yxati va har birining shug'ullanadigan mavzusi.

✓ Dala ishlari metodikasi va uslublari.

6-savol: Dala etnologik tadqiqotlarni tashkil etish.

6-asosiy savolning bayoni:

Ekspeditsiyaga tayyorgarlik jarayonida tadqiq qilinayotgan mavzuga doir 20-30banddan iborat savolnoma tuzi, undan ahbarotchi bilan suhbat paytida foydalanish mumkin.

Ekspiditsiyaning moddiy asoslari:

Dala ishlarini olib borishni engillatishda ma'lummalumotlarning sifatini oshirishda zamonaviy texnik vositalaridan fotoapararat magnitafon, vidio kabillarni tayyorlab qo'ymoq lozim.

Har bir ekspeditsiyada albatta kiyim-kechak, uy joylar, aholi xo'jaligi haqida gaplar boradi. Shuning uchun chizmachilik ashyolari albatta zarur.

Qalam, akvaler, guash, bo'yoqlar, chizg'ich, vatman, albatta o'lchagich (metr) kabi zarur yozuv-chizuv materiallari bo'lmog'i zarur.

Ekspeditsiya davrida etnologning asosiy quroli umumiy daftarga olingan dala yozuvlar qalam bilan tushiriladi.

Xalqlarning maishiy turmush tarzi, madaniyati va ishtimoiy hayotini o'rganishda etnologiya fanida ikki xil uslub qo'llaniladi. Statsionar ya'ni uzoq muddat bir joyda yashab kuzatish, yoki ekspeditsiyalar orqali olib boriladi. Uzoq muddatli etnolog tadqiqotlar umuman o'rganilmagan yoki kam tadqiq qilingan etnik guruhlar va xalqlar madaniyati maishiy turmushi, tili va irqiy xususiyatlarini tekshirishda qo'l keladi. Hozirgi paytda bunday etnoslarning nihoyatda kamligi sababli statsionar uslub ahyon-ahyonda qo'llaniladi. Statsionar uslubning kamchiligi ko'p, etnolog uzoq muddat davomida ma'lum aholi orasida yashab tadqiqot olib borar ekan g'oyat chuqur ilmiy hulosalari keladi.

Statsionar uslubning muvaffaqiyatining N.N.Mikulxo Maklaynning ovrupaliklarning oyog'i etmagan Yangi Gvineyaning shimoliy-sharqiy qirg'og'ida popuaslar orasida olib borgan tadqiqotlarida ko'rish mumkin. 1871-72, 1876-77 va 1885 yillar N.N.Mikulxo-Maklayning papuaslarni xo'jaligini, moddiy madaniyati, kundalik turmush tarzini, urf-odat va udumlarini, o'ziga xos san'atini tariflab yozgan ma'lumotlar bugungi kunga qadar etnologiya fanida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Bu borada XX asrning 30 yillarda V.G.Bograz (chukchalar ichida) va L.Ya.Shtrenberg (chilyaklar, goldlar aylar ichida)lar tadqiqotlar olib borib qimmmatli ma'lumotlar qoldirishgan.

Amerikalik elshunos olimi Margret Mid 1927 yili Samoa orolida, 1828-29 yillari Admiralteystva orollarida manus qabilalari bolalarini, 1930-33 yillarda yangi Gvineya papuaslari, arpesh, muduchmor, yatmul va chambulilarni, nihoyat 1936-39 yillarda Bali (Indoneziya) oroli aholilarini o'rgandi va 25 dan ortiq ilmiy asari jamlanagn «Madaniyat va bolalar dunyosi» asari yaqinda chop etildi.

Etnologlar keyingi yillarda tadqiqotlar olib borishda uzoq va qisqa muddatli ekspeditsiyalarni ko'plab qo'llamoqdalar. Bunday dala ekspeditsiyalari oldiga chiqib bir necha oygacha davom etishi mumkin. Ushbu tadqiqotlar vaqtida ancha yirik hududlar (tumanlar) qamrab olindib, bir necha guruh aholi o'rganilishi mumkin. Bunday ekspeditsiyalar davrida qisqa muddatda o'rganilishi mumkin bo'lgan mavzular tanlab olinadi.

Etnologiya ekspeditsiyalar ikki usulda ma'lumotlar to'planadi: to'pli (kustovoy) va yo'nalishili (marshrutny).

YO'nalishli tadqiqotda doimo harakatda bo'linadi, rejalashtirilgan tumanlarda ekspeditsiya uchun tanlangan aholi punktlari yo'l ustiga joylashgan bo'lishi kerak. Tadqiqotchi xar bir aholi punktida ma'lumotlar to'plab 2-3 kun yana davom etadi.

To'pli tadqiqot uslubida rejada yirik aholi yashaydigan joy ekspeditsiya bazasi qilib tanlanadi. Mazkur joyni o'rganishga ko'proq vaqt (5-7 kungacha) sarflanib, to'plangan

ma'lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida, uning atrofidagi qishlaqlar aholisi esa har biri 1-2 kun davomida o'rganiladi.

To'pli tadqiqotni yo'nalishli uslub bilan qo'shib olib borish mumkin. Bu sohada Namangan viloyatidagi Ayqirg'on qishlog'i 1950-55 yillarda, farg'ona viloyatidagi Vodil qishlog'i 1990 yilda keng rejali dasturlar bo'yicha o'rganilgan. Ekspeditsiyaning vazifalari va maqsadiga binoan, ma'lumotlarning haqqoniyligi ikki xil uslub bilan ta'minlanadi: birinchi tanlab olish; ikkinchisi yalpi tadqiqotlar o'tkazish.

Tanlab olib etnologik o'tkazishda etnik xususiyatlari jihatidan o'zaro yaqin qishloqlardan birontasi olinib, chuqur o'rganiladi, qolganlari esa olingan materiallarni aniqlashtirishda foydalaniladi.

Yalpi tadqiqot o'tkazishda etnologiyaning sohalari qatorasiga o'rganiladi: masalan uy-joylarining barchasi, mavjud oilalarning hammasi.

3-mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Dunyoning hozirgi etnik qiyofasini tavsiflab bering.
2. Aholi klassifikatsiyasining yana qanday turlari mavjud?
3. Etnologiyaning tadqiqot uslublari va manbalari haqida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
2. Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
3. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
4. Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
5. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
6. Swadesh M. The origin and diversification of language. London, 1972.
7. Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
8. Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
9. Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63
10. Salimov T.U. Etnografik ekspiditsiyalarni o'tkazish uslublari. T. «Universitet» 1993

4-mavzu: Avstraliya va Okeaniya xalqlari Fanni o'qitish texnologiyasi: "Avstraliya va Okeaniya xalqlari" mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi</p> <p>1.1, Dars maqsadi: Avstraliya va Okeaniya aholisining etnogenezi va etnik tarixi asosiy bosqichlari haqida ma'lumot berish.</p> <p>1.2, Identiv maqsadlar:</p> <p>1.1. Avstraliya va Okeaniya aholisining etnogenezi va etnik tarixi asosiy bosqichlari haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.2. Aholining an'anaviy xo'jaligi, kiyimlari, hayot tarzlariga sharx beradi.</p> <p>1.3. Lingvistik va antropologik xususiyatlari, an'anaviy diniy tasavvurlari va marosimlariiga sharx beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: etnik tarixi, etnogenez,</p>	O'qituvchi

	<p>initsiatsiya, nikoh, ijtimoiy tuzumi, diniy tasavvur, ma'naviy madaniyat.</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihaz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi- talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash:</p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Avstraliya va Okeaniya xalqlarining kelib chiqishini tavsiflab bering. 2. Yangi Gvineya, Melaneziya, Polineziya, Mikroneziya xalqlarining an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy tuzumlari, diniy tasavvurlari va marosimlari qanday bo'lgan? 3. Karolin, Marshall, Gilbert orollari aholisi haqida so'zlab bering. 	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Avstraliya va Tasmaniya xalqlarining xo'jaligi va moddiy madaniyati 	O'qituvchi 10 min.

Asosiy savollar:

1. Qit'a haqida umumiy ma'lumot.
2. Tarixiy-etnografik oblastlar.
3. Avstraliya va Okeaniya aholisiiiiig etnogenezi.
4. Avstraliya va Tasmaniya xalqlari.
5. Yangi Gvineya.
6. Melaneziya xalqlari.
7. Polineziya xalqlari.
8. Mikroneziya xalqlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: etnik tarixi, etnogenez, initsiatsiya, nikoh, ijtimoiy tuzumi, diniy tasavvur, ma'naviy madaniyat.

1-asosiy savol: Qit'a haqida umumiy ma'lumot.

1-asosiy savolning bayoni:

Avstraliya evropaliklar tomonidan beshinchi va oxirgi qit'a sifatida XVII asrning birinchi yarmida kashf etilgan,

Avstraliya er yuzining janubiy qismida joylashgan. Gollandiyalik dengizchi Abel Tasman 1642 yilda qit'aning shimoliy va shimoli-g'arbiy qirg'og'larini tekshirdi.

Keyinchalik Avstraliyadagi katta orol uning nomi bilan ya'ni Tasmaniya deb atala boshlandi.

Geologik nuqtai nazarda Avstraliya qadimgi qitadir. Kaynozoy asridagi unchalik kuchli bo'lmagan tektonik siljishlari qitada tog'larning kam va baland bo'lmashligiga sabab bo'lgan, Mezozoy asridan bo'linib ketgan qitadagi sut emizuvchilar arxaik tarodagi xayvonlari bilan: xaltali kengurular bilan farqlanadi. Evropaliklar kelguniga qadar dingo iti va kalamushlar qitaning kam sonli sut emizuvchilari qatorida bo'lgan. Tinch okeanining markaziy va janubiy g'arbiy qismlarida joylashgan orol va arxipelaglar Okeaniya deb ataladi. Unga umumiy maydoni 1,3 mln km. kv. bo'lgan 7 mingta orol kiradi. Okeaniya evropaliklarga XVI asrda, ya'ni F. Magelanning dunyo aylana birinchi sayoxatlaridan ma'lum bo'lgan. Ko'lab rus sayyox va dengizchilari xam Okeaniyani o'rganishga ulkan xissa qo'shganlar. V.M. Golovnin, S.O Makarov, N.N. Mikluxo-Maklaylar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda Avstraliyada 18 mln, Okeaniya orolida esa 9 mln axoli yashaydi. Etnograflarning qit'aning tub axolisiga nisbatan qiziqishlari undagi xo'jalikning an'anaviy terib-termachlash va ovchilikka oidligini saqlab qolishidandir. Axoli maishiy turmush, madaniyat va diniy tasavvurlarining eng qoloq, arxaik ko'rinishini saqlab qolgan. Qit'aning umuminsoniyat sivilizatsiyasidan uzilib qolishi ushbu xususiyatlarni saqlab qolishiga imkoniyat yaratgan.

2-savol: Tarixiy-etnografik oblastlar.

2-ASOSIY SAVOLNING BAYONI:

Avstraliya va Tasmaniya xalqlari;

Melaneziya va Yangi Gvineya xalqlari. Bu xududta axoli Bismark arxipelagi, Antrakasto oroli, Santa-Krus, Yangi Gibrid, Yangi Kaledoniya, Luayota, Fidji va Rotumu orollarida yashaydilar.

Mikroneziya xalqlari. Marian, Karolin va Marshall orollarida, Gilbert shuningdek Oshen va Naurulardan iborat; Polineziya va Yangi Zelandiya xalqlari, Tongo, Samoa, Uollis, Xorn, Tuvalu, Tokelau, Kuk, Tubuayi, Obshestvo, Tuamotu, Markiz, Gambe, Gavayya. Aloxidg) Niue va Pasxa orollaridan tashkil topgan.

Ushbu xalqlarning tabiiy juda keng hududlarda joylanishi tarixiy- madaniy birlikni ta'minlaydi. Nisbatan yaqin antropologik xo'jalik, moddiy va ma'naviy madaniyatlardagi yaqinlik bilan Polineziya xalqlari ajralib turadi.

Avstraliya va Okeaniya aholisiiig etnogenezi.

Olimlarning farazicha dastlabki aholi guruxlari qit'aga bundan 40 ming yil avval kela boshlagan. Irtiqy jixatdan axoli avstralo-veddoid irqiga mansub bo'lib; cho'zinchoq bosh(kalla) suyagi, peshonasining o'rtasidagi bo'rtma, keng burun, qoramtir-qo'ng'ir badani rangi, qoramtir (to'lqinsimon) sochlari bilan farqlanadi. Avstraliyaning tub axolisi yuzlari va badanlarida soqol va tuklarning qalinligini ham qayd etish lozim. Axolining kelishi to'lqinsimon bo'lib, muz davridan boshlangan. Ko'chib kelishlarning eng faol qismi bundan 25 ming yil avval boshlangan. U paytlarda dengiz sathi xozirgidan 60 metr past bo'lgan. Dastlabki axoli o'zlashtarish xo'jalik faoliyatini so'nggi paleolitga xos tosh qurollar bilan olib borgan,

Yangi Gvineyaga dastlabki aholi guruxlari bundan 30 ming yil avval etib kelgan va ular xam avstroloidlar bo'lgan. Axolining keyingi to'lqini bundan 10 ming yil avval keladi. Ular silliqlangan tosh bolta va uning yordamida daraxtlarni kesib, yondirib dehqonchilik bilan shug'ullanishni boshlaydilar. Bu axolining avlodlarini Yangi Gvineyada papuaslar deb ataladi.

Ko'chishlarning keyingi to'lqini Okeaniyaga bundan 3 ming yil avval keladi. Bu axoli tili avstroneziya til oilasiga mansub bo'lgan. Antropologik jixatdan bu etnik guruxlar janubiy mongoloidlar bo'lishi mumkin. Ular neolit dexqonchilik bidan shug'ullanib cho'chqa boqqanlar. Vaqt o'gishi bilan oldokeaniya jamoasi bo'linib Yangi Gvineya, Bismark arxepilagi, Solomon, Yangi Gibrid, Yangi Kaledoniya orollariga ko'chib o'tib tub axoli bilan aralashib ketadilar.

Ulardan bir qismi Yangi Gebrid orolining markaziy qismida yashab qolib assimilyatsilashmagan. Xuddi shu gurux keyinchalik «Sharqiy okeaniyaliklar» etnik va til jamoasini tashkil etib bundan 4 ming yil avval yangi —yangi orollarni o'zlashtira boshlaydilar. Migratsiyalar Melaneziyada rang —barang til va madaniyatlarni shakllantiradi.

Fidjidan «Sharqiy okeaniyaliklar» miloddan avvalgi 1200 yili Tongaga miloddan avvalgi 1000 yili esa Samoa orollariga o'gashgan. Xuddi shu joylarda keyingi asrlarda o'ziga xos polineziyaliklar madaniyati shakllanadi.

Olimlarning ko'pchiligi Avstraliya va Okeaniya axolisini Janubiy Sharqiy Osiyodan o'tganligi g'oyasini (V. Gumbold, Te Rangi Xiroa) yoqlaydilar. Lekin norvegiyalik olim Tur Xayerdal Polineziyaliklarni Amerika bilan aloqadorliklarini tasdiqlash maqsadida 1947 yili «Kon Tiki» solida Perudan Tuamotu oroliga qadar dengiz ekspeditsiyasi uyushtirilgan.

3-savol: Avstraliya va Tasmaniya xalqlari.

3-ASOSIY SAVOLNING BAYONI:

Avstraliya urug'-qabilalarining ijtimoiy birliklari urug' bo'lib har bir urug' jamoasi 30 dan 60 ga qadar erkak, ayol va bolalardan tashkil topgan. Har 10-15 lokal guruh o'zaro ijtimoiy-xo'jalik munosabatlaridap bo'lib bir til yoki «kommunalekt»da gaplashganlar.

Shu sababdan qitada 500ga yaqii tillar bo'lib ularda 500-600 kishidan iborat etnik jamoalar eo'zlashganlar.

Avstraliya axolisining xo'jaligi asosan terib-termachlash bo'lib ozuqa zaQirasini kamligi, ularni doimo ko'chib yurishga majbur etgan. Har bir kishiga o'rtacha 26 kv. km. maydon to'g'ri keltan.

Ov-qurollari bumerang, nulla-nulla (ko'pincha ayollarda) nayza, vumera(nayza otuvchi moslama). Bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuruvchi jamoa erkaklari yo'l-yo'lakay ov qilishsa, ayollari ularning ortidan yurib terib-termachlashda davom etganlar. Ayollar barcha narsalarni dilli (shoxchalardan to'qilgan) iomli xaltalarida o'zlari bilan olib yurganlar. Erkaklarning kichik qopchalarida chaqmoqtosh, tosh qurollar yasashda ishlatiladigan ashyolar va hokazolar bo'lgan.

An'anaviy kiyimlari ensiz belbog'cha bo'lib, Avstraliyaning ko'plab hududlarida umuman kiyimlar kiyilmagan.

Uy-joylari x,ayot tarzleri darajasida bo'lib chayla va pialardan iborat bo'lgan. Ko'pchilik joyda ochiq xavoda kichik gulxan atrofida tunalgan.

Ko'tt hollarda oziq-ovqat tanqisligi sezilmasada, qand va yog' ozuqa ratsionida etishmagan. Ularning jamoalarida ayol kishi 9 yoshidai to umrining oxirigacha turmushda bo'lgan.

Dinlari.

Initsiatsiya marosimi o'g'il bolalarni balog'at yoshiga etguniga qadar (20 yoshgacha) o'tkazilgan. Avstraliya aborigenlari o'zlari yashayotgan xududdagi flora va faunani yaxshi bilganlar. O'zlarini tabiat bilan bir bilgan Avstraliyaliklar o'simlik va hayvonot dunyosiga xam odamlarga xos munosabatda bo'lganlar. Lvstraliya totemizm dini vatanidir.

Angloavstraliyaliklar.

Sidneyga (Jekson porti) etgan dastlabki flot 1788 y. Angliyadan 1000 kishini keltirib, ulardan 700 kishi surgun qilinganlar bo'lgan. (200 tasi ayollar). Keyingi 80 yil davomida (1868Y qadar) Avstraliyaga 160 ming, kishi surgun qilingan. O'sha yillar qit'a axolisi 1 mln.ga etadi.

Surgun muddaxi tugagandan so'ng har bir kishiga 2 morgendan aar berilgan. Avstraljya (Yangi Janubiy Uels deb atalgan) 1815 yili metropoliyaga jun etishtnra boshlagan. 1807 yilda jun xajmi 175 400 funt, 1836 y. esa -3 693 241 funtga etgan.

4-savol: Yangi Gvineya xalqlari.

4-ASOSIY SAVOLNING BAYONI:

Orolning Sharqiy qismi Papau-Yangi Gvineyasida 4,1 mln aholi yashaydi.(1995y), G'arbiy tomoni Irian-Jay Indoneziyaga qaraydi. Axolining 90% papuaslar,-700 ga yaqin etnos mavjud.

Eng yirik til oilasi transogvineya tillarida 85%, Sepik-ramuda tilida 8%, torichellida 7% aholi gaplashadi. Eng yirik etnoslar; eng 250 ming, chimbu 220 ming, kamano 140 ming va xokazo.

Antropologik jihatdan xam papuas va melaneziyaliklar tipi (Avstroloid irqi) farqlanadi. Ikkala tipda ham jingalak soch, qalin lab, keng burun bo'lsada papuaslar cho'zinchoq yuzlari, burunlari yoysimonligi bilan ajralib turadi. Yangi Gvineyaliklar so'qa dehqonchiligi bilan shug'ullanib-taro, yams, batat, banan, shakarqamish, kokos va saga palmalari, non daraxti etishtiradilar. An'naviy mehnat qurollari-tosh bolta, cho'qmor, uchi o'tkir tayog (so'qa)bo'lgan. Uy hayvonlaridan: cho'chqa, tovuq va it boqqanlar. Dehqonchilikdan tashqari ovchilik, qisman baliqchilik mavjud. Hunarmandchiligi dexqonchilikdan ajralib chiqmagan.

Qishloqlarida aholi soni 100-150 kishidan iborat. Ko'p joylarda erkaklar uylari saqlanib qolgan. Uylari ustunlar ustiga qurilgan bo'lib bambuk va daraxt po'stloqlari asosiy qurilish ashyosi xisoblangan. Tomlari palma yaproqlari bilan yopilgan. Uylari asosan to'g'ri to'rt burchakli qurilgan.

Erkaklarning an'anaviy kiyimlari tapadan qilingan belbog'chalar bo'lsa, ayollari o'simlik tolalari va o'tlardan kichkina yubkachalar kiyishgan. Zeb-ziynatlar asosan erkaklarda bo'lgan.

Taomlari.

Asosan o'simlik mahsulotlaridan bo'lib, go'sht kam iste'mol qilingan. Taomlarni ochiq olovda tayyorlashgan. Olovni esa ishqalash yo'li bilan olishgan. Tuzni kuldan ajratganlar.

Papuaslarda qabilalar bo'lsada ular ko'proq etnik xususiyatga ega. Papuaslarda qabila boshliqlari (germanlar, slavyanlardagi kabi), qabila tashkiloti strukturalari bo'lmagan. Ularni faqat til va madaniy birlik bog'lab turgan. Papuaslar qabila urug'chilik-patriarxal bo'lib, urug' jamoalari fratriyalarga bo'lingan.

Papuaslar jamoalari 3 asosiy turga:

Qon-qarindoshlik.

Geterogen jamoa (getera-o'ynash)

Qo'shnichilik jamoalariga bo'linadi.

Papuaslarning diniy tasavvurlari xilma-xil bo'lib, ba'zi qabilalarda totemizm, sehrgarlikka ishonch xam keng yoyilgan.

5-savol: Melaneziya xalqlari.

5-ASOSIY SAVOLNING BAYONI:

Unda 200 dan ortiq etnoslar yashaydi. Tillari avstroneziya tillarida- 600 ming, papuas tillarida 170 ming kishi so'zlashadi. Melaneziya xalqlar kam sonlidir. Eng yirigi-tolailar-100 mingga yaqin. Bu erda bir necha yuz kishidai iborat etnoslar xam mavjud.

Irqi jihatdan Melaneziya xalqlari avstroloid irqining melaneziya tipiga oid. Ular qoramtir rang, qalin lab, keng burun, nisbatan jingalak sochlari, o'rtacha keng yuzlari bilan ajralib turadilar.

Melaneziyaliklar xo'jaligi qo'l dexqonchiligiga asoslangan ziroatchilik bo'lib; yams, taro, kokos palmasi, non daraxti, banan etishtirilgan. Shuningdek dengiz baliqchiligi bilan xam shug'ullanishgan. Baliq ovlashda to'r, savat, nayza, qarmoqlardan foydalaniladi. Ba'zida o'simlik zaxridan xam foydalanishadi.

Evropaliklar kelguniga qadar cho'chqa, it va tovuqlarni boqishgan.

Hunarmandchilik.

O'simlik tolalaridan bo'ya, turli xaltalar to'qishgan. Faqat Santa-Kruz orolida to'qimachilik bilan tanish bo'lganlar. Daraxt po'stidan-tapa to'qiganlar, ayollar qisman kulolchilik bilan shug'ullanganlar.

Metallni bilishmagan, mehnat va ov qurollari tosh, chig'anoq, toshbaqa po'sti, suyaklardan, xayvon tishlaridan, yogoch va bambukdan qilingan. Toshbolta, palitsa, nayza, kamon, xanjar asosiy qurollar xisoblangan. Axoli asosan qishloqlarda yashab, ular katta bo'lmagan.

Uylar to'g'ri to'rtburchakli. Papuaslarinikiga o'xshash uyning tomi devorlarini bosib osilib turgan. Palma, banan, pandaus yaproqlari bilan tomlari yopilgan. Devori bambuk, bo'ya, o't-o'lanlar, taxtadan qilingan.

Transport vositalari.

Asosan qayiqlar bo'lib, Yangi Gebridda hozirgacha daraxtdan o'yib yasalgan qayiqlardan foydalaniladi. Shuningdek katta taxtalardan qurilgan balansirli qayiqlar xam bor. Ba'zida elkandan xam foydalanishgan.

Kiyimlari.

Juda oddiy bo'lgan yoki umuman bo'lmagan. Borlari xam belbog'cha va kichik yubkalar bo'lgan. Melaneziyada xam taqinchoqlar asosan erkaklar bezagi xisoblangan.

Taomlari.

Go'sht (cho'chqa) kam iste'mol qilingan. Baliq ko'p eyilgan. Ularni er o'chog'ida pishirgan. Ijtimoiy munosabatlari.

Ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi davriga xosdir. Qabilachilik tashkilotlari faqat Yangi Kaledoniya, Fidji, Yangi Gebrid orollarida bo'lgan. Ko'pgina orollarda urut ona urug' darajasida bo'lib, ekzogamiya keng tarqalgan.

Almashinuv yaxshi rivojlangan. Pul o'rniga silliqlangan chig'anoqlar, bo'ya va xokazolar ishlatilgan. Kula-almashinuvi xam bo'lgan. (narsalar qo'ldan-qo'lga o'tgan). Ba'zi joylarda patriarxat davriga oid «erkaklar uylari» vujudga kelgan.

An'anaviy diniy tasavvurlari «mana» bo'lib, ba'zi narsalar, ajdodlar ruxlariga «Buyuk kuch»ga bag'ishlov bo'lgan.

Falklorlari diniy bo'lmagan, ularda madaniy «qaxramonlar» xaqida xikoya qilingan. Yog'och o'ymakorligi, tasviriy san'at, qayiq, idish-tovoqlari va qurollarni o'ymakorlik bilan bezash keng tarqalgan.

6-savol: Polineziya xalqlari.

6-ASOSIY SAVOLNING BAYONI:

Masofa jihatidan bir-birlaridan uzoq yashasalar ham irqiy, til va an'anaviy madaniyatlari bir-biriga yaqin bo'lgan.

Irqiy tiplari: qoramtir-qo'ng'ir badan ranglari, baland bo'y, keng to'lqinli sochlari, uchinchi darajali badan tuklarining o'rtacha rivojlanishi, nisbatan cho'ziq yuzlari, nisbatan keng burunlari bilan farqlanadi.

30 dan ortiq polineziya tillari avstroneziya til oilasining sharqiy okeaniya guruhiga oiddir. Etnoslar 40 yaqin. Eng yiriklari: maorilar 300 ming kishi, samaolliklar 222 ming, tonga-94 ming, gavayyaliklar 120 ming, taitiliklar 82 ming kishidan iborat. Er maydoni 1.232m kv. km.

Xo'jaliklari.

Qo'l dexqonchiligi va baliqchilik yaxshi rivojlangan. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari-kokos palmasi, non daraxti, banan, taro, yams, batat, qovoq, mehnat qurollari esa so'qa bo'lgan. Uy hayvoklari xurmaydigan it, cho'chqa va tovuq.

Polineziyaliklar moxir xunarmandlardir. Ular yokochdan turli buyumlar yasashda yuksak 'maxoratga erishganlar. Bo'ya, sumkalar, o'ymakorlik buyumlari yasaganlar. To'qimachilik bo'lmagan, kulolchilik xam rivojlanmagan. Ular xam metallni bilishmagan. Polineziyaliklar mohir dengizchilardir. Asosiy aholi qishloqlarda yashagan.

Kiyimlari.

Belbog'cha va yubkachalar. Ularning kiyimlari asosan o'simlik tolalaridan, qush patlaridan qilingan. Hozirda ularni faqat bayramlarda kiyishadi. Erkaklar bezaklar, ayollar esa gullar bilan bezanishni yoqtirganlar. Ijtimoiy tabaqalanish chuqurlashib Polineziyada (arik, aliya, ariy) nomli qabila boshliqlari bo'lgan. Eng yaxshi erlar zodagonlarga qaragan.

Jamoa asosi yirik patriarxal oila bo'lgan. XIX asrboshlarida Gavayya, Tongo va Taitida dastlabki davlatlar shakllana boshlagan.

Ularning 4 xudolari bo'lgan: Tangaroa, Tane, Rongo va Tu. Managa ishonch xam keng tarqalgan. Polineziyaliklarda 4-5 yillik maktablar bo'lgan, Pasxa orollarida ideografik yozuv bo'lgan. Tasviriy san'at va musiqa yuksak rivojlangan.

7-savol: Mikroneziya xalqlari.

7-ASOSIY SAVOLNING BAYONI:

Ular 15 ga yaqin. Barchasi avstroneziya tillarida gaplashgan. G'arbiy Avstroneziya tillarida-chamarro-73 ming va 15 ming belaular gaplashganlar. Okeaniya guruxini-tungarular 64 ming, truk 35 ming, marshalliklar 25 ming, ponapa 20 mingni tashkil qilgan.

Mikroneziyaning G'arbiy va Sharqiy qismi axolisi irqiy, til va xatto madaniy jixatdan farqlanadi.

Axolining an'anaviy xo'jaligi dexqonchilik va baliqchilik bo'lgan. Chamorrolar Okeaniyada yagona -sholi etishtiruvchi xalqdir. Uy xayvonlaridan it va tovuqni bilaganlar. G'arbiy Mikroneziya kulolchiligi bo'lsa Sharqiy Mikroneziyada yotiq dastgoxlarda to'qimachilik bilan shug'ullanishgan.

Uy-joylari.

Marian orollarida, Palau va Yapda uylari ustunlar ustiga qurilgan. Tomlari palma yaproqlari bilan yopilgan. Karolin, Marshal va Gelbert orollarida faqat tomi bo'lgan, devorsiz uylar qurilgan. Transport vositalari, kiyimlari boshqa Okeaniya xalqlarinikidan farq qilmagan.

Ijtimoiy tuzumlari.

Ibtidoiy jamoa tuzumi buzilishi darajasi bo'lgan. Ijtimoiy tabaqalanish boshlangan. Ba'zi orollarda ona uruti bo'lgan. Palau va Yapda erkaklar va ayollar maxfiy ittifoqlari bor edi.

Yapda yirik o'rtasi o'yilgan «tosh pullari» bo'lgan. Oila juft, ya'ni monogam bo'lgan.

An'anaviy dinlari. Ajdodlar ruxlariga sig'inish, animizm. Shamanlik keng tarqalgan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Avstraliya va Okeaniya xalqlarining kelib chiqishini tavsiflab bering.
2. Yangi Gvineya, Melaneziya, Polineziya, Mikroneziya xalqlarining an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy tuzumlari, diniy tasavvurlari va marosimlari qanday bo'lgan?
3. Karolin, Marshall, Gilbert orollari aholisi haqida so'zlab bering.

Adabiyotlar:

- 1 Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
- 2 Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
- 3 Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
- 4 Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
- 5 Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
- 6 Swadesh M. The origin and diversificat ion of languageG' London, 1972.
- 7 Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
- 8 Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
- 9 Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63

5-mavzu: Markaziy Osiyo xalqlari.

**Fanni o'qitish texnologiyasi:
“Markaziy Osiyo xalqlari”
mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi**

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi 1.1. Dars maqsadi: Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi haqida ma'lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.1. Markaziy Osiyo hududi, aholisi, tabiati haqida so'zlab beradi. 1.2. Mahalliy aholining til turkumlari, antropologik tasnifi, Markaziy Osiyoda hozirgi kunda istiqomat qilayotgan xalqlarga sharx beradi. 1.3. Markaziy Osiyo mahalliy xalqlarining an'anaviy xo'jaliklari, turmush tarzi, uy-joylari, kiyimlari, moddiy va ma'naviy madaniyati, O'zbekistonning hozirgi aholisiga sharx beradi. 1.3. Asosiy tushunchalar: Markaziy Osiyo, mayda millatlar, etnogenez, etnik komponentlar, etnik guruhlar. 1.4. Dars shakli: Ma'ruza 1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum 1.6. Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi- talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash: Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: 10. Markaziy Osiyo hududi, aholisi, tabiatini tavsiflab bering. 11. O'rta Osiyo va Qozog'iston tub aholisining antropologik tasnifi, Markaziy Osiyoda hozirgi kunda istiqomat qilayotgan xalqlar an'anaviy xo'jaliklari, turmush tarzi, uy-joylari, kiyimlari, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida nimalar bilasiz? 12. O'zbeklar etnogenezida qatnashgan etnik komponentlar, o'zbek milliy mentaliteti, an'anaviy xalq madaniyati, o'zbeklarda xo'jalik madaniy tiplar haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
	O'quv mashg'ulotini yakunlash.	

5	<ul style="list-style-type: none">• Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi• Mustaqil ish topshirig'i: O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi Moddiy va ma'naviy madaniyati	O'qituvchi 10 min.
---	--	-------------------------------

Savollar:

1. Markaziy Osiyo hududi, aholisi, tabiati. Mahalliy aholining til turkumlari. O'rta Osiyo va Qozog'iston tub aholisining antropologik tasnifi.
2. Etnogenez va etnik tarixi.
3. Xo'jaligi va ijtimoiy tashkilotlar.
4. Moddiy va ma'naviy madaniyat.

Mavzuga oid tushuncha va iboralar: Markaziy Osiyo, mayda millatlar, etnogenez, etnik komponentlar, etnik guruhlar.

1-asosiy savol: Markaziy Osiyo hududi, aholisi, tabiati. Mahalliy aholining til turkumlari. O'rta Osiyo va Qozog'iston tub aholisining antropologik tasnifi.

1-asosiy savoning bayoni:

Osiyo qit'asi eng yirik qit'a bo'libgina qolmasdan tabiat iqlimi. etnik tarkibi xilma-xilligi bilan xam ajralib turadi. Osiyo antropogen-inson paydo bo'lib, shakllangan xudud xamdir. Unda dunyo dinlarining barchasi (xristian, islom, buddizm) vujudga kelib boshqa qit'alarga keyinchalik shu joydan tarqalgan.

Antropogen xudud sifatida Osiyo sivilizatsiya o'chog'i, ko'plab madaniy o'simlik va xayvonot olami vatani xamdir. Ishlab chiqarish xo'jaligiga asos bo'lgan ko'plab daryolar: Frot, Dajla, Hind, Ganga, Braxmaputra, Mekong, Xuanxe, Yantszi, Zarafshon daryolari xam Osiyo xududida joylashgan.

Bugungi kunda qit'ada er yuzidagi axolining yarmidan ko'prog'i yashaydi. Axoli eng zich joylashgan xududlar nomlari qayd etilgan daryo voxalaridir. Tabiiy iqlim sharoiti rang-barangligi axoli etnik tarkibini xilma-xil bo'lishi imkonini yaratadi. Ushbu xususiyatlar antropologik va lingvistik klassifikatsiyada yaqqol kuzatiladi.

Qitadagi eng qadimgi odamlar qoldiqlari Yava orolidan topilgan bo'lib, ularning yoshi 1,5-2 mln. yil bilan belgilanmoqda.

Bundan 10-11 ming yil tog'oldi subtropik xududlarda dastlabki o'simlik va xayvonlarni domestikatsiyalash (xonakilashtirish) jarayoni bo'lgan. Bu esa o'z navbatida dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishiga asos bo'ladi.

Miloddan avvalgi IV va III ming yillik chegarasida jaxonda ilk davlatlardan bo'lgan Shumer shaxar-davlatlari shakllanadi. Asta-sekin omoch dexqonchiligi, bog'dorchilik, to'qimachilik, yozuv va pul vujudga kelgan. Tez orada Osiyoda yana qator davlatlar Elam, Hindiston, Xitoy va boshqalar tashkil topadi.

Osiyodagi murakkab etnik jarayonlarning bo'lishiga, qabilalar ko'chishlari, urushlar, demografik portlashlar va boshqalari ta'sirida tillar, din, xo'jalik va madaniy qadriyatlarning almashinuvlari deyarlik to'xtovsiz bo'lib turadi.

Osiyoning asosiy axolisi irqiy jixatdan mongoloid va evropoidlardan iborat. Tillari xususida yuz millionlab aholi so'zlashadigan tillar bilan birgalikda kichik bir necha ming kishini birlashtirgan tillar xam mavjudligini qayd etish lozim.

O'rta Osiyo va Qozog'iston xududi 4 mln kv.km. Bu erda 5 ta mustaqil davlat: O'zbekiston, Qozoriston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston respublikalari 1991 yida Sobiq SSSRning parchalanishidan vujudga kelgan. O'rta Osiyo va Qozog'iston xududlari: quruq cho'l va dashtlardan, janubda va janubiy-sharqda Tyan-Shan, Pomir va Kopet Dog' tog' tizmalari bilan tugaydi. Uning janubiy- garbida subtropik zonalari xam mavjud. Dunyo

dengizlariga chiqish yo'q Kaspiy va Orol dengizlari aslida katta ko'llardir. Ishlab chiqarish xo'jaligi asosan daryo, soy va buloqlarga yaqin joylarda qadim zamonlarda rivojlangan.

2-asosiy savol: Etnogenez va etnik tarixi.

2-asosiy savolning bayoni:

Olimlar O'rta Osiyoning eng qadimgi madaniyati markazlaridan biri bo'lganini tasdiqlashgan. Selengur topilmalari bu xududda aholining 600-700 ying yildan buyon yashab kelayotganini tasdiqlaydi. Neolit davrida miloddan avvalgi V-ming yillikdan O'rta Osiyoning janubida dexqonchilik xo'jaligi shakllanadi. Qadimgi aholining tillari fanga ma'lum emas. Neolit davridanoq bu xududda 2 ta xo'jalik-shimoliy dasht (ovchilik, baliqchilik va termachilik) va janubiy sug'orish dexqonchiligi xo'jaligi shakllanadi. Janubiy xududlarda bronzadayoq ishlab chiqarish xo'jaligi asosida shaharlar shakllanishi kuzatiladi. Axolining bu davrdagi tillari xam, hind-evropa til oilasiga mansub deyilsada, oxirigacha aniqlanmagan.

O'rta Osiyoda temir davri 1-ming yillikning 1chi yarmida boshlanadi. Bu davrda dastlabki davlat uyushmalari «Baqtriya» va «Xorazm» vujudga keladi.

Xududda xorazmiylar, baqtriyaliklar, so'g'diylardan tashqari cho'l xududlarida sak-massagetlar yashaganlar. O'rta Osiyo keyinchalik axamoniylar, yunon-makedonlar tomonidan istilo qilingan. Turkiy qabilalarning xududda joylashuvi miloddan avvalgi II-I asrlarga oiddir. Kushon davlati, keyinchalik ko'chmanchilarning qang', tohariylar, kidariylar davlatlari xam etnik tarixda o'z-o'rnini qoldirgan. Turkiy qabilalarning Markaziy Osiyo xududiga kelib joylashishi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda ayniqsa kuchaydi. Janubda dari-tojik va shimolda turkiy tilli etnoslarning shakllanishi ham shu davrdan kuchayadi.

Arablar istilosining maxalliy axoli ma'naviy-madaniyatiga ta'siri milodiy VIII asrdan boshlangan. Keyinchalik somoniylar va qorluq-qoraxoniylar davri (IX-XI asrlar) O'rta Osiyodagi 2 ta yirik xalq: tojiklar va o'zbeklarning shakllanishini yakunlaydi.

Mo'g'ullar istilosi esa hududda 2 yirik irq evropeoid va mongoloidlarning joylashuvini boshlab beradi.

Turkiy xalqlarning so'ngi katta qatlami O'rta Osiyo va Qozogistonga XIV-XVI asrlarda tarqaladi. XVII asrga kelib turkiy tillar tog'li Tojikistondan tashqari barcha joylarda xukmronlikni egallaydi. Ushbu etnik jarayonlar ta'siridan faqat Tojikistondagi-vaxan, ishkoshim, yazg'ulom va shugnonlar o'zlarining Sharqiy Eron tili laxjalarini saqlab qolganlar. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq etnoslarining shakllanishi XV-XVI asrlarda bo'ladi.

O'rta Osiyoda ulardan tashqari kamsonli xalqlar qurdlar, belujiylar, buxoro yaxudiylari, arablar, Eronilar, lo'lilar xam bo'lgan. Rossiya istilosidan so'ng o'lkaga yangi etnoslarning kelib joylashuvi ro'y beradi. 1980 yilda xududda 9,3 mln. ruslar, 1194 ming ukrainlar, 181 ming beloruslar, 1154 m tatarlar, 195 m koreyslar, 52 m dunganlar yashagan.

3-asosiy savol: Xo'jaligi va ijtimoiy tashkilotlar.

3-asosiy savolning bayoni:

An'anaviy xo'jalik turlari neolit davridayoq shakllana boshlab XIX asrga kelganda 3 ta xo'jalik madaniy tiplari: O'troq dexqonchilik (tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar va qisman qoraqalpoq va qirg'izlar). Ko'chmanchi chorvachilik-qozoq, qirg'izlar va qisman turkmanlar va o'zbeklar. Yarim o'troq aralash dexqonchilik-chorvachilik shakllangan. Qoraqalpoq, qisman o'zbeklar, turkman, qozoq va qirg'izlar ushbu kompleks xo'jalikni olib borishgan.

Neolit davrida shakllangan dexqonchilik qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan edi. Uning eng shimoliy xududlarga tarqalishi uchun minglab yillar kerak bo'lgan. Sun'iy sug'orish inshootlari qurilishi, ularni tartibda saqlab turish nixoyat katta mehnat talab qilgan.

Ko'chmanchi chorvachilik bilan cho'l-dasht zonalarida yashovchi aholi miloddan avvalgi II-ming yillikning chegarasida shug'ullana boshlagan. O'ning 3 ta turi: «meridional», «vertikal» va «statsionar» o'troq turlari rivojlangan.

O'rta Osiyoning tog'li xududlarida yaylov chorvachiligi yaxshi rivojlangan.

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari xo'jaligining ajralmas qismlaridan biri xunarmandchilik va turli kasb —korlar xam bo'lgan. Xususan ko'chmanchi chorvadorlar xo'jalikda zarur jundan, teridan qilinadigan ashyolarni o'zlari tayyorlashadi.

Turli xo'jalik faoliyati bilan mashg'ul axoli qadimdan iqtisodiy — savdo munosabatlarida bo'lib, bu voqelik axoli turmushining barcha soxalarida o'z ta'sirini qoddirgan.

Ijtimoiy tashkilotlar.

Xo'jalikning turli xilda bo'lishi O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining ijtimoiy munosabatlariga xam o'z ta'sirini ko'rsatib uning xilma-xil bo'lishini ta'minlaydi. Xususan o'troq dehqonchilik axolisi miloddan avvalgi III ming yillikda (jez davrida) vujudga kelgan. Toifaviy munosabatlar shakllanib miloddan avvalgi 1 ming yillikda dastlabki davlatlar shakllangan. Ko'chmanchi chorvadorlarning doimiy yurishlari va xududga kelib joylashuvlari natijasida o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar vujudga keladi. Natijada toifaviy jamiyatning shakllanishi xam xududning turli qismida turlicha davrda bo'lgan. Umuman tadqiqotchilar voxalar aholisi ijtimoiy munosabatlarini patriarxal-feodal tip sifatida ko'rsatishadi. O'z navbatida ko'chmanchilar jamiyatidagi tabaqalanish xam kuchayib, minglab chorva molli boylar bilan bir qatorda 20-30 bosh molli axoli ko'pchilikni tashkil qilgan. Jamoada kambag'al, batrak, cho'ponlar, xizmatchilar guruxi xam shakllangan. Qozoqlardagi «oqsuyak» xon, sultonlar yoki «qorasuyak», qolgan axoli ushbu jarayonning yakuni deyish mumkin. Qirg'izlarda oliy toifa manak, turkmanlarda -ig deb atalgan.

Chorvadorlar xayotiga katta ta'sir qiladigan narsalardan biri "udumdlar" tartibi bo'lib, mulkiy tabaqalanish davrida vujudga kelgan udumlardan kambag'allarni (xatto qarindoshlari bo'lsa xam) o'z foydalariga ishlatish uchun foydalanilgan.

4-asosiy savol: Moddiy va ma'naviy madaniyat.

4-asosiy savolning bayoni:

Moddiy madaniyat .

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining moddiy madaniyatlari etnik alomatlaridan ko'ra aholining xo'jaligi va xududiy o'ziga xosligiga asoslangandir. Misol uchun uy-joylar milliy emas axolining o'troq yoki ko'chmanchi bo'lishi bilan xususiyatlanadi. O'troq axoli yashaydigan voxalar uy-joylari to'g'ri tomonli past tomli, tevaragi loy devordan to'silgan xovli ko'rinishida bo'lgan. Uylarning bu xoldagi o'ziga xosligi uning ichki loyixasi, tuzilishi bilan ajralgan. Tog'lik xududlarda axoli uylari o'zining arxaik ko'rinishini uzoqroq saqlab qolgan. Ko'chmanchilar o'tovlari ikkiga, ya'ni mo'gul va turk tiplariga bo'linadi. Ularning farqi faqat tomlarida bo'lib birida konusli, ikkinchisida gumbazli. O'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoqlarda ikkala tip xam uchrasa, turkmanlarda turk tipi tarqalgan. O'tovlarning konstruksiyasida deyarli farq yo'q, ularni jihozlashda toifaviy xususiyatlari ko'rinishi mumkin.

O'rta Osiyo an'anaviy kiyimlarida xam farqlanish gazmol yoki kiyim va uning qismlarida bo'lmasdan boy va kambag'alligida bo'lgan. Xo'jalik mashg'uloti xam kiyimlarga ta'sir etganligi tabiiy. Chorvadorlarning an'anaviy kiyimlari jundan, dexqonlar va shaxar axolisi kiyimlarida paxta gazlamasi ko'proq ishlatilgan.

Ma'naviy madaniyat.

Ma'naviy madaniyatda etnik o'ziga xoslik ko'proq ko'rinadi. Lekin umumiylik xam aniq namoyon bo'lishi tabiiy. Jumladan xalq og'zaki ijodi dostonchilikdagi umumiylik asarlarning syujetlaridagina emas qaxramonlar nomlarida xam kuzatish mumkin, «Alpomish» dostoni o'zbeklarga oid bo'lsada qozoq va qoraqalpoqlarga xam yaxshi tanish. «Go'ro'g'li» tojik.o'zbek, turkmanlar uchun umumiydir. Deyarli barcha O'rta Osiyo xalqlarida «Avesto»dan boshlangan Shirin va Shakar syujeti bilan bog'liq she'r va ashulalar mavjud.

O'rta Osiyo va Qozrriston xalqlari ma'naviy madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatan narsalardan biri islom dinining yoyilishidir. XIX -XX asrda O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari madaniyatining yuksalishi Rossiya istilosi xamda xukmronligi ta'sirida o'tgan.

NAZORAT TOPSHIRIQLAR:

1. Markaziy Osiyo hududi, aholisi, tabiatini tavsiflab bering.
2. O'rta Osiyo va Qozog'iston tub aholisining antropologik tasnifi, Markaziy Osiyoda hozirgi kunda istiqomat qilayotgan xalqlar an'anaviy xo'jaliklari, turmush tarzi, uy-joylari, kiyimlari, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida nimalar bilasiz?
3. O'zbeklar etnogenezida qatnashgan etnik komponentlar, o'zbek milliy mentaliteti, an'anaviy xalq madaniyati, o'zbeklarda xo'jalik madaniy tiplar haqida so'zlab bering.

Adabiyotlar:

1. Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
2. Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
3. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
4. Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
5. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
6. Swadesh M. The origin and diversificat ion of languageG' London, 1972.
7. Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
8. Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
9. Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63
10. Salimov T.U. Etnografik ekspiditsiyalarni o'tkazish uslublari. T. «Universitet» 1993

6-mavzu: Janubiy va Old Osiyo xalqlari.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Janubiy va Old Osiyo xalqlari”

mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi</p> <p>1.1, Dars maqsadi: Janubiy va Old Osiyo xalqlari etnologiyasi haqida ma'lumot berish.</p> <p>1.2, Identiv maqsadlar:</p> <p>1.1. Janubiy Osiyoning tabiiy-geografik tavsifi, Janubiy Osiyo mamlakatlarining aholisi haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.2. Janubiy osiyoliklarning antropologik va etnolingvistik qiyofasiga sharx beradi.</p> <p>1.3. G'arbiy yoki Old Osiyodagi mamlakatlar tabiiy-geografik tavsifi, xalqlarining antropologik jihatdan tavsifi, etnolingvistik qiyofasi, moddiy madaniyati, ijtimoiy tuzumi, oilaviy va nikoh munosabatlari, ma'naviy madaniyatiga sharx beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: antropologik va etnolingvistik qiyofa, etnik tuzilish, diniy e'tiqod, ijtimoiy tuzum, ma'naviy madaniyat, moddiy madaniyat, etnik tarkib.</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p>	O'qituvchi

	2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	30 min.
3	<p><u>Guruhda ishlash.</u></p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi-talaba 30 min.
4	<p><u>Mustahkamlash va baholash:</u> Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Janubiy Osiyoning tabiiy-geografik tavsifi, aholisi antropologik va etnolingvistik qiyofasini tavsiflab bering. 2. Eron, Afg'oniston, Arab mamlakatlari, Turkiya xalqlari haqida nimalar bilasiz? 3. G'arbiy Osiyo xalqlarining moddiy madaniyati, ijtimoiy tuzumi, oilaviy va nikoh munosabatlari, ma'naviy madaniyati haqida so'zlab bering. 	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p><u>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</u></p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Janubiy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati 	O'qituvchi 10 min.

Savollar

1. Old Osiyo va Janubiy Osiyo xalqlari.
2. G'arbiy Osiyo xalqlari.
3. Janubiy Osiyo xalqlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: antropologik va etnolingvistik qiyofa, etnik tuzilish, diniy e'tiqod, ijtimoiy tuzum, ma'naviy madaniyat, moddiy madaniyat, etnik tarkib.

I-asosiy savol: Old Osiyo va Janubiy Osiyo xalqlari.

1-asosiy savolning bayoni:

Xududi 6 mln. kv.km bo'lib; 17 ta katta-kichik davlatlardan iborat. Eng yiriklari Turkiya (61,4mln), Eron(61,3mln), Iroq(20,6mln), Afgoniston (18,4mln), Saudiya Arabistoni (18,5mln) va xakazolar.

Etnogenezi masalalari. Old Osiyoda neandertal odamining homo sapiens ga aylanish jarayoni bo'lganligi haqida olimlarning fikrlari mavjud. Arxeologlar unda mezolit davrida nutufiy, zarziy va balxan(G'arbiy Turkmaniston) madaniyatlari shakllanganligini tasdiqlashgan.

Axolining fanga ma'lum etnik xususiyatlari miloddan avvalgi III ming yillikning o'rtalariga oid bo'lib, akkadlarning semit tillarida gaplashganliklari tasdiqlangan. Miloddan avvalgi II ming yillikda xind-evropa tillari xam(xettlar) tarqala boshlagan. Axoli etnik qiyofasini shakllanishida oriy istilosi xam katta axamiyat kasb etadi.

O'rta asrlarda G'arbiy Osiyo xududlariga turkiy xalqlarning ko'chishlari boshlanib, ular saljuqiylar davlatining vujudga kelishi bilan yakunlanadi.

Bugungi kunda G'arbiy Osiyoda: xind-evropa, semit-xamit va oltoy til oilalariga oid Eron guruxi mavjud.

Irqiy jixatdan axoli evropoidlar bo'lsada, qisman negr-xabashlar, Afg'onistonda mongoloid-xazoralar xam yashaydilar.

2-asosiy savol: G'arbiy Osiyo xalqlari.

2-asosiy savolning bayoni:

Axolining asosiy an'anaviy xo'jaligi dexqonchilikdir. Qisman yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvachilik xam mavjud. Dexqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib to'g'onlar, suv omborlari, kanal va ariqlar, korizlardan qadim-qadimlardan foydalanib kelinmoqda. Eron va Afg'onistonda lalmiga don ham ekilgan. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari boshqoqli donlar, xurmo, sholi, sitruslar, poliz ekinlaridir. Turkiya, Eron, Afg'onistonda paxta, tamaki, bog'dorchilik muhim o'rin egallaydi.

Moddiy madaniyati.

G'arbiy Osiyo xalqlarining ko'pchilik qismi qishloqlarda yashaydi. Qishloqlarning ko'pi yirik bo'lsada, uylari tartibsiz, rejasiz qurilgan. Qishloq markazida bozor, masjid, qaxvaxona, choyxona, boshqaruv muassasalari joylashgan. Tog'lik xududlarda uylar tosh, voxalarda guvala, xom g'ishtlardan, paxsadan quriladi.

G'arbiy Osiyoda hozirgi paytgacha ma'lum sondagi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador xalqlar xam yashaydi. Arab badaviylari yozgi yaylovlarida yuzlab chodirlar tikiladi. Texnika va aloqa vositalari o'ta zamonaviy bo'lsada, an'anaviy xo'jaligi o'z axamiyatini yo'qotmay qelmoqda.

G'arbiy Osiyo aholisi uy-xonadonlari to'rtburchak shaklida qurilib (ichkari va tashqari) 2 qismga bo'linadi. Uy jixozlari bo'yra-kigiz, gilam, taxta krovatlar, sandiqlardan iborat. Mebellardan stol, stullar, xontaxtalar mavjud.

Idishlar sopol va temir buyumlardan tashkil topgan bo'lsada, qishloqlarda quritilgan qovoqlardan qilingan idishlar ham uchrab turadi. Bugungi kunda zamonaviy fabrika idish-tovoqlar an'anaviy buyumlarni o'rnini olmoqda.

Kiyimlari. Erkaklar beldan pastga tushadigan ko'ylak keng ishton, chopon, yaxtaklar, turli bosh kiyimlari kiyishadi. Qishda qo'y terisidan tikilgan po'stinlar xam kiyiladi. Afg'onistonda pushtunlarda chakmonlar xam mavjud.

Arablar kufiya, Eron va Afg'onistonda qorako'l teridan tikilgan telpaklar asosiy bosh kiyimdir. Oyoq kiyimi sandal, tuflari, etiklardan iborat.

Ayollar esa to'pig'igacha ko'ylak, uzun tor lozim, ustilariga shuningdek turli yaktak ko'rinishidagi kiyimlar kiyishgan. Boshlariga ro'mol o'rashib turli zargarlik buyumlari taqishadi.

Taomlari: bug'doy, non, o'simlik va sut mahsulotlaridan iborat. Kofe, ko'k va qora choy asosiy ichimliklardir.

Ma'naviy madaniyati

G'arbiy Osiyo xalqlari folklori nihoyatda boy. Jahon madaniyati durdonalaridan hisoblangan «Ming bir kecha» ertaklari shu xududda yaratilgan.

Dinlari: islom (sunna va shia mazxablari) xristianlik, buddizm mavjud.

2-asosiy savol: Janubiy Osiyo xalqlari.

2-asosiy savolning bayoni:

Hindiston (1 milliard), Bangladesh (119,9mln), Pokiston(129,7 mln), Shri Lanka (18,2mln), Nepal qirolligi(22,6mln), Butan qirolligi(1,3 mln), Maldiv respublikasi(0,3mln)dan iborat.

Janubiy Osiyoda arxantrop va paleontoplar suyak qoldiqlari topilgan. Olimlar undan odamzot 1 mln. yildan buyon yashab «homo sapiens» jarayoni bo'lganligini tasdiqlashgan, Janubiy Osiyoning qadimgi dexqonchilik madaniyatlari «Mohinjo-Daro» va «Xarappa»dan topilgan. Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalari ariy qabilalarining kirib kelishi maxalliy dravidlarni janubga ketishga majbur etgan. Ariylar istilolari yangi til, din va madaniyatni shakllantiradi.

Zamonaviy aholisi.

Eng so'nggi ma'lumotlarga binoan faqat Hindistonda 187 til bo'lib, 29 ta etnos 1 mln dan ortiq axoliga ega.

Antropologik jihatdan Janubiy Osiyoning shimoliy xududlari axolisida evropoid va avstroloid xususiyatlarini uchratish mumkin.

Xo'jaligi.

Miloddan avvalgi III ming yillikda dexqonchilik xo'jaligi shakllanib tarqaladi. Asosiy ekinlar-sholi, so'ng butdoy va boshqa boshqoqli ekinlar etishtiriladi.

Moddiy madaniyatlar:

Axolining asosiy qismi qishloqlarda yashaydi. Hind va Gang daryolari voxasidagi qishloqlar ko'chalari rejali o'nlab uylardan iborat. Uy devorlari asosan loydan, tomlari tekis. Shimoliy xududlarda g'ishtdan tiklangan ayvonli 1-2 xonali uylar xam uchrab turadi. Yarim orolning janubida tosh, yog'ochdan ko'proq foydalaniladi. Uylarning turlari, qurilish ashyolari faqat tabiiy iqlim bilan bog'liq bo'lmay ba'zida diniy, xo'jalikdagi xususiyatlar xam o'z aksini topgan.

Janubiy Osiyoning ko'chmanchi axolisi pushtun va belujiylar jun gazlama yoki brizent yopilgan chodirlarda, ko'chma o'tovlarda yashaydilar.

Tropik o'rmon va tog'li xududlarda yashovchi naga, kxasilar ustunlar ustiga qurilgan kichik sinchli uylarda yashasa, sintallarning uylari to'g'ri ko'chalar chetida bambuk va qamishlardan bunyod etiladi. O'rmon qabilalari palayyan va uladanlar kichik qishloqlarda engil chaylalar, ustunlar ustiga qurilgan ayvonlarda istiqomat qiladilar.

Andamanliklarda 10 va 100 lab kishilar yashaydigan jamoa uylari saqlanib qolgan.

Kiyimlari:

Asosiy turlari tikilgan va o'rama bo'lgan. Erkaklarda-dxoti, belbog'chalar ko'ylak va nimchalar, boshlarida qalpoq. Ayollarda - sari, kofta, bilan birgalikda tikilgan kiyimlar xam mavjud. Xindlar teridan qilingan oyoq kiyimlari kiymaydilar.

Veddlar, andamanliklar, nagalar, kxasilarning asosiy kiyimi belbog'chalardan iborat.

Ma'naviy malaniyati.

Ko'p asrlik tarixiga ega Hind dostonlari, afsonalari «Ramayana», «Maxabhorat», o'yinlari, musiqalari, qo'shiqlari dunyoga mashhur. Teatr, me'morchilik obidalari Toj Mahal, Banoras ibodatxonalari, Adjanta g'oridagi o'yma ibodatxonalar shu qatordadir.

Dinlari:

Induizm (Vishna, Shiva), Buddizm (miloddan avv. VI-V asrlar), Jaynizm, Sikkizm (XVI-XVII asrlarda), islom (Pokiston, Bangladesh)lardan iborat.

Nazorat topshiriqlari:

1. Janubiy Osiyoning tabiiy-geografik tavsifi, aholisi antropologik va etnolingvistik qiyofasini tavsiflab bering.
2. Eron, Afg'oniston, Arab mamlakatlari, Turkiya xalqlari haqida nimalar bilasiz?
3. G'arbiy Osiyo xalqlarining moddiy madaniyati, ijtimoiy tuzumi, oilaviy va nikoh munosabatlari, ma'naviy madaniyati haqida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
2. Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
3. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
4. Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
5. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
6. Swadesh M. The origin and diversificat ion of languageG' London, 1972.
7. Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
8. Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
9. Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63
10. Salimov T.U. Etnografik ekspiditsiyalarni o'tkazish uslublari. T. «Universitet» 1993

Fanni o'qitish texnologiyasi:
“Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari”
mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi</p> <p>1.1. Dars maqsadi: Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari etnologiyasi haqida ma'lumot berish.</p> <p>1.2. Identiv maqsadlar:</p> <p>1.1. Janubi-Sharqiy Osiyo, Tinch okean havzasi mamlakatlari aholisi haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.2. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining til turkumlari, etnik tarkibi, etnoslarning shakllanish jarayoniga sharx beradi.</p> <p>1.3. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining xo'jalik faoliyati, moddiy madaniyati, ma'naviy madaniyati va diniy e'tiqodlariga sharx beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: til turkumlari, etnik tarkibi, etnoslarning shakllanish jarayoni, xo'jalik faoliyati, moddiy madaniyati, ijtimoiy tuzum, diniy e'tiqod.</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi- talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash:</p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <p>1. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar va ulardagi aholini tavsiflab bering.</p> <p>2. Tinch okean havzasi mamlakatlari xalqlarining til turkumlari, etnik tarkibi, etnoslarning shakllanish jarayoni haqida nimalar bilasiz?</p> <p>3. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining</p> <p>4. Moddiy va ma'naviy madaniyati haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlarining xo'jaligi va moddiy madaniyati 	O'qituvchi 10 min.

Savollar:

1. Janubi Sharqiy Osiyo halqlari: hududi va etnik tarixi.

2. Mamlakatlar va xalqlar.
3. Sharqiy Osiyo xalqlari.

Mavzuga oid tushuncha va iboralar: til turkumlari, etnik tarkibi, etnoslarning shakllanish jarayoni, xo'jalik faoliyati, moddiy madaniyati, ijtimoiy tuzum, diniy e'tiqod.

I-asosiy savol: Janubi Sharqiy Osiyo xalqlari: hududi va etnik tarixi.

1-savol bo'yicha dars maqsadi: Janubi Sharqiy Osiyo xalqlari: hududi va etnik tarixini tahlil qilishdan iborat

1– savolning bayoni:

Hududi: Hindixitoy yarim oroli, Malakka, Singapur, Malayya arxipelagi va Filippin orollaridan iborat. Yangi Gvineya orolining g'arbiy qismi xam Janubiy- Sharqiy Osiyoga qaraydi. Er maydoni 4 mln. kv. km., axolisi 478,4 mln. (1995 y.)

Etnik tarixi.

Ba'zi hududlar antropogenez -ya'ni insonning vujudga kelishi va shakllanishi bo'lgan joylardir. Yava orolidan topilgan pitekantrop 1,5-2 mln. yil bilan belgilanganligi bunga asos bo'la oladi. Miloddan avv. III ming yillikka qadar axolisi veddo -avstraloid bo'lgan. Butungi kunda xam aeta (Filippin) semanglar (Molukka orollari) avstralo-veddoidlik belgilarini saqlab qolishgan. Miloddan avv. II ming yillikning birinchi yarmidan Janubiy-Sharqiy Osiyoga mongoloidlar (tillari malayya- polineziya til oilasiga oid bo'lgan) kelib joylasha boshlaydilar. Ilk mongoloidlar vakillari bataklar, niasler mantaveyliklar ham saqlanib qolganlar.

2-asosiy savol: Mamlakatlar va xalqlar.

2 -savol bo'yicha dars maqsadi: Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va ularning aholisi haqida ma'lumot berishdan iborat.

2 – savolning bayoni:

Birma Respublikasi. 37 mln 25-50 ga yaqin etnoslar yashaydi, 66% ni birmaliklar tashkil etadi. Tailand qirolligining (60,2mln.) davlat tili tay, ulardan tashqari lao, lan, shan va boshqalar xam mavjud. Laosda 30 ga yaqin xalqlar yashaydi, 4,8 mln. axolining 60% lao tilida so'zlashadi. Lao-tay til oilasiga mansub.

V'etnam. (75,0 mln.) axolining 60% avstroneziya til oilasining mustaqil v'et guruxida gaplashadi.

Kambodja, 10,6 mln. kishilik aholining asosiy qismi kxmer tiliga mansubdir. Mon-kxmer tillari alohida til oilasidir.

Singapurda 3,0 mln. axolining 80% ni xitoyliklar tashkil qiladi.

Malayziya. 19,9 mln. kishi. Axolining 10,4 mln.i malayyaliklar, 5 mln.i xitoyliklardan iborat.

Indoneziya. 198,4 mln. kishi. Malayya-polineziya til oilasining malayya va indoneziya tillari xukmron. Mamlakatda 350 ga yaqin etnoslar yashaydi. Eng yirik xalq yavaliklar-100 mln. kishidan iborat.

Filippinda-axolining asosiy qismi avstroneziya tillarida so'zlashadi. 68,4 mln. kishidan 30,8 mln.i visayyalar. Ifugao-160 ming, aeta - 40 ming kishiga egadir.

Xo'jaligi.

Janubiy-Sharqiy Osiyoda eng primitiv ovchilik va terib-termachilikdan tortib sug'orish dehqonchiligiga qadar xo'jalik turlari mavjud. Madura orolida aholi chorvachilik bilan xam shug'ullanadi. Asosiy qishloq xo'jaligi ekini-sholidir. Axolining ma'lum qismi sanoatda, an'anaviy xo'jalik faoliyatlari (saqich, kauchuk, qimmatbaxo yog'ochlar tayyorlash) bilan xam shug'ullanadilar.

Semang, senoi (Sumatra oroli) kubu, sakaya (Yava orolida) tangerlar, punam va bukitlar (Kalimantan orolida) Sulavesi orolidagi toalar, Filippindagi-aetalar yaqin

paytgacha daydi ovchilik va termachilik bilan shug'ullanib kelishgan. Bugungi kunda bu xalqlarni o'troqlashtirish, dexqonchilikka o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

Moddiy madaniyati.

Xilma-xil bo'lsada, ba'zi umumiylikka xam egadir. Dexqonchilik bilan shug'ullanuvchi axoli daryo, ko'llar, dengiz qirg'oqlaridagi qatorlab qurilgan qishloqlarda yashaydilar. Uylarning ma'lum qismi ustunlar ustida qurilgan. Yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi, toshqinlar bunga sababdir. Asosiy qurilish ashyosi bambuk. Devor, pol xammasi bambukdan yasaladi.

Minangkabaularda «uzun jamoa uylari» saqlanib qolgan, ular yangi oilaga qo'shimcha xonalarni uyning davomidan qurishadi. Yaqin o'tmishda qishloq markazida «jamoa uyi», «erkaklar uyi» bo'lgan.

Kiyimlari.

Tashqi ko'rinishidan turli-tuman bo'lsada o'z mazmuni bo'yicha umumiyliklarga ega. Masalan an'anaviy kiyimlar o'rama bo'lgan. Bugungi kunda Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlarining deyarli barchasi ko'ylak, ishton, kofta, shlyapa (bambuk, qamishdan) sandallar kiyishadi. Birma va, Kambodjada an'anaviy milliy kiyimlar ko'proq saqlangan (Sorong). Ovchi va terimchi xalqlarda belbog'chalar, daraxt po'stlog'idan yubkachalar keng tarqalgan.

Ma'naviy madaniyatlari.

Hindixitoyda-buddizm, Indoneziyada va Malakkada-islom, Filippinda -xristian dini keng tarqalgan. V'etnamda dostonlar musiqali-dramalar, turli raqslaru-qo'shiqlar; Tailand-boy folklor, qo'g'irchoq teatri, soya teatrlari; Indoneziyada-soya teatri va yang kuvo, marionetkalar teatrlari nom chiqargan.

3-asosiy savol: Sharqiy Osiyo xalqlari.

3-savol bo'yicha dars maqsadi: Sharqiy Osiyo xalqlari haqida ma'lumot berishdan iborat.

3-savolning bayoni:

Hududga Xitoy-1 mlrd. 218,8 mln, Yaponiya-125,2 (1995 y.) mln, KXDR-23,5 mln, Janubiy Koreya-44,9 mln va Mongoliya Xalq Respublikasi 1 2,3 mln, Tayvan-21,2 mln, Makao-(0,4 mln. kishi) kiradi. Gonkong (Syangan) 1998 yili 6,0 mln. aholisi bilan Xitoyga qaytarildi.

Etnogenez va etnik tarixi.

Dastlabki ishlab chiqarish xo'jaligi makoni Sinlyangan (Sharqiy Xitoy) miloddan avvalgi V ming yillikka oiddir. Axoli unda sholi etishtirgan. G'arbda xuddi shu davrga oid Yanshoo madaniyati (Xuanxe daryosi havzasidan) topilib, uning aholisi chumiza (sulining bir turi) etishtirgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikda yanshooliklar janublik qabilalar bilan to'qnashadilar. Ular orasida o'zaro munosabatlar protoxitoy tilini vujudga keltiradi. Miloddan avv. II ming yil. Sya va Shan (In) qabilalari dastlabki qabila ittifoqi tarzidagi davlatlarga asos soldilar. Miloddan avv. I ming yillik boshlarida o'rta xitoy pasttekisligida «xuayya» etnosi shakllanadi va qadimgi podsholiklar Sin va Xanga asos soladi.

Deyarlik shu davrda Mo'g'uliston dashtlarida oltoy tillariga mansub syunnu (xunn) qabilalari shakllanadi. Xunnlar o'rniga mo'g'ullar sanbiy qabilalari kelib o'rnashadi. Koreyada Koguryo-janubda Silla va Pekche davlatlari shakllanadi, Yaponiyada-Yamato davlati vujudga keladi.

Etnolingvistik klassifikatsiya.

Xududda 5 ta yirik til oilalari mavjud. Oltoy, xitoy-tibet, avstroneziya, tay va avstroosiyo. Yapon, ayn va koreys tillari xech qaysi til oilasiga kirmaydi.

Xitoy-tibet (tibetliklar, inzu, bay va h.k.)

Tay tiliga (tay, kaday va xakazolar)

Avstroneziya (Tayvanning tub axolisi gaoshanlar)

Avstroosiyo (myao-yao, mon-kxmer, kave, benlun, bukaylar)

Oltoygga (turk, mo'g'ul, dunsyan, tu, mongarmlar, tungus-manchjurlar, sungar, xechje, evenn, oro chinlar).

Xo'jaliklari.

Ovchilik, baliqchilik va termachilik bo'lgan. Uning xususiyatlari tungus-manchjurlar va aynalarda saqlanib qolgan.

Qo'l (motiga) dehqonchiligi. Xitoyning shimoliy rayonlarida omoch dehqonchiligiga miloddan avv. I ming yillikning o'rtalarida o'tilgan.

Omoch dexqonchiligi-temirdan foydalanish bilan boshlangan bo'lib, miloddan avv. I ming yillikning o'rtalarida xitoy, koreys va manchjurlarda hukmron xo'jalik turiga aylanadi.

Chorvachilik bilan mug'ullar, turklar qisman tungus-manchjurlar shug'ullanganlar.

Bu xo'jalik miloddan avv. I ming yillikda vujudga kelgan.

Moddiy madaniyat.

Uy-joylarning xilma-xilligi, xo'jalik madaniy tiplar bilan bog'liq. Dexqonchilik aholisida miloddan avv. IV-III ming yillikda yarim erto'lalar, so'ngra er ustidagi uylar vujudga keladi. Asosiy turar-joylar sinch- ustunlar yordamida quriladi. Ko'chmanchilar uzoq o'tmishda kapalarda yashaganlar. Xitoy manbalarida yozilishicha o'tov miloddan avv. I ming yillik o'rtalarida vujudga keladi.

Kiyimlari.

Shim ko'chmanchilar kashfiyotidir. Undan tashqari chopon, kigiz yoki charm etiklar xdm ularning an'anaviy kiyimlaridir. Dexqonchilik aholisi miloddan avv. IV-III ming yillikda ko'chmanchilar kiyimlarini o'zlashtira boshlaydilar. Dastlab jangchilar qulay kiyimlarni kiyganlar.

An'anaviy o'rama kiyimlar, ayniqsa ayollarda Xitoyda, Koreya, Yaponiyada keng miqyosda saqlanib kelmoqda.

Taomlardagi an'anaviylik xam to'laligicha saqlanib qolgan.

Ma'naviy madaniyat.

Islom, Buddizm, Sintonizm, Lamaizm (mo'g'ul va tibetliklarda) keng tarqalgan. Sharqiy Osiyodagi xar bir xalq o'zining o'ta qadimiy ma'naviy qadriyatlarini, an'analariga sadoqatlari bilan ajralib turadi. Ular qadimgi yozuvga xalq ogzaki ijodiyoti afsonalari-ertaklarga boy mamlakatlardir.

Nazorat topshiriqlari:

1. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar va ulardagi aholini tavsiflab bering.
2. Tinch okean havzasi mamlakatlari xalqlarining til turkumlari, etnik tarkibi, etnoslarning shakllanish jarayoni haqida nimalar bilasiz?
3. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining
4. Moddiy va ma'naviy madaniyati haqida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
2. Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
3. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
4. Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
5. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
6. Swadesh M. The origin and diversificat ion of languageG' London, 1972.
7. Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
8. Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
9. Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63
10. Salimov T.U. Etnografik ekspiditsiyalarni o'tkazish uslublari. T. «Universitet» 1993

8-mavzu: Shimoliy Osiyo (Sibir) xalqlari.
Fanni o'qitish texnologiyasi:
 "Shimoliy Osiyo (Sibir) xalqlari"
mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi</p> <p>1.1, Dars maqsadi: Shimoliy Osiyo (Sibir) xalqlari etnologiyasi haqida ma'lumot berish.</p> <p>1.2, Identiv maqsadlar:</p> <p>1.1. Shimoliy Osiyo (Sibir) xalqlari haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.2. Shimoliy Osiyo (Sibir) xalqlarining til turkumlari, etnik tarkibi, etnoslarning shakllanish jarayoniga sharx beradi.</p> <p>1.3. Shimoliy Osiyo (Sibir) xalqlarining xo'jalik faoliyati, moddiy madaniyati, ma'naviy madaniyati va diniy e'tiqodlariga sharx beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: Sibir, til oilalari va turkumlari, Oltoy-Sayan, paleoosiyo xalqlari, Tundra, Chukotka.</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi-talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash:</p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <p>1. Sibirda istiqomat qiluvchi mahalliy tub aholi va uning til oilalari va turkumlarini tavsiflab bering.</p> <p>2. Oltoy-Sayan, Tundra va Chukotka xalqlarining xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida nimalar bilasiz?</p> <p>3. Sibirdagi paleoosiyo xalqlarining turmush tarzi haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Sibir xalqlarining etnik tarkibi. Moddiy va ma'naviy madaniyati 	O'qituvchi 10 min.

Savollar:

1. Sibir chegaralari, tabiati. Sibirda istiqomat qiluvchi mahalliy tub aholi. Sibir aholisining til oilalari va turkumlari.
2. Xo'jalik-madaniy tiplar.
3. Tub aholi xo'jaligi va ma'naviy madaniyati.

Mavzu oid tayanch tushuncha va iboralar: Sibir, til oilalari va turkumlari, Oltoy-Sayan, paleoosiyo xalqlari, Tundra, Chukotka.

1-asosiy savol: Sibir chegaralari, tabiati. Sibirda istiqomat qiluvchi mahalliy tub aholi. Sibir aholisining til oilalari va turkumlari.

1-savol bo'yicha dars maqsadi:

Sibir chegaralari, tabiati. Sibirda istiqomat qiluvchi mahalliy tub aholi. Sibir aholisining til oilalari va turkumlariini ochib berish.

1-asosiy savolning bayoni:

Shimoliy Osiyo hududi Rossiya Federatsiyasining Sibir va Uzoq Sharq o'lkalarini o'z ichiga oladi. Ushbu xududda qadim zamonlardan o'ziga xos etnolingvistik jamoalar shakllanib xo'jalik-madaniy tiplar yaratganlar. Shimoliy Osiyo aholisini o'rganish uchun umuman etnografiya fani uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, uni tadqiq qilish orqali tarixiy taraqqiyot davrida turli ijtimoiy-madaniy xrlatlarni shakllanishini kuzatish imkonini beradi.

Etnogenez va etnik tarixi.

Bu borada tub aholini qadimiy o'zaro aloqalargina emas, ularning qo'shni o'lkalar, xususan O'rta Osiyo, Markaziy va Sharqiy Osiyo hududlarida yashovchi axoli bilan etnik madaniyati munosabatlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. XX asrning 80-yiliga kelib Shimoliy Osiyodagi 25 mln. kishidan faqat 1 mln.ga yaqini tub axoli vakillaridir. Buryatlar 353 ming, yoqutlar 328 ming, tuvaliklar 166 ming, Sibir tatarlari 100 ming, xakaslar 71 ming, oltoyliklar 60 ming kishidan iborat. Mavjud 24 ta xalqlardan qolganlari «Shimoliy Osiyoning kam sonli aholisi» 150 ming kishidan iborat. Ular orasida nenetslar 129 ming, evenklar 28 ming, xantilar 21 ming, chukchalar 14 ming, evenlar 12 ming, nanaylar 10 ming, mansilar 7,7 ming, koryaklar 7,9 ming kishidan iborat.

Sibirning ba'zi axoli guruxlari aleut, entsalar, orokilar bir necha yuz kishidan iborat. Keyingi davrda Sibirdagi tub axoli orasida o'z ona tilini biladiganlar soni kamayib bormoqda.

Sibir xalqlari: oltoy til oilasining tungus guruxlariga oid.

Turk tillariga Sibirning oltoy-sayan xalqlari: oltoyliklar, tuvaliklar, xakaslar, shorlar, chulimlar, karagaslar va tofalarlar; G'arbiy Sibirning-tobolliklar, tatarlar, barabinlar, tomlik tatarlar va boshqalar. Shimoliy Sharqda yoqut va dolganlar.

Mo'g'ul tillarida: asosan buryatlar so'zlashadilar.

Tungus tillarida-evenklar, evenlar, nanaylar (goldlar) ulchalar, xeshdallar, Ussuriya o'lkasida orocho va udegeylar, Saxalinda orokilar yashashadi.

Ural til oilasi.

Ugor xalqlari-xanti va mansilar. Samoedlar-selkuplar Ob daryosining o'rta oqimida, enetslar Eniseyning quyi oqimi, nganasan yoki tavgiyar Taymirida, nenetslar Taymirdan Oq dengizgacha. Samodiylarga oid karagas, koyballar, kamasinlar XVIII-XIX asrlarda turkiy tillarga o'tishgan.

Paleosiyo tillarida chukcha, koryak va itelmenlar so'zlashadi. Qolganlari mustaqil tillar-ketlar, kolo'ma yukagirlari, chuvan va nivxlar. Shimoliy Osiyoning barcha tub xalqlari mongoloid irqiga kiradi. Olimlarning fikricha Sibir va Uzoq Sharq o'lkalari so'nggi paleolitdan o'zlashtira boshlangan.

2-savol: Xo'jalik-madaniy tiplar.

2-savol bo`yicha dars maqsadi: Sibir xalqlarining xo`jalik-madaniy tiplarini tushuntiring.

2-asosiy savolning bayoni:

Tayganing piyoda ovchi va baliqchilari.

Subarktikaning yovvoyi butular ovchilari.

Ob, Amur, Kamchatkaning o'troq baliqchilari.

Sharqiy Sibirning tayga bugulari ovchilari.

Shimoliy Uraldan Chukotkaga qadar tundra bug'uchilari.

Tinch okeani qirg'oq va orollarning dengiz xayvonlari ovchilari.

Oltoy va Sayanning ovchi va chorvadorlari.

8. Janubiy va G'arbiy Sibir, Baykal bo'ii dehqon va chorvadorlari.

Shimoliy Osiyo aholisining etnogenezi boshlanishi miloddan avv. VI-I ming yillikka oiddir. Xususan oltoy tillari oilasiga oid etnoslarning oldturk va oldmo'g'ullarga bo'linishi miloddan avv. I ming yillikda Mo'tulistonda bo'lgani extimol. Ular Sibirga shakllanib bo'lgan qadimgi turkiy va qadimgi mo'g'ul xalqlari sifatida tarqalganlar. Tungus tili oid qabilalar Sharqiy Baykal ortida shakllanib milodiy asr chegaralarida shimolga tarqala boshlagan. Miloddan avv. III ming yillikning oxiri II chi ming yillikning boshlariga oid topilgan Afanasev madaniyati axolisi ko'chmanchi chorvachilik bilan shugullangan. Irqiy jixatdan evropoid bo'lgan bu aholi oldEron tillarida gaplashgani extimol. Ularning izlari O'rta Osiyo, Volga bo'yidan topilgan.

Jez davri (miloddan avv. III-I ming yilliklar) Sibir axolisi madaniyati xam janub bilan uzviy bog'liq bo'lgani tasdiqlangan. Miloddan avv. II-I ming yilliklarda ketlarning ajdodlari, miloddan avv. I ming yillik-milodning V asrlarda turkiy qabilalar Oltoy-Sayan va undan shimolga tarqala boshlagan. Ular yarim ko'chmanchi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullang anlar.

3-savol: Tub aholi xo'jaligi va ma'naviy madaniyati.

3-savol bo`yicha o`qituvchining maqsadi: Tub aholi xo'jaligi va ma'naviy madaniyati ini sharxlab berish.

3-asosiy savolning bayoni:

1. Chorvachilik va dexqonchilik aholisi madaniy tiplari.

G'arbiy Sibir tatarlari, tuva, xakas, oltoy, shorlik turkiy qabilalardan iboratdir. Ularning barchasida ruslar istilosiga qadar chorvachilik dexqonchilikka nisbatan yaxshi rivojlangan. Oltoyluk va buryatlarda uzoq payt yog'ochdan yasalgan konussimon tomli o'tov ko'rinishidagi uylar saqlanib qolgan.

An'anaviy kiyimlari Markaziy Osiyoliklarnikiga o'xshash oldi ochiq bo'lgan. Erkaklari po'stin, ayollari (buryat va oltoylıklar) ichidan uzun ensiz, oldida kesilgan «chegedek» kiygan.

2. Shimolning ovchi qabilalari xant, mansi, selkuplar xo'jalik — madaniy tiplari xam o'ziga xosdir. Uralda va Amur bo'ylarida yashovchi nivx, ulcha, nanaylar, koryak va evenlar yil davomida baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Ovchilikning boshqa soxalari yordamchi vazifasini o'tagan. Baliq va undan olingan maxsulotlar hayot asosini, hatto uning terisidan kiyim hamda poyafzal qilishni bilganlar. Uy-joylari qishda jamoa erto'lalari, yozda o'tov chumlar yoki katta qo'shilgan chana ustida tunashgan. Axolining barcha guruxlarida jun kiyim, uzun po'stinlar keng tarqalgan.

3. Sibirning tayga zonalarida ovchi-bug'uchilik bilan shug'ullanadigan evenk, even, yukagir, oroki, negidallar yashashgan. Ular yovvoyi los va bug'ularni ovlashgan. Shuningdek mo'ynali xayvonlar ov qilingan. Ular ko'chmanchi hayot kechirganlar. Asosiy transport vositalari bug'u qo'shilgan chanalar bo'lgan. Moddiy madaniyati xo'jalikka mos bo'lib, koiussimon chum (o'tov)larda yashaganlar. Evenklar berestadan qayiqalar yasashgan ajoyib chang'ilar yaratishgan. Evenklar kiyimlari yupqa lekin issiq bug'u terisidan yasalgan.

4. Bug'uchilik bilan shuningdek nenetslar, chukcha va koryaklar ham shugullanganlar. Ular yil davomida ko'chib yurishgan. Yaylovlar shimolda tayga chegaralarida, yozda dengiz qirg'og'iga yaqin joylarda bo'lgan. Nenetslarning maxsus o'rgatilgan cho'pon itlari podani bo'rildan qo'riqlagan. Ular 2-5 taga qadar bug'u qo'shilgan chanalarda qishin-yozin yurishgan.

Bug'uchilik axolisining moddiy madaniyati boy emas lekin u ko'chmanchi turmush va og'ir tabiat-iqlimiga mos yaratilgan. Uylari ko'chma chum-o'tov bug'u terilari bilan yopilgan. Idishlari asosan yog'ochdan bo'lib faqat qozonni ruslardan o'zlashtirgan. Kiyimlari kalladan kiyiladigan bo'lib, bug'u terisidan qilingan. Etiklari xam-pim deb atalib teridan tikilgan. Chukcha va koryaklarning uylari-«yaranga» deb atalib, asosi turli uzunlikdagi yog'ochlardan yasalgan, usti xayvon terilari bilan yopilgan. Ichida kub shaklidagi terilardan tikilgan maxsus qoplama bo'lib, xayvon yog'larini yondirib uni isitishgan.

5. Nixoyat arktika ovchilari eskimos, o'troq chukchalar va koryaklar bo'lib, ular dengiz xayvonlarini ovlaganlar. Ular asosan Chukotka qirg'oqlaridagi tyulen va morjlarni ovlashgan. XIX asrdan ular erto'lalarini tashlab yarangalarda yashay boshlaganlar. An'anaviy kiyimlari ikki qavat, birinchisi yungi ichida, ikkinchisi yungi tashqariga qilib tikilgan.

Ma'naviy madaniyati.

O'ziga xos diniy-mifologik tasavvurlari bilan mashxurdir. Eng keng tarqalgani-shamanizm. Unda maxsus kishilar shamanlar jazava xolatiga tushib ruxlar yordamida kasallik, ochlik va xokazolar bilan kurashib engishlariga axoli ishongan. Shaman ovning omadini, bolaning eson-omon tug'ilishini va boshqalarni ta'minlashi zarur bo'lgan.

Nazoarat topshiriqlari:

1. Sibirda istiqomat qiluvchi mahalliy tub aholi va uning til oilalari va turkumlarini tavsiflab bering.
2. Oltoy-Sayan, Tundra va Chukotka xalqlarining xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida nimalar bilasiz?
3. Sibirdagi paleoosiyo xalqlarining turmush tarzi haqida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
2. Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
3. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
4. Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
5. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
6. Swadesh M. The origin and diversification of language. London, 1972.
7. Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
8. Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
9. Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63
10. Salimov T.U. Etnografik ekspiditsiyalarni o'tkazish uslublari. T. «Universitet» 1993

9-mavzu: Afrika xalqlari.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Afrika xalqlari”

mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
-------------------------	----------------------------------	--

1	<p>Tayyorlov bosqichi 1.1, Dars maqsadi: Afrika xalqlari etnologiyasi haqida ma'lumot berish. 1.2, Identiv maqsadlar: 1.1. Afrikaning tabiati va aholisi, aholisining antropologik tiplari, til oilalari haqida so'zlab beradi. 1.2. Shimoliy Afrika, Arab Afrikasi, G'arbiy va Markaziy Afrika haqida so'zlab beradi. 1.3. Sharqiy va Janubiy Afrika etnoslari, Madagaskar tabiati, aholisi, moddiy va ma'naviy madaniyati, xo'jaligi, turmush tarzi, diniy e'tiqodlariga sharx beradi. 1.3. Asosiy tushunchalar: Afrika, Arab Afrikasi, til oilalari, qabila, falloh, antropologik va lingvistik guruhlar, irqiy tiplar, etnik guruh. 1.4.Dars shakli: Ma'ruza 1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum 1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash. <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish </p>	O'qituvchi-talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash: Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: 1. Shimoliy Afrika xalqlari, ularning xo'jaligi, ijtimoiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyati, din, oila va nikoh munosabatlarini tavsiflab bering. 2. G'arbiy va Markaziy Afrika aholisining antropologik va lingvistik guruhlarini, xo'jalik faoliyati, madaniyati va dinlari haqida nimalar bilasiz? 3. Sharqiy va Janubiy Afrika etnoslari, Madagaskar aholisi, ularning moddiy va ma'naviy madaniyati, urf-odatlarini haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash. <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Shimoliy Afrika xalqlarining moddiy madaniyati </p>	O'qituvchi 10 min.

Savollar

1. Afrikaning tabiati va aholisi.
2. Afrika aholisining antropologik tarkibi.
3. Etnik tarixi, xo'jaligi, madaniyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Afrika, Arab Afrikasi, til oilalari, qabila, falloh, antropologik va lingvistik guruhlar, irqiy tiplar, etnik guruh.

1-asosiy savol: Afrikaning tabiati va aholisi.

1-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Afrikaning tabiati va aholisi haqida umumiy ma'lumot berish.

1-asosiy savolning bayoni:

Er yuzi quruqlik qismining 20% ni egallagan Afrika qit'asining maydoni 30,3 mlk.km.2. Olimlarning hisoblariga qaraganda 1650 yili unda 100 mln. (er yuzining 18%) aholisi yashagan bo'lsa, XX asr boshlarida 130 mln. 7,5% kishisi istiqomat qilgan.

Afrika xalqlari madaniyatiga qitaning geografik xolati katta ta'sir etgan, uning xududlari ekvatorial va tropik zonalardan iborat. Afrikaning 66%i savanna, dasht va saxrolardan tashkil topgan. Eng yirik daryolari: Nil (6500 km, suv havzasi 2800 km.2), Kongo (460013690), Niger (416012099), .Chimbezi (286011330). Ko'llar: Tana, Turkana, Ukereva (Viktoriya), Kinu, Tanganika, Nyasa. Afrika banan, yams, er yong'oq, er loviyasi, sorgo, teffa, kofe daraxti, yog' va finik palmasi, kauchuk lianasi va boshqa ekinlar vatanidir. Qit'a oltin, xromit, olmos zaxiralari bo'yicha birinchi marganets, kobalt, qalay, uran, platina zaxiralari bo'yicha oldingi o'rinlarni egallaydi.

2-asosiy savol: Afrika aholisining antropologik tarkibi.

2-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi Afrika aholisining antropologik tarkibi haqida tushuncha berish

2-asosiy savolning bayoni:

Qit'a inson vatanidir. Arxeologlar Lyuis va Richard Likilar topgan arxantropolar 3-3,6 mln. yil bilan belgilangan. Irqlar doirasida axoli evropeoid, negroid, kichik pigmey, boskon (koysan), habashoid va mongoloid (Madagaskar malgashlari)dan tashkil topgan.

Qitaning shimoli, Saxroi Kabirning janubida evropeoidlar: arablar, tuareglar, barbarlar yashab ular irqning O'rta er dengizi tipiga oiddir.

Saxrodan janubdagi ko'pchilik axoli negroidlardir. Ular ham 2 ta lokal gurux nilotlar va past bo'yli pigmeylardan iborat. Negroid va evropeoidlar oralig'ida xabash irqiy tipi shakllangan.

Afrikaning janubiy rayonlarida koysan, bushmen va gottentotlar yashab ular keng burni, jingalak sochlari bilan pegrlarga yaqin bo'lsa; yapaloq yuzlari, sariq-sarg'ish badan ranglari, epikantuslari (ko'zlarining qisqligi) nisbatan yupqa va ingichka lablari bilan mongoloidlik xususiyatlarini kuzatish mumkin.

Asosiy xususiyatlari:

steatopigiya-dumbalarida yog' to'planishi bo'lib, u qurg'oqchilikda suv-tuz almashinuvini yaxshilashga yo'naltirilgan. Bu axolining yana bir xususiyati ularning yuzlari va badanlarida ajinning erta tushishidir.

Madagaskar mal'gashlari movgoloid va avstroloidlar oralig'ida shakllangan bo'lib ular bu ikki irq xususiyatlarini mujassamlashtirgan. Bu irqiy guruxlar Afrikaning o'zida shakllangan bo'lib, yuqori paleolit va mezolitda nisbatan o'z xususiyatlarini egallaganlar.

Lingvistik klassifikatsiya.

Afrika aholisining til klassifikatsiyasi xam rang-barangdir. Misol uchun Germaniyalik olim Meynxof 20-30 yillarda faqat bantularda 184 til va lahjalarni o'rgangan. Belgiyalik Van Byulk esa 50 yillar Zairda 518 mustaqil tilbo'lganini ta'kidlaydi. Bugungi etnografiyaga oid darsliklarda lingvistika Grinberg klassifikatsiyasi bo'yicha beriladi.

Afrosiyo til oilasi: semit, kushit va barbar, shuningdek chad tillari guruxlariga bo'linadi. Semit tillarida gaplashuvchi axoli qitaning shimoliy va shimoliy-sharqiy hududlarida yashaydi. Efiopiyaning asosiy aholisi tigre, tigray, amxara, galla-gurage, xararilar xam semit tillar oilasiga mansubdir.

Kushit til guruxiga oid axoli Efiopiyadan, Sudan, Somali, Djibuti shimoliy-sharqiy Keniyaga qadar joylashgan. Bedja, ababde, galla, oromo, sidamo, somali va boshqalar.

Barbarlar-Mavritaniya, Mali, Nigerda yashaydilar. Eng ko'p sonlilari tuareg va imoshag (tamoshen tili)lardir. Semit tili barcha arab xalqlari gaplashadigan tildir.

Chad guruxi Shimoliy Nigeriya, Niger-xausa eng yirigi, ko'p sonli bo'lmagan kotoko, muzku, karekarlar va boshqalar. Xausalar tili Afrikada xalqaro savdo tili bo'lgan.

II. Niger-korAofan til oilasi. U 2 ta gurux va ko'plab mayda guruxchalarga bo'linadi.

Niger-kongo guruxi: g'arbiy atlantik, kva, benue-kongo, mande va adamaua. Senegal, Gambia, Gvineya Bissau, Serre-Leone, Liberiya, Gana, Togo, Benin, Mali xalqlar ushbu til oilasiga mansubdir. Eng yiriklari senufo, ibo, ashanti, yoruba va boshqalar.

Benue-kongo guruxy axolisi Kamerun, Kongo, Zair, Namibiya, Botsvana, Tanzaniya, Zambiya va Zimbabvelarda yashaydi. Umumiy bantu tillari nomiga xam ega. Kordofan tillari Sudan aholisida tarqalib u xam 5 ta guruhga bo'linadi.

III. Nil-saxro til oilasi ham turli xil bo'lib, songai, saxro, maba, fur, shari-nil, koma guruxlariga bo'linadi.

IV. Koysai tillari. Markaziy, Janubiy va Sharqiy Afrika erlaridan goggentot va bushmenlar tilidir. Ular Botsvana, Namibiya, Angola va JAR da tarqoq yashaydilar. «Koykain» («odamlar sarasi» goggentotlarning o'zlik atamasi bo'lsa, «saan» deb ularni bushmenlar atashadi. Namibiyadagi damaralar xam shu guruxga kiradi.

Avstroneziya til oilasiga Madagaskar oroli malgashlari kiradi. Ularning tillari malayo-polineziya guruxiga yaqindir.

Bugungi kunda Afrikada 2001250 ta etnoslar mavjud. Ulardan faqat ikkitasi bitga davlatda yashaydi. Amxara Efiopiya va yoruba Nigeriyada. 83 ta xalq soni 1 mln.dan ortiqroqdir. Xausa 25 mln, yana 10 mln. kishi bu tilni biladi. Amxara 13 mln, ibo va fulbe 15 mln.dan, yoruba 20 mln. va boshqalar. Afrikani o'rganilishi tarixiga nazar solsak, Karfagen miloddan avv. 146 yilda rimliklar tomonidan tor-mor etilishi bilan uning o'rnida imperiyaning Afrika viloyatlari vujudga keladi. Nubiya, Dangola va Xabashiston xaqida IX asrda al Farg'oniylar ma'lumotlar yozib qoldirgan. Muxammad Xorazmiyning «Surat ul arzivda o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha mamlakatlar va joy koordinatalari berilgan. Beruniyning yozishicha qit'ada aholining mashg'ulotlari, savdo-sotiq darajasi yuksak bo'lgan. Afrika xaqida Nosir Xisrav (IX asr) xam ma'lumotlar yozib qoldirgan.

3-asosiy savol: Afrika aholisining antropologik tarkibi.

3-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi Afrika aholisining antropologik tarkibi haqida tushuncha berish

3-asosiy savolning bayoni:

Yuqori paleolitga oid qoyatosh suratlari Sharqiy Afrikadagi Kondor-Oradi g'orlaridan topilgan. Ilk paleolitga oid mexnat qurollari xam topilgan. Ular ichidan eng qadimgisi Kafudan (Uganda)dan chiqqan. Neolitga o'tish xam qit'aning turli xududlarida turli davrda ro'y berib, eng avvalo uniig Shimoliy-Sharqiy xududlarida ro'y bergan. Neolit inqilobi: dexqonchilik va chorvachilikning yuksalishi, axoli sonining oshishi xamda yangi rayonlarga ko'chib ularni o'zlashtirishga olib keladi. Sahroi Kabir qurib cho'lga aylanishi xam miloddan avv. III ming yillikda ro'y beradi. Unda yashagan aholi Nil voxasi va sharqiy xududlarga ko'chib o'tgan. Olimlarning fikricha, sahroda shakllangan xalqlardan biri fulbe bo'lib, ularning soch turmaklamlari, ilonning ramziy belgisi ekanligi, mayidlarni mo'miyolashlari shundan darak beradi, Temir asriga oid dastlabki topilma Nok miloddan avv. IX asr bilan belgilanib, Shimoliy Nigeriyadan topilgan. Shimoliy-Sharqda Afrikadan miloddan avv. I ming yillik boshlariga oid yana bir temir madaniyati-Meroe xam topilgan (Nil daryosining o'rta oqimida). Bantularning ko'chishlari va Kongo daryosi havzasiga joylashishlari xam temir asrida bo'lgan. Bu ko'chishlar miloddan avv. II ming yillikning boshlariga qadar davom etgan va to'rt davrga bo'lingan. Madagaskar oroliga malgashlarning kelib joylashishlari miloddan avv. XVI asrdan X asrga

qadar davom etib Janubiy-Sharqiy Osiyo va Polineziya orollaridan bo'lganligi ehtimol. Shimoliy Afrikada VII-XI asrlarda arablar va nilotlar ko'chishlari ro'y bergan. Dastlabki davlatlar Aksum (II-III asrlar) Mali, Songai va boshqalar bo'lgan.

Afrikaning ovchi va terimchi qabilalari. Bushmenlar, ularda o'z atamaları bo'lmasdan adabiyotda «butazor odamlari» deb nom olganlar. Gottentotlar ularni «saan» deb atashadi. Bushmenlar: xeykum, auen, kung guruxlariga bo'linib, ularning soni 50 m. kishidir.

Ov ularda erkaklar ishi xisoblanadi. Ovning asosan quvlab ov qilish usuli qo'llaniladi. Qurg'oq cho'lda ular xayvonni 30-40 km.ga qadar dam olmasdan ta'qib qiladilar. O'gil bolalar 7-8 yoshidan mustaqil ovga chiqadi. Asosiy ov hayvonlari antilopalar. Ovning pistirma usuli xam qo'llaniladi. Qushlar tuzoq bilan ov qilinadi. Ov qurollari o'q-yoydan iborat. Ov mahsuli butun jamoaniki xisoblanadi. Hayvonning terisiga, oshqozoni, paylariga ishlov berib undan xo'jalikda foydalanishadi. Suyaklardan qirg'ich, igna va boshqa anjomlar yasashadi.

Ayollar terib- termachilash bilan shug'ullanib 80% oziqni ta'minlashadi. Bushmenlar terib-termachilash maxsulotlarini qo'shni bantu xalqlari bilan maisga (makka doni) almashadilar.

Ulardagi eng og'ir muammo suv hisoblanadi. Ovlangan antilopalar qonini, oshqozonidagi suyuqlikka aralashtirib ichishadi, elinidagi qolgan sutini sog'ib olishadi. Yovvoyi «tsama» qovuni qurg'oqchilik paytida 80% suv o'rnini bosadi.

Pigmeylar xo'jaligi.

O'tmishda pigmeylar katta xududlarida qit'aning markazida savannada yashaganlar. «Pigme» -yunoncha tirsak, yoki bilak ma'nosidagi atama Gomerning «Iliada» dostonida yarim fantastik past bo'yli kishilarga nisbatan aytilgan. Miloddan avvalgi III ming yillikda fir'avnlar saroyida past bo'yli o'yinchilar bo'lganligi haqida dastlabki tarixiy ma'lumotlar mavjud. Pigmeylar yuz ming kishidan iborat.

Asosiy mashg'ulotlari ovchilik va terimchilik. Lekin taomlarining 70% ni termachilik maxsulotlari tashkil etadi. Pigmeylar baliq ovlashni xam o'rganishgan.

Ular yolg'onni, yosh bolalarga nisbatan shafqatsiz bo'lishni qoralaydilar. Eng katta gunox yaralangan ov xayvonini tashlab ketish, zaruratsiz ov qilishdir. Eng katta jazo erkaklarni ovdan chetlatish xisoblanadi.

Afrikaning chorvachilik aholisi.

Chorvador axoli soni 7,5 mln. kishi (60 yy.). Ular fulbe, tuareg, arablar, somali, danakil, bakkara, masai, nuer va xokazolar. Ular asosan yirik shoxli mol saqlaydilar.

Ko'chmanchi chorvachilik.

Tuareglarning katga qismi, tedda, bedja, bakkara, dinka, nuer va boshqalar. Ko'chishlar mavsumiy bo'lib, gallalar Efiopiya, Somali, Kenniyada; fulbelar Nigeriyadan Beninga ko'chib mol boqadilar. Dehqonchilik xo'jaligi.

Afrikaning asosiy axolisi dexqonchilik bilan shug'ullanadi. Afrika ko'pgina qishloq xo'jalik ekinlari vatani bo'lsada Osiyodan banan, taro, anor, shakarqamish, piyoz o'tgan. XVII asrda portugaliyaliklar manioka, batat, ananas, makkani, XVII asrdan araxis, avokado, qovun daraxti, keyinchalik kakao, tamaki, tomat, Xindistondan mango keltirilgan.

Motiga dehqonchiligi. Xausalarda, savannaning qurg'oqchil orlarida, G'arbiy Afrikada keng tarqalgan.

Plug (omoch) dehqonchiligi.

An'anaviy Shimoliy-Sharqiy Afrikada keng tarqalgan. Sudan, Efiopiyada misrcha omoch keng tarqalgan bo'lsada, xabashlar o'zlarining omochlari-marishani yaratganlar.

Afrika xalqlarining moddiy madaniyatları.

Hunarmandchilik. Temir ishlab chiqarish asosan Sharqiy Afrika ko'ziri Zambiyada bo'lgan. Jezdan quymalar qilish markazlari Ifo va Beninda (Nigeriya) edi. Inglizlar 1897 yil Beninni bosib olganda 200 ta jez bareleflarni olib ketganlar va ular Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

To'qimachilik-asosan dehqonchilik xo'jaligidagi aholida rivojlangan bo'lib G'arbiy Sudan savannasida iaxta qadimdan asosiy ashyo bo'lgan. Eng mohir to'qimachilar - xausalar oq xoshiyali qizil, ko'k xoshiyali, qora, xavorang qora bilan matolarini faqat o'z xududiga emas butun Shimoliy Afrikaga etkazib bergan. To'qimachilik markazi - Kano shaxri edi.

Afrika axolisi shuningdek, yoroch o'ymakorligi (bambara, dogon, sinfo, ashanti) savat to'qish, kulolchilik, terichilikda moxir ustalar bo'lishgan.

Uy-joylar.

Qit'aning 87-88% aholisi qishloqlarda yashaydi. Mavjud shaxarlar ko'chalar tipida qurilgan bo'lib, ularning markazida xokim saroyi turli diniy inshootlar (yorubalar ibodatxonalari, Tombuktu, Manbasidagi masjid) ko'plab chet ellik savdogarlar uylari joylashgan.

Qishloqlari nisbatan yirik bo'lmasdan, ularning rejasi katta kichikligi, joylashgan xududi, iqlimi, xo'jalik faoliyati bilan bogliqdir. G'arbiy Afrikada ko'chali uylar, Markaziy Afrikada va G'arbiy Sudan, Kamerunda tarqoq tartibsiz qurilgan qishloqlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Chorvadorlar o'zlarining . doimiy yashash joylarini doirasimon- kraal tipida (zulus, gottentotlar) yoki to'rtburchakli qilib qurishadi.

Eng oddiy turar joylari bushmenlar va pigmeylarda bo'lib «o'larda pana xamda chaylalar terilar bilan yonilgan». Chayla, panalarni ko'pincha ayollar qurishadi. Erkaklar tanlagan joyda, ikki-uch soat ichida shox va yaproqlardan ayollar chaylani tiklaydilar.

Ko'chmanchi chorvador axoli engil chodirlarda yashaydilar. Yog'och sinchli chodir, bo'yra, terilar bilan gumbazsimon qilib yopilgan.

Ashyo axolining xo'jaligiga bog'liq bo'lib, dehqonchilik hududlarida loy, o'rmonlarda palma, rotang, rafiya, fikus daraxtlari, banan yaproqlari qurilishda ishlatiladi.

Uy-joylarining asosiy ikki turi: doirasimon va to'rtburchakli turi mavjud. Doirasimon uylar ko'pincha savanna hamda o'rmon zonalarida bunyod etilgan.

Idishlar.

Unchalik ko'p bo'lmasdan sodda, primitiv ko'rinishga ega. Idishlarning ko'rinishi va ashyosi geografik muxit xamda aholining mashg'ulotlari bilan bog'liqdir.

Xususan bushmenlar qo'shni xalqlardan almashib olingan sopol idishlar bilan birgalikda toshbaqa qalqoni, tuyaqush tuxumlaridan suv saqlashda foydalanganlar.

«Kalabash» yoki «kalebas» butun Afrika aholisi uchun umumiy qovoqdan yasalgan turli idishlar bo'lgan.

Taomlari xam lokal xususiyatlarga egadir. Taomlarining uch turi mavjud: 1) «Butdoy guruxi-O'rta er dengizi va Odd Osiyo chegaralari. 2) «Suli - Sorgo guruxi» - G'arbiy Afrika, Markaziy va G'arbiy Sudan Markaziy Afrika, Tanzaniya, Madagaskar. 3) Sharqiy Afrikadagi «makkajo'xori guruhi» uchinchi tipni tashkil etadi. Taom ikki marta ertalab va kechqurun iste'mol qilinadi. Masai xalqlari kundalik taomlaridan tashqari yosh buqalar qonidan xam ichishadi. Buning uchun mol tomiriga igna urib, ma'lum miqdorda qon ichilgandan so'ng uni qo'yib yuborishgan.

Kiyimlari.

An'anaviy belbog'chalardan tortib, musulmonlarning xashamatli va tuareglarning murakkab kiyimlarigacha mavjud.

An'anaviy kiyimlar faqat zarur vazifalarni bajarishdan tashqari ijtimoiy axamiyatga xam ega bo'lgan. Afrika xalqlarining deyarli barchasida qoplon terisini kiyimda ishlatish kishini eng oliy tabaqaga oid ekanligini bildiradi. Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrikada belbog'cha ko'rinishidagi kiyim keng tarqalgan.

Bushman va pigmeylar kiyimlari xam teridan ensiz belbog'chalar bo'lib, ular turli qo'ng'iz, kapalaklar qanotlari bilan bezatilgan. Ko'pgina xalqlarda xayvon terilaridan kiyim-bosh tikishda foydalaniladi.

Markaziy Afrika va Ko'llar oralig'ida oyoq kiyimlarini deyarli bilmaganlar. G'arbiy va Shimoliy-Sharqiy Afrika xududlarida teri sandallar, orqasi ochiq tuffilar, yumshoq etiklardan foydalanishadi.

Ijtimoiy hayot.

Tug'ilish. Afrika axolisida kuvada irimi keng saqlangan. Erlar turilish jarayonida va undan keyin 9 kun davomida qishloqdan, ba'zida hatto chaylasidan chiqishlari mumkin.

Ko'pgina xalqlarda egizaklar aloxida o'rin tutadi. Bushmenlar qadimda egizaklar tutilishini xosiyatsiz bilib, ularni o'ldirishgan. Gabonda qabila folbini egizaklardan birini o'ddirgan. Balunda qabilasida egizak tug'ilgan oilada «tozalanish» irimini o'tkazganlar. Bu irim 4-5 oy davom etgan.

Afrika xalqlarida xam «bolaning sochini» birinchi marta olish tantanasi bo'lgan. Malgashlar bu tantanada katta dasturxon yozib (bola uch oylik bo'lganda) yig'ilganlarni mehmon qilishgan.

Ism qo'yish.

Afrikada ismlar insonning mazkur davridagi xolatini aks ettirib o'zgarib turgan. Initsiatsiya paytida, erga tekkanda, egizak tuqqanda, erkaklarning maxfiy ittifoqiga a'zo bo'lganda ismlar o'zgartirilgan. Agar erkak ovda omadi kelmasa xam ismini almashtirganlar. Ismlar xayvon, yoki narsa tushuncha ma'nosini bildirgan. Lulenda (iftixor — lingala), Nzimba-(Sher-suaxili) va boshqalar. Mobutu Sese Kuku Ngbendu Va Za Banga -«Barchani enguvchi, jasur urushqoq xo'roz».

Afrikaliklarda «initsiatsiya» -«bag'ishlov» udumi saqlanib qolgan.

To'y va to'y marosimlari.

Afrika xalqlarida faqat oilali erkaklarga jamoaning to'la huquqli a'zosi bo'la olgan. Ba'zi xalqlarda to'ygacha jinsiy aloqalarga ham to'sqinlik qilinmagan. Lekin to'ygacha bola tug'ilishi katta gunox xisoblangan. Bushmenlarda yigitning oilasiga yaqin ayollardan biri qizining onasini roziligini olgandan keyingina kuyov, qizdan rozilik so'ragan. Chaylada qoldirilgan o'q -yoy va qalqon tashqarida bo'lishi rad javobini bildirgan.

Zuluslardagi qalin «lobola», deyarli barcha qit'a xalqlarida bo'lgan.

Afrika xalqlarining ma'naviy madaniyatlari.

Ilgarilari inson kiyimiga qaraganda soch turmaklashi tatuirovka va skalifikatsiya ko'proq axamiyat kasb etgan. Bakubalarda uzun shoxsimon soch turmaklash erkakning oliy zodagonlar toifasiga oid ekanligini, ayol bo'lsa ikkinchi farzand ko'rganligini belgisi edi.

Markaziy Afrikada inson badanida turli chandiqlar. Markaziy Afrika va Ko'llar atrofidagi axolida tishlarini arralash, sindirish va qoraga bo'yash udumlari mavjud bo'lgan.

Deyarlik barcha Afrika xalqlarida folklor, ya'ni xalq og'zaki ijodiyoti muxim o'rin tutadi. An'analarni, urf-odat va irimlarni avloddan-avlodga o'gashida uning axamiyati beqiyosdir.

Ba'zi xalqlar, xususan tuareglar-tirinag yozuvini yaratishgan. Xabashlarning 2 ming yillik yozuvlarida bugungi kunda 296 ta belgi mavjud.

Diniy tasavvurlari fetishizm-buyum va narsalarga e'tiqod qilishdan iborat. Qoyatosh, daraxt-maxsus yasalgan buyumlarga sig'inish, topinish mavjud bo'lgan. Animizm-ruxlarga topinish, ajdodlar ruxiga sig'inish xam keng tarqalgan.

Totemizm-insonning g'ayri-tabiiy xayvon yoki daraxtlar o'simliklarga qardoshligiga ishonch. Bushmenlarda-kiyik, buqaga e'tiqod, Mandigolarda-piton, timsox, toshbaqa, antilopaga e'tiqod, yorubalar qabila nomlari fil, qo'y, maymun ekanligi va xokazolar buni tasdiqlaydi.

Animistlar asosan G'arbiy va Markaziy Afrikadagi Botsvana, Markaziy Afrika Respublikasi, Yuqori Voltada 80% ni, Serre -Leone, Fil Suyagi Qig'og'ida, Zimbabve, Benin va Mozambikda 50-70% ni tashkil qiladi.

Xristianlik xam IV asrdan buyon mavjud. 1960 yilda birinchi afrikalik Lorian Rukambve (Tanzaniya) kardinallikka saylangan. Bu din Janubiy Afrika Respublikasi va Markaziy Afrika Respublikasi (Zoir, Angola, Kongo) Gvineya qirg'og'i (Nigeriya, Gana, Kamerunda) keng tarqalgan.

Islom dini.

Shimoliy Afrika, G'arbiy va Markaziy Sudandan farqli o'laroq Sharqiy Afrikaga iqtisodiy aloqalar orqali yoyilgan. Aloxida musulmonlar mavzolari Audagoste (Mavritaniya, Niani, Mali, Numba - Same, Ganada) X asrdayoq mavjud bo'lgan.

Jaynizm. Afrikaning xind axolisi asosan jaynizm diniga topinadi.

Xalq ijodiyoti.

Rang-barang bo'lib tasviriy san'at, o'yinlar, musiqa va folklor o'zaro ajralmas xolda (mujassam) mavjud bo'lgan. Afrikaliklar folklori 4 guruxga bo'lingan: afsonalar va afsonaviy ertaklar; sexrli ertaklar; maishiy ertaklar, maqol va matallar aloxida o'rin tutadi.

Eng sodda musiqa asbobi Kongo bushmenlarida bo'lib, bir bo'lak yog'ochga lianadan tortilgan 1 ta tordan iborat. Gvineya axolisida 20 ga yaqin musiqa asboblari mavjud. Afrika axolisi Amerikada blyuz, samba, jazning vujudga kelishidan muxim rol o'ynagan.

Nazorat topshiriqlari:

1. Shimoliy Afrika xalqlari, ularning xo'jaligi, ijtimoiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyati, din, oila va nikoh munosabatlarini tavsiflab bering.
2. G'arbiy va Markaziy Afrika aholisining antropologik va lingvistik guruhlari, xo'jalik faoliyati, madaniyati va dinlari haqida nimalar bilasiz?
3. Sharqiy va Janubiy Afrika etnoslari, Madagaskar aholisi, ularning moddiy va ma'naviy madaniyati, urf-odatlarini haqida so'zlab bering.

Adabiyotlar:

1. Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
2. Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
3. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
4. Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
5. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
6. Swadesh M. The origin and diversification of language. London, 1972.
7. Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
8. Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
9. Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63
10. Salimov T.U. Etnografik ekspiditsiyalarni o'tkazish uslublari. T. «Universitet» 1993.

10-mavzu: Amerika xalqlari.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Amerika xalqlari”

mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi 1,1, Dars maqsadi: Amerika xalqlari etnologiyasi haqida ma'lumot berish. 1,2, Identiv maqsadlar: 1.1. Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerika mamlakatlari, aholisi, indeyslarning kelib chiqishi haqidagi gipotezalar, indeyslarning til oilalari va til guruhlari tasnifi haqida so'zlab	

	<p>beradi.</p> <p>1.2. Amerika qit'asiga Evropaliklarning kirib kelishi, negr qullarning keltirilishi, Shimoliy, Markaziy, Shimoliy-g'arbiy Amerikadagi xo'jalik-madaniy tiplar haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.3. Markaziy va Janubiy Amerika aholisining etnik qiyofasi, xo'jaligi, moddiy madaniyati, turmush tarzi, Amerika aholisining irqiy jihatdan bo'linishiga sharx beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: gipoteza, indeys, motiga dehqonchiligi, til oilalari, til guruhlar, lokal tip, kreollar, mulatlar, metislar, sambolar, «oq tanlilar» va «qora tanlilar».</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi- talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash:</p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <p>1. Indeyslarning kelib chiqishi haqidagi gipotezalar, indeyslarning til oilalari va til guruhlarini tavsiflab bering.</p> <p>2. Shimoliy Amerikadagi xo'jalik-madaniy tiplar, Lotin Amerikasi aholisining etnik qiyofasi, an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi va dinlari haqida nimalar bilasiz?</p> <p>3. Mayya, Inklar davlati, hozirgi Amerika aholisining til va irqiy jihatdan bo'linishi haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Shimoliy Amerika eskimos va aleut qabilalarining madaniyati. Kapnadla xalqining shakllanishi 	O'qituvchi 10 min.

Asosiy savollar

1. Amerika tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi.
2. Shimoliy Amerika xalqlari.
3. Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: gipoteza, indeys, motiga dehqonchiligi, til oilalari, til guruhlar, lokal tip, kreollar, mulatlar, metislar, sambolar, «oq tanlilar» va «qora tanlilar».

I-asosiy savol: Amerika tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi.

I-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Amerika tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi to'g'risida ma'lumot berish.

1-asosiy savolning bayoni:

Aholisi. Qit'aning barcha axolisi 774 mln. (1995 y.) kishi bo'lib, Lotin Amerikasi axolisi ispan va portugal tilida, Shimoliy Amerika xalqlari esa ingliz tilida so'zlashadi.

Amerikaning tub axolisi 1983 yilda 36 mln. kishini tashkil etgan bo'lib, ularning 85,6% oltita mamlakatda-Meksika, Peru, Ekvador, Gvatemala, Boliviya va Paragvayda yashaydi.

An'anaga binoan Amerika «Yangi dunyo» deb nomlanib, axolining ma'lum qismi uchun «Eski dunyo» Evropa ona vatani bo'lgan.

Etnik tarixi.

So'nggi yillardan arxeologik qazilmalar qit'aga dastlabki aholi guruxlarini bundan 40 ming yil avval o'tganini aniqladi.

Antropologik jihatdan axoli mongoloid irqining aloxida tipini tashkil etadi. O'ziga xos xususiyatlari to'g'ri va qattiq sochlari, iyaklarining turtib chiqqanligi, qoramtir sochlari va ko'zlari, sarg'ishdan- qizil-qo'ng'irgacha badan ranglari, uchinchi darajali tuklarining kamligi, burunlarining to'g'ri tushganligi bilan xarakterlanadi. Janubiy Amerikaliklarning irqiy xususiyatlaridan negro-avstraliyaliklarga xos belgilarning bo'lishini izoxlash bir muncha mushkul. Frantsuz olimi Pol Rive o'q otuvchi-puflovchi miltiq, poncholarni bilishini Okeaniya bilan bog'liq madaniyat bilan izoxlagan. Keyinchalik norvegiyalik Tur Xayerdal bu g'oyani amalda tasdiqlash uchun «Kon Tiki»da 1947 yil sayohat uyushtirdi. Okeaniyada batatning tarqalishi Amerika bilan bog'liq ekanligi shubxasiz.

Alyaskadagi eskimoslar o'zlarining Osiyodagi qarindoshlariga o'xshashliklari bilan ajralib turadilar. Inson yashashi uchun qulay xududlarda joylashgan axoli neolitdan dexqonchilik xo'jaligi bilan shug'ullanib yuksak moddiy madaniyat yaratgan.

Evropaliklar kelgunga qadar axolining asosiy qismi Meksika va And tog'li tumanlarida joylashgan edi. Olimlarning xisoblariga qaraganda qit'ada mustamlaka arafasida 15-20 mln kishi yashagan.

2-asosiy savol: Shimoliy Amerika xalqlari.

2-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Shimoliy Amerika xalqlari haqida tushuncha berish

2-asosiy savol bayoni:

XV-XVI asrlarda Shimoliy Amerika evropaliklar tomonidan mustamlaka qilinadi. Ispan, ingliz va frantsuz dengizchilari yangi erlar istilosini boshlab beradilar. XVII asrda G'arbiy Evropada kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi mustamlakachilik siyosatini tezlashtirdi. Angliyaning Massachusets va Virginiyada, Frantsiyaning Kanada, Gollandiyaning Gudzon havzasida mustamlakalari vujudga keladi 1644 yilda golland koloniyalari Angliyaga o'tadi. Frantsiyaning Kanadadan Meksika bo'g'oziga qadar erlari Luiziana (Lui XIV) nomini oladi va 1803 yil AQSh tomonidan sotib olinadi. Ingliz va frantsuzlari ispan hamda portugallardan farqliroq «Yangi dunyoga oltin, kumush uchun emas yangi erlar uchun borishadi.

Maxalliy indeytslar mustamlakachilarga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Ayniqsa gueronlar qatgaq jabrlanadilar. 1756-63 yiddagi 7 yillik urushda Kanada inglizlar tomonidan bosib olinadi.

1775-1783 yildagi metropoliyaga qarshi urushda g'olib chiqqan Shimoliy Amerika shtatlari (AQSh) ni tuzadilar. 1830 yilga kelib AQSh Texasni, 1846-1848 yilgi urushlar natijasida Nyu-Meksika, Arizona, Kolorado va Kaliforniyani bosib oldi.

Liigvistik klassifikatsiya.

Eskimos-aleutlar 102 ming kishi.

Algonkin-vakashlar 196 ming kishi.

Na-dane («dene»-«odamlar») atapasklar asosiy xalq 210 ming kishi.

Siu-xoka-71 ming kishi, irokezlar 66 ming kishidan iborat.

Penuti til oilasi chunuk va xokoza.

VI. Yuta-atstek-tanoantil oilasi. 1,442ming1,020 ming atsteklar.

Amerika xalqlarini xo'jalik madaniy tiplariga qarab o'rganish qulay.

I. Eskimos va aleutlar. Arktika ovchilari va baliqchilari bo'lgan eskimoslar o'zlarini «iniut»-odamlar deb ataydilar. Ular eng shimoliy xalq bo'lib, xo'jaliklari miloddan avvalgi IV ming yillikda shakllangan. Algonkinlar ularni «eskimante» ya'ni xom go'sht eyuvchilar deb ataganlar. Kiyimlari kopyushonli bo'lib, ularda «kayak»-qayiqlar bo'lgan. Uylar qordan kesib yasalgan- «iglu» uylar bo'lib, morj, tyulen yog'idan yoritiladi va isitiladi. XIX asrning birinchi yarmiga qadar «erkaklar uylari»- kajimilar mavjud bo'lgan. Eskimoslar suyak va yogoch o'ymakorligida nom qozonganlar. Aleutlar-(o'z nomlari «unangan») eskimoslar bilan qo'shni yashab, bir xil xo'jalik yuritganlar.

II. Shimoliy-G'arbiy indeetslar. Tlinkitlar bu guruxning tipik vakili bo'lib, xo'jalik turi asosan baliq ovlash bo'lgan. Xo'jalikning yordamchi soxalari yovvoyi qo'y, echki va kiyiklarni ovlash edi. O'simlik taomlaridagi etishmovchilik yovvoyi meva va o'simliklarni terish bilan to'ldirilgan. Xo'jalik faoliyatida daraxtdan o'yib yasalgan qayiq, sanchqi, nayza, to'r va qopqonlar ishlatilgan. Matalldan faqat misni bilganlar. Uni tabiiy xolda olib sovuq xolda ishlov berilgan. Sopolni bilmagan tlinkitlar yog'ochdan qilingan idishlarga issiq toshlarni tashlab taom pishirganlar. Dexqonchilik va chorvachilikni bilmagan bu qabilalar faqatgina itdan ovda foydalanishgan. Tlipkitlar kerak paytda yovvoyi qo'y va echkilarni qo'raga qamab yungni qirqib so'ng qo'yib yuborganlar. Ularning muxim yashashi baliqchilikning yaxshi rivojlangani natijasida bo'lgan. Shimoliy-G'arbiy qabilalarning ijtimoiy asosi urug' bo'lgan. Urug'lar totem xayvonlar bilan atalgan. Tlinkitlar va xaydalarda 2 ta: Qarra va Bo'ri fratriyalari bo'lgan.

III. Irokez va algonkinlar-Japubiy-Sharqiy hindu qabilalari. O'zaro yaqin qabilalar bo'lib xo'jalik va madaniyatda ko'plab umumiylikka ega. Ularning barchalari muqim yashab motiga dexqonchiligi bilan shug'ullanganlar. Qurollari o'q-yoy, tomogavk va palitsalardan iborat bo'lgan. Lsosiy turar-joylari-vigvam-daraxt shoxlaridan qurilgan chayla bo'lgan. Uning usti daraxt qobig'i bilan qoplangan. Kiyimlari zamshadan tikilgan bo'lib, undan yumshoq etik-mokasinlar xam tikilgan.

Algonkinlar evropaliklardan birinchi bo'lib tazyiqqa uchrashgan. Kurash uzoq davom etib Otgava qabilasi sardori Pontiak boshchiligida minglab jangchilar uzoq vaqt kurash olib borganlar.

Irokezlar 5 ta qabilasi: seneka, kayyuga, onondoga, onenda, mogovkalar xayotlari va faoliyatlari L. G. Morgan tomonidan o'rganilgan. Olimning yozishicha «uzun uylar»da irokezlarning kichik oilalari joylashib umumiy qozonlarda taom tayyorlashgan. Bir uyda 5-7 ta o'choq bo'lgan. Morganning yozishicha XVII asrga qadar irokezlarda nikoh er-xotinning birga yashashiga olib kelmagan.

Irokezlarda ovchilar boshligi ayol kishi xisoblanadi. Ularda hokim ayoldan tashqari «harbiy sarkarda»ham saylangan. AQSh dagi urushlardan so'ng irokezlar rezervatsiyalarga surib chiqariladi. 1983 yili ularning soni 21 m kishiga etdi.

O'rmon ovchi qabilalari.

Mustamlakaga qadar Kanada va AQSh da algonkin, atapask va boshqa qabilalar o'rmonlarda karibu, los, ayiq, yovvoyi qo'ylarni ovlab xo'jalik yurittanlar. Xo'jalikning qo'shimcha tarmoqlari-baliqchilik va terib-termachlash orqali oziq to'ldirganlar. Bu indeetslar itni maxsus chanaga qo'shganlar va u «taboggan» deb atalgan. Qo'shni qabilalar bilan mol ayirboshlash mavjud bo'lgan.

Preriya ovchi qabilalari.

Hammaga ma'lum badiiy «vestern»lar siymosi preriyalik otliq bizon ovchilari xamma vaqt xam bo'lmagan. Bu ramziy timsol mustamlakadan keyin vujudga kelgan.

Bizonlar xam oziq, xam kiyim bosh uchun xizmat qilgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida indeetslar otdan foydalanishni o'zlashtirganlar. Otlar (mustang)ni qo'lga o'rgatishdan avval preriya indeetslari xam itlarni chanaga qo'shganlar shuning uchun ular otlarni-«katta sexrli

it» deb nomlaganlar. Uylari ko'chma konussimon-tipda bo'lgan. Kiyimlarni bizon terisidan tayyorlashtan-zamshadan tikilgan.

Go'shtni quritib saqlashgan. Qurigan go'sht talqon qilib yog'ga va yovvoyi mevalar suviga aralashtirilgan. Ushbu-pemmikan pastasini uzoq safarga yoki ovga o'zlari bilan olishgan. «Preriya buyuk konfederatsiyalari»ni tuzgan preriyaning xindulari 1837-1890 yillarda yana o'z erlaridan xaydalib rezervatsiyalarga yuborilgan.

Kaliforniya hindulari.

Qatoriga Nevada va Yuta shtatlaridagi axoli xam kiradi. Ular 7ta til oilasiga (atapask, algonkin, 1xoka va boshqalar) mansubdir. Bu qabilalar terib-termachlash, qisman ovchilik xamda baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Yozda chodir va chaylalarda, qish paytida (bir uyda 700 kishiga qadar) yarim erto'lalarda yashaganlar. Suv o'tmaydigan qilib to'qilgan savatlarda go'sht va baliqni pishirganlar. Kaliforniya xindularida XIX asrning boshida xam urug'-qabila tuzumi saqlanib qolgan edi. Ekzogam fratriya-urug'laridan ona urug'i hukumdorligi- matriarxat bo'lgan.

AQShning Janubiy-G'arbidagi indeetslar. 1) Pueblo(17 ming); 2) navaxi va apachilar(70 ming kishi) yuto-atsteklar, atapasklar.

Pueblo-ispanchada-qishloq «jamo» ma'nosini bergan. Pueblolar dexqonchilik bilan shug'ullanib, unda xatto sun'iy sug'orishdan xam foydalanganlar. Ularning jamoalari katta xom g'ishtdan qilingan uylarda yashaganlar. Ularga xos uy-joylardan yana biri qoya va ungurlardagi g'orlar bo'lib, unda minglab axoli yashagan.

Navaxi-ular 166 ming kishidan iborat bo'lib, 1934 yili «o'z-o'zini boshqarish» huquqini olgan. Navaxilar daromadining 50%i chorvachilikdan olingan. Chorvani 25 ming kv.km maydondagi rezervatsiyada boqqanlar.

Hindularning din va diniy tasavvurlari.

Asosiy diniy e'tiqodlari-animizm bo'lgan. Shimoliy Amerikada esa totemizm keng tarqalgan. «Totem» atamasi odjibve qabilasi tilidan olingan. Sayoh Jon Loig XVIII asr ohirida, odjibvelar ba'zi xayvonlarni o'z qardoshlari deb bilganlarini kuzatgan.

Amerikaniig zamonaviy aholisi.

Roman tillari guruhi-374 mln kishi; braziliyaliklar-125,5 mln kishi; meksikaliklar-76,3 mln; italiyaliklar 8 mln; portutliyaliklar-2,1 mln; ispanlar-1,2 mln; frantsuzlar -840 ming; armanlar-785 ming; greklar-720 ming; arablar-915 ming; yaponlar-1,5mln; xitoyliklar-1,2 mln kishidan iborat.

German tillari-214mln; AQSh amsrikaliklar-177 mln; afroamerikaliklar-28,2 mln; nemislar-7,2 mln; evreylar-6,8 mln; slavyanlar -8,5 mln.(polyaklar-4,3 ml) kishi tashkil etadi.

Amerikaning sanoati rivojlangan. Shimoliy rayonlari-Yanti Angliya; Men, Nyu-Gemshpir, Vermon, Massachusets, Konnektikut va Rod Aylendlar eng avval mustamlaka qilingan. 1620 yili «Mey Flauer» kemasida qit'aga puritan (diniy oqim) larning dastlabki vakillari etib kelganlar. Ular Nyu Plimutga asos solib, undan dastlabki xosil olgan kunlarini «Minnatdorlik kuni»sifatida nishonlashgan. 4 iyul AQShning bugungi kundagi eng muxim bayrami sifatida nishonlanadi.

Kanadaliklar.

Kanada mustaqil davlat sifatida 1867 yil 1 iyulida tashkil topgan. Uning tarkibida 19 viloyat mavjud. Axolisi 29,6 mln kishi.Frankokanadaliklar axolining 26,1% ni,Anglokanadaliklar-38,6%ni tashkil etadi. Nemislar 530 ming, armanlar- 21ming, greklar-155 ming, italiyaliklar-750 ming kishidan iborat.

3-asosiy savol: Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari.

3-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari haqida tushuncha berish

3-asosiy savol bayoni:

Asosiy tiplari:

Yuto atsteklar-1,442, atsteklar-1,020 ming kishi, shoshonlar-70 ming kishi; Otomi-mishtek-sapotek.Otomi-259ming kishi,sapoteklar 310 ming kishi, boshqa mayda xalqlar bilan birga 1,178 ming kishi.

3.Taraski.-60 ming kishi, ularning tillari hech qaysi til oilasiga kirmaydi.

Maye-soke (penuti)-2,668 ming. Mayyalar 395 ming, kiche-250 ming, soke-50 ming kishi va xokazo.

Miskito-atapasklar.40 ming va 1 mln kishidan iborat bo'lib, asosan Nikaraguada yashaydi.

Chibcha.-255 ming kishi. Nikaragua, Kosta-Rika va Ekvadorda yashaydi.

Aravak. (Arauklar) 375 ming kishi. Amazonkaning yuqori oqimida, Venesuelada, Kolumbiya, Peru va Braziliyada yashaydilar.

Karaib (kariblar)-160 ming kishi. Ko'proq qismi Braziliyada va qisman qo'shni mamlakatlarda yashaydi.

Tupi-guarani.-130mingkishi. Braziliya, rgentina, Paragvay. Boliviya va Ekvadorda yashaydi.Guarani tili qabilalararo til xisoblanadi.

10. Jes (je). Ko'pchiligi mustamlakachilar tomonidan qirib yuborilgan, qolganlari Amazonkaning irmoqlarida yashaydi.

P.Kechua. Eng ko'p sonli til oilasi 12,2 mln kishidan iborat. Peru, Ekvador va Boliviya yashaydi.

Aymara 2,070 ming kishi.

Araukanlar. (o'z atamalari «mapuche» - «er odamlari») 775 ming kishi.

Pueblo-Mark. Argentinada yashagan butunlay qirib yuborilgan.

Chon.(ona, selkup) 1 ming kishi. Olovli Er orolida yashaydilar.

Yamana va alakaluf.(370 kishi).

Xo'jalik madaniy tiplari:

1. Sug'orish dexqonchiligiga asoslangan xo'jalik turi bilan shug'ullanishgan. Meksika va Markaziy Amerikadagi Yukatan yarim orolida 1 asrlarda mayyalarining dastlabki shaxar-davlatlari vujudga keladi. Birinchi tosh lavxa 328 yil bilan boshlanadi.

VI asr boshlarida Chichen-Itsaga asos solingan. XII-XV asrlarda Mayyami shaxri xukumronligi o'rnatiladi. Unga qarshi qo'zrolon (1441 yil) boshlanib unda Ushpalning g'alabasi tarqoqlikka va ispanlar istilosiga sabab bo'ladi. Mayyalar motiga dexqonchiligi bilan shug'ullanganlar. Asosiy ekinlar: dukkakli makka, tomat, qovoq va paxta bo'lgan. Uch yil hosil olgandan so'ng erga 6-10 yil dam berilgan. Mayyalar kakao daraxti etishtirib undan ichimlik va eyish uchun plitkalar tayyorlashgan.

Mayyalarda uy xayvonlari bo'lmagan. Taomlarida oz miqdorda parranda go'shti, ov maxsulotlari ishlatilgan. Metallni bilmaganlar, oltin va mis qo'shni xalqlardan almashib olingan. To'quv dastgoxi mavjud bo'lib, paxta, agavadan gazlama to'qilgan. Hunarmandchilikning tosh o'ymakorligi, zargarlik soxalari va charxsiz kulolchiliklar bo'lgan.

Dinlari:

Xudolar Panteoni tepasida Itsamna turgan. Yozuvning ixtirosini undan deb bilishgan.

Ilm-fan.Mayyalarda 20 xisobli sanoq bo'lgan. Astronomiyada bir muncha yutuqlarga erishilgan. Quyosh yili bir minut aniqlikda hisoblangan. Taqvim 365 kunga bo'linb, 20 kunlik oy va 13 kunlik hafta bo'lgan.

Mexiko voxasida V-X asrlar davomida tolteklar madaniyati gullab yashnagan, uning markazi Tenochtitlan bo'lgan. Ular turli ibodatxonalar qurganlar, Ibodatxonalar ichida eng yirigi «Quyosh exromi» bo'lib, balandligi 60 metr bo'lgan. Tolteklar taqvimi 260 kunlik, oy 20 kundan iborat bo'lib, yilnomalar 52 yillik siklga bo'lingan. Tolteklar madaniyati sapoteklar madaniyati rivojlanishiga ijobiy ta'sir etgan. II asrdan mishteklar madaniyati markazi Teskoko xam yuksaladi.

Atsteklar. XIII asr o'rtalarida Mexiko vodiysida paydo bo'ldi. O'zlarining afsonaviy vatanlari Astlan nomidan ular asteka deb atala boshlaydilar. 1325 yili atsteklar poytaxti Tenochtitlanga asos soladilar.

Ular sug'orishga asoslangan dexqonchilikda «suzuvchi bog'lar», ya'ni sun'iy orolchalarga asos solganlar. Makka dukakli ekinlar, qovoq, pomidor, batat, agava, kakao, paxta va tamaki etishtirganlar. Yagona uy xayvoni it bo'lgan. Metallardan oltin va misni bilishgan. XVI asr boshida jezdan foydalanish keng yoyiladi. To'qimachilik yuksak rivojlanadi. Piramidalar qurilgan. Poytaxtda 80 ming oila yashagan. Piktogarfik yozuv mavjud bo'lib, mayyalardan taqvim va solnomanio'zlashtirganlar. Chibcha-uiskalar. Bagota (Kolumbiya) tevaragida yashab yuksak madaniyat yaratgan xalqlardan biridir.

Inklar davlati. And tog'lari vohalarida yashagan kechualar ham yuksak xo'jalik va madaniyat yaratganlar. 1438 yili davlat tuzgan kechualar oltin, kumush va misga sovuq ishlov berib, yuksak san'at asarlarini yaratganlar. Jez tarqalgan, to'qimachilik xam rivojlangan.

Asosiy emishlari makka va kartoshka bo'lib, ularni etishtirishda sun'iy sug'orishdan keng foydalanilgan. Kechua va aymaralar alpaka va lamalarni qo'lga o'rgatib, yuk tashishda foydalanganlar. Davlat xududlarida ko'plab yo'llar qurilgan. Inklar davlati Tuantinsuvyu (4 qo'shni viloyat birligi) deb atalgan. Inklar o'zlari ishlamasdan bo'ysundirilgan xalq va qabilalar mexnati maxsuli evaziga yashaganlar.

Jamiyat asosi qishloq jamoalari-aylyular edi. Boshqaruv quldorlik despotiyasi bo'lsada urug'chilik -jamoasi sarqitlari saqlanib qolgan. Oliy inka xokimiyati mutlaq, diniy marosimlarida odamlarni qurbonlik qilish xam mavjud edi. Inklarning piktou yozuvi - tutunchali xatlar, iplar rangi narsalar belgisi xisoblangan. 1523 yil Kuskoni bosib olgan F. Pizarro Oliy Inkani xoinona o'ldiradi.

Aymaralar. And tog'larining sharqiy xududlarida yashab kartofel, kinoa va arpa ekanlar. Aymaralar eng baland joylarda yashovchi xalqlardan biridir. Ular shuningdek sopolchilik, kumush bezaklar yasash, xamda ornamentli gazlamalar to'qishda xam moxir xisoblanganlar.

Araukanlar.

Chilining janubiy qismida yashab, dexqonchilik bilan shug'ullanganlar va lama boqqanlar.

Ular lama va yovvoyi guanakolarning junidan gazlama to'qiganlar. Janubdagi qabilalar ov va baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Amazonka va Orinakoning tropik o'rmonlari indeetslari. Tupi-guarani va karaiblar motiga dexqonchiligi bilan shutullanganlar. Ularda toshdan bolta, yog'och tayoqlar asosiy ish qurollari bo'lgan. To'qishda maxoratga erishgan bu qabilalar osma karavat-gamakni ixtiro qilganlar.

Ularda urug'chilik jamoasi xukumron bo'lgan. Uylari doirasimon yoki to'g'ri to'rtburchakli qilib qurilgan. Ba'zi qabilalarda kuvada «tuxum bosish» udumlari mavjud bo'lgan.

Sharqiy va Janubiy Braziliya indeetslari.

Jes, botokuda, kanel, kayyapo, shavante va boshqalar. Asosiy qurollari o'q-yoy bo'lib, ayollar terib-termachilik bilan shug'ullanganlar.

Pampa indeetslar. Patagoniyaliklar. Ular mustamlakachilik arafasida ovchilik bilan shug'ullanganlar. XVIII asr o'rtalarida ular otda ov qila boshlaganlar. Bola quroli 3-4 ta bog'langan toshlar xam o'sha paytda ixtiro qilingan. Uylari panalar bo'lib terilar bilan yopilgan.

Olovli Erliklar. Er yuzidagi eng qoloq axolilardan biridir. XIX asr o'rtalariga qadar ular ibtidoiy jamoa tuzumida yashaganlar. Uchta gurux indeetslari ona, alakaluf va yamana deb nomlangan.

Lotin Amerikaliklarga 20 ta Markaziy va Janubiy Amerika davlatlari kiradi. Kreollar- ispanlar va portugallarning avlodlaridir. Metislar-evropaliklar va indeetslar avlodlari; Mulatlar-evropaliklar vanegrlar avlodlari; Sambo-negr va indeetslar avlodlaridir.

Nazorat topshiriqlari:

1. Indeyslarning kelib chiqishi haqidagi gipotezalar, indeyslarning til oilalari va til guruhlarini tavsiflab bering.
2. Shimoliy Amerikadagi xo'jalik-madaniy tiplar, Lotin Amerikasi aholisining etnik qiyofasi, an'anaviy xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi va dinlari haqida nimalar bilasiz?
3. Mayya, Inklar davlati, hozirgi Amerika aholisining til va irqiy jihatdan bo'linishi haqida so'zlab bering.

Adabiyotlar:

1. Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
2. Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
3. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.
4. Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
5. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
6. Swadesh M. The origin and diversification of language. London, 1972.
7. Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
8. Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
9. Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63
10. Salimov T.U. Etnografik ekspiditsiyalarni o'tkazish uslublari. T. «Universitet» 1993.

11-mavzu: Evropa xalqlari.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“Evropa xalqlari”

mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi</p> <p>1.1, Dars maqsadi: Evropa xalqlari etnologiyasi haqida ma'lumot berish.</p> <p>1.2, Identiv maqsadlar:</p> <p>1.1. Evropa qit'asi, uning hududi, tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi. Evropa qit'asining etnografik nuqtai nazardan to'rt guruhga bo'linishi, Evropa xalqlarining til oilalari, Evropa xalqlarining etnik kelib chiqishi va xalq bo'lib shakllanishi jarayonlari, Evropa aholisining irqiy tiplari haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.2. Evropaning qadimgi va o'rta asrlar, yangi davr va hozirgi zamondagi xo'jalik hayoti haqida so'zlab beradi.</p> <p>1.3. Evropa xalqlarining maishiy turmush tarzi, Evropa xalqlarining ijtimoiy va oilaviy munosabatlari, xristian dinining tarqalishiga sharx beradi.</p> <p>1.4. Kavkaz xalqlarining milliy tarkibi va til oilalari, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodlari va maishiy turmushiga sharx beradi.</p> <p>1.3. Asosiy tushunchalar: Evropa, irqiy tip, patriarxal oila,</p>	O'qituvchi

	<p>monogam oila, xristian dini, pravoslaviye, katolitsizm va protestantizm, islom, etnolingvistik tasnif, Kavkaz, etnogenez.</p> <p>1.4.Dars shakli: Ma'ruza</p> <p>1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum</p> <p>1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarining fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi- talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash:</p> <p>Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <p>1. Evropa qit'asining etnografik nuqtai nazardan to'rt guruhga bo'linishini tavsiflab bering.</p> <p>2. Evropa xalqlarining etnik kelib chiqishi va xalq bo'lib shakllanishi jarayonlari, Evropa aholisining irqiy tiplari haqida nimalar bilasiz?</p> <p>3. Evropa xalqlarining ijtimoiy va oilaviy munosabatlari, Rossiya xalqlarining etnolingvistik jihatdan tasnifi, Kavkaz xalqlarining milliy tarkibi va til oilalari haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: G'arbiy Evropadagi zamonaviy etnik jarayonlar. 	O'qituvchi 10 min.

Savollar

1. Evropa qit'asi, uning hududi, tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi.
2. Evropa xalqlarining til klassifikatsiyasi.
3. Xo'jaligi va moddiy madaliyati.
4. Ijtimoiy turmushi va ma'naviy madaniyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Evropa, irqiy tip, patriarxal oila, monogam oila, xristian dini, pravoslaviye, katolitsizm va protestantizm, islom, etnolingvistik tasnif, Kavkaz, etnogenez.

I-asosiy savol: Evropa qit'asi, uning hududi, tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi.

I-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Evropa qit'asi, uning hududi, tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ma'lumot berish.

1-asosiy savolning bayoni:

Evropa xududi bo'yicha er yuzining eng kichik qismi (10,0 mln km kv) geografik jihatdan Evroosiyo qitasining g'arbiy qismini tashkil etadi. Etimologik tomonidan yunoncha «Europe» (ossuriycha Ereb) G'arbdagi «mamlakat» demakdir. Keyingi 400-500 yil

davomida Evropa xalqlari vujudga kelgan tarixiy sharoit (imkoniyat) natijasida jaxon madaniyati taraqqiyotiga katta xissa qo'shgan.

Evropaning mo'tadil iqlimi rang-barangdir. O'simlik va xayvonot dunyosi inson faoliyati natijasida, tabiiy katga o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Qit'aning taraqqiyoti ishlab chiqarish xo'jaligini shakllanishi bilan bog'liqdir.

Etnik tarixi.

Evropa qadim zamonlardan inson yashagan makonlardan bo'lib, G'arbiy Germaniyada topilgan geydelberg odami suyaklari buni tasdiqlaydi. Mezolit va neolitda odamlar asta-sekin shimoliy xududlarga siljiy boshlaydilar. Kampini madaniyati ovchilik, terimchilik va baliqchilikdan-dexqonchilik xamda chorvachilikka o'tishi davrini izoxlaydi. Olimlar farazicha bu paytda qitada axoli xind -evropa tillarida so'zlashmagan, o'sha davrdan qolgan iber, va skan (Pireneya yarim oroli) ligur, etrusk, sikullar (Appenin yarim orolidan) Britaiiya yarim orolidagi piktlar bu fikrni tasdiqlaydi.

Qit'aning shimoli-sharqiy rayonlarida hozirgi fin-ugor xalqlari, qisman, hind-evropalik letto-litovlarning ajdodlari yashaganlar. Miloddan avvalgi II ming yillikda O'rta er dengizi tevaragida qadimgi yuksak sivilizatsiyalar taraqqiy etgan. Egey (Krit-Miken) so'ngra ellin, rim madaniyatlari yangi evropa madaniyatini shakllanishiga asos bo'lgan.

Evropaning keyingi taraqqiyotiga «buyuk xalqlar ko'chishi» german va slavyan qabilalari, arablar istilolarining ta'siri xam bo'lgan albatta. IX asrda O'rta Dunay xavzasida jangari venger (ugor, madyar) qabilalari bosqinlari boshlanib, maqalliy slavyan va boshqa axolini o'zlariga bo'ysundirib, ularning madaniyatini qabul qilishgan. Lekin vengrlar o'zlarining, ugor tillarini bo'ysundirilgan xalqlarga o'tkazganlar. Kichik Osiyodan Bolqonga o'tgan (XIV asr) turklar, XV asrda ushbu xududdagi axolining xo'jaligi va madaniy xayotiga, ularning etnik tarixiga katta ta'siri kuzatiladi.

XV-XVI asrdan shaxarlar, hunarmandchilik va savdoning o'sishi Evropada: Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Frantsiya, Daniya, Shvetsiya, Vengriya kabi davlatlarda markazlashgan qirolliklari tashkil etadi. Natijada turli etnik guruhlar: turli tillar, shevalarda so'zlashuvchi axolining etnik birlashuvi boshlandi.

2-asosiy savol: Evropa xalqlarining til klassifikatsiyasi.

2-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Evropa xalqlarining til klassifikatsiyasi tushuntirib berish.

2-asosiy savolning bayoni:

Evropaning aksariyat ko'pchilik axolisi xind-evropa til oilasining turli guruhlariga oiddir.

1. Slavyan xalqlari. -270 mlndan ortiqroq bo'lib: rus, polyak, ukrain, belorus, chex, slovak, sloven, xorvat, serb, bosniyalik, chernogoriyalik, makedon, bolgarlar va boshqalar.

2. German guruhi. (176,7 mln) unga: nemis, avstriyalik, elzas, germano-shvetsariyaliklar (Germaniya yahudiylari) gollandlar, flamandlar, shvedlar, daniyaliklar, norvegiyaliklar, inglizlar, shotlandlar, va xokazolar.

Roman guruhi. (182 mln) ispan, portugal, frantsuz, rumin, moldavan, italyan xalqlari. Roman xalqlari rim imperiyasi davrida shakllangan garbiy xududlar axolisidir.

Eron tillari (0,7 mln) osetin, qurd, fors, tatlar.

Hindariy. (230 ming) siganlar.

Armanlar (4,5mln)

Boltiq guruxi (4,4 mln) litvaliklar va latishlar.

Greklar (10,5 mln) yunonlar.

Kartvel guruxi (3, 7 mln) gruzinlar.

Ural tili oilasi (22,9 mln) vengerlar, finlar, estonlar, mordvalar, udmurt, mary, komi va boshqalar.

Oltoy tillari oilasi.

(14mln) ozarbayjon, tatar, chuvash, boshqirdlar, qumiq, qorachoylar.1

Antropologik tarkibi. Evropada axolining asosiy qismi evropeoid irqining 2 tipi «shimoliy» (blondin) «janubiy» (bryunet) tipiga kiradi.

«Kichik irqlarning» O'rta er dengizi, «dinar», «alp», «boltiq» tiplari xam bor.

3-asosiy savol: Xo'jaligi va moddiy madaliyati.

3-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: Xo'jaligi va moddiy madaliyati tushuntirib berish.

3-asosiy savolning bayoni:

Neolit va bronza davridan Evropada dexqonchilik tarqalib deyarlik barcha xalqlar xo'jaligi asosini tashkil qiladi. Shimoliy xududlarda suli, arpa, Markaziy va Sharqiy Evropada bug'doy etishtirilgan. Janubiy rayonlarda ulardan tashqari makka va sholi ham etishtiriladi. Sabzavot, meva etishtirish xam deyarli barcha rayonlarda mavjud bo'lgan. Uzum va zaytun xam etishtirilgan. O'rta Kavkazda dexqonchilikdan tashqari chorvachilik muxim o'rin tutadi. Shu turdagi xo'jalik tipi Volgabo'yi axolisi (boshqird, tatar, chuvash) uchun xam xosdir. Dexqonchilik ishlab chiqarish texnikasi xam umumiy xususiyatga ega. Xususan omoch dexqonchiligi Evropaga Old Osiyodan miloddan avvalgi II-I ming yillikda tarqalgan. Rossiyada omochning 2 turini er tarkibiga qarab engil va og'ir pluglardan foydalanganlar. Volga bo'yida yog'ochdan qilingan g'ildirakli -saban pluti tarqalgan edi. Boltiq bo'yida asosan rala va omochlar ishlatilgan.

Don ekinlari o'roq bilan (tekis va silliq), belo'roqlar bilan yig'ib, zanjir yoki mol tuyoqlari yordamida yanchilgan.

G'allaning suv yoki shamol tegirmonlarida, ba'zida uyda kelilarda yanchishgan. Dexqonchilik faqat baland tog'larda Alp, Karpat shuningdek Rossiya va Skandinaviyaning shimolida, Arktika xududida shakllanmagan. Chorvachilik barcha xalqlarda mavjud, lekin u yordamchi xo'jalik shaklida bo'lgan.

Baliqchilik Evropaning qirroq xududlarida aksariyat xollarda iqtisodning yagona sohasi bo'lgan. Islandiyaliklar, norvegiyaliklar, farerlar shuningdek Shimoliy Boltiq dengizi, O'rta er dengizi axolisi baliqchilik bilan qadimdan shug'ullanib kelishadi.

O'rta asrlarda vujudga kelgan kichik xunarmandchilik kasb-korlari XVII asrdan fabrika-zavod sanoati ishlab chiqarishga aylandi.

Uy-joylari.

Evropaning janubida shaxarlarshgag qishloqdan ajralib xunarmandchilik xamda savdo-sotiq markazlariga aylanishi, miloddan avvalgi II ming yildayoq Yunonistonda ro'y beradi. Yunonlar va rimliklar o'zlarida asos solgan shaxarlardan tashqari: Barselona, Kadis, Kartaxena, Lirida, Leon; Frantsiyada Marsel, Nitstsa, Arl, Tuluza, Lion, Bordo, Parij, Reyms; Germaniyada Kyoln, Augsburg, Trir, Regensburg; Angliyada, Chester, London, York shaxarlarida) ham antik davr me'morchiligi namunalari saqlanib qolgan.

Evropada kichik shaxarlar, aholi qo'rg'onlari qishloqlar (ko'p ko'chali, doirasimon bir ko'chali va hokazo.) xam keng tarqalgan.

Uy-joylari. Qurilish ashyolari, rejasi, tomining shakliga qarab farqlanadi. Ularning turli xil bo'lishi esa tabiiy iqlim sharoiti va axolining xo'jaligiga, qurilish ashyolarining mavjud ekanligiga bog'liq bo'lgan.

Jumladan Boltiq bo'yida uydagi rigalar yog'ochdan qilinib tomlari somondan yopilgan, togli Kavkazda -Svanetiyada 2-3 qavatli toshdan qilingan minora shaklidagi mudofaa uchun qulay uylar qurilgan.

Uy-joylarning viloyat doirasidagi xususiyatlari minglab yillardan buyon saqlanib kelmoqda:

O'rta er dengizi tipi: asosan 2-3 qavatli uylar tog' yon bag'rida qurilib, uylarni oldi etnik xususiyatlarini saqlab qolgan.

Alp uylari-2 qavatli yirik uylar birinchi qavatli toshdan, 2 chisi aksariyati yotochdan qilingan. Tomlari ikki qirrali, xo'jaligi binolari birinchi qavatda.

Frankon yoki yuqori nemis uylari-asosan janubiy va o'rta Germaniyada ko'proq tarqalgan. Turar joy, xo'jalik binolari kompleksidan iborat.

Eski sakson tipi. Shimoliy va Shimoli-G'arbiy Germaniya, Janubiy Daniya, Sharqiy Gollandiya tarqalgan.

5.G'arbiy Polsha tipi-oddiy yog'ochlardan yo'nib qilingan uylar, Yashash xonalari yoniga xo'jalik binolari qo'shib qurilgan.

Kiyimlari.

Evropa axolisi kiyimlari o'z taraqqiyotida eng sodda ko'rinishidan tortab bugungi kundagi zamonaviy turlarigacha bo'lgan davrlarni boshdan kechirgan.

Eng qadimgi belbog'chadan keyinchalik shimlar, yubkalar uchun elka beldan yuqoriga kiyadigan kiyim turlari shakllangan. Ko'ylakning o'tmishdoshi to'g'ri burchakli gazmol dastlab boshdan (kalla kirish uchun) o'rtasidan kesib teshik qilingan va ikki yoni tikilgan. Rim tunikasi, yunonlar xitoni xam shu tarzda tikilgan. Uning ustidan antik davrda tikilmagan o'rama kiyim yoki plash kiyilgan. (Rim togasi, yunon ximatoni) O'rama kiyim elkada bog'lanib qo'yilgan yoki qistirilgan. Tikilgan kiyimdar ko'p xollarda shimol yoki cho'l xududlari aholisiga xos bo'lgan.

Antik davr yodgorliklarida: skiflar, daklar, slavyanlar, germanlar va keltlar shim yoki yopiq elkaga kiyiluvchi kiyimlarda tasvirlangan. Rimliklar shim kiyishni varvarlarga xos belgi xisoblaganlar. Buyuk xalqlar ko'chishi german slavyanlarning ilgarigi Rim imperiyasi xududlarida tarqalishi shimning xam keng miqyosda istemolga kirishini ta'minlagan. Dastlab shim deyarlik barcha xududlarda tor kiyilgan. Keng shalvar tipining yoyilishi turklar istilosi bilan bog'liq bo'lishi extimol. Kalta shim kelt va german davlatlarida zadagonlar (pantalonlar) kiyimi sifatida tarqalgan.

Ayollarning belgacha kiyimlari fartuk tipida bo'lib, (ko'pincha 2ta) yubkalar bir nechtadan kiyilgan (ayniqsa bayramlarda). XIX asrda moda bo'lgan «tyurngor» lar xam shu bilan bog'liq bo'lgan.

Beldan tepaga (elkagacha) kiyadigan kiyimning turlari gazmoli va sifati xam xilma — xil bo'lgan. Boshlik (kopyushon) «bluza»— uzun ko'ylak frantsuzlarda, beshmet (kaftan) kavkazda keng tarqalgan.

Bugungi kunda evropaliklar an'anaviy kiyimlari qisman qishloq axolisi tomonidan yoki bayramlarda kiyiladi.

3-asosiy savol: Ijtimoiy turmushi va ma'naviy madaniyati.

3-asosiy savolning bayoni:

Deyarlik barcha Evropa xalqlarida oilaviy turmush formalari umumiy bo'lib, kichik oilalar xukmronligi bilan xususiyatlidir. Patriarxal-urug'chilik tartiblari albanlar («fas»), chernogorikaliklar («birodarlik») tog'li shotlandlarda («klan») va Kavkaz xalqlarida saqlanib qolgan xolos.

Xususan kavkazliklar mexmondorchilik va qo'noqlik, otaliqlik (abxaz, adeglar) qoidalariga rioya qilishib kelmoqda.

Yirik patriarxal oilalar yaqin o'tmishda Bolqon xalqlarida bolgarlar, makedoniyaliklar, serblar, bosniyaliklar va albanlarda mavjud bo'lgan. Ularda bu oila turi «zadruga» deb nomlangan. Yirik patriarxal oilalar boshlig'i «domachina» va ayol «domachitsa» xo'jalikni boshqargan. Yirik oilalar shotland, basklar va norvegiyaliklarda ham bo'lgan.

Patriarxal oilalar jamoasi buzilishi davrida «minorat» (kelt, germanlar, qisman slavyanlarda) o'rta asrlarda «mayorat» udumi bilan almashtirilgan.

Patriarxal oilalar udumlarining xususiyatlari XVII-XVIII asrlarda Kavkazdagi keng miqyosdagi tarqalishi kuzatiladi. Jumladan tadqiqotchilar armanlar hovlisida 20 tagacha beshik bo'lganligini yozganlar.

Oilaviy urf-odatlarida, xususan to'y marosimlarda ma'lum arxaik ko'rinishlar saqlanib qolgan. Masalan kelin o'g'irlash, qalin to'lash, kelinni «sotib olish udumi», kelin uchun

to'lovlar kabilar shahar va qishloqlarda saqlanib) qolgan. Qalin olish Sharq, Evropa Volga bo'yi va Kavkaz xalqlarida ham mavjud.

Ijtimoiy turmush.

Qishloq jamoalarida erdan birgalikda foydalanish (XVII)asrga qadar) mavjud bo'lgan. Ba'zi xalqlarda erkaklar ittifoqlari, ba'zida ayollarning itgifoqlarida urf-odatlar, irimlarga qattiq rioya qilingan.

Evropada qadimgi xo'jalik tashkilotlari-xunarmandlar sexlari bo'lgan. Keyinchalik ular asosida kasaba uyushmalari shakllangan. Sex uyushmalari keyinchalik sport, ovchi, talabalar, turistlar, qo'shiqchilar jamoasi tashkilotlari sifatida o'z faoliyatini davom ettirgan.

Din.

Evropaning ko'pchilik xalqlari xristian diniga e'tiqod qiladi. XI asrdan xristian cherkovi 2ga bo'lingan: rim-katolik, grek-provoslav cherkovlariga. Keyinchalik reformatsiya harakati natijasida yangi: lyuteran, kalvinizm, anglokan cherkovlari vujudga keladi.

Rasmiy cherkov bilan yonma-yon deyarlik barcha xalqlarda xristianlik va islomga qadar bo'lgan diniy tasavvurlarning sarqitlari saqlanib qolgan.

Boltiq bo'yi xududi katoliklik, provoslaviya va lyuteran cherkovlari xamkorlikda faoliyat qilmoqda. Qalmoqlarda buddizm, kavkazliklarda xristianlik va islom dinlari majud. Xristianlikni dastlab 301 yilda armanlar, sharqiy-provoslav mazxabini qabul qilganlar. Lekin arman-grigorian cherkovi Isoning ilohiyligiga monofizitlikka asoslagan.

Gruziyada xristian-pravoslav cherkovi 337 yildan mavjud.

Islomning paydo bo'lishi VII-VIII asrlarda arablar istilosi bilan bog'liq. Ozarbayjon,Dog'iston so'ngra tashviqot yo'li bilan Volga bo'yiga qadar tarqalgan. Ozarbayjonliklar-shia, qolganlar sunna mazxabiga qarashlidir

Xalq og'zaki ijodi.

Taraqqiy qilgan Evropa xalqlarida xalq og'zaki ijodini professional san'atdan ajratish qiyin. Xalq og'zaki ijodi durdonalarining eng qadimiylari Gomerning «Iliada» va «Odissey» dostonlarida aks etsa, keyinchalik o'rta asrlar Evropasida «Nibelunglar xaqida qo'shiq», finlarning «Kalevala», inglizlarning «Robin Gud qissasi» lari, frantsuzlarning «Roland haqida qo'shiq» dostonlari va xokazolarni ko'rsatish mumkin.

Ertaklarni Evropada kapitalistik jamiyat vujudga kelganga qadar faqat bolalar emas, kattalar xam sevib eshitganlar va o'qiganlar. XVII asrda Sh. Perro, aka-uka Grimmlar, Anti-Arne, Gofman, Andersen, Selma Lagerlef, Oskar Uayld va boshqalar o'nlab va yuzlab ertaklar yozganlar.

Hozirgi kundagi ko'plab professional san'at turlari xalq ijodiyotidan boshlangan. Xususan zamonaviy teatrning boshlanishi Qadimgi Yunonistondagi Dionisga bag'ishlangan xalq bayramlaridan ekanligi xam ma'lum.

Uyg'onish davrida dunyoviy professional teatrlari — drama, tragediya, komediya, XVI asrdan Italiya —opera san'ati vujudga keladi.

Shu bilan birgalikda Evropada xalq qo'g'irchoq teatrlari, sirkleri saqlanib kelmoqda.

Nazorat topshiriqlari:

1. Evropa qit'asining etnografik nuqtai nazardan to'rt guruhga bo'linishini tavsiflab bering.
2. Evropa xalqlarining etnik kelib chiqishi va xalq bo'lib shakllanishi jarayonlari, Evropa aholisining irqiy tiplari haqida nimalar bilasiz?
3. Evropa xalqlarining ijtimoiy va oilaviy munosabatlari, Rossiya xalqlarining etnolingvistik jihatdan tasnifi, Kavkaz xalqlarining milliy tarkibi va til oilalari haqida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov V.V. Genealogicheskaya klassifikatsiya yazo'kov i ponyatie yazo'kovogo rodstva. M., 1954.
2. Yazo'ki Azii i Afriki. T.1-3. M., 1976-1979.
3. Greenberg J.H. Language in the Americas. Stanford, 1987.

4. Greenberg J.H. Languages of Africa. 2nd ed. The Hague, 1966.
5. Ruhlen M. A guide to world' languages. Vol.1: Classification. London, 1987.
6. Swadesh M. The origin and diversification of languageG' London, 1972.
7. Gromov G.G. metodika etnograficheskix issledovaniy: M.1990
8. Mid M. Kultura i mir detstva. M. «Nauka» 1988
9. Narodo' Sredney Azii i Kazakstan pod.red. S.P.Tolstova M.akademikya Nauka. 1962-63
10. Salimov T.U. Etnografik ekspiditsiyalarni o'tkazish usublari. T. «Universitet» 1993.

12-mavzu: O'zbekistonda etnologiya fani rivojlanishi va istiqbollari.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

“O'zbekistonda etnologiya fani rivojlanishi va istiqbollari”
mavzusi bo'yicha ma'ruza darsining texnologik xaritasi

TG'r Bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	<p>Tayyorlov bosqichi 1.1. Dars maqsadi: O'zbekistonda etnologiya fani rivojlanishi va istiqbollari haqida ma'lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.1 O'zbekistonda etnologiya fanining rivojlanish haqida so'zlab beradi. 1.2. O'zbekistonda etnologik tadqiqotlarning bugungi holati, asosiy yutuqlari, muammolari va istiqbollari haqida so'zlab beradi. 1.3. Asosiy tushunchalar: etnografik tadqiqotlar, etnologiya, yozma manba. 1.4.Dars shakli: Ma'ruza 1.5. Metod va usullar: Og'zaki bayon, taqdimot, munozara, aqliy hujum 1.6.Kerakli jihoz va vositalar: O'quv-uslubiy majmua, fotosuratlar, slaydlar, videoproektor.</p>	O'qituvchi
2	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.</p>	O'qituvchi 30 min.
3	<p>Guruhda ishlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning muhim bosqichlari bo'yicha tezkor usulda talabalarning fikrini tinglash • Umumiy xulosalar chiqarish 	O'qituvchi-talaba 30 min.
4	<p>Mustahkamlash va baholash: Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: 1. O'zbekiston hududidagi dastlabki etnografik tadqiqotlarni tavsiflab bering. 2. Qadimgi va o'rta asrlar yozma manbalarida etnologik ma'lumotlar haqida nimalar bilasiz? 3. O'zbekistonda etnologik tadqiqotlarning bugungi holati, asosiy yutuqlari, muammolari va istiqbollari haqida so'zlab bering.</p>	O'qituvchi – talaba 10 min.
5	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruza va talabalar fikrini umumlashtirib, har bir savol bo'yicha yakuniy fikr aytiladi va mavzu bo'yicha echimini 	O'qituvchi

	kutayotgan ilmiy muammolar bilan talabalar tanishtiriladi • Mustaqil ish topshirig'i: Mavzu bo'yicha prezenatsiya tayyorlash.	10 min.
--	--	----------------

Asosiy savollar:

1. Mutaqillik yillarida etnologiya fani.
2. Etnologiya fanining rivojlanish istiqbollari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: etnografik tadqiqotlar, etnologiya, yozma manba.

1-asosiy savol: Mutaqillik yillarida etnologiya fani.

1-savol yuzasidan dars maqsadi: Mutaqillik yillarida etnologiya fani rivoji haqida ma'lumot berishdan iborat.

1-asosiy savolning bayoni:

Mustaqillik yillarida etnologiya fani. XX asr davomida etnologiya yo'nalishida boy empirik va nazariy materiallar yigildi. XX-asrning birinchi yarmida bajarilgan akademik tadqiqotlarda ko'proq o'tmishga aylanayotgan an'anaviy urf-odatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olishga diqqat - e'tibor qaratilgan bo'lsa, XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab mavjud vaziyat o'zgardi va etnologik materiallarning amaliy qimmati oshdi.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin etnologiya fani kam yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, etnogenez va etnik tarix muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar yaratildi. Bu so'kada akademik olim K.Shoniyozovning qator fundamental tadqiqotlari va monografiyalari alokida e'tiborga molikdir. Zakmatkash va fidoyi olim K.Shoniyozov o'zining qariyb yarim asrlik ilmiy faoliyati mobaynida Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi o'zbeklar va boshqa qardosh xalqlar etnogenezi va etnik tarixini izchil o'rgangan va yuzdan ortiq ilmiy maqolalar kamda bir necha yirik monografiyalar yaratgan. Olimning «O'zbek-qarluqlar»(1964), «O'zbek xalqining etnik tarixiga oid»(1974), «O'zbek xalqining moddiy madaniyatidan etnografik lavkalar»(1981), «qang' davlati va qang'lilar»(1990), «qarluq davlati va qarluqlar»(1999), «O'zbek xalqining shakllanish jarayoni»(2000) kabi fundamental monografiyalari boy tarixiy manbalar, ko'pdan-ko'p folklor-etnografik ekspeditsiyalarning materiallari asosida yaratilgani bilan mukim akamiyat kasb etadi. K. Shoniyozov o'zining o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid fundamental tadqiqotlari orqali o'zbek xalqi etnik tarixini o'rganishda yangi ilmiy yo'nalishga asos soldi. Tarixiy va etnografik ma'lumotlarni arxeologiya, antropologiya, numizmatika, folklorshunoslik va tilshunoslik kabi yondosh fanlar yutuqlari bilan qiyosiy o'rganish va muammoni yoritishda muayyan ilmiy xulosalarga kelish O'zbekiston etnologiyasi fanida Karim Shoniyozov asos solgan yangi yo'nalishning mukim bir xususiyatidir. Shuning uchun kam akademik olimning tadqiqotlari nafaqat Respublikamizdagi ilmiy jamoatchilik tomonidan yaxshi kutib olingan, balki xorijlik mutaxassislar tomonidan kam e'tirof etilgan. Etnogenez va etnik tarix muammolarini tadqiq qilishda akademik A.Asqarovning xizmatlari kam kattadir. Taniqli olim etnogenez va etnik tarix muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarida birinchilar bo'lib tarixiy va arxeologik, etnografik va antropologik manbalarga kamda adabiyotlarga asoslanib, o'zbeklarning shakllanish jarayonini bir necha bosqichlarga bo'lib tadqiq qiladi va qator nazariy-metologik kamda ilmiy kontseptual xulosalar chiqargan. Muallif keyingi yillardagi tadqiqotlarida etnogenez va etnik tarix muammosi yuzasidan jiddiy shug'ullanib etnos nazariyasiga oid bir qator ilmiy anjumanlar va seminarlar tashkil etdi kamda bu borada o'zining qator ilmiy-nazariy kamda metodologik qarashlarni ilgari surdi. Shuningdek, bu davrda xalqimizning moddiy va ma'naviy madaniyatini, oilaviy va jamoaviy kayotini, etnoslararo jarayonlarni o'rganish borasida ancha samarali ishlar bajarildi. Xususan, o'zbek oilasi tarixi (O.Bo'riev), to'y va motam marosimlari (K.Ismoilov, q.Nasriddinov), an'anaviy uy kunarmandchiligi (X.Toshev va M.O'roqov), o'zbeklar orasidagi makalla va qo'ni-qo'shnichilik an'analari (Z.Orifxonova), qadimiy diniy e'tiqodlar va ularning o'zbek xalqi turmush tarzidagi izlari (A.Ashirov), etnoslararo jarayonlar (U.Abdullaev) mavzulari

doirasida qator ilmiy monografiya va risolalar e'lon qilindi. Shu bilan birga O'zbekistonning tarixiy etnografik mintaqalari - Toshkent shakri (Z.Orifxonova, G.Zunnunova) Buxoro vo'kasi (A.Jumaev, M.qurbonova), Farg'ona vodiysi (Sh.Abdullaev, U.Abdullaev, V.Kaqlijev, A.Ashirov, B.Tursunov), Janubiy O'zbekiston (O.Bo'riev, q.Nasriddinov, F.Raxmonov, G.Tosheva, S.Tursunov, A.qayumov, B.Kamroqulova, M.Ibragimova) etnologiyasini tadqiq etish borasida samarali natijalarga erishildi.

O'zbekistonda etnografiya va etnologiya fanining tarixshunosligi (A.Doniyorov, D.Koshimova), mazkur fanning OO'Yuda o'qitish metodologiyasi (I.Jabborov, O.Bo'riev, T.Salimov, B.Isoqov), etnologiya atamalarining qisqacha lug'ati (O.Bo'riev va T.Xo'jamberdiev)ga doir tadqiqotlar kam e'lon qilindi.

Kozirgi kunga kelib Respublikamizning qator ilmiy maskanlarida mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'ZRFA Tarix instituti Etnologiya bo'limi, O'zMUda «Arxeologiya va etnologiya» kafedresi, TerDU va qarshi DU Etnologiya ilmiy marazi faoliyat olib bormoqda. Mamlakatimiz bo'yicha doimiy va mavsumiy ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilmoqda. O'zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolariga bag'ishlanib bir qator kalqaro (1999, 2000, 2004, 2005) va mintaqaviy anjumanlar tashkil etildi. Etnologiya fanining so'nggi natijalariga bag'ishlangan «Akademik K.Shoniyozov o'qishlari» turkumida doimiy ilmiy konferentsiyasi kar yili o'tkazilmoqda.

Mamlakatimiz etnologlari AqSh, Angliya, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Markaziy Osiyo respublikalari etnologlari bilan kamkorlik aloqalarini o'rnatganlar. Rossiya FA Etnologiya va antropologiya instituti bilan kam doimiy kamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu bevosita yurtimizda etnologiya fani jakon fani bilan o'zaro uyg'un tarzda rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda kozirda etnologik tadqiqotlar jamiyat kayotining turli sokalarida mukim ilmiy va amaliy akamiyat kasb etib bormoqda. Etnolog olimlarning bilimi va maslakatlaridan siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni kal etishda keng miqyosda foydalanilmoqda. Fanning yutuqlari komunikatsiya tizimida, xalqaro savdoda, diplomatiyada va boshqa qator sokalarda samarali qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda etnologiyaning ko'plab boshqa yondosh fanlar bilan doimiy aloqasining samarasi sifatida Etnopsixologiya, etnolingvistika, etnodemografiya, etnomadaniyat, etnopedagogika, etnofolkloristika, etnomadaniyat kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Shu bois etnologiya, aytish mumkinki, bugungi kunga kelib yangi bir rivojlanish bosqichiga ko'tarildi.

2-savol: Etnologiya fanining rivojlanish istiqbollari.

2- asosiy savolning bayoni:

Biz oldingi qismlarda Respublikamizda etnologiya fanining tarixi va mazkur fan sokasida erishilgan ijobiy ishlar borasida fikr yuritgan edik. Endi mazkur fan tarmog'ida mustaqillik yillari erishilgan yutuqlar, muammolar va mazkur fanining rivojlanish istiqbollariga to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston istiqloлга erishganidan keyin boshqa ijtimoiy fanlarda bo'lgani singari etnologiyada kam katta amaliy ishlar bajarildi.

Mustaqillik yillarida mafkuraviy tazyiqlardan koli bo'lgan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi etnologiya fani sokasida kam garchi ma'lum qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, bir qator ilmiy-nazariy va metodolik tadqiqotlar amalga oshirildi. Tadqiqotlar nafaqat mazmun va mo'kiyati bilan balki, ularga nazariy metodologik jikatdan yondashuvlar kam o'zgarganligini ko'rsatmoqda. Tarixan qisqa davr mobaynida erishilgan eng mukim natijalar sifatida tadqiqot mavzularining kengaygashi va ilmiy izlanish samaradorligi oshganligini kuzatamiz. Tadqiqot ob'ekti va predmetiga, balki uning metod va nazariyalariga kam yangicha qarash natijasi o'laroq «etnomadaniy jara'nlar», «etnoslararo jarayonlar», «zamonaviy jamiyatda milliy-etnik jarayonlar», «Etnopsixologiya», «etnoslararo kommunikatsiya», «gender muammolari» va etnologiyaning boshqa zamonaviy yo'nalishlarida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. O'tgan qisqa davr mobaynida etnolog tadqiqotchilar «bir xillik» andozasidan ozod bo'ldilar va «madaniyat», «madaniy meros»,

24. Dunyo xalqlarini antropologik turkumlash
25. Etnik jarayonlarni tadqiq qilish
26. Etnologik ekspeditsiyani tayyorlash
27. Dala etnologik tadqiqotlarini tashkil etish
28. Etnologik ekspeditsiya usullari
29. Statsionar uslub
30. To'pli tadqiqotlar
31. YO'nalishli tadqiqotlar
32. Etnologiyaning rivojida evolyutsionistlarning o'rni
33. Eduard Teylorning etnologiyaga qo'shgan hissasi
34. Luis Genri Morganning etnologiyaga qo'shgan hissasi
35. Madaniy relyativizm
36. Neoevolyutsionizm
37. Strukturalizm
38. S.P.Tolstovning etnologiyaga qo'shgan hissasi
39. K.Shoniyozovning etnologiyaga qo'shgan hissasi
40. Diffuzionizm oqimi
41. Biologik oqim. Irqchilik
42. Etnologiyada fraydizm
43. Frantsuz sotsiologik maktabi
44. Funktsional yo'nalish
45. Amerikada Frants Baos maktabi
46. Etnopsixologiya
47. Evropaning etnik qiyofasi
48. Osiyoning etnik tuzilishi
49. Afrikaning etnik qiyofasi
50. Amerika qit'asining etnik tuzilishi
51. Avstraliya va Okeaniyaning etnik qiyofasi

52. E'tiqodiy qarashlar va udumlar
53. Animizm
54. Animizm bilan bog'liq udumlar
55. Fetishizm
56. Fetishizm bilan bog'liq udumlar
57. Totemizm
58. Totemizm bilan bog'liq udumlar
59. Magiya
60. Magiya bilan bog'liq udumlar
61. Shomonlik bilan bog'liq udumlar
62. Zardushtiylik dini
63. Zardushtiylik bilan bog'liq udumlar
64. Buddaviylik marosimlari
65. Xristian dini tantanalari
66. Islom dini bayramlari
67. Ibtidoiy to'da davrida oila munosabatlari
68. Monogam oilaning shakllanishi
69. Nikoh va oila
70. Avstraliya va Tasmaniya aholisining kelib chiqishi muammolari
71. Avstraliya va Tasmaniyada «o'zlashtiruvchi xo'jalik»
72. Avstraliyaliklar nikohida «ekzogamiya» tartibi
73. Aboriginlarning moddiy madaniyati
74. Avstraliyada totemistik qarashlar
75. Avstraliyada initsiatsiya marosimi
76. Avstraliyaliklarning ma'naviy madaniyati
77. Avstraliyaliklarning diniy e'tiqodi, udumlari
78. Avstraliya va Tasmaniyaning tub aholisi taqdiri va hozirgi aholisi
79. Okeaniya aholisining tarkibi, kelib chiqishi muammolari
80. Papuaslarning kelib chiqishi muammolari
81. Polineziya aholisining kelib chiqishi muammosi
82. Polineziyaliklarning moddiy madaniyati
83. Polineziyaliklarda dehqonchilik va dengizchilik
84. Polineziyaliklarning ma'naviy madaniyati
85. Polineziyaliklarning e'tiqodiy qarashlari va udumlari
86. Polineziyaning tub aholisi
87. Melaneziyaliklarning moddiy madaniyati
88. Melaneziyada dehqonchilik va dengiz xo'jaligi
89. Avstraliya va Okeaniya «erkaklar uyi»
90. Avstraliya va Okeaniya tub aholisining mulkiy munosabatlari
91. Melaneziyaliklarning initsiatsiya marosimining tarbiyaviy ahamiyati
92. Melaneziyaliklarning diniy e'tiqodi va udumlari
93. Melaneziya aholisi (bugungi kunda)
94. Mikroneziya aholisining kelib chiqishi muammolari
95. Mikroneziya xo'jaligi
96. Mikroneziya aholisining moddiy va ma'naviy madaniyati
97. Turkiy tillar oilasi
98. Hind-evropa tillar oilasi
99. Semit-xomit tillar oilasi
100. Mustaqil tillar

X. GLOSSARIY:

Aborigen(yunon) – joyning tub aholisi, qadimdan shu mamlakatda yashovchi xalqlar.

Avankulat(lotincha *avanculis* –tog'a ma'nosida) – tog'a bilan jiyani o'rtasidagi alohida munosabatlar tizimi; bunda tog'a o'z jiyani tarbiyasiga va uning hayotiy taqdiriga asosiy mas'ul kishi hisoblanadi.

Avtoxton(yunon) – tub aholi, mahalliy er egasi bo'lgan xalq, mamlakatning ibtidoiy aholisi yoki aborigenlar.

Agnat(lotincha) – ota nasabi bo'yicha qarindoshlik.

Adobtsiya(lotincha) – o'g'il yoki qiz qilib asrab olish.

Aka-uka tutinish(pobratimstvo) – mazkur bo'limdagi atamalardan quyidagilarni qayd qilib o'tamiz: kelib chiqishi turlicha bo'lgan erkaklarning qarindoshlik munosabatida bo'lish haqida olgan majburiyati, bu majburiyat qon bilan yoki bitta ayol bilan yashab ketish orqali mustahkamlanadi.

Akkamadatsiya(adaptatsiya)(lot) – odamlarning yangi muhitga moslashuvi.

Akkulturatsiya(ingliz-lotincha) – madaniyatlarning o'zaro bir-biriga o'tish jarayoni.

Alohida oila, kichik oila (individualnaya semya(malaya mesya) – uzoq vaqt davomida birga yashashdan iborat bo'lib, urug'chilik- ota urug'i ijtimoiy ishtitutig qarama-qarshi turish belgilariga egadir.

Animizm(lotincha *animu* – ruh) – tabiatdagi barcha narsalarni, tabiat kuchlari va hodisalarini jonli deb tushunish, ularda g'ayri tabiiy kuch bor deb tushunishdir. Animistik tasavvurlar mana shunday ma'nodja ibtidoiy e'tiqodlar va dinlarnig barchasida u yoki bu tarzda mavjuddir. Bu tushunchani o'tgan asrda ilm-fanga kirgan E.Teylor animizmni “eng kam quyi din”, umuman dinning dastlabki bosqichi deb qaragan.

Antropogenoz(yunon) - odamning paydo bo'lish jarayoni.

Antropologiya(yunon) – odam haqida tushuncha, odamni o'rganuvchi fan. Odamning suyak tuzulishi, teri va sochini rangi va belgilariga qarab uning kelib chiqishi, irqi, morfologik tiplari, fiziologik, jinsiy va boshqa xususiyatlarini o'rganadi.

Apparteyd, appartxeyd(bur) – Janubiy Afrika Respublika erli xalqlari tilida “ajralib yashash” yoki “ajralib rivojlanish” degan ma'noni anglatadi. Ozchilik kelgindilar hukumatining tub xalqlari va boshqa evropalik bo'lmagan aholiga nisbatan qo'llaydigan shafqatsiz irsiy kamsitish, xo'rlash va jismoniy qirib yuborishga qaratilgan siyosati.

Assimilyatsiya(lotincha) – bir xalqning ikkinchisiga o'xshatib, qo'shib, singib ketishi. Ba'zi etnik guruhlarning uzoq davr mobaynida yirik millatlar orasida yashab, ularning tili va madaniyatini o'zlashtirishi va shu millatga singib ketishi, milliy psixologik ma'noda va o'zini shu millat vakili deb hisoblashi. Assimilyatsiya ixtiyoriy va zo'rma-zo'rakilik oqibatida ham bo'lishi mumkin.

Atelchestvo(turkcha tarbiyachi) – avankulatning alohida bir turi bo'lib, bolani begona oilada tarbiyalashdir. Bunday rasm-rusmlar patriarxal jamiyatlarda mavjud bo'lgan va hozir ham bor.

Bigmenlar(ingliz) – jamoada mavqei bilan ajralib turuvchi lider erkaklar, yo'l boshchilar.

Bilingvizm(lotincha) – ikki tillik. Bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yashovchi turli etnoslarning o'zaro bir-birining tillaridan erkin foydalana olishi.

Genezis(yunon) – kelib chiqish. Etologiyada xalqlarning kelib chiqishi.

GErontokratiya(yunon) – oqsoqollar hokimiyati.

Geterizm(yunoncha *dugona, o'ynash ma'nosida keladi*)- gruppaviy nikohning sarqiti uni ayolning bitta erkakka tegishli bo'lish huquqi uchun gunohidan qutqazadigan zarur qurbonlik deb tariflash mumkin. Sinflardan avvalgi jamiyat davrida ayol o'zi bilan nikohga kirishi mumkin bo'lgan barcha erkaklarga tegishli bo'lishi lozim edi.

Ginekokratiya(yunon) – oila va jamiyatda ayollarning hukmronligi.

Gipergamiya(yunon) – yuqori darajaga mansub bo'lgan kishi bilan nikohga kirish.

Dislokal (lotincha) – er-xotinning ajralgan holda yashashi.

Juft oila(parnaya semya) – juftlarning birga yashash va o'ziga o'xshash avlodlarni etishtirishi uchun barqaror bo'lmagan qo'shilmasi; u gruppaviy nikohga ancha mos keladi va urug'chilik jamiyati sharoitida oilaning mustaqil emasligini aks ettiradi.

Ijtimoiy-etnik jamoa tabiiy-tarixiy shakllangan kishilarning barqaror uyushmasi, unga kelib chiqish va rivojlanish umumiyliги belgi va xususiyatlari xosdir. Ijtimoiy-etnik jamoa tushunchasi "etnos", "etnos tarixiy umumiylik", "etnik umumiylik" tushunchalarining mazmuni bilan o'xshash, bular etnografiya va boshqa ijtimoiy fanlar doirasida tadqiq etiladi.

Initsiatsiya - , bag'ishlash, ibtidoiy davrda o'smirlarni voyaga etgan erkak va ayollar safiga o'tkazish marosimi. Islomda o'g'il bolalar sunnati initsiatsiya hisoblanadi. O'zbekcha "qo'li halol bo'ldi" iborasi bolani jamiyatga a'zo bo'lishi deb qaraladi.

Innovatsiya(lotincha) – yangilanish, merosva an'analarning avloddan avlodga o'tishi natijasida madaniyatida vujudga kelgan yangi xususiyatlar.

Integratsiya(lotincha) – tiklanish, to'ldirish, turli xalqlarning birlashuvi, turli etnoslarning bir hududda etnik-madaniy aloqalarni o'rnatish jarayoni.

Irq(arabcha) – ildiz, tomir; odamlarning kelib chiqishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o'xshash bo'lgan tarixan tarkib topgan hududiy birligidir. Kishilar o'z tana tuzilishi, tashqi qiyofasi, teri, ko'z va suyagining rangi, soqolining siyragu yoki qalinligi, bo'y-basti, yuz tuzilishi, bosh suyagining shakli, qon guruhi va boshqalariga qarab guruh-guruhlarga ajratiladi. Jahondagi barcha xalqlar to'rtta katta irqqa bo'linadi. Ulardan tashqari irqiy birliklar ham mavjud. Har bir irq yana bir qancha mayda guruhlarga ham bo'linadi. Jahonda 4 ta katta: evropoid, negroid, mo'g'ul(mongoloid) va avstraloid irqi mavjud.

Kamlanie - shomonning ruhlari bilan aloqa o'rnatish uchun amalga oshiradigan maxsus harakati.

Kasta(lotincha, notural) – toza, benuqson, oq suyak; boshqa toifa bilan aralashmagan toifa, tabaqa. Qadimgi Misr, Hindiston va Sharqdagi boshqa mamlakatlarda o'z a'zolarining nasabga tegishli imtiyozli huquqlari. Ajdodlari va kasb-hunarlariga qarab va alohida tabaqaga ajralgan ijtimoiy guruh(ruhoniylar, savdogarlar, dehqonlar, braxmanlar) kastasi mavjud.

Klan(gel) – urug', qabilaning qarindoshchilik asosidagi ijtimoiy o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlovchi uyushmasi. O'zbek xalqida klan tushunchasiga to'p atamasi mos keladi: xo'ja to'pi, marlar to'pi va h.k.

Koglomerat(lotincha) - birikish, qo'shilish, boshlanishi, to'plangan turli toifa va ealatlarning uyushtirilishidan tashkil topgan ijtimoiy-siyosiy tuzum(masalan, quldorlik, feodalizm davrida tuzilgan yirik davlatlar).

Konsolidatsiya(lotincha) – mustahkamlash, yiriklashuv, til va madaniyat jihatdan yaqin va qon-qarindosh xalqlarning yagona bo'lib birlashuvi, etnoslarning bir-biriga yaqinlashib ketishi.

Kognat(lotincha) – tug'ilitish bo'yicha qarindoshlik, ota va ona nasabi bo'yicha qarindoshlik.

Kreollar, kriollar(frantsuz-ispans) – amerikada tub joy aholisidan va metropoliyadan kelganlardan tubdan keskin farq qiladigan etnik guruhlar.

Kros-kuzen(ingliz-frantsuz) – tog'a yoki ammaning qizi bilan nikohda bo'lish.

Kuvada(frantsuz) –tuxum bosish. Otaning bolaga nisbatan o'z huquqini tasdiqlash uchun o'tkaziladigan odat. Masalan, indeytslarda ona tug'ayotganda ota ham o'zi tug'ayotgandek ko'rpa ichiga kirib olib og'ir kuchanib yotishi rasm bo'lgan.

Kunstkamera(nemischa) – noyob etnografik, tabiiy-tarixiy va san'at asarlari muzeyi. Rossiyada Pyotr 1 tomonidan 1714 yilda Peterburgda tashkil etilgan. Hozirgi Rossiya Fanlar akademiyasining ulug' Pyotr nomidagi Antropologiya va etnografiya muzeyi.

Kuzen(lotincha) – tog'a, jiyan.

Levirat(lotincha levir – erning akasi yoki ukasi) – akasi yoki ukasining bevasiga uylanish, bevasining o'lgan erining akasi yoki ukasiga erga tegish hodisasi.

Lenidj(ingliz) – aniq bir avloddan kelib chiqqan yaqin qarindoshlarning urug' ichidagi guruhi.

Lokallik(lokalnost) – nikohdan o'tgan juftlarning o'rnamish joyi(quyidagicha variantlar bo'lishi mumkin: **matrilokallik** – ona urug'ida, **patrilokallik** – ota urug'ida, **bilokallik** – navbat olgan ota va ona urug'ida o'rnamish: **avankulokallik** – **erining onasining ukasinikida**, **neolokallik** – er-xotin ota-onalaridan alohida yashaydilar,

Dislokallik – er-xotin har biri o'zining urug'i o'rnamishgan joyda yashaydi).

Magiya(lotincha magia – jodugarlik, afsungarlik) – insonning g'ayri tabiiy vositalari yordamida voqealarning tabiiy jarayoniga, moddiy predmetlarga yoki boshqa kishiga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati. O'zining funksional vazifasiga ko'ra magiya bir necha xil nomlarga egadir – ovchilik, ishlab chiqarish, sevgi-muhabbat, shifolovchi, zarar keltiruvchi, urug'ga yordamlashuvchi magiyalar. Magiya o'zining umumiy yo'nalishi bo'yicha adolatli ravishda ta'sir ko'rsatish(uning maqsadi – ta'sirga uchragan ob'ektni magik haakatni bajaruvchi, kutayotgan harakatni amalga oshirishga yoki shunday holatda bo'lishga majbur qilishdir) va **saqlovchi magiya**(uning maqsadi – shaxsni yoki jamoani dushmanning har qanday magik ta'sir ko'rsatishidan yoki tashqi kuchlarning nomaqbul ta'siridan himoya qilishdir). Ba'zan bu ikki xil tipni qora va oq magiya deb atashadi. Magik harakatlarni amalga oshirish rasmlariga ko'ra ular yakka tartibdagi va jamoa tarzidagi harakatlar bo'lishi mumkin.

Matrilokal(lotincha) – ona atrofida to'planish, bu ibtidoiy nikohga ko'ra, er xotinnikiga ko'chib o'tgan.

Matrinomiya(yunon) – o'zlarini umumiy bir odamlar guruhi.

Metis(frantsuz) – aralash, indeyslar bilan evropaliklarning aralash nikohidan paydo bo'lgan avlod.

Migratsiya(lotincha) – ko'chish, joyni o'zgartirish, aholini bir joydan ikkinchi joyga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chirish.

Millat – etnos turi, kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy umumiyliigi asosida tarixan yuzaga keladi. Millat hudud, til, iqtisodiy aloqalar, qiyofasining tuzilishi, madaniyati va o'zligining o'xshashligi bilan tavsiflanadi.

Millatga mansublik – kishilarning u yoki bu ijtimoiy-etnik umumiylik: millat, elat, milliy guruh yoki etnik guruhga taalluqligi.

Millatchilik – milliy xususiyat talablarida namoyon bo'luvchi g'oyaviy- ruhiy va ijtimoiy siyosiy oqim. Oddiy tushunchaga ko'ra millatchilik o'ziga xos ijtimoiy-ruhiy majmua sifatida namoyon bo'ladi, u barqarorligi va davomiy mavjudligi, unsurlarning tizimlashtirilmaganligi, namoyon bo'lishining chuqur va kuchliligi bilan farqlanadi. Unda bir tomondan o'z xalqiga bo'lgan munosabat mezonlari, ya'ni sevgi, ko'nikkanlik, fidoyilik, sadoqat, mag'rurlik va hokazolar birlashadi. Shaxsning etnik o'xshashligi bilan taqqoslashning bu o'ziga xos turi hisoblanadi, bunda mazkur guruh boshqalardan ajralib turadi, ijobiy emotsionallikda ayon bo'ladi, turli xil xayrixohlikka ega bo'ladi.

Milliy guruh – 1) u yoki bu millat yoki elatning katta bo'lmagan qismi; 2) boshqa millat muhitidagi milliy ozchilik; 3) ayni etnik(etnografik) guruh; 4) boshqa mamlakatga sayohatga yoki chet elga o'qish uchun borgan bir millatga mansub kishilar guruhi.

Milliy ozchilik – chegaraning o'zgarishi, migratsiya yoki kuch bilan ko'chirish natijasida u yoki bu xalqdan biror qism yoki guruhning ajrashi natijasida yuzaga kelgan etnik jamoa shakli.

Milliy munosabatlar - ko'p millatli va umummilliy jamiyat ichidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, til va boshqa munosabatlarning sintezlashuvi.Ular turli darajada mavjud bo'ladi va rivojlanadi, ya'ni davlatlararo va millatlararo, ijtimoiy va shaxsiy miqyosda.

Milliy urf-odatlar - tarixan shakllangan, muayyan millatga mansub shaxslarning kundalik turmushiga xos odatlar. Bular muayyan milliy muhit, milliy guruhda namoyon bo'ladi va uning a'zolari barchasi uchun odatga aylanadi. Bunday urf-odatlar milliy rivojlanishda vorislikni saqlaydi, madaniyat turmush tarziga milliy ko'rinish baxsh etadi, diniy aqidalarning saqlanib qolishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga eskirgan milliy urf-

odatlar asta-sekin tarixiy rivojlanish jarayonida yangilari, ancha ilg'or ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beruvchi yangilari bilan almashadi. Tegishli tarzda milliy urf-odatlar yangi va eskiga, shahar va qishloq, shuningdek tarixiy, vatanparvarlik, diniy va maishiy qismlarga bo'linadi.

Milliy mahdudlik (predrassudki) – boshqa millat vakillariga nisbatan ikkinchi bir millatga mansub shaxslar bir qismida odatga aylanib qolga soxta qarashlar. Ataylab bzib talqin qilingan hodisalar yoki urf-odatlar, udumlar, an'analarni noto'g'ri talqin qilish, shuningdek rivoyat, afsona, mish-mishlar va hokazolar tufayli yuzaga keladi.

Milliy tuzilma 1) mamlakat aholisining milliy tarkibi; 2) milliy belgilar bo'yicha ko'p millatli davlat tuzilmasi; 3) millatlar, elatlar va etnik guruhlarning jamiyatda o'zaro joylashuvi; 4) ayni etnik tuzilma.

Milliy ruhiyat – inson ruhiyatining milliy asosdagi rivojlanishi, uning borlig'i, ongi va shaxsning milliy madaniyatda shakllanishi, umuminsoniy madaniyatga borib taqaladigan uning ijodidagi milliylikning vorisiyligi.

Monogamiya(yunon) – yakka nikohlilik; bir erning bir ayol bilan mustaqil nikohi zaminida birga yashashga asoslangan oilaviy hayot bo'lib, ibtidoiy jamoa tuzimining emirilishi davrida vujudga kelgan.

Monogam oila(monogamnaya semya) - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yacheykasi. Etnografiyada ijtimoiy omil hisoblangan oilaning abadiyligi va haqida gap ketganda huddi shu monogam oila haqida gapirishadi.

Monotizm(yunon) – yakka xudolik, faqat bitta xudoga sig'inuvchi, birgina xudoni e'tirof etuvchi diniy e'tiqod.

Mulat(ispan) – nikohsiz bola; qora tanlilar bilan evropalik oq tanlilarning aralash nikohi natijasida paydo bo'lgan avlod.

Mulk belgisi, ba'zan "tamg'a" atamasi (znak sobstvennosti) ishlatiladi, (u rus tiliga turk tillaridan kirgan) - u urug'ga yoki uning ayrim a'zosiga tegishli bo'lgan narsalar yoki boshqa buyumdagi(masalan, chorva mollaridagi) maxsus belgini aks ettiradi.

Muqaddas joylar va ob'ektlar(svyahenno'e mesta i ob'ekto') – etnos tomonidan alohida hurmat-ehtirom bilan qaraladigan joylar va o'sha joylardagi moddiy ob'ektlar bo'lib, ular ajdodlar va ruhlarning yashagan joylari yoki ta'sir ko'rsatish sohalari deb qaraladi. Ana shunday joylar va ob'ektlarni alohida ajratib ko'rsatish amnistik, totemistik tasavvurlar bilan, o'lganlar va ota-bobolarning ruhlari bilan bog'liqdir. **Qabr**(mogila) – yakka tartibda(kamdan-kam ikkita va undan ko'p) marhumlarni dafn etish odatga xos tarzda maxsus shaklda marxum uchun hozirlangan chuqur, xandaq. **Qadimgi go'riston**(mogilnik) – odatda etnik xususiyatga ega bo'lgan ayrim qabrlarning tizimi(mazkur etnik guruh a'zolarini dafn etish joyi). **Mayit bilan birga ko'miladigan jihazlari**(soprovaditelno'y inventar) – qabrga yoki qabr ustiga marhum bilan birga qo'yiladigan eski-tuski narsalar, mehnat qurollari, kiyimlar, qurollar, oziq-ovqat va shunga o'xshash narsalar jami. **Ko'mish marosimlari** (nagrebelno'e obryado') – vafot etgan urug' yoki oila a'zosini ko'mish bilan bog'liq bo'lgan sa'y-harakatlar jami bo'lib, ko'pincha barqaror an'anaviy xususiyatga ega bo'ladi.

Oykumen (yunon) – joylashtirish; er sharining ba'zi qismlariga odamlarning dastlabki joylashuvi. Ma'lum hududiy ijtimoiy xo'jalik madaniy muhitining kompleks tushunchasi.

Patrilokal(lotincha) – ota nomi, ota nasabi bo'yicha nomlanish; bir otadan tarqalgan qon-qarindosh odamlar guruhi.

Poliandriya(yunon) – ko'p erlilik. Hozirgi paytda Tibet xalqlarida, Hindistonda ham uchraydi. Ba'zi turkiy xalqlarda qoldiq shakllari bor. Masalan, qozoq xalqida yaqin o'tmishda hurmatga loyiq mehmondan "uyur" olish, ya'ni nasl olish ma'nosida mezbenni xotiniga qo'shish odati bo'lgan.

Poligamiya(yunon) – ko'p xotirlilik, ko'p nikohlilik.

Politeizm (yunon) – ko'p xudolik, bir necha xudoga sig'inish. Ibtidoiy davrda vujudga kel boshlagan dastlabki davrlarda kelib chiqqan turli xudolarga ishonish; jin, dev, ruh va shu kabilarga e'tiqod qilish. Qadimgi Misr, Gretsiya va Rimda mavjud bo'lgan.

Populyatsiya (lotincha) – xalq. Tashqi(ekzogamiya) nikohga nisbatan ko'proq ichki nikoh tuzumidagi odamlar guruhi.

Potestar tashkiloti(lotincha) – hokimiyat, etnologiyada davlat va sinflar vujudga kelgungacha bo'lgan davrdagi boshqaruv tashkilotlari P.T deyiladi.

Promiskuitet(lotincha) – aralashgan, umumiy ibtidoiy jamiyatda nikoh va oila paydo bo'lishidan burun odamlar gala-gala bo'lib yashagan davrda jinsiy aloqalarning tartibsizligi.

Punalua(gavay) – yaqin o'rtoq, gavay yo'l boshchilaridan bir nechta qarindosh bo'lmagan ayollar bilan nikohi.

Sambo(ispan) – indeytslar bilan qora tanlilarning aralash nikohidan paydo bo'lgan avlod.

Sororat(lotincha soror – opa yoki singil) – bir necha opa-singillar bilan bir vaqtning o'zida nikohda turish, yoki keyinchalik o'lgan xotining singlisiga uylanish vazifasi yoki imkoniyati.

Subetnos – etnik birlashma ichidagi sub'ekt, madaniyati, tili va turmushi bilan fyaarqlanadigan millatning bir qismi yoki etnosni ajratuvchi jarayon – separatsiya natijasida ajralib chiqqan etnosning bir qismi.

Tabaqa (soslovie) – meros bo'lib o'tgan kasbi va jamiyatdagi alohida(ko'pincha yuridik jihatdan mustahkamlangan) mavqei bilan bog'langan shaxslar guruhini aks ettiradi. Etnografiyada ko'pincha jins va yoshga qarab bo'lish degan tushuncha uchraydi, u kishilar jamoasining xo'jalik va ijtimoiy hayotda jinsi va yoshiga qarab dastlabki ijtimoiy bo'linishini aks ettiradi.

Travestizm(frantsuzcha travestir – qayta kiyinish) – jinsiy o'zgarish, bunda erkak o'z jinsidan voz kechib, ayol kiyimini kiygan, ayollar bajaradigan ishlarni ado etgan.

“Turan-ganovan” va “malaysk”(“gavay”) atamaları faqat oila shakllari bilan emas, balki boshqa oilalar ichidagi qarindoshlik munosabatlari tavsifi bilan bog'liqdir. Uni “Gruppaviy nikoh” atamasi bilan almashtirish mumkin. Promiskuitet bilan qismlarga bo'lingan qon-qardosh oilaning mavjudligi huddi shu sabablarga ko'ra, ya'ni promiskuitet mavjudligining o'z shubha ostiga olingani sababli ham shubha ostiga olingan.

Urbanizatsiya (lotincha) – aholi va sanoatning yirik shaharlarda to'planish jarayoni. Shaharlashuv. Ijtimoiy tarixiy jarayon sifatida tsivilizatsiyaning shahar madaniyati markazlarining vujudga kelishi.

Urug'(eski o'zbekcha) – kishilarning eng qadimgi birligi bo'lib, qarindosh avlod bir necha ota-onadan tarqalgan avlod, kishilik jamiyatining ibtidoiy gala davridan keyingi bosqichi. Urug'chilik qon-qardoshlikka asoslangan bo'lib, har bir urug' odamlari bir-birlari bilan xo'jalik va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'ladi. **Ona urug'i(materinskiy rod)**-ona tomonidan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan qondosh qarindosh-urug'lar ittifoqi. G'arbiy Ovrupo adabiyotida ota urug'i atamasining sinonimi “klan”dir-shotlandiyaliklar ota urug'i tashkilotini ana shunday deb ataganlar.

Urug'chilik jamiyati – ibtidoiy jamoa tuzumining ibtidoiy gala davridan keyin boshlangan bosqichlardan biri bo'lib, matriarxat va patriarxat davrlarini o'z ichiga oladi. Xo'jalik va ijtimoiy munosabatlar vositalarining bir qismiga(er, ov qilish, joylar va boshqalar) qon-qarindosh bo'lgan kishilar guruhi egalik qilgan.

Urug' jamoasi- ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tashkiloti.Uning ilk bosqichida matriarxat va patriarxatning boshlang'ich davridagi qon-qarindosh kishilar guruhining xo'jalik, ijtimoiy va g'oyaviy uyushmasi.

Urug' kengashi(sovet roda ili rodovoy sovet) – uch urug'ning ittifoqi bo'lib, ular nikoh aloqalarini o'zaro bir necha tip bo'yicha amalga oshiradilar: A urug'i erkaklarni V urug'iga beradi, V urug'i, S urug'iga, S urug'i esa A urug'iga beradi. Ism, nom(imya) – urug'ning nomi, u urug' a'zosining nomiga qo'yiladi, bu nom meros sifatida bo'lib, ijtimoiy-huquqiy

ahamiyatga egadir; familiya – oilaviy nom, oilaning atalishi, hozirgi ma'nosida Rossiyada bundan uch asr ilgari paydo bo'lgan.

Fetishizm(portugal, abretas – tumor ma'nosida) – g'ayri tabiiy kuchga ega bo'lgan jonsiz buyumlarga sig'inish, topinishdir. U o'ziga sig'ingan kishilarga yordam ko'rsatishga qodirdir. Fetishizmning varianti butparastlikdir. Fetishga, ya'ni eng moddiy buyumga topinish dastlab unda alohida ruh borligi bilan unchalik bog'lanmas edi(fetishlarni jonlantirish keyinroq sodir bo'ldi). Fetishlar odatda o'zining shakli jihatdan odatdan tashqari narsa-buyumlar(toshlar, shox-shabbalar, hayvonning bo'laklari va shu kabilar) bo'ldi.

Folklor(ingliz) – xalq bilimi, xalq og'zaki ijodi. F. ma'lumotlari eng muhim etnografik manbadir.

Fratriya(yunoncha) – qabilaning bo'linmasi bo'lib, dastlab ko'proq bitta urug'dan paydo bo'lgan bir necha o'zaro nikohli urug'larni birlashtirgan. Qabilaning eng birlamchi shakli – kam deganda ikki urug'ning qismlari. Ba'zan "fratriya" atamasi urug'ning analogi sifatida xato ishlatiladi. Ekzogamiyaning muqarrar ta'sir ko'rsatishi faktini hisobga olib, N.A.Butinov urug' ichida alohida mirostruktura – urug' o'zagini ajratib ko'rsatishni taklif etgan. Bu tuzilma urug'ga nikoh tufayli kirib qolgan kelgindilarga qarshi turuvchi qondosh qarindosh-urug'larning jipslashgan guruhidir.

Xalq - kishilarning ko'p qirrali, keng jamoasi, uning ma'nosi quyidagicha: 1) davlat aholisi, mamlakat fuqarolari; 2) elat, ijtimoiy millat; 3) mamlakat aholisining asosiy mehnat ommasi; 4) kishilarning muayyan yosh yoki kasbiy toifasi. Bunda tukshunishning ikki asosiy darajasi mavjud: odatdagi va nazariy. Birinchi ma'noda xalq, davlat, mamlakatning butun aholisi. Ikkinchi ma'noda, bu tarix sub'ekti, xalq ommasi, u o'z ichiga sinflar va ijtimoiy guruhlarni oladi, bu o'zining ob'ektiv holatiga ko'ra jamiyatni taraqqiy ettirish masalalarini ijobiy etishga qodir. Etnosotsial jihatdan xalq, bu – urug', ya'ni qabilani elat, millatga aylantiruvchi shakllanish. Muayyan sotsiologik jihatdan xalq, bu mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi nuqtai nazaridan faoliyatning ommaviy turlarida band bo'lgan ijtimoiy guruhlar majmui.

Xalq yagona ijtimoiy bir butunlikni tashkil etadi, chunki umumiy tarixiy taqdir turmush tarzi va ahloqning o'xshash belgilariga ega, shuningdek yagona tarixiy umumiylikka taalluqlilikni his etadi. Birgalikdagi mehnat faoliyati tufayli xalq jamoaviy ijtimoiy tajriba(til, tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar va me'yorlar, turli malaka va o'quvlar) egasi hisoblanadi.

Xudo(bog) - barcha sinfiy davrlarda ishonishning xayoli ob'ekti, insonlar taqdiriga ta'sir ko'rsata oladigan oliy mavjudot(instant) bo'lib, uning qudratidan dinga ishonuvchilar foydasiga va zarariga foydalanish mumkin. Dinga ishonuvchining ongida xudo odatda ijobiy mavjudot sifatida qaraladi, shuning uchun atamalar sohasida uni ishlatishda ruhlar – g'ayri tabiiy mavjudotlar bilan almashtirib yubormaslik kerak.

Shamanstvo-shamanlik(tungus – manchjuriyada ruhoni-"saman" so'zidan) – ibtidoiy diniy e'tiqodlarning shakllaridan biri, insonning maxsus shaxs – shomon(afsungar) tomonidan amalga oshiriladigan alohida marosi harakatlari yordamida ruhlar bilan aloqa o'rnatish mumkinligiga ishonishidir. Bunda maqsad kasalliklarni davolashda, hayvon va baliq ovlashda, narigi dunyoda eson-omon sayr-sayoxat uyushtirishda va shu kabilarda ana shu ruhlarning yordamiga ishonishdir. Shomonlik Sibir va Shimol xalqlarida keng tarqalgan. Eski jrdunyodagi xalqlarda so'nggi poleolit va neolit davrida, shuningdek mulkiy tabaqalangan jamiyatning vujudga kelish davrida uchraydi(arxeologiya ma'lumotlari va qadimgi yozuv yodgorliklari ana shundan dalolat beradi).

Ekzogamiya(yunoncha "tashqi, tashqari nikoh") ma'nosini bildirib, urug'ning muhim belgisidir. Ekzogamiya printsipiga so'zsiz rioya qilinishi urug' naslining tozalanishi, irsiy barqarorlikni ta'minlash xo'jalik va oilaviy nikoh hayotida muhim rol o'ynagan.

Elat (xalq – norodnosti) – yagona hudud, til madaniyat, xo'jalik hayoti va turmush miqyosida qabilaviy munosabatlarning buzulishi natijasida yuzaga kelgan kishilar uyush masi. Elat ijtimoiy umumiylik shakllaridan biri hisoblanadi, tarixan urug' qabila birlashmalaridan kelib chiqadi va ulardan muayyan majmua bo'lib ajraladi. Agar urug'

qabilachilik xususiyatlari ularning qon-qarindoshlik aloqalarining mohiyatli belgisi bo'lsa, bunda millat uchun rivojlangan iqtisodiy makon xosdir. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan elatga avvalo quldorlik va feodalizm xosdir, shu bilan birga u biror shakldagi milliy davlatchilik tuzilmasini barpo etadi. Lekin elat ijtimoiy rivojlanishining keyingi bosqichlarida ham mavjud bo'ladi, chunki bir qator sabablarga ko'ra u millat bo'lib shakllana olmaydi.

Elat- tarixiy birligi tabaqalangan jamiyatning barcha davrlarda Er yuzining turli mintaqalarida boshqa etnik birliklar bilan bir qatorda mavjud bo'lib kelgan. Shuni hisobga olish kerakki, "elat" va "millat" atamalarining ayni bir vaqtda mavjud bo'lishi yana bir-birini to'ldirib borishi haqida tasavvur beradi.

Adabiyotlarda "**etnik guruh**" atamasi ham uchraydi, uni ba'zan etnik guruhning qandaydir bir o'tish shakli deb qarashadi. Ko'pincha bu atama tarix maydonidan tushib ketgan birliklarni tariflash uchun qo'llanadi.

Umumiy ilmiy atamalarning katta guruhi etnografiya tomonidan etnik tarixga, jahon madaniyati tarixi muammolariga nisbatan ishlatiladi. Ulardan ko'plari biologiya, sotsiologiyadan olingan.

Hozirgi zamon siyosiy matbuotidan etnografik adabiyotga "**treybalizm**", "**traybalizm**" atamaları ham kirib kelgan (inglizcha tribe-qabila ma'nosini bildiradi), u Afrika va Osiyodagi yosh davlatlarda mavjud bo'lgan etnik vaziyatni tavsiflab beradi. U joylarda mustamlaka rejimi davrida mavjud bo'lgan qabilaviy alohidalik hozirgi vaqtda ham saqlanib qolgan. Treybalizm birlashish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda qabilalar o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqaradi. Siyosiy matbuotda treybalizm atamasi millatchilikning sinonimi sifatida foydalaniladi.

XX asrning ikkinchi yarmi etnografiya uchun ibtidoiy jamiyat tarixining eng muhim muammolariga taalluqli munozaralar xarakterlidir. Davrlarga bo'linish muammolari ijtimoiy yacheykani tariflash, matriarxat-ona urug'ining tutgan o'rni xususidagi munozaralar shular jumlasidan.

Endogamiya (yunoncha ichki nikoh ma'nosini bildiradi) – bu qabilaning faqat birinchi etnik birligi sifatida muhim belgisi bo'lib qolmay, shu bilan birga ibtidoiy davrdagi ijtimoiy tashkilotning oliy shakli sifatida ham muhimdir.

Endokannibalizm (yunon-ispn) – ichki odamxo'rlik, o'lgan qarindoshlar, urug'-qabila yo'l boshchilarining go'shtini iste'mol qilish.

Epigamiya (yunoncha aralash nikoh) - D.A.Olderogge ekzogamiyadan oldin majburiy xayrixoh nikoh shakli mavjud bo'lganligini aytib, uni **epigamiya** (yunoncha aralash nikoh) deb atagan. Epigamiya D.A.Olderoggening fikricha, ikkita ibtidoiy guruh o'rtasida o'zaro yordam va himoya munosabatlarini o'rnatgan. Shuningdek ular o'rtasida o'zaro nikohlar majburiyatini yo'lga qo'ygan. Bu o'zining tabiiy natijasi sifatida **ekzogamiyadan** (o'z guruhida nikohlarni ta'qiqlash), shuningdek **endogamiyadan** (ikkita yoki undan ko'proq do'stona guruhlar doirasida nikoh majburiyatlari) jiborat bo'lgan.

Etnik guruh - til, madaniyat, din, turmushga xos eng ahamiyatli jihatlarni saqlagan elat yoki millatning o'ziga xoslangan qismi. Unday guruhga milliy-etnik, diniy-jamoaviy, til, madaniy-maishiy belgilarga ko'ra o'ziga xoslanib subetnik, etnokonfessiya, etnolingvistik jamoalarni tashkil qiladi, bular keyinchalik muayyan etnosiyosiy mavqeytni davo qila boshlaydi.

Jahon tajribasidan ko'rinadiki, etnik ozchilikning mavqei, tutgan o'rniga ijtimoiy-siyosiy turmushning barqarorligiga bog'liq ekan. Barqaror bo'lmagan vaziyatlarda ko'proq o'z huquqlarini ta'minlashga ko'proq ishonch bo'lishiga muhtoj etnik guruhlar o'zlarini noqulay sezadi, chunki bular o'ziga xos madaniyatlarini yo'qotish xavfi, kamsitilish va xo'rlanish xavfi ostida bo'ladi.

Etnoslararo munosabat barcha qolgan turlar bilan tarixan irga kechayotgan guruhlararo munosabat turi hisoblanadi. U insoniyat o'tmishi bilan chuqur bog'liq, shu bilan birga ijtimoiy hayotni tashkil etishning ruhiy qonuniyatlariga taloqador, ular qadim antropogenez

vaqtida tug'ilgan birinchi galda etnik guruhga mansublik belgisi bo'yicha "biz" – "ular" qarama-qarshiligi osha rivojlanadi.

Etnik jarayonlar – etnosdagi uning istalgan komponentining o'zgarishi: madaniyat, til, ijtimoiy tuzilma va hakoza ayrim unsurlarining o'zgarishi. Etnik jarayonlar orasida etnoevolyutsiya va etnotransformatsiyani alohida ajratish mumkin. Birinchi holda etnik tizimning ayrim komponentlari o'zgarishi yuz beradi, bu hol umuman tizimning parchalanishiga olib kelmaydi, u ilgari qanday bo'lsa, uning saqlanib qolishini ta'minlaydi, ko'pincha tizim yangi holatga o'tadi. Shunday qilib etnoevolyutsiya jarayoni avvalo barcha etnik o'z o'zini saqlab qoluvchi jarayon bo'lsa, etnotransformatsiyada buning aksi yuz beradi – barchasi o'zgaradi.

Etnik konstruktivizm - millat, etnoslarni qandaydir intellektual konstruktsiya sifatida belgilovchi metodologik yondashish. Bunday yondashish asosan K.Poppning "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" (1945 yil) kitobidagi g'oyasiga asoslanadi. "Millatlar, lingvistik yoki irqiy guruhlar kabi unsurlarning mavjud bo'lishi to'g'risidagi fikr sof uydirmadir". Ingliz tadqiqotchisi B.Anderson "Tasavvurdagi jamiyat, Millatchilikning kelib chiqishi va tarqalishi haqidagi o'ylar" kitobida millatlarni tasavvurdagi jamoaviy fikr deb ataydi, chunki ularning o'zi esa insonlar xayolidagi qandaydir sherikchilik tarzida mavjuddir. E.Xobsbaum millatlarning sun'iy ekanligini ta'kidlab, ularni davlat tomonidan ochilgan kashfiyot, o'ziga xos ixtiro deb hisoblaydi. Etnolog Tishkov millatni guruh ichidagi definatsiya deb hisoblaydi, unga "qat'iy ilmiy yoki konstruktsiyaviy shakl berish mumkin emas".

Konstruktiv yondashish etnologlar uchun samarasizdir, chunki uning predmetini aniqlik chegarasidan chetga chiqaradi, uni fikriy hodisaga aylantiradi, unga noreallik, diniy tavsif bag'ishlaydi.

Etnikos(yunon) – xalqchil, xalq tomonidan yaratilgan.

Etnogenez(yunon –tug'ilish) – xalqlarning kelib chiqishi. Etnogenez etnoslar mavjudligining sezilarli qismini qamrab oladi, ham bir xalqning yuzaga kelishi boshlang'ich bosqichlari va ham uning etnografik-lingvistik va antropologik jihatdan o'ziga xos tarzda keyingi rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Etnografiya(yunon) – etnos – xalq, grafo-ta'riflash, xalqni ta'riflayman.

Etnografizm – biror manba(masalan kitob)da etnografik o'ziga xosliklarning mavjudligi, tavsiflar, tafsilotlar.

Etnojug'rofiya – etnografiya qismi bo'lib, o'tmishda va hozirdagi etnoslar tarqalishining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi.

Etnoijtimoiy – etnik va ijtimoiy omillarning shartli uyg'unlashishi.

Etnokratizm – keng ma'noda milliy masalani ijtimoiy rivojlanishning boshqa barcha muammolari ichida ustuvor ekanligini anglatadi, tor ma'noda bir yoki bir necha milliy guruhning boshqalari ustidan hukmronligini bildiradi.

Etnolingvistika – xalq, qabila ruhiy, etnik va hokazolarni o'ziga xosliklarini tadqiq etuvchi, ular til tizimini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi.

Etnologiya(yunon-tushuncha, ta'limot plyus xalq) – etnografiyaga yaqin bo'lgan tushuncha, lekin undan farqli o'laroq xalqlar madaniyatining rivojlanishi, umumlashtiruvchi ilmiy sohadan iboratdir. Bunda etnografiya avvalo tavsifiy fan sanaladi, shu bilan birga umumlashtirishning muayyan darajasini inkor etmaydi. Turli mamlakatlarda bu fan turlicha nomlanadi. Uni ko'pincha etnoslar haqidagi fan, aholishunoslik, ijtimoiy antropologiya va hokazo tarzda nomlaydilar.

Etnomartinal shaxs – ikki millat yoki elat orasidagi o'tish holati, olraliq holatini egallovchi shaxs. Bu chegaraviy vaziyat bo'lib, turli madaniyatlarning bir-biriga ta'siri ostida individ shakllanadi. Etnomartinal shaxs ikkilanganlik, ichki qarama-qarshilik ta'siri ostida bo'ladi.

Etnonim(yunon) – xalqlarning nomini anglatuvchi atama.

Etnonimika -xalq, elat, qabila va hokazolar nomini o'rganuvchi anomastikaning bo'limi.

Etnopsixologiya – muayyan xalq, qabila ruhiy tarzini o'rganuvchi psixologiyaning bir yo'nalishi.

Etnopolitologiya- etnik va siyosiy hayot o'zaro bog'liqligi haqidagi fan.

Etnos (yunon)- xalq.

Etnos chegarasi – turli to'siqlar – tabiiy (tog', o'rmon, sahro, dengiz va b.) tabiiy to'siqlar tufayli yuzaga keladigan etnoslar shrtasidagi had, turar joyga borishning qiyinligi (baland tog'likva h. k.), ietimoiy aloqalarning muayyan turlariga qat'iy cheklovlar va ta'qiqlar, tarqalish shakli.

Etnosiyosiy uyg'unlashish- (lotincha Consolido - mustahkamlayman) –etnos, etnik tashkilotning umumiy- siyosiy va ijtimoiy maqsadlar uchun kurashini kuchaytirish maqsadida ayrim guruhlarning birlashishi, mustahkamlanishi, qo'shilishi, jipslashishi. Etnosiyosiy uyg'unlashish asosida etnoslar aloqasining rivojlanishi jarayoni kuchayadi, shuningdek, etnoslar o'rtasida yirik etnik guruhlar shakllanadi.

Etnocotsiologiya - cotsiologiya va etnografiyaning bir-biriga aloqadorlik jihatlari tufayli yuzaga kelgan ilmiy yo'nalish chegaradosh bilim sohasi. Uning yuzaga kelishiga sanoati rivojlangan mamlakatlardagi etnografiya fanining tadqiqot ob'ekti o'zgarganligi sabab bo'ladi, bu mamlakatlarda ijtimoiy hodisalarning milliy jihatdan ko'payganligiva milliy jarayonlar ijtimoiy differentsiyasi murakkablashganligi tufayli ularni an'anaviy etnografiya usullari bilan etarlicha o'rganish mumkin bo'lmay qoladi.

Etnofor (xalq, eltuvchi)- muayyan millat, elat va qabilaning etnik xususiyatlarini eltuvchi vazifasini bajaruvchi inson. Har bir shaxs madaniyatini o'zi bilan eltadi, ya'ni atrofdagilarga uning xulq-atvori, nutqi, turmushi, an'alarining e'tiborli jihatlari namoyon qiladi.

Etnotsentrizm – (yunon- guruh, qabila, xalq) –qandaydir etalon yoki optimum sifatida namoyon bo'luvchi etnik guruhlar an'analari va o'z qadriyatlari orqali hayot hodisalarini idroklash va baholashdagi etnik idroklashga xos xususiyat.

Qabila (plemya) – endogamiyani amalga oshira borib, oliy makrastrukturadan iborat bo'ldi, u ishlab chiqarishning ikki turi bo'yicha qabila ichida doimiy aloqada bo'lgan endogamiya tufayli urug'ning mikrostrukturasi ham etnik jihatdan, ham xo'jalik jihatidan birlashtiradi. **Qishloq jamoasi** (obhinas) ning an'analari sovetlar davridan oldingi rus qishlog'i uchun xos narsa edi. Chunki bunday jamoaga o'xshash ijtimoiy tuzilmalar haqiqatda nafaqat dehqonlar va qishloq aholisi o'rtasida, balki barcha xalqlarda ham mavjud edi. Shuning uchun ham sovet davri etnografiyasida "qishloq jamoasi" atamasiga o'xshash qo'shnilar jamoasi (bunday begona urug'larning yonma-yon hududiy aloqalari ko'zda tutilgan), ko'chmanchi jamoa (chorvadorlar uchun), **qishloq jamoasi, ovul jamoasi, ayil jamoasi (qishloq, ovul, ayil nomidan olingan)** atamaları paydo bo'ladi.

Qabilalar ittifoqi (soyuz plemen) –urug' yoki qo'shni qabilalarning vaqtincha uyushmasi bo'lib, u avvalo dushman hujumini qaytarish uchun tashkil topgan. Ba'zi hollarda mudofaa maqsadlarida vujudga kelgan qabilalar ittifoqi o'z faoliyatini davom ettirdi, lekin endi ijtimoiy-itqtisodiy manfaatlar yo'lida ular tarkibida mavjud bo'ldi. Odatda harbiy xavf- xatar bartaraf etilgach, ittifoqlar tarqalib ketgan.

Qabilalar siyosiy uyushma xususiyatlariga ega bo'lib, unga birlashgan qabilalarning mavqeiga qarab ichki ierarxiya printsipligiga bo'ysingan harbiy demokratiya davri nomini oldi. Bu vaqtda oddiy saylab qo'yiladigan yo'lbo'shchi bilan bir qatorda qabila a'zolari yoki qabilalar kengashi tomonidan demokratik yo'l bilan saylanadigan harbiy boshliqlarning ijtimoiy roli ortib boradi. Bu ittifoqlarni davlatning nishonalari (darakchilari), harbiy yo'lbo'shchilari esa qirol, knyaz hokimiyatining ilk bosqichidagi ko'rinishi deb hisoblash mumkin edi.

Qabila kengashi (sovet plemen ili plemennoy sovet)- xo'jalik ishlarini yoki urug'lararo munosabatlarni hal qilish va qabila uchun oqsoqollarining vaziyat talabi bilan bshlib turadigan yihilishlari, shuningdek favqulodda sabablar (urush, ko'chish, tabiiy ofat va shu kabilar) bo'yicha qabilaning barcha ijtimoiy huquqli barcha a'zolarining umumiy yig'ilishi.

Qariya (starets) – urug'dagi katta avlodning hurmatli vakili, urug' an'alarini saqlovchi va uni talqin etuvchi. **Oqsoqol** (stareyshina)- urug'ning saylab qo'yiladigan boshlig'i bo'lib, ko'pincha diniy va dunyoviy vazifalarni birga qo'shib olib borgan. Oqsoqol urug' an'alariva urf-odatlariga qat'iy rioya etilishini kuzatib boradi, uruh va qabilalarning manfaatlarini himoya qiladi.

Yo'l boshchi (vojd) - qabiladagi yoki qabilalar ittifoqidagi saylab qo'yiladigan oliy shaxs. Qabila yo'l boshchisining vazifasi – xo'jalik ishlariga rahbarlik qilish, urug'lar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, tashqarida qabila manfaatlarini himoya etish, harbiy ishga rahbarlik qilishdir. Odatda harbiy demokratiya davrida qabila yo'l boshchisining dunyoviy va harbiy vazifalari saylab qo'yilgan ikkita teng huquqli yo'l boshchi o'rtasida taqsimlangan. Shuni yana bir karra ta'kidlash kerakki, yo'l boshchi dunyoviy hokimiyatga, oqsoqol esa ham dunyoviy, ham diniy hokimiyatga boshchilik qilgan, bu hech bo'lmaganda urug' jamoasida kohinlar yoki shamanlarining alohida tabaqasi paydo bo'lmaguncha davom etgan. Ba'zan ibtidoiy jamiyat oldingi jamiyatda yo'l boshchilar qabila xususiyatini urug'chilik xususiyatlari bilan uzviy bog'lab ish ko'rganlar. Zero, qabila ittifoqlari tarkibida urug'chilik munosabatlarining an'anaviy ta'siri parallel holda yashovchi hodisadir.

